

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI
AKADEMIYASI
MILLIY IFTIXOR VA HARBIY VATANPARVARLIK KAFEDRASI



JADIDLAR MEROSINING BUGUNGI YOSHLARGA TA'LIM-
TARBIYA BERISHDAGI AHAMIYATI

*Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
to'plami 2024-yil 23-may*



Toshkent-2024

UO'K 355.48(063)

KBK 68.3

“Jadidlar merosining bugungi yoshlarga ta’lim-tarbiya berishdagi ahamiyati”: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, – Toshkent: O‘R QK Akademiyasi, 2024. – 262 b.

Mas’ul muharrir: Madraximova G.S., tarix fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay’ati:

Xudoyberganov Q.B. Harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimov Sh.Q. tarix fanlari nomzodi, professor

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida yuqori malakali, vatanparvar, ma’nan yetuk va ruhan chidamli harbiy va harbiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, ta’lim oluvchilarga milliy va jangovar ruhni singdirish orqali ularda kuchli harbiy vatanparvarlik va burchga sadoqat tuyg‘usini shakllantirishga, harbiy ilm-fanni rivojlantirishga va Akademiyaning nufuzini oshishiga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-359 m-son qarori talablari ijrosini sifatli amalga oshirish hamda harbiy xizmatchilarni tayyorlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasini tomonidan joriy yil 23-mayda “Jadidlar merosining bugungi yoshlarga ta’lim-tarbiya berishdagi ahamiyati” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyada harbiy xizmatchilarda milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish usullari, Buyuk ma’rifatparvar jadid bobolarimizning g‘oyalari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan hamohangligi, jadidlarning milliy davlatchilikka qo‘shgan hissasini, ular tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar ilmiy tahlil qilingan. To‘plamga kiritilgan materiallardan oliy harbiy ta’lim muassasalari tinglovchilari, doktorontlar, kursant hamda professor-o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin.

O‘R QK Akademiyasining 2024 – yilga mo‘ljallangan ilmiy ishlar va innovatsiyalar rejasiga asosan to‘plam chop etilgan.

To‘plam O‘R QK Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasini 2024-yil 23- mayda o‘tkazilgan yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 7)

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi ma’lumotlar hamda berilgan fikr-mulohazalarga muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

© O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2024



**JADIDCHILIK HARAKATINING O'ZBEK MILLIY MA'NAVIY
TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI**
(*M. Behbudiy, A. Avloniylar faoliyati misolida*).

Xudayberganov Q.B.,
*O'R QK Akademiyasi Milliy iftixor va
harbiy vatanparvarlik kafedrasida boshlig'i,
polkovnik, HFFD (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxirida tarix sahnasiga kelgan jadidlar xalq va millatning hayoti va kelajagi uchun tinmay zahmat chekkan fidoiy va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqib, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar shuningdek, milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkinligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jadid, ta'lim, tarbiya, diniy bilim, dunyoviy bilim, jaholat, fidoiy, millat, uyg'onish davri, milliy, manqurt, ma'rifat.

Аннотация: В этой статье джадиды, вышедшие на историческую арену в конце XIX века, посвятили свою жизнь идее национального пробуждения, мобилизовали все свои силы и возможности, чтобы спасти наш народ от болота невежества. Утверждается также, что национальная независимость, развитие и просветание могут быть достигнуты, прежде всего, за счет просвещения, светских и религиозных знаний и глубокого владения современными науками.

Ключевые слова: джадид, образование, воспитание, религиозное знание, светское знание, невежество, преданность, натсия, ренессанс, национальный, манкурт, просвещение

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arboblari, milliy-ozodlik kurashi, milliy uyg'onishda ma'naviy kuch-quvvat va ilhom manbai bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, milliy demokratik harakat-jadidchilik va uning yirik namoyandalari Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniylarning xizmatlari beqiyosdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi,

noshir, jurnalist. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirdigan, imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rusiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotda boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

Turkistonda «Usuli jadid», «Usuli savtiya» nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, shular birinchi bo'lib zamonaviy maktab g'oyasini ilgari surdilar. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqlga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar. Rusiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining sha'nu shavkatini himoya qildilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar.



Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi edi. U 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785 - 1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi.

Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzolik qila boshlaydi. O'z ustida qunt bilan ishlab, shariatning yuksak maqomlari - qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. Yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiyning xizmati katta bo'lgan. U 1892 yilda Turkistondagi

maktablarni isloh qilish, «usuli savtiya» ni joriy etish taklifi bilan general-gubernator N. O. Rozenbaxga murojaat etadi. Javob olmagach, 1893 yilda o'zi Toshkentga keldi. Samarqand, Buxoroda bo'ldi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarni ochishga muvaffaq bo'ldi. Behbudiy o'z xotiralarida ustozini bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi.

1899 - 1900 yillarda Behbudiy haj safariga boradi. Dunyo ko'rish izzsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g'ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topdi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobatul-atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.

1903 - 1904 yillarda Maskov, Peterburgga boradi, 1907 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novogorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan: Nijniy Novogorodda 1907 yilning 23 avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyi chaqiriladi. Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq kerak. Millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq lozim. Millat uchun oyna kerak, toki undan o'z qabohatini ham malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuotga boshladi. «Padarkush» dramasi shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi. «Padarkush» dramasi 1913 yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildiga «Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi» degan yozuv bilan Tiflis senzurasidan ruxsat olinadi. Bosilib chiqqandan keyin ham sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketadi.

«Padarkush» - o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasi. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmunga ko'ra yangi o'zbek

adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan 3 parda 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n edi. O'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib o'z otasining o'ldirgani, nodonlik va jaholat haqida edi. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914 yilning 15 yanvarida sahnaga qo'yildi. Spektakl o'z maishatiga o'ralib, dunyoni unutgan millatdoshlarga chakmoqdek ta'sir etdi. U Toshkentda 1914 yilning 27 fevralida qo'yildi.

Avloniyning «Turon» gruppasi Kolizey (Hozirgi savdo birjasi binosi) da o'z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlagan edi. Spektakl boshlanish oldidan Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o'rni haqida nutq so'zlaydi. Bosh rolni A. Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun» deb yozadi. «Turon» gruppasi 1914 - 1916 yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chikdi. Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bu bir tomondan millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda katta ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning 1913 yillarda chiqqan «Padarkush» pesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim, degan e'tirofini eslash kifoya. 1916 yilda Toshkentga kelib Kolizeyda «Turon» ning qator spektakllarini ko'rgan A. N. Samaylovich yozadi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi – Samarqand. Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiydir».

1913 yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullandi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqara boshladi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 45-soni chiqib, moddiy tanqislik tufayli to'xtagan. So'ng Behbudiy shu yilning 30 avgustidan «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. «Haftalik, suratlik bu majalla, asosan, o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'r, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib boriladi...

Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi...» deb yozgan edi Ziyoy Said.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. A. V. Pyaskovskiy uning o'z bosmaxonasida Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini 1913 yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etganini xabar beradi.

1914 yilning 29 mayida Behbudiy ikkinchi bor arab mamlakatlariga sayohatga o'tlanadi. Poezdga o'tirib Bayramali orqali Ashxobodga o'tadi. Krasnovodskdan paraxod bilan Bokuga boradi. 2 iyunda Mineralные воды-Kislovodsk-Pyatigorsk, Jeleznovodsk-Rostov-Odessani kezib, 8 iyunda Istambulga kirib keladi. Kichik sayohatdan so'ng Istambulga qaytib, 21 iyunda suv yo'li bilan Quddusga yo'l oladi. Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port Said, Shom shaharlarini tamosha qiladi... Sayohat xotiralari har jihatdan g'oyat muhim bo'lib, Behbudiy ularni o'z jurnali «Oyna» ning 1914 yil sonlarida mazkur nom ostida peshma-pesh berib boradi. Bu «Xotiralar» ham ma'rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim. U adabiyotimizdagi an'anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasi.

«Oyna» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqi, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turdi. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Jurnalning 1913 yil 13 avgust birinchi-nishona sonidayoq «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu sohaning xos-xususiyatlarini ta'kidlab adabiyotda tenghuquqlilik masalasini o'rta qo'ydi. Maqola «Tanqid saralamoqdur» (1914 y. 27-son) deb nomlangan edi. Adibning barcha tarixiy-ilmiy mavzudagi maqolalari o'tmishga kamoli ehtirom va e'tiqod bilan yozilgan. Behbudiy millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo'ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e'tibor berdi.

Umuman Behbudiyning publitsist sifatida faoliyati adib iste'dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Ba'zilar uning maqolalari 200, boshqalar 300 deb belgilaydilar. Uning barcha maqolalari aniqlab chiqilmagan. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avval, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan, uning 1906 yil 10 oktyabrda «Xurshid» (6-son) gazetasida bosilgan «Xayrul umuri avsotuhu» («Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir») maqolasi diqqatga sazovordir. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiy qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o'sha 1906 yildayoq sotsialistik ta'limotni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog'lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan edi. U ham ustozlari I. Gasprinskiy kabi sotsializmni zo'rovonlik hisoblaydi, sotsial tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko'rdi. Xuddi shu e'tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi.

Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917 yilning 16-23 aprelida Behbudiy Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan qurultoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

Shu yilning 26 noyabrida Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27 noyabrga o'tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shuhbasiz, Behbudiy edi. Biroq u Sovetlar tomonidan xoinona bostirildi. 19-20 fevral kunlari shahar to'pga tutildi. 10 ming turkistonlik o'ldirildi, 180 qishloqqa o't qo'yildi.

Behbudiy iztirob bilan Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi. Tabiiyki, muzokaralar natija bermaydi. Millatni, milliy taraqqiyotni inkor

etgan sho'rolar yo'li aldov va zo'ravonlikka asoslanganini bilardi. Shuning uchun ham uni 1906 yildayoq aql va shariatga zid deb e'lon qilgan edi.

Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919 yilning bahorida, 25 martda parishon holda yo'lga chiqadi va Shahrisabzda qo'lga olinib, taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlandi. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan zindon yakindagi «podsholik chorbog'i» da o'ldirilgan. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ldi. 1920 yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

1926 - 27 yillarda, 11 yil Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. Adibning nomini adabiy lashtirilishi shunchaki bir niqob edi, uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926 yildayoq jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'raviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

Abdulla Avloniy milliy madaniyat, ilm- ma'rifatning buyuk namoyandasi.



Abdulla Avloniy.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. U 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. Bolaligi Mirobod mahallasining egri-bugri ko'chalarida, ko'pchilik qismini ruslar tashkil qilgan temir yo'l ishchilari bolalari orasida kechdi. O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qidi (1885–1886). Mustaqil mutolaa bilan shug'ullandi. Arab, fors, rus tillarini o'rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflida chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma'rifatparvar sifatida tanildi va o'lkadagi ijgimoiy-madaniy

harakatchilikning faol namoyandalardan biriga aylandi. XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so'ngroq Degrezliqda (1903-14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi.

1909 yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi "Jamiyati xayriya" ochib, yetim bolalarni o'qitdi. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr qildirdi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jaev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan sheriklikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908), "Turon" (1917) gazetalari chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetasi "Ishtirokiyun"ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi. Usovet davrida turli mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qildi, qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanib keldi, bilim yurtlarida, oliy maktablarda o'qituvchilik qildi. 1930–34 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi ToshDU) kafedrani boshqardi. U 1934 yilda vafot etdi.

Avloniy 1927 yilda Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Avloniy 30 yildan ortiqroq ijod qildi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarining, so'ng inqilobiy talotumlaru milliy-ozodlik kurashlarining guvohi bo'ldi. O'tgan davr ichida, o'zi ta'kidlaganidek, "o'nlab she'r va maktab kitoblari, to'rt teatr kitobi" qoldirdi. Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardandir.

Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi. Adib bu maktablar uchun

darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun “Birinci muallim”i (1911) Oktyabr o‘zgarishigacha 4 marta, “Alifbedan so‘nggi o‘quv kitobi” – “Ikkinchi muallim” (1912) 3 marta kayta nashr etilgan. Axloqiy didaktik mazmundagi “Turkiy Guliston yoxud axloq” darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmok, yashartmok kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she‘r, hikoyalar va maqolalar yozgan. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tdi. U adabiyotga g‘oyaviy kurashlar g‘oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkilanmasdan ma‘rifat va taraqqiyot uchun kurashishini maslak etib qabul qildi. Shoir she‘riyati bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy she‘r yo‘q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g‘amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. O‘z ona diyorini bamisoli “yor kabi sevadi”. Butun mehrini shunga bag‘ishlaydi. Asrimiz boshlari Turkiston takdirida g‘oyat mas‘uliyatli bo‘lgan, uning hayot mamot masalasi hal qilinayotgan bir payt edi. Buni Avloniy davrning peshqadam ziyolisi, yirik ma‘rifatparvar, jadidlar ta‘limotining faol tarafdori sifatida tezda ilg‘ab oldi.

Dastlabki poetik asarlari “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” (I, II, III, IV juzlar), “Maktab gulistoni” (1916), “Mardikorlar ashulasi” (1917) kitoblarida va “Sabzavor” tazkirasi (1914) hamda vaqtlı matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda

ilm-ma'rifat targ'ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she'rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo'llagan. Milliy kuylarga moslab she'rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u mardikorlik she'riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan bo'ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi "Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari", "Afsus" kabi she'rlar yozdi. Ona yurtdan uzoq shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritdi. Bu she'rlarning ohang va uslubi xalq qo'shiqlariga g'oyat yaqin bo'lib, ular xalqimizning milliy uyg'onishida muhim o'rin tutdi.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi ("Qutuldik", "Yotma" she'rlari). Oktyabrga bag'ishlab "Hurriyat marshi" (1919), "Ishchilar qulog'iga" kabi she'rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug'ladi. Lekin ko'p o'tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g'amgin tushkun ohanglarning paydo bo'lishiga olib keldi ("Haftalik soatda" 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she'rlar yozdi. 1919–20 yilgi Afg'oniston safariga doir "Afg'on sayohati" kundaliklari esa mamlakatimizning yon qo'shnimiz bilan o'zaro do'stlik, totuvlik aloqalarining o'rnatilishi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Avloniy o'zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913 yilda "Turkiston" teatr truppasini tuzdi. "Turkiston" o'zining qat'iy nizomini ham e'lon qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g'oyaviy-badiiy rahbari ham Avloniy edi. Truppa "Zaharli hayot" (Hamza), "Baxtsiz kuyov (A. Qodiriy) kabi XX asr boshlari o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirgan, teatr ozarbayjon dramaturglari asarlari ("Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "O'liklar", "Joy

ijaraga olgan kishi”, “Man o‘lmisham”, “Layli va Majnun”, “Asli va Qaram”) ni o‘zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo‘ygan. Avloniyning o‘zi Mallu (“Layli va Majnun”), Fayziboy (“Baxtsiz kuyov”), Aliboy (“To‘y”), Boy (“Padarkush”) rollarini ijro etgan.

Avloniy “Advokatlik osonmi?” (1914), “Pinak” (1915) komediyalari, 1914–17 yillarda yozgan “Biz va Siz”, “Portugaliya inkilobi”, “Ikki sevgi” kabi fojeaviy asarlari bilan o‘zbek dramaturgiyasining maydonga kelishi va teatrchilikning xalq orasiga tomir otishiga muhim hissa qo‘shdi. Advokat Davronbek orqali Turkistondagi huquqsizlik, dunyodan xabarsizlikni fosh etdi. “Advokatlik osonmi?” degan asarida bir qator ko‘knori va qimorbozlar obrazini yaratib, ma’naviy turmushning tuban bir holga kelib qolganini ko‘rsatdi. Monarxiyaga qarshi kurash, bayrog‘i ostida kechgan 1910 yilgi Portugaliya inqilobi, 1909 yili Turkiyada yuz bergan “Yosh turklar” inqilobi (“Ikki sevgi”) haqida yozib, adabiyotimizda mavzu va g‘oyalar ko‘lamini kengaytirdi. “Biz va Siz” da esa XX asr boshidagi Turkistonning eskilik va yangilik borasidagi kurashini aniq taqdirlar misolida yoritib berdi.

Avloniy asosiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul yillari 1917 yildagi Oktyabr to‘ntarishiga kadar bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Avloniy ijodi 60-yillarning oxiridan o‘rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblar holida chop etilgan.

Jadidchilik harakati hozir haqiqat nuqtai nazaridan qayta tiklanayotgan ona tariximizdagi «oq» va «qora» dog‘larning tugatilishiga katta hissa qo‘shdilar.

Bugun Behbudiy, Avloniy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo‘ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo‘lida fido bo‘lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–Toshkent., 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent. “O‘zbekiston” 2018 yil. 591 bet

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. "O'zbekiston" 2017 y. 103 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. Toshkent. "O'zbekiston" 2018 yil. 78 bet
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-Toshkent., 2005.
6. O'zbekiston yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob. – Toshkent., 2000. 3–90 b.
7. O'zbekiston yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob. – Toshkent., 2000. 3–90 - betlar.
8. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Toshkent., 2005, 187-213 b.
9. Inoyatov. I. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2012.
10. Bababekov X.N. Istoriya zavoevaniya Sredney Azii sarskoy Rossiey v sekretnix dokumentax. – Tashkent., 2006 – str. 20–45.
15. Ergashev Q., Xamidov X. O'zbekiston tarixi. Toshkent, G'ofur G'ulom. 2015. 9-51 b.

JADIDLARNING MA'RIFAT VA DAVLATCHILIK TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Agzamxodjaev S.S.,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA" kafedrasida
professori, tarix fanlari doktori*

Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo'lni bosib o'tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo'llari haqidagi turli qarashlarning to'qnashuv maydoni ham bo'ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab yo'lda shakllanib yetildi.

Jadidchilik jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlarga asoslangan oqim bo'lib, Markaziy Osiyo mahalliy tub aholisi manfaatlariga javob bergan va ijtimoiy taraqqiyotning pishib yetilgan ehtiyojlarini to'la qondira oladigan harakat sifatida

shakllandi. Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Jadidchilik o'z tarixida ikki bosqichni o'tgan.

Birinchisi – ma'rifatparvarlik bosqichi va ikkinchisi – siyosiy bosqich. Lekin jadidlarning davlatchilik masalasiga qarashlari birinchi davrdanoq shakllana boshlangan va ikkinchi bosqichda aniq bir shaklga kelgan desa bo'ladi.

Ikki yoqlama mustamlakachilik va mahalliy zulm ostida ezilib kelgan xalq ommasining og'ir iqtisodiy ahvoli, Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklarining jahonning iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlaridan anchagina orqada qolib ketganligi, madaniy tanazzul hamda erkin fikrning qotib rivoj topmayatganligi kabi holatlar jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot choralarini izlab topishga undadi.

Turkistonda jadidchilik harakatining rahbarlari sanalgan Mahmudxo'ja Behbudi, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Isxoqxon to'ra Ibrat, Ashurali Zohiriy va boshqalar birlashtiruvchi va jiplashtiruvchi rolni o'ynashgan. Buxoroda – Fayzulla Xo'jaev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa – Polvonniyoz Yusupov bu harakatga boshchilik qilishgan.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma'naviy barkamollikka yetishda dinni to'g'ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg'or demokratik institutlarni bunyod qilish, o'ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg'or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi.

Jadidchilikning g'oyaviy rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududidagi jamiyatlarda ma'rifatparvarlik va islohatlar o'tkazish davri.

2. XX asr birinchi yarmida jamiyatda yangilanish uchun harakatlarining mafkurasi shakllanish davri.
3. 1905-1907 yillar – birinchi Rossiya inqilobi davri.
4. 1908 yilda Turkiyadagi yosh turklar inqilobi va 1909-1911 yillarda Erondagi konstitutsiyani qabul qilish uchun harakatning ta'siri.
5. 1908-1917 yillar – Rossiyadagi inqiloblar orasidagi davr.
6. 1917 yil Fevral va Oktyabr oylari oralig'idagi inqilobiy voqealar.
7. Sovet davri.

Jadidlarning xalqaro aloqa va munosabatlari ularga Rossiya, Turkiya, Misr, Eron jadidlarining dasturi bilan tanishish imkonini berdi. Lekin Turkiyadagi yosh turklar va Eron taraqqiyparvarlari tajribalarini Turkiston jadidlari mexanik tarzda va o'sha qolipda o'zlashtirib olmadilar. Aksincha jadidlar Yevropa va Sharq mamlakatlarining davlat qurilishi va qonun chiqaruvchilik keng tajribalaridan, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi demokratik harakatlar kurashi usullari va dasturlaridan manfaatlariga hamohang bo'lgan va keladigan zarur o'rinlarni oldilar.

1914 yilda boshlangan birinchi jahon urushi jadidlarning fikrlarini ancha siyosiy lashtirdi. Bu vaqtga kelib ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida yozdilar, fuqarolarning davlat organlarining shakllantirishda qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki yo'llari va usullarini ishlab chiqishga urindilar.

1917 yilda fevral oyida Rossiyada sodir bo'lgan demokratik inqilobga qadar taraqqiyparvarlar oqimini tashkil qilgan Turkiston jadidlarining keskin harakat qiluvchi qismi bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surdi. Bu talablar orasida mahalliy tub aholi huquqlarini kengaytirilishini ko'zda tutgan holda o'lkani idora etishni tubdan isloh qilish, turkistonliklarga muayyan miqdorda Davlat Dumasidan o'rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta'min etish va eng avvalo milliy matbuot erkinligiga erishish, chor yakkahokimligi tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabi talablar o'rin olgan edi.

Fevral demokratik inqilobi natijasida o'rnatilgan yangi davlat tuzumidan so'ng jadidlar Rossiya Federativ davlati tarkibida Turkiston muxtoriyati, ya'ni milliy-hududiy avtonomiyani tashkil etish masalasini qo'ya boshladilar. Bu paytga kelib milliy ijtimoiy-siyosiy tashkilot va partiyalar tashkil topdi, hususan, jadidlar qudratli "Sho'roi Islomiya", "Turon", "Ittifoq" kabi tashkilotlarni tuzdilar.

Jadidlar 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» gazetalari, «Oyina» jurnalini nashrdan chiqarishgan bo'lsa, 1917 yilda esa «Ulug' Turkiston», «Hurriyat», «Kengash», «Najot», «Turon», «El bayrog'i» kabi ommaviy axborot vositalarini yaratishdi.

1917 yil davomida mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarini jadidlar o'z ortlaridan ergashtirdilar, xalq orasida, ularning ongida, fikrlarida musulmonlar birlashishlari, jipslashishlari zaruriyati hissini tug'dirdilar. Biroq, oradan ko'p o'tmay jadidlar Muvaqqat hukumat va uning maxsus tashkil etilgan Turkiston Qo'mitasi (Turkestanskiy komitet Vremennogo Pravitelstva) o'lkada oldingi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmaganligining guvohi bo'ldilar. Xususan bu holat 1917 yil noyabr oyiga rejalashtirilgan Ta'sis Majlisini chaqirish va uni tayyorlash jarayonida yuz berdi.

Muvaqqat hukumat o'zining tor, xudbin manfaatlari doirasidan chetga chiqmay, yetilgan tub masalalarni hal etishga ojizlik qildi. Natijada siyosiy tuzumda o'zgarish bo'lgani holda, muhim ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, milliy, sulh masalalari amalda yechilmay qolaverdi. Bu esa mamlakat hayotining boshi berk ko'chaga kirib, tanglik, tanazzul holatlarining kuchayib borishiga sabab bo'ldi.

Jadidlar mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqti yetib kelganini anglab, mustamlakachilikni qattiq va ayovsiz tanqid qila boshladilar. Oldingi konstitutsiyaviy monarxik tuzum g'oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy davlatchilik maqomiga ega bo'lgan milliy-hududiy avtonom respublikani talab qila boshladilar.

Jadidlarning o'sha yillardagi beqiyos xizmatlaridan yana biri barcha Turkiston xalqlari va millatlarning qonun oldida tengligi haqidagi g'oyaning ilgari surilishi bo'lib, bunga ko'ra Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy-siyosiy,

huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo'lishlari lozim edi. Davlat mustaqilligi to'g'risidagi o'zlarining g'oyalarini Turkiston jadidlari mamlakatning turli ijtimoiy kuchlari bilan kelishgan holda hayotga tatbiq etishni lozim topdilar.

Jadidlar Ta'sis Majlisidan o'rin olish uchun juda ko'p urindilar, g'ayrat qildilar, hatto bu jarayonda o'z saflarida taraqqiyparvarlar tomonidan tuzilgan "Sho'roi Islomiya" va jadidlarning konservativ qismidan tashkil topgan "Sho'roi Ulamo" kabi tashkilotlarga bo'linish yuz berganligiga qaramasdan, birlashish yo'lidan bordilar, pirovardida bu Turkiston federalistlarining "Turk Odami Markaziyati" partiyasining vujudga kelishiga olib keldi. Biroq Turkistondagi 1917 yil Oktyabr oyida bo'lib o'tgan inqilobiy voqealari, bolsheviklarning hokimiyatga kelishi jadidlarga o'z maqsad va niyatlarining amalga oshishiga imkon bermadi. Shunga qaramay, yangi bolshevistik hokimiyatning har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi haqidagi deklaratsiyasiga asoslanib, jadidlar 1917 yil 26 noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV Favqulodda qurultoyini chaqirdilar va Rossiya Federativ Demokratik Respublikasi (RFDR) tarkibida avtonomiya huquqiga asoslangan "Turkiston Muxtoriyati" nomli milliy-hududiy avtonom respublikani e'lon qildilar.

Biroq, 1918 yil 20 fevralgacha yashagan Turkiston Avtonom Respublikaning tarixi qonli sahifalardan iborat bo'lib, jadidlar ta'qib ostiga olindilar. 1937 yilga kelib jadidlarning g'oyaviy qarashlari sovet mafkurasiga to'g'ri kelmaganligi uchun ko'pchiligi qatag'onga uchradilar.

Jadidlar harakatining tariximizda tutgan o'rni va qimmatini shundaki, birinchi bo'lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldi, g'aflat uyqusida yotgan mazlum Sharqni uyg'otdi va ko'zini ochdi, ozodlik, erk, milliy g'urur va sha'n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to'g'risida jar soldi, ovoza qildi. Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatlari yana shundan iboratki, ular yetilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda evolyusion islohot yo'li asosida ishlab chiqdilar, ijtimoiy-davriy tuzum o'zgarishlarining eng maksimal effektiv yo'lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo'q qilishni talab qildilar.

Aytib o'tish kerakki, Turkiston, Buxoro va Xorazm jadidlarining yo'li bir xil bo'lmagan bo'lib har biri sharoitdan kelib chiqib, o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Lekin ularning hammalarini konseptual g'oyalari hozirgi davr buyuk o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy asoslari bo'lib xizmat qildi, keng qamrovli islohotlar yo'nalishi va bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining nasliy o'zagi sifatida maydonga keldi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA TURKISTONDA MILLIY- DAVLATCHILIK QURILISHI MASALALARI

Alimov Sh.Q.,
*O‘zbekiston Respublikasi QK
Akademiyasi MI va XV kafedrası
professori, t.f.n, dotsent*

Ключевые слова: патриот, нация, социальный, культурный, просветительский, Туркестан, современная школа, автобиография, пробуждение.

В данной научной статье раскрывается деятельность национального героя Махмудходжа Бехбуди с историческими фактами в период Возрождения в Туркестане.

Key words: patriot, of the nation, social, cultural, educational, Turkestan, modern school, autobiography, awakening.

This scientific article reveals the activities of the national hero Mahmudxo‘ja Behbudiy with historical facts during the Renaissance in Turkestan.

Jadidchilik fenomeni Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida burilish bosqichini belgilab berdi. O‘rta Osiyo, Turkiya va Yevropadagi ilg‘or islohotlar oqimi ta’sirida o‘lkadagi taraqqiyparvar kuchlar mustamlaka Turkiston, Rossiyaga yarim qaram bo‘lgan Buxoro va Xiva xonliklaridagi inqirozli ahvol, bu o‘lkalarning umumjahon taraqqiyotidan tobora ortda qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun intilishlarining bostirilishi sabablarini, nafaqat iqtisodiy sohada, balki diniy, ma’naviy sohada ham yuzaga kelgan turg‘unlikni chuqur anglab yetdilar va bu ular ongida jamiyatda isloh etish g‘oyalarini uyg‘otdiki, busiz taraqqiyotni tasavvur ham etib bo‘lmas edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarixiy xotira va taraqqiyparvarlar xaqida gapirar ekan, –“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”,–deb ta’kidlagan edi¹.

Ma’rifatparvar Sidqiy Xondayliqiyning jadid namoyondalari xaqida bildirgan fikri diqqatga sazovor: – “Bulut kelg‘on birlan oftob nuri kamaymas va oftob ismi

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B 288.

yo'qolmaski, hamon oftob oftobdur. Shunga o'xshash haqiqatni ham qora bulutlari yashira olmaski, hamon haqiqat, haqiqatdur, oxir yuzag'a chiqar", deb yozgan edi.

O'rta Osiyodagi bu islohotchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo'lni bosib o'tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo'llari haqidagi turli qarashlarning to'qnashuv may-doni ham bo'ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab yo'lda shakllanib yetildi. Jadidlar o'zlarining dasturlari, asarlari va faoliyatida kelajakdagi davlat tuzumi qanday bo'lishi haqida ilg'or fikrlar bildirganlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan hisoblanib, uning milliy-davlatchilikka oid qarashlari o'z davri uchun nihoyatda ilg'or hisoblangan. O'tmishga nazar tashlab, u jamiyatdagi barcha salbiy holatlarni milliy davlatchilikning yo'qotilishi bilan bog'laydi. Masalan Behbudiy fikricha, xonliklar 50 yil ilgari dunyodan ajralgan holda bo'lib, dunyo erishgan yutuqlardan foydalana olmaganlar va bu milliy davlatchilikni yo'qotilishi hamda mustamlakachilik asoratiga tushib qolishning sabablaridan biri bo'ldi, bu esa Turkiston xalqlarini Yevropa qonunlari asosida yashashga majbur qildi. Lekin ular mazkur qonunlarni bilmaydilar. Huquqlarni bilish, ularni himoya qila olish uchun bilimga ega bo'lish lozim. U yuqori ma'lumotli mutaxassislar, xususan, huquqshunoslar davlat dumasi, sudlar va Rossiya ma'muriyatining Turkistondagi rasmiy organlari orqali millatga foyda keltirishlari mumkin, degan fikrga keladi. Shu tariqa Behbudiy ham 1913 yildayoq shunday nazariyani ilgari suradi: Turkistonliklar o'rtasida ma'rifat va ta'limni rivojlantirish ularning o'z milliy-davlat manfaatlarini himoya qilishlari uchun zarurdir.

Jadidlar konsepsiyasining tarkibiy qismini Turkistondagi barcha xalqlarni birlashtirish muammosi tashkil etgan. Jadidlar o'zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning birligi asosida tasavvur etganlar. Bu haqda Behbudiy shunday deydi: «Biz joriy etgan qonunlar yahudiylarning ham nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak.

Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda islohotlar o'tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma'rifatparvarlar, boylar, ruhoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilishlari kerak. Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o'zimizning noittifoqligimizdir!»².

Jadidlar Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905–1906 yilgi Rossiyada inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Progressiv kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar matrifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. Chunonchi, 1906 yilda Ismoil Obidovning muharrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muharrirligida «Xurshid», 1907—1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuhrat», Ahmadjon Bektemirov muharrirligida «Osiyo» ro'znomalari chop etildi³. Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913–1915 yillarida «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» ro'znomalari, «Oyna» oynomasi, 1917 yilda esa «Hurriyat», «Kengash», «Najot», «El bayrog'i», «Ulug' Turkiston», «Turon» kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Jadidlar Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, vujudga kelayotgan rus siyosiy partiyalari dasturlarini o'rgandilar. Lekin milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyati bo'lgan o'zbek xalqining tinchliksevarlikka, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ular tinchlik yo'li bilan, jamoatchilikning murojaatlari, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa legal vositalar bilan podsho hokimiyatidan o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida yon berishga erishishga intildilar. Ammo chorizm ma'muriyati Davlat Dumasida turkistonlik vakillar bo'lishini man etgan. Bu, bir tomondan, o'lka xalqining huquqlari va qadr-qimmatini poymol qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning siyosiy ongining

² Vexbudiy M. Bayoni haqiqat. // Uluj Turkiston. 1917. 12 iyun.

³ Худайкулов А. М. Просветительская деятельность жадидов Туркистана. (конец XIX - начало XX вв.): М. На соискание степени доктора ист. наук. – Ташкент, 1995. – С. 109.

o'sishi Rossiya imperiyasi davlatchiligiga xavf tug'dirar edi. O'shandayoq jadidlar, Mahmudxo'ja Behbudiyning 1906 yil 11 oktabrda «Xurshid» ro'znomasida chop etilgan maqolasida o'z aksini topgan xulosaga, ya'ni birlashib yagona musulmon partiyasi tuzish va Butun Rossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirish zarurligi haqidagi fikrga keldilar⁴. Shu bilan ular Rossiyadagi barcha turkiy xalqlar orasidagi progressiv kuchlarga tayanishga intildilar. Ushbu maqolasida Behbudiy sotsial-demokratlar partiyasiga nisbatan o'zining salbiy munosabatini bildiradi. U bu partiyaning dasturini musulmonlar hayoti normalariga muvofiq kelmaydigan xayoliy (utopiya)dir, deb hisoblagan⁵.

Markaziy Osiyo jadidchiligiga 1905–1911 yillardagi Turkiya va Eron inqiloblari sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu mamlakatlardagi milliy ziyolilar vakillari monarx hokimiyatining konstitutsion doirada cheklanishiga, milliy burjuaziyaning iqtisodiy qudratini mustaxkamlash uchun shart-sharoitlarni qo'lga kiritishga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Biroq ularning tajribalari Turkiston jadidlari tomonidan mexanik tarzda ko'chirib olinmadi. Ular Sharq va Yevroda mamlakatlarning mustamlakachilikka qarshi kurash qamda demokratik harakat amaliyotidan o'lka sharoitlariga muvofiq keluvchilarini tanlab oldilar, sharoitga tug'ri kelmaydiganlaridan voz kehdilar yoki bir oz o'zgartirib qabul qildilar.

Rossiyada Fevral demokratik inqilobi arafasida, Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi Jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, Fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o'tkazish, o'lkaga Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kirardi.

⁴ Behbudiy M. Xayr ul-umuri avsatuxo. //Xurshid. 1906. 11- okt.

⁵ A'zamxo'jaev S. S. Turkiston Muxtoriyati. Toshkent. Ma'naviyat, 3000. 21-bet.

Shu davrda jadidlar Rossiya federativ tuzumini va unda Turkistonning o'rnini qanday tasavvur qilganlar? Ularning fikricha, har bir shahar va uezddan bir nechtdan vakil saylash kerak va Toshkentda Turkiston uchun yaroqli amaliy natija beradigan soliq qonunlari va farmonlar chiqara oladigan katga markaz va majlis (parlament ko'zda tutilyapti) tashkil etish kerak. Bunday majlis Rossiya hukumati va musulmonlar o'rtasida vositachi bo'ladi. Bu Turkistonning farovonligiga xizmat qiluvchi Turkiston ma'muriyatini mustaxkamlaydi⁶.

Biroq Behbudiy ta'kidlaganidek, haqqa erishish uchun qaysi millatga mansubligiga qaramay, barcha aholi ijtimoiy kurashga faol kirishishi kerak va rus aholisi bilan birlashib, har bir uezddan vakil saylangan «Turkiston musulmonlari sho'rosi»ni tashkil etish lozim. Uning fikricha, Rossiya demokratik davlati doirasida muxtoriyat sifatida shakllanish va mustaqillikka borish yo'lidagi birinchi shart – ichki qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklarni bartaraf etishdir.

Behbudiy milliy ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka boshqaruviga olib kelishini juda yaxshi tushungan. Agar «butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to'kilmas. Yer va amlak ham taqsim bo'lmay qolur. Oni ham ravo topur. Ming karra dodu bedodki, ixtilof etmoq uchun ittifoq etkanimiz va ixtilofimiz sababi ila bad-baxtlikka duchor bo'lurmiz»⁷.

Fevral demokratik inqilobi natijasida Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilganligi davlat shaklida muxtoriyat oldiga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, MILLIY siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan «Sho'roi Islomiya», «Itgifoq» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar, ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash, jipslashtirish hissini uyg'otdilar. Ammo jadidlar tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat ham, uning Turkistondagi Muvaqqat Qo'mitasi ham o'lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom etgirish yo'lini tutmokda. Chunonchi, bu siyosat Tasis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol

⁶ Behbudiy M. Haq olinur, berilmas. // Hurriyat. 1917. № 22. 13 iyul.

⁷ Behbudiy M. Turkiston muxtoriyati. // Hurriyat 1917. № 19. 12 dekabr.

namoyon bo'ldi. Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat maqomini olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar.

Jadidlarning dasturiy hujjatlarida diqqat-e'tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari – Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatiga taallukli bo'lgan masalalar bo'yicha qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o'lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruv va sud mexanizmlarini ishlab chiqish, o'z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanishi lozim bo'lgan demokratik jamiyatni shakllantirish – ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o'z tasavvurlarini xayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantarilgan Rossiya Ta'sis majlisini chaqirish bilan bog'langanliklari ham diqqatga sazovor. O'sha paytda, jadidlarning taraqqiyparvar namoyandalari «Sho'roi Islomiya», konservativ qismi «Sho'roi Ulamo» tashkilotlariga ajralib ketgan edilar. Ammo Ta'sis majlisida o'rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki jadidchilik oqimining qo'shilishiga va «Turk Adami Markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Biroq, Turkistondagi oktabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular bolsheviklar hoki-miyatining «Millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risida»gi deklarasiyasida ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanib «Turkiston Muxtoriyati» nomi bilan mustaqil muxtor respublika e'lon qildilar.

Jadidchiliklar birinchi bo'lib milliy demokratik davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va u milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z

buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ketidan ergashtira oldi.

Agar jadidlar faoliyatining ma'rifatchilik bosqichida Turkiston xalqini birlashtirish fikri ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 1917 – 1918 yillarda u Turkiston Muxtoriyatining milliy manfaatlarini himoya qilishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qoldi. M. Behbudiy hech kim, hech qanday hokimiyat xalqqa o'z ixtiyori bilan mustaqillik bermasligini ta'kidlagan. Tarixdan yaxshi ma'lumki, deb yozadi u, «Haq olinur, berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm taqdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q»⁸.

Xulosa tarzida shuni ta'kidlash kerakki, Behbudiy va jadid ma'rifatparvarlari vatan va millat rivojini faqat dunyoviy jihatdan emas, faqat bir millat misolida emas, balki diniy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan o'lmas g'oyalari bilan ifodaladilar. Ularning g'oyalari nafaqat o'sha davr uchun, balki bugunda Yangi O'zbekistonda yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan manbalar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021. - B 288.
2. A'zamxo'jaev S. S. Turkiston Muxtoriyati. Toshkent. Ma'naviyat, 2000. – B 21.
3. Behbudiy M. Bayoni haqiqat. // Ulug' Turkisgon. 1917. 12 iyun.
4. Behbudiy M. Xayr ul-umuri avsatuxo. //Xurshid. 1906.– 11 okt.
5. Behbudiy M. Haq olinur, berilmas. // Hurriyat. 1917. № 22. 13 iyul.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam, № 1, T., 1999. – B. 202.

⁸ Behbudiy M. Bayoni haqiqat. // Ulug' Turkisgon. 1917. 12 iyun.

JADIDLAR HARAKATI XORIJ OLIMLARI NIGOHIDA

Madraximova G.S.,

*O'R QK Akademiyasi Milliy iftixor va
harbiy vatanparvarlik kafedrasini
dotsenti.t.f. n*

O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda⁹.

Darhaqiqat, jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. "Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o'taydi. Bu kungi mag'lubiyat ertangi g'alabaning amalga oshuvida ozmi-ko'pmi rol o'ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin"¹⁰.

Bugungi kunda jadidlarni olib borgan ishlari keng jamoatchilik o'rtasida turli xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aslida jadidlar harakati faqat Turkistonda vujudga kelgan emas.

Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80 yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralinig 1883 yilda nashr etila boshlagan "Tarjimon»" gazetasi va u tomonidan

⁹ Sh.Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi <https://president.uz/uz>.

¹⁰ <https://www.bukhari.uz>.

1884yilda asos solingan “usuli jadid” maktabi muhim rol o‘ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy “Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G‘azit o‘qig‘uvchilarni mullalar “jadidchi” nom bilan atar edi”¹¹, - degan fikrni keltiradi.

Jadidlarning ilmiy merosi bo‘yicha bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida jumladan, Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, AQSh, Rossiya, Germaniya va Yaponiyada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tarixchi olim Mehmet Tutuncu Turkiston-Ozarbayjon tadqiqod markazi haqida ma‘lumot berib, chet eldagi turkistonliklar, jadidlar va muhojirlar haqida tadqiqot hamda izlanishlar olib borishi “Evropada jadidlarni o‘rganish uchun qator tadqiqotlar olib¹²” borilganligini ta’kidlaydi. Ular tomonidan “Chet elda turkiston harakati yoxud jadidchilikdan mustaqilikkacha” nomli kitob chop etilgan.

Turkiyalik olim Temur Xo‘jao‘g‘li jadidlarimizni chet elda ham millat dardi tashvishi bilan yashaganliklarini e’tirof etadi.

Turkiya va Olmoniyada, keyinchalik, Amerika olimlari jadidlarning asarlarini o‘z ona tillariga tarjima qilib, matbuotda chop ettirib, turlicha talqinlarini yaratishgan. Bu tahlillar sovet davrida asosan mafkuraviy yondashuv asosida baholab kelingan bo‘lsa, Istiqlol yillariga kelib o‘zining xolis talqinlariga ega bo‘la boshladi. Bunday to‘g‘ri yondashuvni xorijda Cho‘lpon ijodiga bag‘ishlangan maqolalarda ham ko‘rishimiz mumkin¹³.

O‘zbek adabiyotining Turkiyada o‘rganilishida professor Tohir Chig‘atoyning 1954 yilda nashr etilgan “Turkistonda turkchilik va xalqchilik” kitobi alohida o‘rin tutadi. Ushbu kitobda Turkistondagi ijtimoiy adabiy fikr rivojida bir qator jadid adiblari qatorida Cho‘lponning ham hissasi katta ekanligi uning ijodi misolida ko‘rsatib berilgan.

¹¹ B.Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma‘rifat, fidoyilik. –T., Ma‘naviyat, 2002.-B.61.

¹² “Jadidchilik ham maorif, ham davlatchilik va so‘z erkinligi edi”. Xorijlik jadidshunos olimlar bilan suhbat — Uzbekistan News | daryo.uz.

¹³ Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovasiya uyg‘unligi” mavzusidagi respublika 5 – son ko‘p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiyasi 1-qism.Toshkent.2021 yil.B-195.

XX asr boshlarida musulmon dunyosidagi islohotchilik va yangilanish jarayonida O'rta Osiyoda jadidchilik harakatini, soha tadqiqotchilaridan biri Adib Xolid quyidagicha baholab «jadidchilik» so'ziga bergan ilk ta'rifni keltiradi: “musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar “jadidlar” deb ataladi¹⁴”.

Jadidlar Germaniya, Polsha va boshqa xorijiy mamlakatlarga borib, mustaqillik uchun kurashlari haqida kitob yozgan. Mustaf Cho'qay va Ahmad Zaki Validiy birgalikda Turkiyada “Turkiston”, Parijda esa “Yosh Turkiston” gazetasini chop etishni boshlagan. Ular matbuot va fikr orqali Sovet Ittifoqiga qarshi isyon qilib, Turkiston ozodligi uchun kurashgan. “Jadidchilik harakati shunchaki oddiy bir harakat emas.

Jadidlarning g'oyalarini dunyo bo'lab tarqalishida gazetalarni o'rni katta bo'ldi. Gazetalar Qrimda, Qozonda, Istambulda, Bokuda, Toshkentda nashr etilar, ularning maqsad, mafkurasiyu tili bir biriga shu qadar yaqin ediki, ularning hech biri tarjimonga muxtoj emasdi. Ular Qoshg'aru Hindistonda ham bemalol o'qilar edi. Hammani tashvishga solgan yagona maslak ona yurt, turkiylarning beshigi Turkiston ozodligi masalasi edi¹⁵.

Jadidlar Rossiya mustamlakasi davrida yashagan barcha turkiy xalqlarning nega ortda qolganligini va qanday taraqqiy etishi haqida o'ylagan. Chunki o'sha vaqtda turk va musulmon dunyosi doim ortda qolib, mustamlakaga uchrayotgan edi. Jadidlar “bundan qanday qutulish mumkin”, degan savolni ko'targan. Jadidchilik juda muhim harakat. Sababi, unda Islom dunyosining oyoqqa turishi uchun muhim ko'rsatmalar mavjud¹⁶.

Tarixchi olim Temur Xo'jao'g'lining ta'kidlashicha, “Ba'zi yoshlar jadidlar Islomga qarshi bo'lgan deb hisoblar ekan. Lekin bu noto'g'ri. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy mufti bo'lgan. Munavvar qori esa qori bo'lgan. Ya'ni

¹⁴ Baldauf I. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma'naviyat, 2001. B –1219.

¹⁵ Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati', Respublika ilmiy-amaliy anjumani.- Toshkent. 2016.B-94.

¹⁶ <https://daryo.uz>.

jadidlarning barchasi dinni qattiq ushlagan. Ular Islom dinini xato tushunib, noto'g'ri targ'ib qilganlarga qarshi kurashgan. O'rta asrlarda olimlar Al-Beruniy, Al-Xorazmiy va Ibn Sino ham dinni, ham ilmni mahkam tutgan. Biroq Markaziy Osiyoda XVI asrdan keyin ilm oqsashni boshlagan va xurofotlar ko'payib ketgan. Shuning uchun yoshlar bilishi kerakki, jadidlar Islomga qarshi bo'lmagan, balki Islomni to'g'ri tushunishga harakat qilgan"¹⁷.

O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o'z mablag'lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek,- "Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz"¹⁸.

Xulosa qilib, aytganda bugungi kunda milliy ozodlik kurashi g'oyalarining asoschilari bo'lgan jadidlarni hayot yo'li hamda, ular qoldirgan ilmiy merosni o'rganish dolzarb masalaga aylandi. Buni yuqorida horij olimlarining keltirilgan fikrlaridan ham bilish mumkin. Bugungi kungacha "30 ga yaqin jadid haqida haqida umumiy ma'lumotga"¹⁹ ega bo'lgan bo'lsak, hozirgi davrda 300 nafarga yaqin jadid haqida ma'lumotlar topildi. Ular qoldirgan ma'naviy meros yoshlarimizni vatanparlik ruhida tarbiyalashda ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

¹⁷ "Jadidchilik ham maorif, ham davlatchilik va so'z erkinligi edi". Xorijlik jadidshunos olimlar bilan suhbat-Uzbekistan News | daryo.uz.

¹⁸ <https://daryo.uz/k/2023/03/06/>.

¹⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/23/jadidlar-uz/>.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. prezident.uz/uz.
2. B.Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.-B.61.
3. Baldauf I. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. – T.: Ma’naviyat, 2001. B – 1219.
4. Yangilanayotgan o‘zbekistonda fan, ta’lim va innovasiya uyg‘unligi” mavzusidagi respublika 5 – son ko‘p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiyasi 1-qism.Toshkent.2021 yil.B-195.
5. “Jadidchilik ham maorif, ham davlatchilik va so‘z erkinligi edi”. Xorijlik jadidshunos olimlar bilan suhbat- Uzbekistan News | daryo.uz.
6. <https://daryo.uz/k/2023/03/06/>.
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/23/jadidlar-uz/>.

JADID MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV

Tojiboev M.T.,

*O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi t.f.d. professor,*

Razakov D.X.,

*O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi t.f.n., dotsent*

XIX asr oxirlarida Turkistondagi uyg‘onish davrini boshlab bergan, o‘lka xalqlari manfaatlarini himoya qilishga o‘zining butun ongli faoliyatini bag‘ishlagan fidoiy vatandoshlarimizdan biri Munavvar («Munavvar» – nur olgan, nurli degani. Turkiyada hozir ham bu so‘zni ziyoli o‘rnida qo‘llaydilar) qori («Qori» deb Qur’onni maromiga yetkazib o‘qiydigan) Abdurashidxon o‘g‘li edi. U 1878 yilda Toshkentning Shayhontohur dahasidagi Darxon mahallasida mudarris oilasida tavallud topgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so‘ngra Buxoroda oliy tahsil olib «Hofizi Qur’on» bo‘lgach, XIX asrning 90-yillari oxirlarida jadidchilik harakatiga qo‘shilgan Munavvar qori 1901 yilda Toshkentda birinchilardan bo‘lib «usuli jadid» maktabini ochgan edi.

Jadidchilik namoyandalarini sinfiy dushman deb bilgan bolsheviklar bu harakatni faqat ma'rifiy harakat deb baholab, ularni siyosiy kaltabinlikda ayblab kelgan edilar. Holbuki, Munavvar qori 1927 yilda Toshkent okrug maorif xodimlari qurultoyida so'zlagan nutqida bolsheviklar qo'ygan bu aybga: «*Chor hukumatini yo'qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo'lishi yashirin emas. Nainki, biz jadid maktabi ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqacha ta'bir bilan aytganda, do'konda nasiya yozadurgon xodimlar yetkazsak. Bu ishga aqlli odam shu bahoni berishda u yoq, bu yoqni mulohaza qilsin. Jadid maktabi ochishimizga **siyosiy va madaniy kurashchilar tayyorlash bahosi berilmaganiga** (ta'kid bizniki. – M.T., D.R.) taassub bildiray olmay o'ta olmayman*» [1; 181] degan edi.

Turkiston xalqlari ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy tafakkurining o'sishida shubhasiz, jadidchilik matbuoti beqiyos xizmatlar qilgan. Munavvar qori 1906 yildan nashr etila boshlangan dastlabki milliy gazeta – «Taraqqiy»ning tashkilotchilaridan va mualliflaridan edi. Shu gazetaning 1906 yil 14 iyun sonida e'lon qilgan «*Bizning jaholat – jahli murakkab*» maqolasida «*Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko'zimizni g'aflat uyqusidan ochib, atrofimizg'a nazar solmakimiz lozimdir. Har millat o'z saodat hol va istiqbolini muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmakig'a qanoat hosil qilib, ilm va maorifg'a ortiq darajada qo'shish qilgan bu zamonlarda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavfli o'lub hamma olamga masxara va kulgu o'lmog'imizda hech shubha yo'qdir. Bu jaholat natijasidurki, o'zimiz yerlik musulmonlardan o'ldig'imiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o'lduk. Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalarg'a sarf etmadadurlar*» [2; 145-146], deb ogohlikka da'vat etgan edi.

Munavvarqori fikricha, chorizm istilosidan avvalgi Turkistonni qamrab olgan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-madaniy inqiroz sabablari XVII-XVIII asrlarga borib taqaladi. «*Bul zamondin yuz yildan ziyodoq muqaddam zamondin boshlab, - deb ta'kidlaydi u, - millat devorining har tarafig'a rahnalar paydo bo'ldi. Munga*

sabab ulamo va umarolarimizning o'z nafslarini rioyasida harakat qilmoqlari bo'ldi. Podshoh va xonlarimiz bo'lsa, millatg'a qilg'on xizmatlari tanho xotun olmoq va kuchuk urushtirmoq va beg'ayrat va haqqoniyat dindor kishilarni badarg'a qilmoq va tutub o'ldirmoq bo'ldi. Shuning uchun millat devorining rahnalari tobora ziyoda bo'ldi» [3; 140]. Rossiyadagi 1905 yil voqealaridan keyin Rossiya davlat dumasiga Turkistondan vakil saylash maqsadida ulamo va siyosiy arboblarning o'tkazgan ikki-uch yig'ilish esa «yolg'uz palov va ziyofatxo'rlik birla nafsoniyatdan iborat bir majlis bo'lganligini» [4; 141], chunki unda har kim o'z shaxsiy manfaati nuqtai nazaridan mulohaza yuritib, so'zlaganini qayd etadi. Adib mahalliy boshqaruv ma'muriyati vakillarining millat va Vatan manfaatlarini anglash masalasida hamon yakdil emasliklaridan kuyunib «...o'z hukumatdollarimizning ko'zlarini g'aflat chunon qoplamishki, hanuz o'z nafslarining foydasini axtarmoqqa mashg'uldirlar va ul foydadin millat va shariatg'a xoh foyda o'lsun, xoh zarar o'lsun har bir harakatlaridin manfaati shaxsiyalari maqsuddir. Va har fikrlarida rioyai nafslari mavjuddir» [5; 141], -deb yozadi.

Munavvar qori o'lka xalqlarining milliy qadriyatlari mustamlakachilar tomonidan oyoq osti qilinganligini inkor etib bo'lmaydigan dalillar orqali ochib beradi. Turkiston bir vaqtlar boy madaniyatga ega zamin bo'lganligini, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Toshkentdagi va ayrim qishloqlarda ham ulkan madrasalar aynan vaqflar tufayli ham dunyoviy, ham diniy fanlarni o'rgatishda shuhrat topganligini ta'kidlab, bu shuhratning qay tariqa so'nib qolganligini izohlaydiki, bu izohlar o'quvchini tafakkur qilishga chorlaydi. Uningcha «keyingi paytlarda Turkistonda sodir bo'lgan urushlar oqibatida, xonlarning hukmronlikka intilishlari, turli bosqinchilarning hujumlari tufayli madaniyat-ma'rifat rivoji to'xtab qoldi, ba'zi olim, ulamolar tabiiy ravishda vafot etdilar, boshqalari turli mamlakatlarga ko'chib ketdilar, qadimiy madaniyatni eslatuvchi madrasa va vaqflar hozirgacha saqlab qolindi. Har qanday madaniyatli xalqning hukumati madrasayu vaqflarni omillik bilan boshqarish orqali davlat g'aznasiga zarar keltirmay, ushbu madrasa va maorif darajasini ko'tarishi hamda o'quv ishini to'g'ri yo'lga qo'yishi mumkin edi. Ammo, Turkiston, turkiy xalqlarining baxtsizligiga ko'ra, eski rus hukumatlari tomonidan

zabt etildi va xalqning madaniy-ma'rifiy masalalari o'zga qolipga solindi. Eski rus hukumati mahalliy xalqlarni ruslashtirish maqsadini ta'qib etgani bois madaniyat-ma'rifat izlari Turkiston tuprog'idan tamom yo'qoldi» [6; 162].

Chor hukumatining Turkiston xalqlarini ruslashtirishga qaratilgan shovinistik milliy siyosatining amalga oshirilish mexanizmini ochib berib, Pobedonossev, Ilminskiy va Ostroumov singari missionerlarning nazorati ostida va ularning tashabbusi bilan eng yirik vaqflar mustamlakachilar foydasiga tortib olinganligini, madrasa va maktablarda faqat sof diniy xarakterdagi fanlar qoldirilib, geografiya, matematika, fizika kabi dunyoviy fanlar butunlay man etilganligini, bu fanlarni maxfiy ravishda o'rgatuvchi o'qituvchilar inqilobchi, panislomchi sifatida og'ir jazolarga tortilganini, umumta'lim fanlarini o'rganishni istovchilar esa rus tilini bilish-bilmasligidan qat'i nazar, bu fanlarni rus tilida o'rganishlari shart qilib qo'yilganligini qayd etadi. Shu bois Munavvar qori matbuotdagi chiqishlarida chorizm mustamlakachilik siyosatining mohiyatini xalq ongiga yetkazishga dadil harakat qildi. Masalan, «Najot» gazetasining 1917 yil 26 martdagi sonida Turkiston xalqlarining 1916 yilgi mardikorlikka qarshi qo'zg'oloni chor ma'murlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilganiga ishora qilib, «uydagi xotun-qiz, beshikdagi bolalar, hech narsa qo'lidan kelmaydurg'on chol va kampirlar, tilsiz hayvonlar, jonsiz imoratlar va mollar hech biri istisnosiz suratda otildi, kesildi, yoqildi, yondurildi... Alhosil, Turkiston musulmonlari zulm panjasining ostida shul qadar ezildilar va hurriyat, huquq yo'lida shul qadar ko'p qurbon berdilarki, bir-ikki oy ichida boshqa millatlarning 145 yil ichida (Munavvar qori 1772 yilgi Yemelyan Pugachev qo'zg'olonidan 1917 yilgi Fevral inqilobigacha bo'lgan Rossiya tarixini nazarda tutgan. – ta'kid bizniki. – M.T., D.R.) bergan qurbonlariga quvlab yetishdilar» [7; 157], deb yozdi.

Munavvar qori XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy tafakkurning, milliy-ozodlik harakatining eng e'tiborli namoyandalaridan bo'lganligi uchun ham 1921 yilda uning nomzodi «Turkiston milliy birligi» nomli yashirin harakatning raisligiga qo'yilgan. Biroq, u hech qachon isyonga, qo'zg'olonga da'vat qilgan emas. To'g'ri, u «Haq olinur, berilmas» [8; 238] deb yozdi. Lekin bu haqni ilm-ma'rifatni, fan-

texnikani egallash, ma'rifiy-madaniy vositalarni ishga solish orqaligina qo'lga kiritishni aqlga muvofiq deb topdi. Shu maqsadda 1908 yildan 1923 yilga qadar uning g'ayrat va tashabbusi bilan yuzdan ortiq turkistonlik chetda o'qib keldi. (Buxoroda bu tashabbusni 1920-1923 yillarda Fitrat va F. Xo'jaev qo'llab chiqdilar.) Ma'lumotlarga qaraganda, birgina 1922 yilda Germaniyada o'qiyotganlarning soni 60 ga yetgan. Shulardan beshtasi – Abduvahob Murodiy, Sattor Jabbor, Saidali Xo'jaev, Ahmad Shukuriy, Vali Qayumxon toshkentliklar edi.

Munavvar qori teatrchilik ishini yo'lga qo'yib «Teatr havaskorlari truppasi» tashkil etdi va Kolizeyda «Padarkush» dramasini birinchi marta sahnaga qo'ydi. Eng e'tiborlisi shuki, Munavvar qori o'zbek millati tarixida, birinchi navbatda, jamoat va siyosiy arbob sifatida qoldi. XIX asrning 90-yillari oxiridan umrining so'ngigacha millat va vatan ravnaqi, ozodligi yo'lida kurash olib borib vataniga daxldorligini ko'rsata oldi.

Munavvar qori tashabbusi bilan 1925 yilda «Milliy ittihad» «Milliy istiqlol» degan nom bilan qayta tashkil etilgan. Bunga Markaziy Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi o'tkazilib, Turkistonning parchalanishi, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishi, shuningdek, bevosita Turkiston birligi uchun kurashning o'ta qiyin bo'lib qolganligi sabab bo'lgan. Munavvar qori boshliq «Milliy istiqlol» a'zolari endi mustaqil O'zbekiston davlati uchun kurash g'oyasi ostida ish yuritganlar.

«Milliy ittihad» tashkiloti Markaziy Qo'mitasining qarorlaridan birida aytilishicha, ular «bosmachilik» harakatidan to'g'ri yo'nalishda va aniq siyosiy maqsadni ko'zlab foydalanishni mo'ljallaganlar. Buning uchun, eng avvalo, sovet Rossiyasi hukumati va uning vakillariga turli yo'llar bilan *«bizning xalqimiz sovetlashtirishni qabul qilolmayapti, xalq buni xohlamayapti, shuning uchun qo'liga qurol olib, uyushib kurashga ko'tarilyapti, ko'p qon to'kilishi mumkin»* degan fikrni singdirib borishgan. Ushbu qarorda yozilishicha, *«Bir vaqtning o'zida tarqoq bosmachi guruhlarini birlashtirish va siyosiy lashtirish yo'lida ish olib borish kerak. Chunki yaxshi qurollangan va kurashlarda tajriba orttirgan bu kuchlar orasida ajoyib komandirlar va botir jangchilar pishib yetilgan bo'lib, ulardan kelajakda*

milliy armiyani juda tez shakllantirish mumkin. Vaqti kelib, sovet Rossiyasidan ajralish masalasi ko'tarilganda real kuchga ega bo'linadi» [9; 22-23].

Markaziy Osiyoda sovet tuzumi istibdodi o'rnatilgach jadidlar tutgan siyosiy pozitsiya xususida to'xtalar ekan Munavvar qori Abdurashidxonov o'zining bolsheviklar qamoqxonasida yozgan «Xotiralarimdan» asarida shunday deydi: *«Bizlarning sinfiy dunyoqarashimiz negizida sinflarni inkor etish yotadi. Bizlar sinflarni bilmas edik, agar yirik burjuaziya deb hisoblanayotgan katta yer egalari va savdogarlarning juda ozgina guruhi hisobga olinmasa, bizlarning ko'z o'ngimizda hamma teng edi. Burjuaziya to'g'risida gapirganda bizlar yirik savdogar va katta yer egalarinigina nazarda tutar edik. Bizlar sho'ro hukumatining mana shularga emas, balki mayda va o'rta hol burjuaziyaga nisbatan olib borgan tadbirlariga qarshi bo'ldik. Binobarin, bizlar asosan mayda burjuaziya manfaatlarini himoya qildik: mana shundan bizlarning o'ktabr inqilobidan keyin mamlakat siyosiy hayotida tutgan rolimiz, sho'ro hukumati, yo'qsil diktaturasiga qarshi olib borgan kurashimiz tushunarli bo'lsa kerak. Bizlarning mustaqillik haqidagi shiorimiz avval burjua demokratik Turkistonni, undan so'ng esa, qayta chegaralanishdan keyin O'zbekistonni tashkil etish, hokimiyatni mayda va o'rta burjuaziya qo'liga berish to'g'risidagi harakatimiz ana shundan kelib chiqadi» [10; 202].*

Xulosa qilib aytganda, haqiqiy ma'nodagi mustaqillikni orzu qilgan Munavvar qori Abdurashidxonovning Vatan va xalq baxt-saodatini ko'zlagan orzu-istaklari bugungi mustaqillik tufayli ro'yobga chiqdi. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari va hayot yo'li esa XX asr birinchi choragidagi Turkiston xalqlari ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, madaniyati, ma'rifatining mumtoz va betakror namunasi bo'lib qoldi. Ko'rinib turibdiki Munavvar qori Abdurashidxonovning g'oyalari O'zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir.

Foydalanilgan manbalar:

1. Munavvar qori Abdurashidxonov. «Qoralash yaxshi emas» (Tanlangan asarlar), T., 2003. – B. 181.

2. Munavvar qori Abdurashidxonov. «Bizning jaholat – jahli murakkab» (Tanlangan asarlar), T., 2003. – B. 145-146.
3. Munavvar qori Abdurashidxonov. Nutq va maqolalar (Tanlangan asarlar), T., 2003. – B. 140.
4. Munavvar qori Abdurashidxonov. O'sha asar. T., 2003. – B. 141.
5. Munavvar qori Abdurashidxonov. «Turkiston vaqflari haqida» (Tanlangan asarlar), T., 2003. – B. 162.
6. Munavvar qori Abdurashidxonov. «Maqbul qurbonlar» (Tanlangan asarlar), T., 2003. – B. 157.
7. Professor Begali Qosimov «bu fikr asli Jan Jak Russoga tegishli bo'lib, uning «Ijtimoiy shartnoma» asaridan olingan, XIX asr o'rtalarida Fransiyada o'qib kelgan turkiyalik yoshlar orqali u turk matbuotiga, undan Turkistonga kelgan» deya yozgan edi. Bu to'g'rida qarang: Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T., 2002. – B. 238.
8. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920-1924 yillar). T., 2002. – B. 22-23.
9. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam, № 1, T., 1999. – B. 202.

CHO'LPON IJODIDA VATAN, XALQ VA INSON TALQINI

Abdurahimova D.A.,

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasida professori,
p.f.d.(DSc), professor*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Cho'lpon ijodida Vatan, vatanparvarlik so'zlarining talqini faqat bir xalqning o'ziga xos milliy xususiyati emasligi, balki barcha xalqlarning eng asl farzandlariga xos, umuminsoniy qadriyatlaridan biri ekanligi hamda vatanini chin dildan sevgan odam turli ilmlar va kasb-hunarlarini o'rganib, uning obodligi va kuch-qudratini oshirish uchun xizmat qiladi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, farzand, odob, ozodlik, qadriyat, adolat.

ABSTRACT In this article, Cholpon explains that the interpretation of the words "homeland" and "patriotism" is not only a national feature of one nation, but also one of the most universal and universal values of all peoples. thought to serve to increase.

Keywords: homeland, patriotism, child, manners, freedom, value, justice.

XX asr boshlarida yashab ijod etgan jadid adabiyoti vakillarining mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida olib borgan xayrli ishlari ma'naviyat sohiblarining qalbidan chuqur o'rin egallagan. Bugungi kunda ijtimoiy ma'naviy sohalardagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma'naviy yuksalish yo'lidagi imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyatda ma'rifatparvar ziyolilarning, xususan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodini o'rganish muhim ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Cho'lpon qarashlarida ozodlik, istiqlol, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi yuksak axloqiy-estetik g'oyalar ifodalangan. Cho'lpon o'tgan asrning boshlarida o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib, barmoq vaznida jozibali she'rlar, realistik hikoya hamda roman yozgan ijodkor. Biroq uning ijodini faqat poeziya bilan chegaralash mumkin emas. U bir vaqtning o'zida ham shoir, ham dramaturg, ham nosir hamda adabiy tanqidchi sifatida ham ijod qildi. Uning "Xalil farang", "Cho'rining isyoni" kabi kichik pesalari, "O'rtoq Qarshiboev", "Mushtumzo'r" kabi dramalari hamda ko'p vaqt sahnadan tushmagan "Yorqinoy" pesalari mashhur bo'lgan.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'rlari, roman va hikoyalari, drama va publitsistik asarlari, san'atshunosligi boshdan-oyoq milliy ruh, milliy g'oya,

ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Cho'lpon asarlarining qahramonlari – o'z Vatanini jonidan sevgan, tabiat – yam-yashil vodiylar, dala va bog'lar, daryolar va tog'lar, jannatmakon o'lkaning go'zalliklarini nozik his etuvchi, chin insonlik kamolini biluvchi, Vatan yovlariga cheksiz nafrat bildiruvchi yorqin taqdir egalidir. Vatanimiz mustaqillikka erishgach, adolatli, demokratik, fuqarolik jamiyatini qurayotgan davlatimiz, hukumatimiz birinchilar qatorida shoir va adib, Vatanimizning sodiq farzandi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponni “Buyuk xizmatlari uchun” oliy nishoni bilan taqdirlanishi Mustaqillik yillarida tarixiy adolatning tiklanganidan dalolat beradi. Sho'rolar davrida, mustamlakachilik siyosati, kommunistik mafkura va diktatura rejimi tazyiqi bilan milliy Istiqlol fidoyilaridan biri bo'lgan Cho'lponni “ashaddiy millatchi”, “xalq dushmani” qilib ko'rsatish avj oldi, uning asarlarini o'qish va hatto nomini tilga olish taqiqlab qo'yildi. Atoqli olim, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov haqqoniy aytganidek, 1935- 37 yillarda sho'rolar O'zbekistonda yosh iste'dodli olimlar va shoirlar bo'lgan Olim Sharafiddinovni, Xomil Yoqubovni, Hamid Olimjonni, G'afur G'ulomni, Uyg'unni va boshqalarni buyuk vatanparvar Cho'lponga qarshi qayradilar, uni qoralab yozishga majbur qildilar. Faqat Qodiriy va Oybek Cho'lpon she'riyatini qattiq turib himoya qildilar. Holbuki, Cho'lpon buyuk san'atkor sifatida bu yosh olim va shoirlarga ustoz edi, ular o'zlarini Cho'lponning shogirdi deb bilar edilar. “Hech ikkilanmay aytish mumkinki,- deb yozadi Ozod Sharafiddinov, - 20 yillarda Cho'lpon she'rlari O'zbek poeziyasi rivojida yangi sahifa ochdi. O'sha paytlarda adabiyot olamiga endigina qadam qo'yayotgan Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Mirtemir kabi yosh shoirlar Cho'lponni ustoz bilib, etagidan mahkam tutishadi. She'riyat sirlarini egallashda, mahorat pillapoyalaridan ko'tarilishda Cho'lpon she'riyati ular uchun chinakamiga dorilfunun bo'ldi” .

Bu vaqtda Cho'lpon yetuk san'atkor sifatida aruzdan boshqa, turkona erkin vaznlarda ham buyuk va nafis tilimiz xazinalari mavjudligini, bu tilda eng nozik, nafis tuyg'ularini, ruhiy kechinmalarini, ma'no tovlanishlarini go'zal ifodalash mumkinligini isbotladi. Cho'lpon yosh avlodga, xalq ommasiga Vatanni sevishni, Vatan go'zalliklarini ko'rishni o'rgatdi. Cho'lpon fikricha, Vatan “Oydan-da

go'zaldir, kundan-da go'zal". Shoir Vatan obrazini, siymosini murakkab ma'nolar, fikrlar ichiga yashiradi, o'zi izlayotgan go'zalning kimligini aytmaydi. "Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, eng yorug' yulduzdan seni so'raymen," –deydi shoir. U kimni izlaydi? Yaxshiroq o'ylab ko'rsak, tushunamizki, shoir sho'ro mustamlakachilari yo'qotgan Vatanni izlamoqda. Bu she'r 1919 yilda Toshkentda yozilgan. Turkistondagi uch xonlik davrida ham, chorizm – Romanovlar, oqposhsho Nikolaydavrida ham yorug'lik –ko'rmagan mazlum xalqlar Qo'qonda Qo'qon mustaqil davlat – Turkiston muxtoriyatini tuzgan edilar. Bu mustaqil davlat Sovetlar Rossiyasi bilan ham, boshqa G'arb va Sharq davlatlari bilan ham do'stona, qardoshlik munosabatlarini o'rnatmoqchi edi. Lekin, afsuski Sovetlar Sho'rolar bu yangi mustaqil davlatni bir oy ham yashatmay bo'g'ib tashladi, qonga botirdi. Qizil armiya bilan arman dashpoqlari bir hafta davomida Qo'qonda, uyjoylarni yoqib, tinch aholini otish, chopish, qirish bilan shug'ullandi.

Cho'lpon mana shu yo'qolgan Vatanni izlar, Quyosh va Oydan, yulduzlardan so'roqlar edi. Cho'lpon shu Vatanni va unga sevgisini yashirishga, sirli ma'nolarga o'rab yozishga majbur edi. Bu uslub ham juda buyuk iste'dodni talab qilardi. Yulduz esa, " uyalib, boshini egib, men uni (Vatanni) tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal, bizdan-da go'zaldir. Oydan-da go'zal", -deydi. Cho'lpon bu she'rida milliy, an'anaviy ertak ruhida, yo'qotgan sevgilisini Quyoshdan, Shamoldan so'raydi. Quyosh Uni tushdamas, o'ngimda bir marta ko'rdim. U chindan ham Oydan-da go'zaldir, Kundan-da go'zal! –deydi. She'rning oxirgi bandida shoir bu sirli muhabbatining- sohibasi kimligini aytmasa-da, uni sevish juda og'ir, fojea ekanligini bir necha so'z bilan ifoda qiladi:

Men yo'qsil ne bo'lib uni suyibmen?!

Uning-chun yonibmen, yonib kuyibmen.

Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen.

Men suyib... men suyib kimni suyibmen?

"Men suygan suyukli shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!" , deydi.

Bu she'r yozilgan 1919 yilda hali sobiq mustamlaka o'lkalar Rossiyaga qo'shib, rasman Sovet sotsialistik respublikalar Ittifoqi – SSSR davlati tuzilmagan edi (u 1922 yilda tuziladi). Shunga qaramay, poytaxti Toshkentda bo'lgan Sovetlarning Turkiston xalq komissarligi hukumati o'z harbiy va maxfiy xizmati kuchlari bilan mustaqil milliy davlat – Turkiston muxtoriyati tuzuvchilarini tutib, azoblab otib tashlay boshladilar. Boshqacha aytganda, qizillar, sovetlar terrori 1937 yildan ancha avval, 1918 yildayoq boshlangan edi. Vatanparvarlik faqat bir xalqning o'ziga xos milliy xususiyati emas, balki barcha xalqlarning eng asl farzandlariga xos, umuminsoniy qadriyatlaridan biridir. Vatanini chin dildan sevgan odam turli ilmlar va kasb-hunarlarni o'rganib, uning obodligi va kuch-qudratini oshirish uchun xizmat qiladi. Vatanparvar va millatparvar alloma Abdurauf Fitrat "Munozara" asarida buxorolik mudarris bilan farangi (ovrupolik, fransiyalik) mehnat bahsi orqali Buxoro va Samarqand musulmonlari ilmfanlarida Ovrupo xalqlaridan juda-juda orqada qolganini, ma'rifatsiz va himmatsiz bo'lishi o'z jaholatlari sababli islom dini –hamda Vatan sharafiga loqayd qarab, insoniy qadr-qimmatini- yo'qotayotganidan qayg'uradi. Farang sayyohi dini Islomni, Qur'onni yaxshi bilgani uchun Buxoro ahlini o'z vatani va dinini harob, vayron qilganini aytib, ayblaydi. "Taassufki, siz musulmonlar toifasi Qur'on va hadisning ma'nolaridan juda yiroqlashib ketgansiz. Shu alfozda (faqat og'izda) Qur'onni o'qib, savobini faqat ota, onalaringiz ruhiga bag'ishlab o'rganib qolgansiz". (Farang aytmoqchiki, aslida Qur'onda minglab aziz ma'nolar borki, ularni o'qibgina qolmay, hayotda amalga oshirish zarur). "Biz farangiylar, - deydi ovrupolik mehmon, - diningizni dushmani esakda, Qur'on va hadislarinigizni kuydirish o'rniga, ulardan o'z manfaatimiz uchun foydalanishni o'rgandik. "Beshikdan lahadgacha ilm izlang", "Ilmni Chinda bo'lsa ham talab qiling" hadislaridan foydalanib, ovrupoliklar ilm-fanlarda behad o'zib ketdilar. Qur'on va hadis amr-farmonlarini amalga oshirib, favqulodda taraqqiyotga erishdik. Va sizlar g'afatda qolib, Qur'onning saodatli hukmlaridan hamda hikmatli xabarlaridan bahra ololmay, tanazzul tubiga tushdingiz. Agar 200 yil avval ushbu ming nafar musulmon Qur'on va hadis hikmatlariga ega bo'lsalar edi, hozir yigirmata islom mamlakatidan o'n sakkizi qo'ldan ketmagan bo'lur edi". Mutafakkir

Fitrat aytmoqchiki, vatanini sevgan dinini ham oyoq osti bo'lishiga yo'l qo'ymasligi zarur. Aslida esa, deydi mehmon, - din va shariatni o'z'laringiz xor qilmoqdasiz. Sho'rolar davrida esa Vatan ham, din va shariat ham yo'qotildi. "Turkiston muxtoriyati muvaqqat hukumatida o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, yahudiy va tojik millati ko'pdan beri orzu qilgan milliy davlat deb qabul qilindi, hamma joyda (ta'kid bizniki – Sh.U.) ommaviy birdamlik harakatlari boshlanib ketdi. Shu yili 6 dekabr kuni Toshkentda 60 ming kishilik miting o'tkazilib, qatnashchilar Muxtor Turkiston hukumatini qutladilar. Miting yakunida qabul qilingan qarorda yangi Turkiston Muxtoriyati Rusiyadagi inqilobiy sovetlar hokimiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga ishonch bildirildi. 13 dekabr kuni "Muxtor Turkiston uchun" degan shior ostida Toshkentda va boshqa shaharlarda bayram namoyishlari boshlandi. Matbuotda taniqli ma'rifatchilar va jamoat arboblari Muxtoriyatini tabriklab, maqolalar e'lon qildilar (Afsuski, muallif bularning ismi-shariflarini aytmagan). Bizga ma'lum manbalarga ko'ra, Turkiston muxtoriyatini qutlovchilardan biri Abdurauf Fitrat, yana biri Hamza Hakimzoda edi. Cho'lponning qayg'uli she'rlari Turkiston muxtoriyati qonga bo'yalganidan so'ng yozilgan bo'lsa kerak. Jumladan, alloma Fitrat o'sha kunlari (1917, 5 dekabr, "Xurriyat" gazetasida) e'lon qilingan "Muxtoriyat" tabrik maqolasida bunday so'zlarni o'qiymiz: "Turkiston muxtoriyati... Temur hoqonning chin bolalari yonida, Turkistonli tubchak turkiylar orasida mundan urug'li (ulug'vor), mundan muqaddas, mundan suyunchli so'z, iymonni yuksaltiruvchi bir quvvat bor esa, yolg'uz shu so'zda bordir: Turkiston Muxtoriyati. Ellik yildan beri (1865 yildan beri) ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yemirildi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar (agressiyalar) bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi – to'zimli turdik, sabr etdik..."

Inqilob bo'ldi (A. Fitrat, A. Avloniy, Behbudiy, Munavvar qori va boshqalar 1967 yil fevral inqilobi bizga ham hurlik beradi deb ishonganlar) "Rusiyaning qo'shma xalq jumhuriyati (ya'ni, federativ respublikalar ittifoqi - RSFSR) usulida idora etiluvchi jarlandi (ya'ni, jar solib e'lon qilindi), Ukraina, Totor (Boshqird) va

boshqa millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Qo'nuq (Qo'num navbati) Turkistonniki edi. Turkistonning tarixiy xonbaliq (poytaxt)laridan ikkinchisi bo'lgan Xo'qand shahrida to'plang'an Turkiston qurultoyi (1917 yil) 27 no'yabr (boshqa manbalarda 26 dan 27 no'yabrg'a o'tar kechasi) "milliy laylatul-qadrimiz" bo'lg'an yarim kechasida Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi". Uch oydan so'ng Turkiston muxtoriyati qonga botirildi. Bu mudhish voqea, bolshevik sho'rolar – sovet istilochilarining turkiy xalqlarda qasdi, alami bo'lgan arman dashnoqlari yordamida xurriyatchilar va tinch aholining qirg'in qilinishi Alixon to'ra Sog'unuyning "Turkiston qayg'usi" asarida haqqoniy yoritilgan. Qahramonona ishlari bilan xalq orasida mehr- va muhabbat, shonshuhrat qozongan bu alloma yozishicha, Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat hukumatining 12 rahbari qatorida Alixonto'ra Sog'unuyning akasi Olimxonto'ra, polyak musulmoni bo'lgan milliy ozodlik kurashchisi huquqshunos Og'aev boshqalar bo'lgan. Alixon Sog'unuy bu shaxsni "Insoniyat qahramoni, haqlik qurboni (haq ish yo'lida qurbon bo'lgan)" buyuk zot sifatida, ehtirom bilan yozadi. "Chor hukumati yiqilganidan so'ng Polsha boshliq butun Boltiqbo'yi millatlari o'z huquqlariga ega bo'lib, muxtoriyat olmish edilar. Polsha xalqining milliy ozodlik kurashchisi Og'aev Turkistonda qurilayotgan yosh davlatlarga yordam berish uchun o'z ixtiyori bilan Qo'qonga kelgan, bu yerda xurriyatchilarga amaliy yordam ko'rsatgani uchun Turkiston muxtoriyati hukumati raisining o'rinbosari qilib saylangan edi". Biz bilgan manbalarda raisning boshqa o'rinbosarlari sifatida Mustaf Cho'qaev, Vali Qayumxon, Ahmad Zakiy Validiy va boshqalar bo'lgan. Sayfiddin Jalilovning "Buxoriylar qissasi" kitobida xalqimizning asriy orzu, tilagi bo'lgan bu tarixiy voqeaga jiddiy e'tibor berilganligi tabiiydir. U haqqoniy ko'rsatganiday, Markaziy istilochi bolsheviklar hukumati og'zida, qog'oz-hujjatlarda milliy respublikadagi ozodlik haraktlarini, xurriyatchilarni qo'llab-quvvatlaymiz deyishar, amalda niyatlari juda buzuq bo'lib, har qanday milliy ozodlik harakatlarini bo'g'ib tashlashga tayyor edilar. Ular shunday qildilar ham. Bolsheviklar yangi milliy davlatni tan olmay, o'zlaricha Turkiston o'lka Soveti Ijroiya qo'mitasini tuzdilar. Bu hukumatning asosiy rahbarlari –komissar, vazirlar orasida birorta ham mahalliy millat vakili yo'q edi. "Buxoriylar qissasi" kitobida

bolsheviklarning istilochi hukumati rahbari F.I.Kolesov buyrug'i bilan Toshkent mehnatkashlarining Turkiston Muxtoriyatini tabriklab, o'tkazgan namoyish qatnashchilari pulemyotlardan o'qqa tutilib, qirib tashlangani, 1918 yil 31 yanvarida esa, Sovetlar K.Osipov rahbarligida artilleriya zambaraklaridan Qo'qon aholisiga o't ochilib, shahar uy-joylari yoqib yuborilgani, yana 5 va 6 fevral kunlari Qizil armiya va "Dashnoq-qutyun" fabrikasi jangchilari tomonidan Qo'qonda 6 ming aholi o'ldirilgani to'g'ri yoritilgan. Bu tarixiy voqealarga jiddiy e'tibor berganimizning sababi tushunarli. Chunki, xuddi shu yovuzliklar, qonli qirg'inlar birinchidan, qo'rboshilar deb atalgan milliy ozodlik kuchlarining kurashi va bu harakat yengilgani oqibatida eng millatparvar kuchlarning muhojiratga ketishi va o'sha yoqlarda juda og'ir sharoitlarda Vatan ozodligi uchun kurashni davom ettirishiga asosiy sabablardan edi. Vatanda qolib, o'z yerida oshkora va yashirin ravishda kurashni davom ettirganlarning naqadar og'ir ahvolda qolganligini hozirgi yosh avlod yaxshi bilmaydi.

XULOSA. Biz hozir mustaqil davlatimizni qurish baxtiga erishgan ekanmiz, xalqimizning uzoq va yaqin o'tmishini, tarixiy xotirani unutishga ham ma'naviy, ham demokratik huquqiy davlat fuqarosi sifatida haqqimiz yo'q. Xalqimiz or-nomusi, insoniy qadr-qimmati uchun jon olib, jon bergan kurash yillarini, vatanimizning haqiqiy tarixini o'rganish davlatimiz fuqarolarida, barcha yoshga mansub avlodlar qalbida vatanga, xalqqa mehr va muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Tarixiy xotirasini yo'qotganlar manqurtlashib, faqat mol, dunyo, mansab, amalga xirs qo'yib, o'zlarini vatan taqdiriga aloqamiz yo'q deb, his qiladilar. O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilgan Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan asarida bunday yozadi: "Yetmish yildan ortiq davrda boshimizdan qanday ma'naviy, madaniy tazyiq, xo'rliklar kechganini ham yaxshi bilamiz. Men bu yerda til, adabiyot, tarix, din, xalqimiz genofondi, demografiya bilan bog'liq ayanchli kechmishlarni nazarda tutayapman". Agar bu so'zlarning ma'no salmog'iga e'tibor bersak, yuqorida aytilgan allomalarimiz Abdurauf Fitratning, Alixon Sog'uniyning qayg'uli so'zlarini ham unutmaymiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Matchonov S. (2020). Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi. Til va adabiyot ta'limi. 7(7), 8-11.
2. Matchonov S. (2020). Kitobxonlik va mutolaa madaniyati. BuxDU Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Xalqaro konferensiya materiallari 2020 yil 29 aprel, 89-92-betlar
3. Matchonov S. (2020). Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlar 2020 1(1), 49-53-bet.
4. Shermatova U.S. (2019). Cho'lpon lirikasini o'rganish texnologiyasi. Tafakkur ziyosi, 2(2), 29-32.
5. Shermatova U.S. (2020). Kunduzsiz kechalar yog'dusi. Til va adabiyot ta'limi, 2020, 3(3), 23-25. 6. Shermatova U.S. (2020). Vatan timsoli ma'naviy qadriyat. Pedagogik mahorat.

CHOR ROSSIYASINING “ARALASHMASLIK” SIYOSATI VA JADIDCHILIK

Abduxaliqov S.O.
O'zR IIV Akademiyasi
f.f.doktori, professor

“Jadid” so‘zi arabchadan “yangi” degan ma‘noni beradi. Tarix kitoblarida ta‘kidlanganidek, 1883 yilda Qrimda ulug‘ ma‘rifatparvar Ismoil Gaspirali Bog‘chasaroyda musulmon maktablaridagi eskicha, lekin murakkab o‘qitish usulidan voz kechib, yengil qiroat usuliga asoslangan maktabni ochadi va darsliklar yozadi. Ayni vaqtda uning tomonidan “Tarjimon” gazetasi chop etila boshlangan, uning tomonidan Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi asarlari ham keng tarqala boshlaydi. Uning bu qarashlari Qrim, Kavkaz, Volga bo‘ylar va Markaziy Osiyoga tarqala boshlaydi. Natijada bu qarashlar jadidchilik nomli g‘oyaviy oqimga aylanadi. Ismoil Gaspiralining Buxora amiri bilan uchrashuvi oqibatida 1893 – yildan to 1905 – yilgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo shaharlaridagi jadidchilik namoyondalari tomonidan jadid maktablarini tashkil etish ommaviy tus oladi. Jadidchilik harakatining oldida ikkita maqsad bor edi: xalqni ma‘rifatli qilish va shu asosda milliy mustaqillikni qo‘lga kiritish.

Chor Turkistonda jadidchilik harakati tarqalishining sabablaridan biri Turkiston General-gubernatorligining islom dini, xususan musulmon maktablariga nisbatan «aralashmaslik» siyosati edi. Bu siyosat xalqni jaholatda ushlab turishning asosiy vositalaridan bo'lib xizmat qildi. Chor hukumatining islom dini, jumladan, musulmon maktablariga nisbatan «aralashmaslik» siyosati davlat qonuni vositasida ularni davlatdan ajratib tashlash demakdir. Xonliklar davlat sifatida yo'qolgach, uning qonunlarining ham tan olinmasligi o'z-o'zidan ravshan. Hukmron davlat Chor hukumati ekan, uning qonunlari uning barcha joylarida, jumladan, mustamlakalarida ham daxlsiz harakat qildi. Ammo Turkiston gubernatorligi tomonidan maxsus huquqiy siyosat - «aralashmaslik» siyosati ishlab chiqildiki, bu islom tashkilotlarining davlatdan ajratilishini boshlab yuborgan edi. Misol sifatida Chor hukumatining Turkistonda musulmon maktab-lariga nisbatan huquqiy tadbirlarini keltirish mumkin.

Oktyabr fitnasiga qadar musulmon maktablari o'z tuzilishiga ko'ra eski va yangi usuldagi maktablardan va madrasalardan iborat bo'lgan. Xuddi shu maktab va madrasalar jahon miqyosida ne-ne daholarni yetkazgan edi.

«Aralashmaslik» siyosati chor general-lariga harbiy, ma'muriy ishlarni hal qilishda o'sha davr ziyolilari - mullalarini betaraf qilishga imkon berdi. Chor Rossiyasining islom diniga munosabatini musulmon maktablari misolida qarab chiqsak, uning siyosatining uch davrini ko'rish mumkin.

a). Chor hukumatining korchalonlari, generallari mustamlaka Turkiston o'lkasida 1860 yildan to 1898 yillargacha, ya'ni o'lkani bosib olgan vaqtdan to 1898 yilgi Andijondagi milliy ozodlik harakatigacha (tarixda «Andijon qo'zg'oloni» deyilgan) bo'lgan davrda musulmon maktablariga o'ta dushmanlik munosabatida bo'ldilar, lekin musulmon xalqning qo'zg'alishidan cho'chib, ularga g'ayriqonuniy yo'llar bilan bir qator tadbirlarni qo'llash orqali zarar yetkazadilar.

1867 yil Chor hukumatining 11 iyuldagi farmoni bilan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Toshkent shahri ma'muriy markazga aylantirildi. 1875 yilda esa Rossiya imperiyasi maorifi ministrligi huzurida «Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasi» tuzildi. O'lkadagi harbiy, ma'muriy ishlar va musulmon

ahliga mafkuraviy ta'sir etish masalasidagi qiyinchiliklar tufayli bu ish keyinga surilgan edi. General-gubernator K.P.Fon-Kaufman maktab ishlari bo'yicha mutaxassis N.I.Ilinskiy bilan birgalikda musulmon maktablariga nisbatan qo'llaydigan siyosatlarini ishlab chiqa boshladilar. Xalq maorifi ministri D.A.Tolstoy mustamlaka o'lkalarida o'zlarining boshlang'ich ta'lim maktablarini ko'paytirish rejasida quyidagi g'oyani ilgari surdi: «Vatanimiz chegarasida yashovchi barcha g'ayritalabalarni o'qitishdan asosiy maqsad - shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan omuxta qilishdan iborat bo'lishi kerak». [Qarang: Bendrikov K.E. Ocherki po istoriini narodnogo obrazovaniya v Turkestane/1865-1924/. –M., 1960. S.63]. Kaufman esa maorif ministrining bu ko'rsatmasini 1873 yilda podsho hukumatiga taqdim etgan «Turkiston o'lkasida xalq ta'limi va o'quv ishlarini tashkil qilish rejasi»da asosiy g'oya qilib oldi: «O'lkadagi xalq ta'limini rivojlantirish rus manfaatlari doirasida olib borilishi kerak. Lekin bunda g'ayritalabalarning diniy e'tiqodlari har qanday tajovuzdan chetda bo'lishi, maktablar esa mutlaqo diniy yo'nalishda bo'lmasligi kerak. Mahalliy aholi bolalari bilan rus bolalariga birgalikda ta'lim berish g'ayritabaa aholi bolalaridagi asosiy qarama-qarshi tushunchalarni bartaraf qilishga ta'sir etib, bosib olingan o'lkani assimilyatsiya shunda katta foyda keltiradi».[Qarang: O'zR MDA. 2282-fond, 1-ro'yxat. 91-delo. 88-89-betlar].

Kaufman islom madaniyatiga nisbatan «aralashmaslik» siyosatini tanladi. «Barcha musulmonlarga bo'lgan munosabat-da orttirilgan yo'lni tutish qoldi. Bu yo'l - e'tibor ber-maslik». [Qarang: O'zR MDA. 2282-fond, 1-ro'yxat. 91-delo. 88-89-betlar]. Kaufman fikricha, musulmon maktablarini zo'rlik bilan yopish xavfli bo'lganligi uchun ularga e'tibor bermaslik kerak, shundagina hukumatning yordamisiz o'z-o'zidan yopilib ketadi. Shuning uchun u birinchi navbatda ma'muriy lavozim - raislikni bekor qildi. Xonliklar davrida raislik urf-odat, marosimlarning bajarilishini, ota-onalar-ning o'z bolalarini maktabga bergan-bermaganligini nazorat qiluvchi lavozim edi. Ayni vaqtda rais urf-odatlarimizni bajarmaganlarni javobgarlikka tortar edi. Raislik bekor qilingandan so'ng ota-onalarning ko'pchiligi

maktablarga sarflanadigan xarajatni o'z vaqtida to'lamay va farzand-larini o'qishga yubormay qo'ydilar.

80-yillarga kelib Chor hukumatining Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirishiga vaqf mulki to'siq bo'lib qolayotganligi ko'rinib qoldi. Ayni vaqtda vaqf mulki musulmonlarning iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga imkon berar edi. Shuning uchun general-gubernator fon-Kaufman muta-valliboshi lavozimini ham bekor qildi, natijada vaqflar ustidan nazorat to'xtadi va uning daromadini mutavallilar tomonidan talon-toroj qilish kuchaydi. Mustamlakachilar zudlik bilan mujmal yerlarni vaqf ixtiyoridan chiqardilar va daxlsiz vaqflar ustidan nazorat o'rnatdilar. 90- yillarda ko'pgina vaqf yerlari turli xil bahonalar bilan tortib olindi. Xonliklar davrida vaqf yerlarini rasmiylashtiruvchi vaqfnoma va inoyatnoma kabi hujjatlar berilar edi. Inoyatnomaga xon muhri bosilib xon solig'idan ozod qilar edi. Mustamlakachilar esa ikkala hujjatning farqiga ataylabdan tushunmasdan vaqfnomaga javobgar shaxslardan ham xon muhrini talab qildilar va vaqf yerlarini xon muhrisiz noqonuniy deb topdilar. Oqibatda madrasalar daromadsiz, qarovsiz bo'lib qoldi.

Xonliklar davrida mudarrislarining ustidan nazorat qiluvchi lavozim - a'lamlik bo'lar edi. Kaufmanning ushbu lavozimni bekor qilishi madrasa mudarrislarining o'z ishlariga sovuqqonlik bilan qarashlariga olib keldi. Barcha ma'muriy lavozimlar rus ofitserlariga olib berildi. Madrasani tugatganlarga faqatgina, xuddi hozirgidek imomlik va domlalik qilishlariga ruxsat berildi. Qozilarni esa uezd boshliqlari mumkin qadar savodsiz, siyosiy betayin kishilardan tasdiqlar edi.

Mustamlakachilarning «aralashmaslik» siyosati islom madaniyatini yemirishda o'zini oqladi. Kaufman bu ma'muriy tadbirlar bilan ham cheklanib qolmadi. U madrasalarni rus manfaatlariga mos ravishda isloh qilish masalasini, xusu-san rus tili va rus tarixi o'qitilishini o'rta qo'ydi. Bu ishga musulmon-tatarlar tayinlandi. Ammo Kaufman ularga xavfli islom targ'ibotchilari deb qaraganligi uchun bu ish to'xtab qoldi.

1890 yildan 1896 yilgacha Turkiston o'lkasidagi musulmon maktablari bo'yicha maxsus inspektorlik lavozimi jo'riy qilindi. Bu lavozimga musulmon urf-

odatlarini, o'zbek tilini yaxshi biladigan V.P.Nalivkin tayinlandi. U musulmon maktablarining ichki ishlarini hal qilishda ko'pgina «aralashmaslik» tadbirlarini o'tkazdi. 1896 yilda musulmon maktablarini nazorat qilish rayon bilim yurtlari inspektorlari ixtiyoriga berildi. Vaqf ishlari bilan esa ma'muriyat shug'ulanadigan bo'ldi. Xuddi mana shu inqirozga olib boradigan salbiy ma'naviy-madaniy tadbirlar ham Chor Turkistonida jadidchilikning shakllanishining ildizlaridan hisoblanadi.

b). 1898 yilda Andijonda mustamlakachilikka qarshi qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Hukumat ushbu qo'zg'olonni «panislamizm» bilan zaharlangan ekstremistik islom tashkilotlari, xususan musulmon maktablarining ishi, deb baholadi. Shu boisdan Turkiston general-gubernatorligi devoxonasiga barcha musulmon tashkilotlari a'zolari, eshonlar nomi va muridlar soni, mozorlar va boshqa muqaddas joylar nomi va soni yig'ildi. Shu davrdan boshlab Chor hukumatining islom tashkilotlariga nisbatan tutgan siyosatida ikkinchi bosqich boshlandi: mudarris, mulla va xizmatchilar uezd ma'muriyati ishtirokida, ularni siyosiy jihatdan «ishonchliligi» tekshirib ko'rilganidan so'nggina saylanadigan bo'ldi. Va, saylovdan o'tgach o'quv rahbariyati tomonidan «ishonchli» bo'lganligi uchun tasdiqlangan.

v). 1905 yildagi birinchi rus revolyusiyasidan so'ng rus korchalonlari Turkistonda islom tashkilotlari ustidan nazoratni kuchaytirish bilan o'zlarining «aralashmaslik» siyosatlarida uchinchi bosqichni boshlab yubordilar. Qayta-qayta taftish komissiyalari tuzildi. Chor hukumati vakillari asosan yangidan, shakllanayotgan yangi usuldagi musulmon mak-tablaridan xavfsirab qolgan edilar. Ular bu maktablarga islom madaniyatini rivojlantirib Rossiyaga xavf tug'diruvchi xalqqa aylanish mumkin, deb qaradilar. Chor amaldorlari yangi usuldagi maktablarni zo'rlik bilan taqiqlashdan cho'chib zimdan ish yuritdilar. Dastavval, o'qituvchi o'quvchilar bilan bir xalq vakili bo'lish kerak, degan talab bilan 1911 yil yanvaridan boshlab tatar o'qituvchilarni quvg'in qildilar. Ammo ularning o'rnini mahalliy o'qituvchilar egalladilar. Shu tariqa yangi usul maktablari o'sib bordi. Ular ushbu siyosat naf bermagach «yorug'lik yetishmaydi», «bino nochor» kabi har xil bahonalar bilan yangi usul maktablarini yopib qo'ya boshladilar. Bu tadbirlar eski usul maktablariga nisbatan qo'llanilmadi. Chor hukumati 1911 yildan boshlab

barcha musulmon tashkilotlarning ichki ishiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Musulmon maktablarida o'quv ishlaridan tortib o'quvchilarning davomatigacha aniqlanib, kerakli faktlar esa to'plana boshladi.

1914 yildan boshlab jahon urushi tufayli Turkistonni boshqarishni qayta ko'rib chiqish masalasi o'rta qo'yildi. Peterburgdan yuborilgan komissiyalar musulmon maktablarini chorizm manfaatlariga mos ravishda butunlay isloh qilish kerak, degan xulosaga keldilar. Biroq Turkistondagi o'quv ishlari ma'muriyati musulmon maktablarini isloh qilishga qarshi chiqdi. Chunki islohot musulmon xalqining islom dini negizida milliy birlikka intilishini kuchaytirar edi. Bu Rossiya uchun eng asosiy xavf edi. Shuning uchun 1916 yilda yangi yuborilgan general-gubernator Kuropatkin milliy-ozodlik harakatini o'q-nayza bilan bostirishda yuqorida qayd etilgan ijtimoiy, ma'naviy vaziyatni ham inobatga oldi.

Biz Chor rossiyasining Turkistonda musulmon maktablariga munosabatlarining uch bosqichi-davrlarini ko'rib chiqdik.

Birinchi davr - 1860-1898-yillarda Chor Turkistonida olib borilgan maorif sohasidagi salbiy tadbirlar o'lkada jadidchilikning shakllanishiga olib kelgan.

Ikkinchi davr – 1898-1905-yillar va

uchinchi davr – 1905-yildan keyingi Sovet davlatining dastlabki yillarigacha bo'lgan davrlar esa milliy mustaqillik uchun kurash davrlari bo'lgan.

JADIDLARNING HARBIY SOHAGA OID QARASHLARI

Mirzayev.D.,
Fanlar Akademiyasi
Tarix instituti
tayanch doktoranti

XIX asr oxirida dunyoda mustamlakachilik siyosati avj olib bu holat Turkistonni ham chetlab o'tmadi. Rossiya imperiyasi tomonidan 1865 – 1885-yillar oralig'ida Turkiston mustamlakaga aylantirildi. Natijada mustamlakachi hukumat o'z manfaatlaridan kelib chiqib Turkistonning yer usti va osti boyliklariga egalik qila boshladilar. Bundan tashqari asrlar davomida shakllanib kelgan ijtimoiy, iqtisodiy sohalar ham mustamlakachilar tomonidan nazoratga olinib o'ziga xizmat qiluvchilarinigina qoldirib boshqalarini yo'q qildilar. Shu jarayonda yurtimizda ilm-fan, ta'lim kabi sohalar rivojlanishdan to'xtab qoldi. Bu sohalarni rivojlantirish va aholida milliy mustaqillik va Vatanga muhabbat g'oyalarini shakllantirish uchun jadidlar maydonga chiqa boshladilar. Jadidchilik harakati vakillari aynan mana shu mustamlakachilik zulmidan millatni ma'rifat yo'li orqali qutqarish uchun intilgan bo'lsalarda, ammo milliy qo'shin va armiyaga ega bo'lmagunimizcha mustaqillikka erishib bo'lmashligini yaxshi tushunib yetganlar.

Ushbu xususda jadidchilik harakatining yorqin vakillari o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Dastlab Turkiston jadidlarining otasi sifatida tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi tomonidan tashkil qilingan "Oyina" jurnalida askarlik to'g'risida fikr yurgizgan. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z zamonasida bo'layotgan voqealar ya'ni "Birinchi jahon urushi"da qatnashayotgan mamlakatlar haqida atroflicha to'xtalib o'tib, askarlik va Vatan mudofaasi haqida o'z fikrlarini bergan. Maqolada aytilishicha askarlik va Vatan muhofazasi faqat yigitlarning askarlik xizmatidan iborat emasligini, qo'shinga moddiy jihatdan ko'maklashishni ham yuksak vatanparvarlik namunasi ekanligini aytadi [1]. Behbudiy o'z fikriga qo'shimcha qilib bir hududning xalqi va askarlari turli dinlarga e'tiqod qilsalarda Vatan uchun

kurashishi kerakligini ta'kidlaydi va Rossiya qo'shinida musulmonlar va Usmoniylar qo'shinida xristianlar borligini misol keltirgan [1].

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston xalqidan askarlikga olinmagan. Chunki turkistonliklarning qurollantirishdan qo'rqib, ularni mustaqillikga da'vo qilishlari mumkin deb hisoblaganlar. Bundan ko'rinadiki, xalqimiz har doim mustaqillikga intilib yashagan.

Abdulla Qodiriy ham bu masalagan befarq qaramagan. Shuning uchun qo'shinga, boshqalar tarafidan huquqingning toptalmovi, chetlarga mahkum, mazlum bo'lmaslik, chet millatlarga o'z tovushingni eshitdirub eshitmoqqa majbur etuvga shubha yo'qkim, qo'lingdagi qurolingga, askariy kuchingga qarab bo'lur [2], deb ta'rif bergan. Bu bilan milliy qo'shinning ne chog'lik muhim va kerakligini ta'kidlagandek. Qo'shinlarning kerakligi haqida fikrini davom ettirar ekan Yevropa mamlakatlarini misol qilib keltirib, Ularning taraqqiyoti va mustaqilligi qurol kuchiga tayangani va shuning yordamida Sharq xalqlarini qaram qilganligi haqida yozadi [2]. Sharq xalqlarning bunday ahvolga tushishini esa madaniy jihatdan rivojlanishdan orqada qolganligini aytib o'tgan bo'lsada, o'z fikriga qarshi chiqib qo'shni Afg'onistonni misol keltirib shunday degan, afg'on xalqi hozirda va mundan elli-oltmish yil ilgari ham madaniyatcha biz turkistonlilardan ortiq bo'lmay yurar edi. Lekin boshqa madaniy millatlarning taxt hokimiyatiga o'tkani yo'qdir [2]. Bunga sabab sifatida afg'onlarning o'z milliy qo'shishi borligini keltirgan. Shuning uchun ham har bir mamlakat o'z qo'shiniga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab shunday degan: Mamlakat idorasi askarsiz mumkin emas. Idora o'z qo'limizga o'tkach, tabiiy, vatanimizning dushmandan muhofazati o'z ustimizga tushajak. Buning uchun o'z askarimiz bo'lurg'a kerak. Tabiiydirki, mamlakat idorasi bizning qo'lda bo'lib askarlikni boshqalar qilmayajak. Bu mumkin ham emas [2]. Ya'ni bu bilan Abdulla Qodiriy aytmoqchiki agar yurtda boshqa xalqning askari bo'lsa o'sha yurtning mustaqilligi ham yo'q.

Askarlik xususida Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev ham o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Birinchi jahon urushiga baho berar ekan har qaysi millatni xushyorlikga chaqiradi. Shuningdek u, mamlakat uchun o'zining tuprog'ini

saqlamak kabi muhim va muqaddas bir vazifa yo'qdur. Chunki nufus va aholining rafoh²⁰ va saodati yolg'iz vatanning salomatligiga bog'laydur [3], deb aytib o'tgan. Vatanning qadrini esa shunday baholaydi: Vatansiz qolmak esa shul yo'lda qurbon bo'lmakdan ham og'ir bir ishdir [3]. Vatanni himoya qilish haqida esa: Bu bizim eng muhim vazifamiz, buni musohala qilmak ulug' bir ayb qusur bo'lsa kerak [3], deb o'z fikrini yakunlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning eng yaxshi shogirdlaridan biri Hoji Muin ham Vatan himoyasi va askarlik haqida o'z fikr va mulohazalarini yozib o'tgan. U "Oyina" jurnali va "Samarqand" gazetalarida ishlab yurgan paytlari bu mavzuga bir necha bor qo'l urgan. Jumladan, yurt muhofazasini tashkil qilish uchun kishilar ongida yurtga muhabbat tuyg'ularini singdirishni faqatgina ta'lim va tarbiya bilan amalga oshirish mumkinligi haqida: Bizlarning zamonaga muvofiq, ya'ni zamoncha ehtiyojimizga yarayturgon maktab, madrasa, dorulsano'a ...larimiz ila zamoniylar bilan fanlarni bilaturgon ulamo, ag'niyo, tujjorlarimiz va hunarmandlarimiz yo'q [4], deb yozgan. Ta'lim va tarbiya bo'lmas ekan yurtda askarlik haqida ham o'ylash muammoli masala ekanligini anglagan. Lekin shunday bo'lsada askarlarni hayotiy zaruriyat sifatida bilib, xalqning oldin borishi, yurtning tinchlanmog'i va kuchli bo'lmog'i maorif, askarlik, iqtisod va dehqonchilik ishlarining tuzuk bir-biriga qo'yilishi bilan bo'laladurkim, maaltaassuf, bu to'g'rilarda hanuz xalq uchun foydali va ko'zga ko'rinurlik ishlar qiling'on emas. ...Askarlik jihatidan holimiz undan ham yomondir. Holbuki, yurtni saqlamoq va xalqning tinchligini tayin etmak uchun askar kerakdir [5], degan fikrlarni beradi.

Mazkur davrda dunyoda askarlari qudratli mustamlakachi davlatlar haqida so'z yuritib shunday deydi: Hozirgi kunda dunyoni buzub inson qonini oriqlardek oqizib turg'on askar bo'lg'onidek, ba'zi bir falokatni tinchgina soqlab o'zgalarg'a oyoq osti bo'lmasliqg'a sabab bo'lub turg'on ham askarlik kuchidir. Zotan askarlik va askar tuzmakdin maqsad yurt va fuqaroni ajnabiylarning tajovuz va taloshindan muhofaza etib intizom doirasinda tinchgina yashamak bo'lsada lekin xasis va

²⁰ Rafoh – arabcha, salomatlik

ta'magir hukmdorlar bir yoqdan yolg'uz o'z taxt va tojlarini saqlamoq, ikkinchi yoqdan hukumatlarin kengayturub ulug' podsho bo'lmoq uchun askarlarini tinch va gunohsiz xalqlar ustig'a yuborib dunyoni qong'a boturub kelurlar [6].

Hoji Muin yana bir maqolasida, Bu dunyo hayot muborizasi maydoni bo'lgonidan, bir kuchlik nimarsa kuchsizini ezar, yutar. Bu qonuni tabiat har bir jonsiz va jonlik narsalar haqida umumiy va joriy bo'lub kelmakdadur [4], degan fikrni bildirib, har qanday kuchli qo'shinga ega mamlakat kuchsiziga xavf tug'dirishi mumkinligini ogohlantiradi.

Hoji Muin: "Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy urush va inqilob, xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu urushdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir [7]", deydi. Shu o'rinda, Hoji Muin askarlik masalasi negizida xalqqa ozodlikka chiqishni targ'ib qilgan, birlashishga chorlab: "Dunyoda zolim ostinda nomussiz yashamakdan huquq va hurriyat yo'linda nomus bilan o'lmak ming marta yaxshiroqdir. Ey Turkiston xalqi! Oyoqg'a tur! Dushmanlaringni bos! Yurtingni saqla! Ey turkistonli turk o'g'li! Yarog'ingni ol! Yovingni ot! Hurriyatingni saqla! [7]" deb bong uradi. Keyingi maqolasida esa: "Askarsiz millat jonsiz gavda hukmidadir. O'zining yerlik xalqidan askari bo'lmagan bir yurt qo'riqchisiz bir istehkom kabidir. Askarlik bir millatning hayot-mamot masalasini hal qilish uchun zo'r ro'llar o'ynaydurg'on bir kuchdir. Har bir yengish va yengilishning boisi askardir [8]", deb uqtirgan.

Hoji Muin "Zarafshon" gazetasining 1923-yil 21-iyun sonida bosilgan "Askarlik to'g'risida" maqolasida yuqoridagi fikrlarini rivojlantirib, askarlikning qudrat belgisi ekanligini tarixiy dalillar bilan asoslar ekan: "Nikolayni taxtdan tushirgan – askar, sho'rolar hukumatini bu kungacha muhofaza qilib kelgan ham askar bo'ladi. Turkiston turklari ham bir vaqt urushqoqliqda mumtoz va mashhur edilar. Faqat bu so'ngg'i asrlarda o'zlarining askariy kuchlarini Ovrupa jahongirlariga qarshi tashlamay, o'zaro urushg'a sarf etdilar. Oxiri, ularning yurtimizni istilo qilishlarig'a sabab bo'ldilar. Shuning uchun bundagi xalqda bora-

bora askarlik ruhi so'nib ketdi [8]", deydi. 1918-yili boshlangan harbiy xizmatga olish ishlari to'g'ri tashkil qilinmay, yoshlarning majburiy ravishda askarlikka olinishi xalqning noroziligiga sabab bo'lganini, askarlarning armiyadan ommaviy qochib ketish holatlari yuzaga kelganini "Xalqning ahvoli ruhiyasi bilan hisoblashmaganimiz uchun bu to'g'rida zo'r xato qildik. O'shal vaqtda faqat ixtiyoriy suratda askar olg'onimizda, hozirgacha o'n minglarcha muntazam askarga ega bo'lur edik [8]", deya ochiqladi.

Hoji Muin 1923-yilda hukumatda yana askarlikka olish masalasi kun tartibiga qo'yilganini aytib, ilgari xatolarni takrorlamaslikka chaqirar ekan: "Ana bukun yana yerlik xalqdan askar olish masalasi qo'zg'atilub turadir. O'rtoq Troskiy ham o'zining maktubida "yerliklardan sekin-sekin askar olish kerak" mazmunida bir-ikki so'z yozib o'tadir. Shundan ham ma'lum bo'ladirkim, bu kunlarda yana hukumat Turkiston xalqidan askar olishni tasvib va maslahat ko'rgan. Lekin bu daf'a qaysi ravishda, qanday sharoit bilan askar olinadur? Bu ham bilgulik emas. Shoyad bu to'g'rida hukumatning yuqori doiralarida kengash va muzokaralar bo'lib turg'ondir. Har holda, bu daf'a avvalgi xatolar takror voqe' bo'lmas, deb o'ylaymiz [8]", deya fikrini tugallaydi. Shu o'rinda u askarlikka olish bo'yicha quyidagi takliflarni beradi: "Harbiy xizmatga olish tartibli va kuchli tashviqotdan so'ng majburiy emas, ixtiyoriy suratda bo'lishi lozim; askarlik xizmatining muddatini qisqartirish kerak; harbiy xizmat bilan bog'liq qonun va qoidalar yengillashtirilishi shart; yerlik xalqdan zobitlar yetishtirish uchun Turkistonning har bir shahrida askariy kurs va maktablar ochish kerak; askarlarning maishatlarini yaxshi ta'min etish va ba'zi urfodatlariga mudoxala qilmaslik va o'zlarini Turkistondan boshqa davlatga yubormaslik kabi qoida va yon berishlar e'lon qilish lozim [8]". Hoji Muin hukumat shu tavsiyalarni inobatga olsa, "Askarlikka olish muvaffaqiyatli chiqishi, shuning bilan barobar har bir ko'ngilli askarga o'z yaqinlaridan ikki kishining kafil bo'lishi yoki shunga o'xshash boshqa bir tadbir shart qilinsa, kelgusida ul askarning qochishlig'i va yo hukumatga qarshi xiyonat qilmaslig'i uchun bir amniyat hosil bo'lur edi [8]", deb uqtiradi. Bu fikrlar oradan yuz yil o'tganiga qaramay, hamon o'ta muhim ahamiyatga molikdir.

G'ulom Zafariy ham o'z maqolalarida askarlik haqida yozib, Turkiston muxtoriyatini esga oladi. U, Biz Turkistonli turk bolalari muxtoriyat e'lon etdik. Endi muxtoriyatimiz barqaror o'lsun desak, bizga quvvat lozim [9], deb muxtoriyat askarlarini yanada kuchaytirish haqida fikr biladiradi. Vatanni himoya qilishda hech qanday shaxfiy, diniy, mintaqaviy manfaatlar bo'lmasligi lozim. Buni hisobga olgan holda G'ulom Zafariy, bir-birimizla yomon harakatlarda bo'lmasdan, dushmanlarimizla olishub, nom nishon olaylik, iftixor etaylik, sharafiyot o'laylik [9], deb aytib o'tgan. Kuchli qo'shinni qanday tuzish mumkinligi haqida ham o'z fikrini bildirib, Bu kun rohatimizni tark etub, uxlamay faqat bunlari tushunoylik, zavq va safoga tolmoylik, to'y tamoshalarga mo'l, mo'l pullari xarj etmoy, iqtisodga rioya etub ortdirgonimizni iona etaylik, uyimizdagi kam kichik uy asboblarni ortdirmoqg'a harakat etmoy, tutimizni ortdirmoqg'a harakat etaylik, ipak, qumosh va boshqa narsalarda iqtisod etaylik, sandiqlarni, xaltalarni, yuklarni to'ldirmoqg'a g'ayrat etmay, quvvatimizni to'ldirmoqg'a g'ayrat etaylik. Qimmatlik narsalarga ya'ni olmoska, javharka, zumradka, marjonka, yoqutka va kumush asboblarka oltunlarimizni beribda sandiqlarda hibbs etsok bularning na davlatga, na millatga, na vatanga, na askarga foydasi bo'lmos, sandiqlarda shundog'cha qolur [9], degan edi.

Bizning askarlarimiz boshqa mamlakat askarlardan kam bo'lmasligi kerak degan g'oyani surgan. Bu haqida, Bu kun bizni askarimiz na qadar ko'p bo'lsa ul qadar quvvatli haybatli bo'lurmiz. Dushmanlar yerindan qamaldomizlar, u quvvat biz dushmanlarga ko'kragimizni kerib qarormiz hamda orzu etkan masalalar to'psiz, to'fangsiz, silohsiz, masrufsiz²¹ hosil o'lur. Oning uchun doimo to'pimiz, to'fangimiz askarimiz mavjud bo'lunmoq iqtizo²² etar [9], degan edi. Bu fikrlar Turkiston Muxtoriyati tashkil qilinganda aytilgan bo'lib, mazkur hukumat a'zolari o'zini himoya qilarlik darajada qo'shin yarata olmadi. Natijada bolsheviklar bilan kurashda yengildi va istiqloqlchilik harakati boshlanib ketdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Turkiston jadidlari yoshlarni harbiy xizmatga jalb qilish, milliy qo'shin tuzishning huquqiy asoslarini yaratish borasida yetarli ilm

²¹ Masrufsiz – sarf-harajatsiz.

²² Iqtizo – taqozo.

va tajribaga ega bo'lganlar. Ular askarlik Vatan uchun buyuk xizmat ekanligini e'tirof etgan holda, yoshlarni harbiy xizmatga jalb etishni xalqning orzu istaklari bilan uyg'un holda olib borishni muhim deb bilganlar. Bu ishni xalq bilan bo'lishish maqsadida Oyina, Ishchilar dunyosi jurnallari va Sadoi Turkiston, Zarafshon, Samarqand, Mehnatkashlar tovushi, Ishtirokiyun kabi gazetalarda katta va kichik maqolalar yozib borganlar. Shu yo'l orqali xalqni birlashtirish va mustaqillikka erishish g'oyalarini ilgari surganlar.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Ionat kerak, ko'ngulli askar kerak. "Oyina" jurnali. 1914-yil 23-avgust.
2. Abdulla Qodiriy. Bizda askarlik masalasi. "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919-yil, 4-noyabr.
3. Ubaydulla Asadullaxo'jayev. Vatan muhofazasi. "Sadoyi Turkiston" gazetasi. 1914-yil 6-sentyabr.
4. Hoji Muin. Istiqbol qayg'usi. "Oyina" jurnali. 1913-yil, 2-son.
5. Hoji Muin. So'z, qaror va ish. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi. 1921-yil, 26-may.
6. Hoji Muin. Askarning vazifasi va jahongirlik balosi. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi. 1919-yil 29-iyun.
7. Hoji Muin. Bizga nima kerak? "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi. 1918-yil 13-avgust.
8. Hoji Muin. Askarlik to'g'risida. "Zarafshon" gazetasi, 1923-yil, 21-iyun.
9. G'ulom Zafariy. Quvvatimiz askardir, hamiyatparvar turkistonlilar! "Ishchilar dunyosi" jurnali. 1918-yil 18-yanvar.

SOVETLARGA QARSHI KURASHDA JADIDLARNING XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN

Xasanov A.O.,
O'zFA Tarix instituti
tayanch doktoranti

XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida siyosiy uyg'onish jarayoni boshlandi. 1905-yilgi yanvar inqilobidan keyin Rossiyada mutlaq monarxiya tizimi zaiflasha boshladi. Imperiya bosib olgan qaram xaqqlar uchun siyosiy kurash imkoniyati paydo bo'ldi. Mustamlaka o'lkalarda madaniy-ma'rifiy harakat sifatida shakllangan jadidchilik shu vaqtdan boshlab siyosiy bosqichga qadam qo'ydi. Dastlabki milliy ijtimoiy-siyosiy uyushmalar shakllanib, o'z haq-huquqlari uchun kurash boshladi. Xususan, 1904-yili tuzilgan tatarlarining "Hurriyat", Ozarbayjon oydinlarining "Ummat" partiyasi ana shunday maqsadlarni ifodalagan tashkilotlar edi²³.

Turkistonda esa ijtimoiy yoki iqtisodiy faoliyat yuritgan bir necha jamiyat va tashkilotlar paydo bo'ldi. Jumladan, "Jamiyati xayriya" (1909), "Umid" (1910), "Turon" (1914), "G'ayrat" (1916), "Iqtisod" (1915) jamiyatlari va bir necha "gap" marosimi ko'rinishidagi uyushmalar tuzildi²⁴. Ular orqali xalqni uyg'otish va istiqloлга tayyorlash maqsadlari ko'zlandi. Ayni paytda, milliy manfaatlarni himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilgan uyushmalar rus hukumatiga dushmanona harakatda bo'ladigan siyosiy tashkilotlar emasdi. Faqat ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, imperiya doirasida teng huquqlilik uchun kurashishni asosiy vazifasi deb bilardi, xolos.

1917-yil Fevral inqilobi ta'sirida Turkiston mintaqasida ochiq shakldagi ilk milliy siyosiy tashkilotlar maydonga chiqdi. 1917-yilning dastlabki oylaridan boshlab "Sho'royi Islomiya", "Turon", "Ulamo", "Ittifoq", "Turk adam markaziyat firqasi" kabi kuchli tashkilotlar, jami 20 ga yaqin milliy siyosiy jamiyat va to'garaklar tuzildi²⁵. Ularning ichida eng nufuzlisi bo'lgan "Sho'royi Islomiya"

²³ Nadir Devlet. Rusya türklerinin milli mücadelesi tarihi (1905-1917). –Ankara, 1985. S. 77

²⁴ O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Birinchi kitob. –To'shkent, 2019. 19-6.

²⁵ A. Мингноров. Туркстонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар (Миллий матбуот материаллари асосида). –То'shkent, 2002. 61-6.

asosida butun Turkiston mintaqasida yagona siyosiy uyushma tuzish harakatlari olib borildi. Bu tuzilmaning asoschilaridan Muftiy Sadriddinxon u jarayonlarni shunday xotirlaydi: “1917-yil Rus inqilobidan foydalanib, Turkiston musulmonlarini yagona ittifoq asosida birlashtirmoq maqsadida do‘stlarim yordami bilan Toshkentda Sho‘royi Islomiya tashkilotini tuzdik. Niyatimiz Turkistonda tuziladigan musulmon tashkilotlari Sho‘royi Islomga oid bo‘lmoqlari edi”²⁶. Shuningdek, ushbu tashkilot oldida Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi, “O‘lka ishchi va askarlar sho‘rosi” kabi muassasalar bilan munosabat yuritish, majlisi muassason (Ta‘sis majlisi) saylovlariga tayyorgarlik kabi bir qator masalalar to‘planib yotar edi”²⁷.

Turkiston muxtoriyati tuzilishi arafasida asos solingan ayrim milliy siyosiy tashkilotlar sovetlar Turkistonda hokimiyatni qo‘lga kiritgan dastlabki davrlarda ham yashab qoldi. Ana shunday tashkilotlardan biri 1917-yili tuzilgan “Taraqqiyparvarlar jamiyati” (“Ittihodi taraqqiy”) edi. Tashkilot a‘zolaridan Munavvarqorining e‘tirofiga ko‘ra, unga 1917-yil avgustda Usmon va Haydar ismli turk zobitlari tomonidan asos solingan²⁸. Boshqa bir manbada esa tashkilot asoschilari sifatida Haydar Shavqiy va Sulaymon Somiy ismli turk zobitlari ekanligi aytiladi²⁹. Unda 3 kishidan iborat rayosat shakllantirilgan bo‘lib, Usmon bey rais, Haydar uning o‘rinbosari va Sadriddinxon xazinachi qilib belgilangan. Ammo, bu paytda jamiyatning Turkiyadagi “Ittihod va taraqqiy” bilan bevosita aloqasi mavjud bo‘lmagan. Uning kuchini millat oydinlari tashkil qildilar.

Tashkilotning jami 50 ga yaqin a‘zosi ichida ichida eng yiriklari Munavvarqori, Muftiy Sadriddin, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla Xo‘jaev, Miyon Buzruk Solihov, Tolibjon Musaboev kabi bir necha oydinlar bor edi. Shulardan Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida Sadriddin Ayniy shunday yozadi: “U “Ittifoq” jamiyatiga ruh va fikr berib turdi. Qurultoylar va kongresslarda rahbarlik qildi”³⁰.

²⁶ Abdullah Receb Baysun. *Türkistan milli hareketleri*. –İstanbul, 1943. S. 43

²⁷ Мустафо Чо‘қай о‘ғ‘ли. *Истиқлол жаллодлари (1917 йил хотиралари)*. –Тошкент, 1992. 26-б.

²⁸ Мунавварқори Абдурашидхонов. *Хотираларимдан (Жадидчилик тарихидан лавҳалар)*. –Тошкент, 2001. 22-б.

²⁹ Ahat Andican. *Cedidizm‘den bağımsızlığa hariçte Türkistan mücadelesi*. – İstanbul, 2003. S. 115

³⁰ Sadriddin Ayniy. Muftiy Mahmud Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1920-yil 8-aprel

Tashkilot dastlabki faoliyatida siyosiy masalalardan ko'ra, ijtimoiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham uning maqsadi yoshlarni birlashtirish, mutaassiblar bilan kurashish, ta'limni tartibga solish, turk harbiy asirlariga yordam berish va ularni maktablarga joylashtirish kabilardan iborat bo'lgan³¹.

Turkiston muxtoriyati tuzilgandan keyin hukumat ishlarini, xususan, harbiy sohani tashkillashtirish va sovetlarga qarshi kurashda yuqoridagi tashkilot yordamidan foydalanishga harakat qilingan. Xususan, 1918-yil boshida Turkiston muxtoriyati nomidan yangi hukumatga yordam berishni so'rab Bokuga Obidjon Mahmudov va Afandizoda vakil qilib yuborildi. "Ittihad va taraqqiy" jamiyatining Kafkaz sho'basiga 1918-yil 9-yanvar sanasi bilan taqdim etilgan maktubda Turkistonda milliy qo'shin tuzish uchun tajribali odamlar yuborish so'ralgan edi:



O'tirganlar o'ngda Obidjon Mahmud o'g'li va chapda Afandizoda (Boku, 1918)

*"Turkiya vakili Hasan Rushen beyga. Turkiston ishki ishlarini yo'lga qo'yish va milliy qo'shin tuzish uchun Turkiyaning malakali utaxassislariga zarur ehtiyojimiz bordir. Siz tomoningizdan Turkistonga yuborilgan Mahmud Amin Afandizoda bilan birga Siz janoblardan maslahat va kerakli mutaxassislarni so'ramoq uchun Turkiston vakili sifatida bandayi ojizonangiz turkistonli millatdoshlarim nomidan Bokuga keldim. ...millatimiz manfaatiga muvofiq dastur va butun ishlarimizga maslahatdosh bo'ladigan kishilarni yuborishingizni sizdan so'rayman"*³².

Ularning iltimosi qondirilib, Hasan Rushan bey tomonidan shunday javob berilgan edi:

"Iltimosingizni bajarish maqsadida Davlati oliyaning Bokudagi eng qiymatli kishilaridan Yusuf Ziyoy bey butun Turkistonning siyosiy va boshqaruv ishlarini

³¹ Munavvarqori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). –Toshkent, 2001. 23-b.

³² Cedidizm'den bağımsızlığa... S. 111

yo'lga qo'yish uchun yuborilishini bildirib sizni tabrik qilaman. Xalifati kubroning va Davlati oliya Usmoniyanning orzusi va siyosatiga muvofiq bo'lgan dastur va ta'limotnoma namunasi Ziyo beyga berildi".

Shu tariqa 1918-yil martida Yusuf Ziyo bey boshchiligida 20 ga yaqin usmonli turk zobiti Turkistonga yuboriladi³³. Lekin, ular Samarqandga yetib kelganlarida Turkiston muxtoriyati qonga botirilganini o'rganadilar. Shundan keyin Yusuf Ziyo bey zobitlarni ortlariga qaytarib, o'zi Turkistonda qoladi va tashkilotni yangidan shakllantirishga kirishadi.

Yusuf Ziyo bey tashkilotga kirib unga rais bo'lgach, tashkilot faoliyat yo'nalishi tubdan o'zgardi. Turkiyadagi "Ittihad va taraqqiy" bilan bevosita aloqada ishga kirishildi. Jamiyat nizom va dasturi ham yangilandi³⁴. Ya'ni, tashkilot endi "Boku Ittihad va taraqqiy" jamiyatining bosma dasturi asosida ish olib borishga kirishdi³⁵.

Ziyo bey taklifi bilan Turkistondagi vaziyatni Turkiyaga bildirish va ulardan yordam olish maqsadida 1918-yil kuzida Usmonli davlatining Moskvadagi elchisi vositasida ruxsatnoma bilan bir necha vakillar Istanbulga yuborishga qaror qilindi³⁶. Farg'onadan Obidjon Mahmud o'g'li, Mirodil, Mirahmad, Toshkentdan Ubaydulla Xo'jaev va muftiy Sadriddinxon, Samarqanddan Hoji Mardonqul, Sayidnosir Mirjalil o'g'li Turkiston vakillari sifatida Istanbulga borishi belgilandi. Ammo, Obidjon Mahmud o'g'li va Ubaydulla Xo'jayev Moskvada qoladilar. Muftiy Sadriddinxon, Sayidnosir Mirjalil o'g'li va Hoji Mardonqullar Istanbulga borishga muvaffaq bo'ldilar. Ular "Ittihad va taraqqiy" tashkilotining yetakchilar Ta'lat va Anvar posholar, tashqi ishlar noziri Nasim bey va boshqa rahbarlar bilan ko'rishib Turkiston vaziyati bitilgan maktubni ularga topshirdilar. 1918-yil 16-sentabr sanasi bilan qayd qilingan ushbu maktub "Turkiston ahvol jug'rofi va iqtisodi" deb nomlanib, unda Turkistonning umumiy geografik chegaralari, aholisi, boyliklari qisqa statistik ma'lumot ko'rinishida bayon qilinadi. Maktub oxiridagi jumladan

³³ Ceditizm'den bag'imsizl'ga... S. 114.

³⁴ Turkistan milli haraketleri. S. 30.

³⁵ A. Zeki Velidi Togan. Bugunkü Türkili (Türkistan) ve yakin tarihi. -İstanbul, 1981. S. 415

³⁶ Turkistan milli haraketleri. S. 32

ma'lum bo'lishicha, bu ma'lumotlar bejizga bayon qilinmagan edi. Undan maqsad Turkiyaning harbiy yordami evaziga bu boyliklar bilan to'lov berishga ishontirish edi. Xususan, unda shunday yoziladi: *"...inglizlarning Turkistonga ko'z tikishining birinchi sababi Turkistonni bosib olish, ikkinchidan yuqorida bayon etilgan boyliklarga ega bo'lishdir. Agarda turk askari Turkistonga kelsa ularga sohib bo'ladi. Bu nuqtayi nazardan Turkiya moliyasining yaxshilanishiga sabab bo'ladi"*³⁷.

Lekin, u yerdan bir natija chiqmaydi. Shundan keyin vakillar Turkiya orqali Yevropaga yo'l oladilar. Shu davrda Avstriyada yuz bergan inqilob esa ularni manzilga yetmasdanoq ortga qaytishga majbur qiladi. Turkiyaga qaytgan vakil Sadriddinxon "Ittihad va taraqqiy" a'zosi G'olib Kamol bey bilan ko'rishib, u bilan Turkiston vaziyati masalasida suhbatlashadi. G'olib bey unga Turkiston vaziyatini bildirish uchun Yevropa Sulh kongressiga vakil yuborish kerakligini tavsiya qiladi. Muftiy Sadriddinxon 1919-yil fevralda Toshkentga yetib kelib, missiyasi haqida jamiyatga hisob beradi.

Ushbu vakillik missiyasi samarasiz ketmagan edi. Jamiyatning boshlang'ich davrida turk zobitlari milliy yetakchilar bilan bir qatorda turgan bo'lsa, 1918-yil Turkiyaga elchilik missiyasidan so'ng yetakchilik to'laligicha turkistonlik milliy kuchlar qo'lga o'tdi. Bunga birinchidan yuqorida ko'zlangan yordamni olinmaganligi va Turkiyadagi vaziyat ular kutgandek emasligi, ikkinchidan Turkiyaning o'zida "Ittihad va taraqqiy" jamiyati obro'si tushib ketganligi o'z ta'sirini o'tkazdi.

1919-yil fevral oyida Toshkentda o'tkazilgan tashkilotning navbatdagi yig'inida jamiyat nomi va nizomini o'zgartirish masalasi ko'rildi. Jamiyat nomi "Milliy Ittihad" deb o'zgartirildi. Binobarin, shu vaqtdan boshlab "Ittihodi taraqqiy" o'z faoliyatini to'xtatdi. Munavvarqorini e'tirofiga ko'ra, jamiyat tarqalib ketishiga quyidagilar sabab bo'ladi: 1) A'zolar o'rtasida intizomning bo'shashib ketishi 2) Turkiya mag'lubiyatga uchrashi bilan "Ittihodi taraqqiy" tarafdorlarining rahbarlik

³⁷ Turk tarix jamiyati arxivi. EP. K:29. B:1-3

lavozimlaridan olib tashlanishi 3) Mablag'ning yo'qligi 4) Jamiyat rayosati va a'zolariga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishi³⁸.

Boshqa tomondan qaraganda tashkilotni qayta tashkil etish sababi kurash yo'li o'zgarganligi bilan bog'liq edi. Oldingi davrda xalqda taraqqiyparvarlik ruhini shakllantirib, maktab va maorif, madaniy hayotni zamonaviylashtirish va xalq ongini mutaassiblikdan xalos qilish g'oyasi yetakchilik qilgan bo'lsa, endi xalqni milliy ruh ostida birlashtirib, millatga aylantirish va mustaqil davlat tuzish g'oyasi ostida ish olib borishga kirishildi.

“Milliy ittihad”ning tuzilishi tashkilot yetakchiligida o'zgarishlar yuz berganligini ham ko'rsatib turadi. Ya'ni, yuqoridagi sabablarga qaralsa, turklarning “Ittihad va taraqqiy” tashkiloti bilan aloqalar natijasiz tugaganligi va tashkilotdagi turk rahbarlariga ishonchsizlik oqibatida yetakchilik butkul milliy ziyolilar qo'lga o'tadi.

1919-yil fevral oyida Toshkent o'tkazilgan tashkilot yig'inida yana bir muhim masala ko'rib chiqildi. Unda sobiq Qo'qon hukumati nomidan Parijdagi sulh konferensiyasiga vakillar yuborishga qaror chiqarildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ham “sovet zulmiga qarshi bir chora topa olurmanmi” deb shu sanada Toshkentga keladi. Lekin, bu safardan hech bir natija qo'lga kiritilgan bo'lmaganidan ortga qaytib, shundan so'ng hech bir kishiga anglatmasdan maslakdosh va fikrdoshlari Mulla Mardonquli Shomuhhammad o'g'li, Muhammadquli O'runboy o'g'li bilan 1919-yil 25-martda sirli bir suratda Samarqanddan g'oyib bo'ladi³⁹.

Yuqoridagi voqealar tahlil qilinsa, Behbudiy Samarqanddagi ishlarni tartibga solish bahonasida “Ittihodi taraqqiy” tashkiloti yig'inida qatnashish uchun Toshkentga kelgan. Yig'inda Parijga yuboriladigan vakillar hay'ati tarkibi ko'rib chiqilib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sayidnosir afandi, Mardonquli va ularning do'stalaridan iborat guruh shakllantirilgan⁴⁰. 1919-yil mart oyida qarorni amalga oshirish uchun vakillar ikki yo'nalishda Yevropaga yo'l olganlar. Ammo, Behbudiy

³⁸ Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). 24-b.

³⁹ Sadridin Ayniy. Muftiy Mahmud Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1920-yil 8-aprel

⁴⁰ Turkistan milli harakatleri. S. 97

guruhi belgilangan manzilga yetib bora olmasdan sovetlar fitnasi oqibatida Qarshi viloyatida Buxoro amiri buyrug'i bilan o'ldiriladi. Ikkinchi guruh vakili Sayidnosir afandi esa Chorjo'y yo'li bilan Tiflisga ketib, u yerdagi ingliz delegatlariga murojaat qilishga erishadi. Bu ishda unga Tiflisda ijaraga olingan uyda birga yashagan Mustafa Cho'qay yaqindan yordam ko'rsatadi⁴¹. Inglizlar Buxoro amiridan vakolat berilsa, mamnuniyat bilan nima lozim bo'lsa bajaramiz, deb javob beradilar. Afsuski, u vaqtdagi Buxoro amiri bilan ko'rishish imkoni yo'qligidan bu tashabbuslar natijasiz qoladi. Sayidnosir Mirjalilov esa Mustafa Cho'qay oilasi bilan birga ikki yilga yaqin (1919-1921) muddat davomida Tiflisda, qisqa muddat Istanbulda yashab keyin ortiga qaytadi⁴². 20-yillar ikkinchi yarmida Sovet hukumatining ta'qibiga uchrab, qatag'on siyosati qurboni bo'ladi.

Umuman olganda, Turkiston mustamlaka holatidan chiqmaganligi, sovetlarning kuch bilan o'lkani vayron qilayotganligi, mustaqillik uchun kurashda ichki kuchlar bilan birga xalqaro jamoatchilikdan ham dastak olish zaruriyati milliy tashkilotlarni tashqi dunyoga "missiya" uyushtirishga sabab bo'ldi. Bu missiyalar muvaffaqiyatsizlikka uchrasa-da, butunlay izsiz ketmadi. Keyingi davrda Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan xorijdagi milliy tashkilotlarning yuzaga kelishiga yo'l ochdi.

Xulosa qilib aytilsa, Turkistonda yangidan siyosiy uyg'onish jarayoni 1905-yil inqilobidan keyin boshlandi. Dastblaki, ijtimoiy-siyosiy huquqlar yo'lida kurash olib boradigan milliy tashkilotlar tuzishga kirishildi. 1917-yildan Fevral inqilobidan keyin ilk bor milliy siyosiy tashkilotlar tuzildi. "Sho'royi islom" tashkiloti asosida Turkistonda yagona siyosiy uyushma yaratishga harakat qilindi. Shu bilan birga sovetlarga qarshi kurashish maqsadida yashirin milliy tashkilotlarga ham asos solindi. Ulardan biri "Ittihodi taraqqiy" jamiyati bo'ldi. Jamiyat boshida turk zobitlari turishiga qaramasdan millat oydinlari unda yetakchilik qildilar. Jamiyat orqali tashqi qardosh xalqlardan "Turkiston muxtoriyati"ni harbiy ishlarni tashkillashtirishda yordam olib, ozodlik uchun kurashda foydalanishga harakat

⁴¹ M. Y. Çokayoğlu. Eşinin ağzından Mustafa Çokayoğlu. –İstanbul, 1972. S. 33.

⁴² Shu asar. S. 110

qilindi. “Muxtoriyat” qonga botirilgach jamiyat yashirin faoliyatga ko‘chdi. Turkiston mustaqilligi uchun kurashlarini yangidan kuchaytirishga kirishdi. Natijasiz yakunlasa-da ikki marotaba Yevropaga missiyalar uyushtirishga erishildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Sadriddin Ayniy. Muftiy Mahmud Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1920-yil 8-aprel
2. Turk tarix jamiyati arxivi.
3. Abdullah Receb Baysun. Türkistan milli haraketleri. –İstanbul, 1943.
4. Ahat Andican. Cedidizm'den bağımsızlığa hariçte Türkistan mücadelesi. – İstanbul, 2003.
5. A. Mingnorov. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida). –Toshkent, 2002.
6. A. Zeki Velidi Togan. Bugünkü Türkili (Türkistan) ve yakın tarihi. –İstanbul, 1981.
7. Munavvarqori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). –Toshkent, 2001.
8. Mustafo Cho‘qay o‘g‘li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). –Toshkent, 1992.
9. M. Y. Çokayoğlu. Eşinin ağzından Mustafa Çokayoğlu. –İstanbul, 1972. S. 33.
10. Nadir Devlet. Rusya türklerinin milli mücadele tarihi (1905-1917). –Ankara, 1985.
11. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Birinchi kitob. –Toshkent, 2019

TURKISTONNING TARIXIY SIYMOLARI JADIDLAR TALQINIDA

Yo'ldashev A.A.,
Tarix instituti
ilmiy xodimi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xalqini ma'rifatga chorlovchi yangi bir harakat – jadidchilik yuzaga keldi. Bu harakatning namoyondalari jamiyat islohoti yo'lida maorif, matbuot va boshqa ko'plab sohalarda o'zgarishlar qilish uchun amaliy ishlar qildilar. Xalqning ma'naviy kamoloti uchun o'tmish ajdodlari tarixi va tafakkuriga ham alohida e'tibor berdilar. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutaffakkir va hukmdorlarning ilmiy merosi, faoliyati jadidlarning matbuotdagi maqolalari va asarlarida millatni uyg'otuvchi kuch, u'tmishni zamrnasisi bilan solishtirishda aks etdi.

XX asr boshlarida mustamlaka asoratida qolgan Turkistonning tarixiy ildizlari ne chog'lik buyuk ekanligini jadidlar o'tmishga yuzlangan holda ko'rsatib berishga harakat qilganlar. Bu ishni ular yangi usul maktablaridagi ta'lim jarayonidan boshlaganlar. Ta'lim jarayonida Turon davlatchiligi uning hukmdorlari va buyuk allomalarning dunyo ilm faniga qo'shgan xissalari o'rgatib yoshlarga vatanparvarlik ruhini singdirib, mos voris bo'lish lozimligi targ'ib etildi. Darsliklaridagi misollarni mutaffakkirlarning asarlarida aks etgan yuksak ahloqiy-ilmiy jihatlarga etibor bergan holda yoshlarning ongiga singdirib bordilar. Maktab darslari orqali ham ilm, ham tarbiyani berib bordilar. Yangi usul maktabida o'qib, 1922 yilda Germaniyaga ta'lim olish uchun borgan Turkiston yoshlaridan biri Tohir Chig'atoy bu borada so'z yuritib: "Bizning Turkiston bolalari, turk bolalari, Chingizxon va Temur o'g'ullari ekanligimizni ilk topqir zehnimizga o'runlashtirg'on va bizga yurt ham millat sevgisi, milliy ruhni bergan maktablar shul "Namuna" maktabi kibi milli o'choqlar bo'lg'ondir", deb yozadi [1:16].

Jadid ziyolilari o'zlarining milliy matbuotdagi maqolalari orqali xalqning ma'naviy-siyosiy ongini o'stirishga harakat qilganlar. Matbuot o'z davrining

ommaviy axborot vositasi sifatida xalqni o'lka va dunyo yangiliklaridan xabardor qiluvchi, jadidlarning millatni isloh etishga qaratilgan turli jabhadagi maqolalari, Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar va e'lonlardan xabardor qilib borgan. Matbuotdagi maqolalarida tarixga nazar solish orqali Turkistonning buyukligini ko'rsatib berishga, xalqni yana o'sha ko'xna diyorni bunyod etishga targ'ib etganlar. Tarixiy siymolar va xukumdorlarning hayotiga oid maqolalari bilan halqni ilm ma'rifatli, dovyurak vatanparvar bo'lishga undaganlar.

Xususan, Bog'chasaroyda Ismoil Gaspiralibek muharrirligida nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining 1906 yil 146-sonidagi "Temur Malik bahodir" nomli maqolada mug'ul bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan vatanparvar siymo Temur Malik haqida fikr yuritilgan. Maqolada muallif mutoalachilarga: *"Temur Malik... bu kimdir? Bilurmisiz?"*, deya murojaat qiladi [2]. Unga tarif berar ekan: *"Bu bir bekboshidir, bir turk qo'mondonidir"*, deb yozadi. Unda muallif Temur Malikning mug'ullarga qarshi jasorati va jang taktikasi haqida ma'lumot beradi. Maqola yozilishicha, Qoraqurumdan to'fon, sel kabi yo'lga chiqqan Chingizxon qo'shinlari xijriy 616 yil sanasida Turkiston hududlariga bostirib kelib egallagan yerlarini talashga va yoqishga kirishgan. Bosqin natijasida oz sonli bo'lgan turk urug'lari ximoyalanish, o'z qal'alarini mardlarcha jang qilib, chorasizlikdan chekinishga majbur bo'layotgan bir vaqtda, mug'ul qo'shniga munosib qarshilik ko'rsatgan Temur Malik bo'lgan.

Temur Malik ushbu payt Xo'jand qal'asining begi bo'lganligini yozib, Mug'ullarga qarshi Xo'janddagi qarshi kurashini tasvirlar ekan, unig qal'asini uch tomoni suv bilan o'ralgan, bir tomoni esa quruqlikda bo'lganligini keltirib o'tadi. Mug'ul no'yonining qal'ani topshirish haqidagi taklifiga rad javobini berib, besh turk urug'i askarlari bilan birlashgan holda katta qo'shinga qarshi qal'a mudofasiga kirishganligini yozadi. Temur Malik asosiy qo'shinni quruqlikdan bo'ladigan hujumlarga qarshi mudofaga qo'yiib 500–600 askar bilan suvlik qism ximoyasiga kirishgan.

Gazetada yozilishicha: *"Zamonlar o'q va qilich zamoni edi. Temur Malik 20 qadar qayiqlar tadorik eddirak, qayiqlarning ustilarina bolchiqq'a bulg'alanmish*

kiyizlardan inson bo'yi pardalar chikdirmish edi" [2]. Usti yopiq qayiqning kigizlari orasida darchalar ochib, har bir qayiqqa 20–30 tadan o'qchi askar joylab dushmanning suvdan o'tmoqchi bo'lgan qismiga kigiz teshiklaridan o'q yog'dirish orqali ularni hujumini bartaraf etgan. Bu orqali mug'ullarning qal'aga o'tish harakatlari, sol yoki ko'prik qurishlariga imkon bermaganlar. Balchiqqa belangan kigizlarga dushmanning olovli o'qi ta'sir qilmagan va askarlarga zarar yetmagan. Suv tarafidan tadbirlari amalga oshmagan mug'ul qo'shinlari asosiy kuchni quruqlik orqali hujumlarga qaratgan. Qal'a mudofasini qanchalik mustahkam tutmasinlar ko'p askarlar yo'qotish va Xo'jand qal'asi qamaldagi ahvoli og'irlashayotganligi bois Temur Malik qal'ani topshirishga majbur bo'lgan. U eski usuli bilan 70 ta kigiz qayiq tayyorlab askarlari va kerakli qurol-aslahalari bilan Sirdaryo bo'ylab suzib ketgan.

Maqola muallifi ushbu jarayonni tasvirlar ekan: *“Suvning ikki tarafinda beklarcha dushman ot qo'shub yomg'ir kibi o'q yog'dirdgani holda bu qal'alarning yuzda bir misli o'lmayon turk davlovrlari kiyiz shiplar orqasidan ham bunlarda muqobalada ham suv ila taraf salomada chekilmakda edilar. Nihoyat munosib bir mahalda kinora chiqib qarshi kelgan Temur Malik dushman taqibini dog' etub sog' qolan orqadoshlari ila Xorazma salomat kelmishdir”*, deb yozadi[2].

Ko'plab jadid namoyandalari o'z zamonasini ahvoliga boqib tarixga yuzlangan holda Turkistonning na qadar buyuk o'lka bo'lganligini tilga oladilar va zamonasi bilan solishtiradilar. Ana shulardan biri ma'rifatparvar Abdurauf Muzaffarzoda “Turkistonning bu kungi hayoti” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltiradi: *“Mundan ming yil ilgari kelub oliy xidmatlari ila butun dunyoni yongratqon mashhur Turkiston hakimlari Farobiy va Ibn Sinolar vaqtindag'indanda eski va mahrum bir holda, ul vaqtida dunyoning ul puchmog'indada porloq zamonlar bor edi. Zamonina qarab onda dorul ulumlar bunyod etildi. Buyuk madrasalar solindi. Millat bolalari turli sharh va hoshiyalarga tutqun etilmadilar. Din, fan o'qudilar, ilm ila tanishdilar. Buyuk olimlar, mutafakkirlar va hakimlar yetishdirildi. Dunyoda ismida bo'lmagan fanlar kashf ulindi. Zamonda ilmning eng yuqorisina chiqub bek ulug' bir madani hayot ta'sis eta bilgan turkistonlilar, ul vaqtlarda fikrsiz,*

ideyasizg'ina bo'lmag'onlardir. Shul olarda bo'lg'on aql va fikr darajasini bu kunda torixlaridan va qoldirg'on asarlaridan uyranub bilurgada mumkindir" [3:14].

1917 yilda Turkistonda milliy demokratik hukumat Turkiston Muxtoriyati tashkil etilgan vaqtlarda halqni bir maqsaddida hamjihatlikka, uning taraqqiyoti uchun kurashishga chorlagan jadid ziyolilarining matbuotdagi maqolalarida ham ko'p bor tarixga murojaat qilganliklarini ko'rish mumkin. Xususan, Samarqandda nashr etilgan "Hurriyat" gazetasining 1918 yil 19 yanvar sonidagi maqolada: *"Turkiston ustinda qora rusar "Qora qartol"lari uchmakda ekan. Qarshi Temurlangning yoyi ko'tarilgani yo'q. Bechora turk elining ko'klam tuprog'iga qora xitoyning qora ilonlari zahar solmak uchun tilini chiqarib turmakda ekan, hola Chingizlarning qilichlari ko'tarilgani yo'q...*

...Eh turk bolalari! Otlixon, O'g'uzxon, Temur va Chingizlarning ruhlari tahqir etilmakda ekan, bobolaringizni oyog'i oyoq ostida dushman tarafidan tahqir etilmakda ekan... sen yo'qlab yotma! Seni najot qiladurg'on ulug' tangri sanga aytadir: insonni inson qiladurg'on, muqaddas ishdir! Uyg'on! Ilgari, ish maydonig'a!...", deb yoziladi.

Ma'rifatparvar ziyolilar tarixni yaxshi o'rgangan holda hikoya, she'r, pe'sa va asarlar yaratdilar. Xususan, Amir Temur va uning faoliyati tarixiga murojaat qilgan ma'rifatparvar jadidlar XX asrning boshlarida u haqida asarlar yaratdilar. Shunday jadidlardan biri Abdurauf Fitrat edi. U mavjud tuzumning asl maqsadini anglagan holda asarlari va she'rlarida tarixiy mavzularga murojaat qilgan. Amir Temur nomi Fitratning o'ttizdan ortiq ilmiy va publitsistik asarlarida tilga olingan. Abdurauf Fitratning adabiy merosida yurtning boy tarixi, buyuk qahramonlari, yuksak madaniyati, tuganmas xalq merosi bilan faxrlanish muhim ahamiyat kasb etadi. U o'zining maqolalarida, "Yurt qayg'usi" (Temur oldida) kabi sochma hikoyalarida Turkistonni bir vaqtlar dunyodagi eng buyuk davlatlardan biri bo'lib, butun jahonga mashhur bo'lgan allomalar yetishtirib berganligini ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat bir qator sahna asarlarida tarixni orqaga o'g'rib, Abo Muslim, O'g'izxon, Chingizxon va Temur kabi tarixiy shaxslar haqida asarlar yozadi. U bevosita badiiy asarlarida Amir Temur siymosini tiriltirishga urinadi va "Temur

sag'anasi" nomli sahna asarini dunyoga keltirgan. "Temur sag'anasi" bir pardali drama asari bo'lib 1919 yili yaratilgan. Toshkentda "Chig'atoy gurungi" tashkilotini tuzgan Fitrat turkiy xalqlar madaniyati, san'ati, adabiyoti, tarixi, til-imlosi kabi sohalarni jiddiy o'rganishni oldiga maqsad qilgan edi. Uyushma tomonidan ko'plab tarixiy manbalar yig'ilishi va o'rganilishi bu asarning yaratilishiga yordam bergan bo'lishi mumkin. "Temur sag'anasi" asari ayni shu davrda sahnada namoyish etildi. Biroq sovet hukumati tomonidan tezda uning namoyishi taqiqlandi.

Fitratning katta asarlarini yaralishiga uning matbuotda e'lon qilgan tarixiy maqolalari sabab bo'lgan. Jumladan, "Arslon" asarini yaralishida "Buxoroning holi" maqolasi, "Chin sevish" va "Hind ihtilolchilari" asarlari uchun "Angliz va Turkiston", "Sharq siyosati", "Temur sag'anasi"ning tug'ilishida esa "Yurt qayg'usi" maqolasi asos vazifasini o'tagan.

"Yurt qayg'usi"da bir o'zbek yigiti mamlakatdagi tartibsizliklardan, bebosh rahbarlar, noahil ziyolilar va johil olomondan ranjib, buyuk bobosi Amir Temur ruhidan ko'mak o'tingani uchun uning maqbarasiga ziyoratga keladi. Ziyorat taomili bo'yicha o'z otasining oldida bir oz yoziladi. *"Hoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istarga keldi. Bog'lari buzilgan, gullari so'lgan, bulbullari uchirilgan Turonning bir qorovuli senga arz etarga keldi"* [4:26]. "Temur sag'anasi"da esa, bevosita darddan bezovta bo'lib, qahramon nazdida qabrdan tik turishi asarning eng yuqori ruhiy va ma'naviy nuqtasi hisoblanadi. Amir Temurni o'z qabridan tik turib, xalqiga qarata aytgan so'zlari dramaning eng ta'sirli lavhalaridan bo'lgan.

Mustamlakachi Rossiya imperiyasi tomonidan talanib, nochor ahvolda qolgan Turkiston holatini sohibqironga shunday bayon etadi: *"Ulug' haqonim! Turklik sharafi talandi... Turkning nomusi, e'tibori, imoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostinda qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi. Turkning belgusi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat o'lkasiga ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo'lgan turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi"*[5:48-49]. Fitrat Turkistonni bunday tushkun holatdan olib chiqish, uning mustaqilligi uchun kurashishga o'z davrining ziyolilari nomidan Temurga va'da qilib deydi:

“Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, Meni qo'limni tut, Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'ligini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman” [5:50].

1922 yili Turkiston yoshlarining bir guruhi Germaniyada ta'lim olish uchun yuboriladi. O'sha vaqtda A. Fitrat Buxoro Xalq Jumhuriyati yordami bilan ketayotgan Sattor Jabbor, Ahmad Shukriy, Saidali xo'ja, Vali Qayumxon kabi iqtidorli yoshlarni Samarqandga, Amir Temur sag'anasiga olib borib, Germaniyada o'qishni tugatgach, Turkistonga qaytib kelib, o'zbek xalqining milliy taraqqiyoti yo'lida sidqidildan xizmat qilish haqida tiz cho'kdirib, qasam ichdiradi.

Bu yoshlarning bir guruhi sovet hokimiyatining Turkistondagi siyosatidan norozi bo'lib xorij mamlakatlarida yashab qoldilar. Ammo o'z vataniga bo'lgan sadoqati, uning ozodligi uchun kurashi to'xtab qolmadi. Jadidlar ularning ruhiyatiga vatan va vatanparvarlik g'oyalarini singdira olgan edilar. Turkiyada yashab qolgan Turkiston yoshlari 1927 yil “Turkiston turk yoshlari birligi” nomli tashkilot tuzadilar. Ushbu tashkilot tomonidan uyushtirilgan kechalarda Turkistonning o'tmishiga nazar tashlab uning buyuk siymolarini, ilm dunyosining yirik mutafakkirlari yurti ekanligini alohida tilga olib, kechada aytilgan she'rlar, o'qilgan ma'ruzalarda ularga mos o'g'il, qizlar bo'lish lozimligi ko'p bor ta'kidlanadi.

Xorijda o'qigan Turkiston yoshlarining faoliyatida buyuk ajdodlarimiz va ular qoldirgan merosga bo'lgan muhabbat yuksak mehr bilan ardoqlangan. O'tkazilishi mo'ljallangan bino devorlariga kecha arafasida Turkistonning ulug' siymolari, baxodirlari va hukmdorlari suratini ilib chiqqanlar. Ular ushbu qahramonlarga vatanparvarlik, kuch-qudrat sohibi, jahongirlik timsoli sifatida qaralganligini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jadid ma'rifatparvarlari yurt farovonligi, obod va ozodligi uchun kurashda millatning o'zligini anglashiga yordam beruvchi barcha vositalardan foydalanishga harakat qildilar. Jadidlar matbuotlari va asarlarida tarixiy siymolar, sarkardalar faoliyatini yoritish orqali yoshlarning vatanparvarlik ruhiyatini oshirish, ularning vatan uchun qilgan qahramonliklaridan ibrat olish vositasi sifatida

foydalandilar. Sovet hukumati jadidchilik va uning yetakchilari katta kuch ekanligini yaxshi bilar edi. Ularning g'oyalari va mafkurasi yoshlarning qanchalik qudratli kuchga aylantirishini tasavvur qilganlar. Shu bois ham ularni yo'qotish payiga tushdilar. Ularni sohta ayblovlar bilan hibsiy etib, qatag'on qildilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Istayimiz Munavvar qori // “Yosh Turkiston” jurnali. 1934 yil 50-son. 16-bet.
2. Temur Malik bahodir // “Tarjimon” gazetasi. 1906 yil 29 dekabr. №146.
3. Rauf Muzaffar «Ziyobosh». Turkistonning bu kungi holi // Sho'ro. 1916. №11 14-bet.
4. O'g'usxon. So'z va ish // “Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 19 yanvar.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild. Toshkent: Ma'naviyat. 2000. 26-bet.
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent: Ma'naviyat. 2000. 48-50-betlar.

JADIDLARNING MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY-MADANIY SOHALAR ISLOHOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Abdurahimova D.A.,

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy Tibbiyot Akademiyasi,
Tibbiyot xizmatining tuzilishi va taktikasi kafedrasini
professori, p.f.d.(DSc), professor*

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida "jadidchilik" deb nomlangan milliy-taraqqiyparvarlik harakatining tarixiga bag'ishlangan masalalar yoritilgan. Shuningdek, ma'rifatparvarlikdan tortib, to kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, O'rta Osiyo, yangi usul maktablari, xalq ta'limi, milliy-ma'rifatparvarlar.

ABSTRACT This article deals with the history of the national-progressive movement called "Jadidism" in the late XIX - early XX centuries. It also outlines the stages of development from enlightenment to strong political action. Keywords: Jadidism, Central Asia, New Methodist Schools, Public Education, National Enlightenment

XIX-XX asr oralig'ida Tataristonda paydo bo'lgan jadidchilik harakati, keyinchalik Buxoro, Xiva va Turkistonga yoyildi. Jadidlar maktab, maorif, adabiyot va san'at sohalorida islohotchilik ishlarini amalga oshirish bilan birga, xalqning madaniy, ma'rifiy jihatdan ham ongini o'stirishga katta e'tiborlarini qaratdilar. O'rta Osiyo xonliklarida ruslashtirish siyosatining boshlanishi milliy ziyolilarning asosli ta'sirlanishlarga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda milliy ziyolilarning va mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining ijtimoiy tayanchi bo'ldilar. Academic Research, Uzbekistan 1096 www.ares.uz Jadidchilik harakati dastlab, musulmonlar uchun yevropacha ta'lim tizimini olib kirish zaruriyati bilan, eski musulmon ta'lim tizimini isloh qilish ortida boshlangan madaniy harakat edi.

Jadidchilik harakatining asoschisi, targ'ibotchisi Ismoil Gasprinskiy, Qrimdagi musulmon diniy maktabida, Simferopol davlat erkaklar gimnaziyasida, Voronej harbiy bilim yurtida, keyinchalik Ikkinchi Moskva harbiy gimnaziyasida ta'lim olgan. 1883-1914 yillarda Boxchasaroyda "Tarjimon" gazetasini nashr ettirdi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalarining asosiy kuychisi bo'lgan jadidchilarning dasturi quyidagicha edi: birinchidan, musulmon xalq ta'limida islohotlar olib borish va madaniyat, fan va texnika hayotiy muhim bo'lgan sohalarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash; ikkinchidan,

tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislardan Turkistonning iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda foydalanish; uchinchi, xalqning turmush darajasini ko'tarish va farovonligini oshirish; to'rtinchi, milliy sarmoyani shakllantirish, mulkdorlar va boy odamlarning ko'payishiga ko'mak berish; beshinchi, malakali mahalliy mutaxassislar yordamida jamiyat va davlat hayotida tub islohotlarni amalga oshirish. Jadidlar harakatining ahamiyati shu bilan ham muhimki, ular nafaqat eskirgan musulmon xalq ta'limini tizimini isloh qilibgina qolmasdan, milliy nashr, adabiyot va teatrga ham asos soldilar.

Ma'lumki, Turkiston adabiyotining ildizlari bir necha asr qadimiy davrlarga borib taqaladi. Biroq, XX asrga kelib xalqning haqiqiy hayotini, ularning tashvishlari, orzu-umidlarini aks ettirgan, xalqni uyg'otishga qodir bo'lgan adabiyotni yaratishga ehtiyoj sezildi. Jadidchilar til bo'yicha, mazmun mohiyati bo'yicha xalqqa yaqin ana shunday adabiyotni yaratdilar. Yangi adabiyotning asoschilari bo'lgan Fitrat va Cho'lpon birinchi bo'lib aruzning an'anaviy she'riy vaznidan voz kechib, og'zaki xalq she'riyatiga xos, barmoq vazn she'riyatiga murojaat qildilar. Vatanparvarlik va ozodlik g'oyalari bilan kuylangan bu she'rlar, xalq ommasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik, mustamlakachilikka qarshi va hurriyatparvarlik g'oyalari nafaqat she'riyatda, balki nasrda ham yorqin gavdalantirildi. Shunisi ahamiyatliki, M. Behbudiy publitsist va noshir sifatidako'rinishdan oldin, birinchi o'zbek pesasi "Padarkush"ni (1911 y.) yozdi. Mazkur pesa 1913 yilda sahnaga olib chiqilib, o'zbek teatriga asos solindi. Teatrning ahamiyatini, tomoshabinlarga ta'sirini yaxshi bilgan M. Behbudiy va uning izdoshlari 1910 yillarda o'sha zamonning dolzarb mavzularida, giyohvandlik, to'y-hashamlarning xalq uchun xonavayron xarajatlari, feodal-boylarning ayollarga munosabati va ma'rifatsizlikning fojiali oqibatlari va h.k. yoritilgan o'ndan ortiq pesalar yozdilar. Bu pesalar asosida sahnalashtirilgan spektakllar tomoshabinarlarda katta akssado berdi. Birinchi jadid teatr truppasi, teatr – bu keng ommaga mo'ljallangan adabiyot, spektakl esa – voqea-hodisalar sahnada bo'lib o'tadigan roman ekanligini ko'rsatib berib, o'zining spektakllari bilan butun Turkiston o'lkasini aylanib chiqdi. Yuqorida qayd etilganidek, 1917 yilga qadar

jadidchilik harakatining dasturi yo'q edi. Fitratning "Munozara" va "Sayyoh hindi" asarlari 1917 yilgacha jadidchilarning norasmiy dasturi bo'lib xizmat qilgan. 1917 yilda Fitrat ishtirokida yozilgan "Buxoroda yosh buxoroliklar qo'mitasi loyihasi" bizgacha yetib kelgan noyob yuridik hujjat hisoblanadi. "Yer-suv masalalari", "vaqf yerlari" "Harbiy ishlar", "Moliyaviy ishlar", "Ichki ishlar" va boshqa masalalarni o'z ichiga olgan, 13 bo'limdan iborat mazkur loyiha hujjati, hokimiyatni qo'lga kiritishni va keyinchalik o'lkani boshqarishni maqsad qilgan yosh buxoroliklar partiyasining siyosiy dasturiga o'xshab ketadi. Loyihada jadidlarning asosiy faoliyati bo'lgan ma'rifatga ham katta e'tibor qaratilgan. "Mamlakatda davlat mablag'lari hisobiga ochilgan barcha ta'lim muassasalarini boshqarish uchun, - deb yozadilar, "Loyiha" mualliflari, - masalan, o'qituvchilarni tayinlash, oliy ta'lim muassasini ochish, dasturlar tuzish va h.k. uchun maorif vaziri tayinlanishi lozim. Davlat va vaqf maktablaridan tashqari, har kim maktab ochishi mumkin. Bunga to'sqinlik qilishga hech kimning haqqi yo'q. Ta'lim muassasalarini tamomlaganlarga Oliy pedagogika kengashining ishtiroki bilan maorif vaziri belgilangan diplomlarni topshiradi. Masalan, mulla, o'qituvchi, mufti, qozi (sudya) va b. toifasiga mansublik diplom." Ma'rifatparvarlik maqsadlaridan siyosiy vazifalarga o'tganbuxorolik jadidlar safida yuzaga kelgan vaziyatni anglash uchun Fitrat bilan birga yosh buxoroliklar firqasini boshqargan Fayzulla Xo'jaevning "Buxoroda inqilob tarixiga doir" kitobiga murojaat qilish zarur. "Buxoro jadidchilik harakatini nazarda tutib, - deb yozadi Fayzulla Xo'jaev, jadidchilik harakati, 1914-1915 yillarda inqirozni boshidan o'tkazdi. Ikki tomonlama senzura bosimi ostida nashr etilayotgan gazeta va jurnallar yopib qo'yildi va qonuniy jamoaga amir ma'muriyatining asossiz ayblovlari kuchaytirildi. Istanbul va Orenburg shaharlaridan o'qishdan qaytgan ko'pgina yoshlar, siyosiy vazifalarni aniq shakllantirib, siyosiy talablarni ilgari surishni taklif etishlari ham bu hodisalarga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yangi talablar jadidchilik harakatida dastlabki tabaqalanishni keltirib chiqardi. Birinchi tabaqa, eski fikr mulohazalarni o'zida saqlagan qator jadidchilar. Ikkinchisi esa, asosan yoshlardan tarkib topgan chap qanot". Toshkentlik va farg'onalik jadidchilarning buxorolik safdoshlaridan farqi,

1914-1915 yillarda inqiroz vaziyatida emas edilar. Cho'lpon, Tavallo, Avloniylarning eng yaxshi she'riy va nasr asarlarini "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarida nashr etildi. Behbudiy, Xo'ja Muin, Nusratulla Qudratulla kabi yozuvchilarning pesalari asosida sahna ko'rinishlari namoyishini amalga oshirdi. 1916 yil qo'zg'oloni bilan bog'liq mitinglar va namoyishlar, jadidchilik harakatiga katta jo'shqinlik berdi. Aynan o'sha vaqtda jadidchilar to'la ma'noda ezilgan xalq manfaatlarining ifodachisi bo'ldi. Oktabr inqilobidan keyin, jadidlarning tashabbusi bilan 1917 yil Qo'qonda Turkiston avtonom hukumati o'rnatilganligi e'lon qilindi. Fitrat Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan 27 noyabr tunini "milliy laylatulqadrimiz" deb atadi. Biroq 1918 yilning fevralida sovet qo'shini avtonom hukumatni tor-mor etib, jadidchilarga qaqshatgich zarba berdi. Natijada, 1920 yildan keyin ularning bir qismi bolsheviklar tomoniga o'tishga majbur bo'ldi. Jadidlarning qolgan qismi sovet muassasalarida ishlasada, o'zlarining g'oyalariga sodiq qolgan xolda vazifasini bajarishni davom ettirdi. Jadidlar 1920 yillarning boshida "Nashri maorif" jamiyatini tuzib, madaniy merosni – kitoblar, qadimiy yodgorliklar, amaliy san'at asarlari va h.k. yo'q qilishga yo'l bermaslikka harakat qildi. Sovet tarixchilari jadidlarni millatchilikda, rus xalqiga nisbatan yomon ko'rish ruhida tarbiyalanganligida, xalq ommasidan uzoqlashganlikda, milliy burjuaziyani qo'llab-quvvatlashga bo'lgan intilishda ayblaydi. Agar bu haqiqat bo'lganda, unda Turkiston avtonom hukumati tarkibida na rus, yahudiy, polyak, qozoq millatiga mansub hech kim bo'lmas edi; Munavvarqori Abdurashidxonov, Salimxon Tillaxonov, Fitrat, Cho'lpon, Botu va b. rus ayollariga uylanmas edi. M. Behbudiy o'zbek va fors tillaridan tashqari, rus va yevropa tillaridan yana bitta tilni o'rganishni nazarga tutib, "ikkita emas, to'rtta tilni o'rganish lozim" degan shiorni ko'tarib chiqmas edi. Sobiq jadidlar Fayzulla Xo'jaev, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar, maorif, fan, madaniyat, qishloq xo'jaligi va b.sohalardayuqori malakali milliy kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi. Mazkur maqsad bilan 20 – yillarning boshida Germaniyaga iqtidorli o'g'il qizlarni o'qishga yubordi. Buxoro va Turkiston respublikalari boshliqlari Fayzulla Xo'jaev va Turar Risqulov va b. 1922-1923 yillarda Germaniyaga tashrif buyurib,

turkistonlik yoshlarning hayoti bilan qiziqib, muvaffaqiyatli ta'lim olishlariga doimo g'amxo'rlik qildilar. Biroq, bolshevik boshliqlari tomonidan sobiq jadidlarning faoliyatiga nazorat kuchaytirildi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy 1919 yilda o'zining do'sti Mardonquli bilan Parijga konferensiyada ishtirok etish uchun jo'naydi. Ular Buxoro amirligi hududida hibsga olinadi va amir jallodlari tomonidan o'ldiriladi. Muxtoriyatning boshqa a'zolari Ubaydulla Xo'jaev, Saidnosir Mirjalilov va "Milliy ittihad" maxfiy tashkilotining boshlig'i Munavvarqori Abdurashidxonov va b. 1923 yildan boshlab qatag'onga uchraydi. Ubaydulla Xo'jaev qariyb 1 yil tatar siyosiy arbobi Ilyas Alqin bilan birga Butirskoy qamoqxonasida hibsdan saqlanadi. Munavvar qori Abdurashidxonov 1929 yilning oxirida "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilot boshlig'i sifatida ayblanadi. 1930 yilda do'sti Salimxon Tillaxonov, Said Axroriy va b. bilan birgalikda otib tashlanadi va Vagankov qabristonida maxfiy ko'milgan. 1937 yilning oxirlarida, davlat arboblari Fayzulla Xo'jaev, Turor Risqulov, Alixon Buklixonovlar horij razvedkasi ayg'oqchisi ayblovi ostida, millatchi, pantyurkchi, sovet hokimiyati siyosatiga qarshi yetuk kurashchi sifatida ko'zga ko'ringan yozuvchilar, olimlar, Abdurauf Fitrat, G'ozi Olim Yunusov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Bulat Solievlar otib tashlandi. Shunday qilib, 30 yillarning oxiriga kelib turkiston jadid harakatining otib tashlanmagan bironta arbobi qolmadi. Bu barcha mashhur yozuvchilar, ma'rifatparvarlar, pedagog va madrasa o'qituvchilari SSSR NKVD qo'li bilan yo'q qilindi.

XULOSA Turkistonda jadidlik harakatining oqibatlarini o'ta fojiali bo'ldi. Jadidlarning o'zi qatag'onga uchradi va yo'q qilindi. Jadidchilik harakatiga bolsheviklar tomonidan barham berildi. Chunki jamiyatni mustamlakachilik asoratidan olib chiqishvamilliy-davlat qurilishi konsepsiyasi ilgari surilgan bo'lib, bu sovet tuzumiga va uning qulashiga tahdid solayotgan edi. O'zining fojiali yakuniga qaramasdan, jadidlar tomonidan asos solingan milliy ozodlik harakatlari, milliy o'zlikni anglashning o'sishiga ko'mak berdi. milliy ozodlik g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynadi. Jadidlarning ta'limoti haqiqiy edi, barcha ilg'or va hur fikrlovchi yoshlarni o'ziga jalb etdi. Jadidlarning shakshubhasiz tarixiy xizmati, ularning ma'rifatparvarlikdan boshlab, jamiyatni isloh

qilishga urinishlari, taraqqiyot uchun eng muhim deb hisobladilar. Ularning shiorimilliy doirada chegaralanib qolmaslik va shu bilan birga buyuk vatanparvarlik va o'z mamlakatiga muhabbat qo'yish, mustamlakachilik asoratidan qutilish istagi ularni oqilona harakatlarga undadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. N.S.Kenjaeva (2020). XX asrning 30-yillarida pomir va unga tutash mintaqalarda amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyalarning kompleks tadqiqot faoliyatiga doir: ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarlar.

2. Османов Ю.Б. Просветител Востока Исмаил Гаспринский. Симферопол. 2014, S. 12. 3. N.S.Kenjaeva (2020). SSSR Fanlar Akademiyasi Ekspeditsiyalarining Tojikiston sanoatini rivojlantirish istiqbolini o'rganishga qo'shgan hissasi (XX Asrning 30-yillari) // o'tmishga nazar № 2.

3. Фитрат А. Рассказы индийского путешественника // Звезда Востока, 1990, № 7. С. 134.

4.N.S.Kenjaeva (2020). O'rta osiyo davlat universiteti (SAGU) olimlarining pomirga uyushtirilgan ekspeditsiyalarda ishtiroki (1923-1928 yill) // ILIM hám JÁMIYET № 2. S. 56-58.

5. Ходжаев Файзулла. Избранные труды. В 3 томах. Т. 1. Ташкент: Fan, 1970. S. 128.

6. N.S.Kenjaeva (2018). "Туркестанский сборник"ning yaratilishiga doir ayrim mulohazalar // Tarixiy manbashunoslik muammolari. S. 89-94.

JADID MA'RIFATPARVARLARI TOMONIDAN ILGARI SURILGAN G'OYALAR

Nomuratova M.K.,

*O'R QK Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy
vatanparvarlik kafedrasida dotsenti, f.f.n.*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalq ommasining iqtisodiy og'ir ahvoli, rivojlangan mamlakatlardan orqada qolishi, tafakkur turg'unligi Turkistonni bu holatdan olib chiqishning amaliy vositalarini izlab topishga da'vat etdi. Jadidchilik (arab. جديد *jadīd* - yangi) Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Ushbu harakat dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga keldi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan, avvalo, siyosiy harakat sifatida yuzaga keldi.

“*Jadidlar*” nomi “*usuli jadid*” (“Yangi usullar”) ijtimoiy-siyosiy, huquqiy holatlarning eski tizimini taraqqiyotning ilg'or usullari bilan almashtirmoqchi bo'ldilar. Ular orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar, maktablarda *o'qitish ishlarini isloh qilish*, kutubxonalar, darsliklar nashr qilish, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni egallash orqali o'z g'oyalarini amalga oshirishga intildi. Bular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabilar. Ularga xos umumiylik - xalqni ma'rifatli, madaniyatli qilish, milliy ong va g'ururini o'stirish asosida el-yurti birlashtirish, odamlar ko'zini g'aflat uyqusidan ochish orqali millatimiz erkinligi va ozodligini ta'minlashdan iborat edi. Ular faoliyatida madaniy

merosni o'zlashtirish va xalqning milliy o'z-o'zini anglashini kuchaytirish - eng muhim masalalardan biri edi.

Turkiston mustaqilligi uchun kurashda quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

O'lka istiqbolini quyidagicha rejalashtiradi: xususiy mulkning daxlsizligi, bank sarmoyasining erkinligi tamoyillariga asoslanish, kuchli dunyoviy hokimiyatga ega ozod va mustaqil davlat barpo etish. U islomga hurmatni saqlagan holda, madaniyat barcha yo'nalishlarining erkin rivojlanishini, agrar masalani hal qilishni, jahon miqyosiga chiqishni, Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishni ta'minlashi kerak edi.

Jadidlar taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanishga chaqirishgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919, Samarqand) harakat asoschilaridan biri, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmli qilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun katta hissa qo'shgan. Sharqshunos Azizzoda 1926 yil: "Agar O'zbekistonda fan va madaniyat sohasida Ulug'bek va Navoiydan keyin uchinchi bir shaxsning nomini abadiylashtirish kerak bo'lsa, bu shubhasiz Behbudiyga o'rnatilgan yodgorlik bo'lishi kerak", deb yozgan.

Behbudiy 1913 yil aprel oyida "Samarqand", avgust - "Oyna" gazetasini chiqaradi. Xalqni jaholat, erksizlik botqog'idan ilm-ma'rifat orqali qutqarish mumkin, yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborib, millatimiz rivoji va istiqboli uchun zarur xodimlar ega bo'lish kerakligini ta'kidlaydi.

Tarix va geografiyani o'rganish zarurati, tarixni o'rganmay, biror fanni mukammal o'zlashtirib bo'lmazligini uqtiradi. Xalq ravnaqi nafaqat ta'lim-tarbiyaga, mustaqillikni qo'lga kiritib, tub o'zgarishlarni amalga oshirishga bog'liqligi, ammo mustaqillikni kurashsiz qo'lga kiritib bo'lmazligi qayd etib o'tadi.

“Padarqush” dramasi chor mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik, maishiy buzuvchilik, qimorbozlik, o'g'rilik, bezorilik singari zararli odatlar tarqala boshlagani, natijada odamlar o'rtasida mehr-oqibat so'na boshlagani, aka bilan uka, ota bilan bola bir biriga dushman bo'la boshlagani, padarqushlar ko'payib borayotganini qahr-g'azab, nafrat bilan tasvirlaydi.

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur, degan. Ya'ni “Ilm-ma'rifatsiz hech bir millat ... hayot maydonida tura olmas. Xoh ul millat hokim, xoh ul millat mahkum bo'lsin, ilm-ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar toji bo'lgan millatlarning oyog'i ostida ezilurga majburdirlar Boy bo'lgan millat albatta dunyoda yashay oladur. Ul millatning diliga emas, hatto millatiga, shaxsiyatiga hech kim tega olmaydir...”.

Abdulla Avloniy (1878-1934, Toshkent) ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish yo'lga qo'yilgan. “Turkiy guliston yohud axloq” asari bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Unda yaxshi xulq-odob qoidalari, Turkiston xalqini asriy qoloqlikdan qutqarish yo'llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xomashyo qaramligidan xalos etish, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish masalalari yoritilgan. Ulug' mutafakkir mazkur asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab, “Bolaning salomi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur”⁴³, deydi. Darhaqiqat, shaxs shakllanishida tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Inson iste'dodli va iqtidorli, ezgulik va yovuzlikni farqlashga layoqatli qilib yaratilgan, lekin bu xususiyatlar tarbiya jarayonida rivojlanadi va bunda axloq

⁴³ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-j. –T.: Ma'naviyat, 2006. –36 b.

muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniyning fikricha, “tartib va nizomga rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlari parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkarurlar”⁴⁴.

Shunday qilib, jadidlar xalqni ilmi qilish, bilim saviyasini ko'tarish, fikr doirasini o'stirish - milliy istiqloлга erishishning zarur shartlaridan biri deb bildilar. Shuningdek, jadidchilik “omma ongini millatchilik g'oyalari bilan zaharlash, uni inqilobiy kurashdan chetga tortish” maqsadida tashkil etilgan reaksion millatchilik yo'nalishi deb, jadidlarning o'zlari qatag'on qilindi. Fojiali yakuniga qaramay, jadidlar asos solgan milliy-taraqqiyparvarlik harakati milliy o'z-o'zini anglashning o'sishiga imkon yaratdi, milliy-ozodlik mafkurasining vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

⁴⁴ O'sha manba. –53 b.

JADIDLAR MA'RIFAT, OZODLIK, TARAQQIYOT KUYCHISI

Xudaynazarov S.X.,
O'zMU dotsenti f.f.n dos.
Berdikulova S.A.,
O'zMU dos.v.b. (PhD)

Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Bosh Qumondoni Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgan tarixiy bir davrda Milliy uyg'onish davri vakillari ma'rifat, ozodlik, taraqqiyot kuychisi bo'lgan jadid bobolarimizning ijodiy merosini har tomonlama xolis ilmiy o'rganish avvalo, bugungi dorulomon kunlarimizni qadriga yetishimizda, mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimizda, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishimizda, milliy taraqqiyotimiz istiqbollarni to'la anglashimizda, mamlakatimizni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishda, belgilab olingan Yangi Uyg'onish davri asoslari, strategik yo'l to'g'risida yaxlit tasavvurlarni hosil qilishimizda, eng muhim yaratuvchi, bunyodkor xalqimiz salohiyotini yanada oshirishda, yoshlarimizni jasorat, matonat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat, ma'rifat ruhida kamol toptirishda katta potensial kuch, tunganmas energiya, cheksiz motivatsiyalarni beradi.

Umuman olganda, Jadid bobolar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini o'rganish milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari dadil odimlashimizda, globallasuv, integratsiyalashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlarimizni siyosiy ongi va madaniyatini, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini rivojlantirishda, fikrlar olamini boyitishda, jonajon Vatanimiz ravnaqi yo'lida g'ayrat, shijoat, ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishda, jaholatga qarshi - ma'rifat yo'lini chuqur anglashida, yuksak ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi xalq qiluvchi qudrat ekanligini bilishida, har tomonlama yetuk raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlarida ham muhim ma'no va ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan

qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar⁴⁵.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, mustamlakachilar buyuk davlatchilik asoslariga ega xalqni o'z kishanlarida uzoq turib turish maqsadida uni o'z qobig'iga o'rab tashlashga, bir xalqni hech kelisha olmaydigan oqu qoraga, boy-yu kambag'alga, antogonistik sinflarga bo'lishga, tarixiy xotirasidan mutloqo mosuvo qilishga, qoloqlik, jaholatini avj oldirishga, tili, e'tiqodi, madaniyati, milliy ma'naviy o'zligidan ayirishga, dunyodan, dunyoviy ilm-fan yutuqlaridan bebahra qilishga, qullik, mute'lik, loqaydlik, boqimandalik, o'ziga va o'z imkoniyatlariga ishonmaslik kabi psixologik sindromlarni singdirishga harakat qildilar.

Shunday murakkab, qaltis bir sharoitda xalq orasidan yetishib chiqqan, oq-qorani tanigan, dunyo ko'rgan, ilm-ma'rifatga ega fidoiy, Vatanparvar, jasur jadidlar mustamlakachilik va qaramlik kasofatiga qarshi ma'rifat yo'li bilan kurash boshladilar.

Jadidlar chinakamiga millat fidoiylari, ma'rifat kuychilaridir. Ilm -ma'rifat yo'li orqali milliy uyg'onishni boshlab berdilar. Ular xalqimizning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida misilsiz jasorat ko'rsatdilar. Jaholatga, siyosiy noshudlikka qarshi qadim Turon, Turkiston o'lkasida ma'rifat mash'allarini yoqdilar. Jadidlar millat dardlariga darmon bo'lmoq, istibdodga qarshi ma'rifat bilan kurashish yo'lini tanladilar. Ular xalqimizni ma'rifatli qilish uchun kerak bo'lsa, o'z jonlaridan, mollaridan kechib bo'lsa-da maktablar ochdilar, dunyoviy o'quv qo'llanma, darsliklar yaratdilar, rivoj topgan yurtlarga borib ilm-fan sirlarini o'rganib qaytdilar, teatr, matbuot, matbachilikni, san'at va adabiyotning yangi ufiqlariga tamal toshini qo'ydilar.

Mustaqillik bois, ko'plab ajdodlarimiz singari jadid bobolar merosini obektiv, xolis o'rganish baxtiga musharaf bo'ldik. Ular haqidagi tarixiy adolat tiklandi. Nomlarini abadiylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bunday ezgu ishlar taraqqiyotimizning yangi bosqichida ham davom etmoqda. Jumladan, 2020

⁴⁵ Prezident Sh.Mirziyoevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutki. (11 dekabr 2023 yil)

yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasini keng nishonlangani kabilar fikrimizga dalildir⁴⁶.

Bir so'z bilan aytganda ular qoldirgan boy ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy meros milliy tiklanish, milliy o'nglanish va yuksalishimizda muhim omillardan bo'ldi, deb aytishimiz mumkin. A.H.Cho'lponning "Kecha va kunduz", A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq", M.Behbudiyning "Padarkush" yoyinki Botu, Elbek, Usmon Nosir kabilarning merosi xalqimizning ma'naviy mulkiga aylandi.

Umuman olganda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "...biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"⁴⁷, deya bildirgan fikrlari mavzuga yondoshishimizda metodologik yo'l va yo'nalishlarni beradi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti, shaxs barkamolligi hamisha yuksak ma'naviyat va ma'rifatga bog'liqlikdir. Buni o'z qalbidan chuqur o'tkazgan va amalga oshirish borasida ezgu ishlarni qilgan jadid bobolarimiz dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm-ma'rifat zarurligini asoslab berdilar. Zero, zamon ilm-fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo'lur, degan g'oyalari bugunimiz uchun ham naqadar ahamiyatlidir.

Jadidlar harakati va undagi ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini o'rganish jonajon Vatanimiz taraqqiyoti rivojida, unga hissa qo'shayotgan, qo'shishiga intilayotgan yoshlarimiz ma'naviy kamolotida, Yangi O'zbekistonimizning bardavom va barqaror har tomonlama rivojlanishimizda muhim ahamiyatga egadir.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020. <https://president.uz/uz/>

⁴⁷ Shu manba.

Shu nuqtai nazardan jadidlar faoliyatini nazariy va amaliy ahamiyatini quyidagicha belgilashimiz mumkin: **birinchidan**; jadidlar harakati o'zligimizni anglashda, tarixiy haqiqatni bilishimizda hamda ilm-ma'rifat qanday buyuk qudratga egaligini anglashimizda va yoshlarga anglatishimizda muhim ahamiyatga ega; **ikkinchidan**; jadidlar harakati va undagi ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari Yangi O'zbekiston taraqqiyoti g'oyalari bilan uzviylikka ega bo'lib, millat kamoloti, shaxs barkamolligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi; **uchinchidan**; jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksaltiruvchi omillar tizimida jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyalari o'zni beqiyos; **to'rtinchidan**, jadidlarning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari jamiyat taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazardan ilmiy - falsafiy tamoyillar asosida tahlil qilish, jamiyat hayotidagi o'zini tavsiflash, taraqqiyoti bilan funksional aloqadorligi va taqozolanganligini o'rganish muhimdir; **beshinchidan**; yoshlarni siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda, ularda fidoiylilik, vatanparvarlik, mardlik, shijoat kabi tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda jadidlar tomonidan ilgari surilgan ilg'or o'lmas g'oyalari ahamiyat beqiyosdir.

Mavzu doirasida ilgari surilgan, ilmiy yondashuvlarga asoslangan nazariy fikrlardan jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot takomilini yanada rivojlantirishda, yoshlarimiz siyosiy ong va madaniyatini yuksaltirishda, ularni fidoiy, mard va jasur, ma'rifatparvar ziyoliylik fazilatlarini shakllantirishda, mustaqillik, ozodlikni qadriga yetishda, milliy ma'naviy takomil jarayonlarimizga nazar solishda, o'zligimizni anglashda, globallasuv sharoitida jamiyat hayotini yanada sog'lomlashtirishda, eng muhimi taraqqiyotimizning yangi bosqichida Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlashda yaqindan ko'mak beradi.

Mustaqillik bois, ma'rifatparvar jadid ziyolilar haqidagi tarixiy adolat tiklandi. Endi ular ijodiy merosiga yondoshishda qandaydir qotib qolgan, bir yoqlama zo'ravon totalitar yakka mafkuraga asoslangan materialist metodlar bilan emas, balki tarixiy adolat, xolis va obe'ktivlikka, hur fikrliylikka asoslangan ilmiy yondoshuv imkoniyatlari paydo bo'ldi. O'tgan davr mobaynida ularning ijodiy merosini o'rganish borasida ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar tutashgan

chorrahada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni nomlari tiklandi, asarlari ko'pning nusxalarda chop etilib xalqimizning yana qayta ma'naviy mulkiga aylandi. Bu borada fikr yuritganimizda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, A.H.Cho'lpon va boshqalarning ko'p jildlik tanlangan asarlari nashrdan chiqdi. Endilikda ularning ijodiy merosiga yondoshishda kimlarning nuqtai nazari bilan emas, balki xolis o'z nuqtai nazarimizdan yondashish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Jadid bobolarimizning bir hayot davomida qilgan ishlari yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usini mustahkamlashda, barkamol avlodni tarbiyalashda va ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri, kelajagi uchun daxldorlik, mas'uliyat hissini oshirishda, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

Jadidchilar ijtimoiy - siyosiy g'oyalari, avvalo ona tiliga muhabbat alohida ahamiyat kasb etgan. Zero, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir⁴⁸.

Jadidchilik harakati borasida ko'plab asarlar muallifi sohaning bilimdon olimlaridan biri B.Qosimovning “Milliy uyg'onish” asari ham mavzuni har tomonlama keng yoritishimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy manbalardandir. Unda jadidchilik harakatining tamal toshi, tarixi, harakatning ko'zga ko'ringan vakillari, ularning ijtimoiy-siyosiy harakatchiligi, jadidchilik va sotsializm, jadid adabiyoti, she'riyatida davr voqealari, adabiyot-millat oyinasi va umuman uyg'onmoq dunyo bilan barobar yashamoqlikka oid juda qimmatli ilmiy-nazariy, metodologik yo'l va yo'nalishlar beradigan asoslarni topamiz.

⁴⁸ Qarang: Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10.2019. <https://president.uz/uz>.

Ma'rifatparvar jadidlar tomonidan ilgari surilgan dolzarb ratsional ijtimoiy-siyosiy, hayotiy g'oyalar millat tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirdi, hatto, usha davrda sufiyona ishqiy g'azallar, oxirat va imon haqida pandnomalar yozib yurgan ba'zi shoirlar ijodida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ular milliy yo'qotish va tanazul, kulfat, baxtsizlik sabablarini yanada teranroq idrok qila boshladilar hamda vatanparvar, millatparvar, ma'rifatparvar jadidlar ta'sirida xalqona hayotiy she'rlar yoza boshladilar. Hajviy, satirik janr qayta tirilishi kishilarni hayotga tanqidiy va tahliliy nazar solishga, tafakkur qilishga tomon undadi. Voqelikning sabablari bilimsizlik, go'llik, axloqsizlik, mas'uliyatsizlik, nafs havo, mansabparastlik, urug' - aymoqchilik, mahalliychilik, noahlilik, o'z qobig'iga o'ralib qolish, yangilikni qabul qilmaslik, mayishatparastlik, kibr havo, manmanlik, hurfikrlikni torligi kabilarda ekanligi teran idrok qilina boshlandi. Zero, yurt qayg'usida yongan Fitrat kabi o'lkaning boshiga yog'ilgan balolarda, avvalo har kim o'zini aybdor deb, hisoblash ruhi ustuvorlashdi.

Jadid ijodkorlar xalqni ma'rifatga, madaniyatga chorlaydigan ko'plab asarlar yaratdilar. Ularda qoloq udumlar, choyxonalar, bekorchi vaqt o'tkazish, oshxo'rlik, bedana urishtirish kabi illatlarga cha satirik qamchi ostiga oldindi⁴⁹. Ular jamiyat ahlini ilmi-ziyoga, fidoiylikka, birlikka, hamjihatlikka tomon chorladilar. "Padarkush", keyinchalik paydo bo'lgan "Kecha va kunduz", "Qor qo'ynida lola" singari asarlarda milliy fojiani asli ildizlari adabiy-badiy bir tarzida ochib tashlandi.

Umuman olganda mavjud tarixiy shart-sharoit jadidchilikni taraqqiyot ehtiyoji sifatida shakllantirgan bo'lsa, boshqa bir tomondan jadidlar millatning Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan qismini ma'rifiy jihatdan uyg'otishga harakat qildilar. Oqibatda ko'plab Vatanparvar boylar, savdogarlar, o'ziga to'q ziyolilar shaxsiy puliga parta, doska va o'quv anjomlarini olib, maktablar ochdilar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, kitoblar chop ettirdilar, ona tilida gazeta va jurnallar tashkil etdilar yoki bunday ishlarga moliyaviy yordam ko'rsatdilar.

⁴⁹ Qarang: Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-jild. -T.: Ma'naviyat, 2018. -B.-449.

Jadidlarning taraqqiyparvar ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari, shunga mos amaliy hatti-harakatlari xalqda g'ayrat, shijoat, tashabbus, rag'bat uyg'otdi, ijtimoiy faollik, siyosiy ong, milliy o'zligini anglash darajasini tobora o'sishiga katta turtki bo'ldi.

Umuman olganda jadidchilik harakati tarixiy bir og'ir sharoitda Turkiston mintaqasi ma'rifiy uyg'otish, rivojlantirish, ozod etish yo'lida paydo bo'ldi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilarcha uzoq kurashdilar.

Jadidlar faqat marifatparvarlik - maktab ochish, gazeta va jurnal chiqarish, teatr tashkil etish, adabiy va publitsistik asarlar yozish, xalqni ma'naviy uyg'otish, taraqqiyotga chorlash bilangina cheklanmadilar. Ular asta-sekin siyosiy kurashga ham kirishdilar. Rossiya Dumasiga saylovlarda qatnashib, deputatlik o'rinlarini egallashga, Dumada Turkiston xalqining haq-huquqi, manfaati uchun kurashga bel bog'ladilar. Til, ta'lim, madaniyat, mahalliy boshqaruv va sud masalalarida muxtoriyat (avtonomiya) talab qildilar, Dumaga o'z loyihalarini kiritdilar. Bunga Maxmudxo'ja Behbudiy va Mustafo Chuqaev faoliyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Xalqning milliy o'zligini anglash darajasi o'sishida, xalq mentaliteti va ma'naviy madaniyati yangi pog'onaga ko'tarilishida jadidlarning xizmati beqiyosdir. Xususan, Maxmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari, Cho'lpon va Fitratning adabiy badiiy asarlari, she'rlari o'tgan asrning 20-30-yillarida xalqimiz o'zligini anglashida, ma'rifat, ozodlik, mustaqillikka chorlashda muhim ahamiyat kasb etdi ⁵⁰. Jumladan A.H.Cho'lponning quyidagi "Ko'ngil" she'ri bu boradagi fikrimizga yaqqol dalildir.

Ko'ngil, sen munchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding?

⁵⁰ Qarang: Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-jild. -T.: Ma'naviyat, 2018. -B. 322.

Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi,
Qilichlar endi sinmasmi?
Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan;
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!..

Bu taqlidda ma'rifatga, ozodlikka, hurlikka chorlovchi asarlar. maqolalar har bir jadid ijodidan mustasno emas.

Jadidlar o'zlarining ilmiy-ma'rifiy ishlari, dolzarb ijtimoiy-siyosiy hayotni aks ettirgan maqolalari, adabiy-badiiy asarlari, o'tkir she'rlari, yuksak tarjimalari-yu, kuchli dramalari, mumtoz romani va kuyunchaklik bilan yozilgan publitsistik maqolalari hamda jangovar ijtimoiy faoliyati bilan o'zbek madaniyati va o'zbek milliy tafakkuri, o'zbek adabiyoti rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shdilar. Ular ozodlik, tenglik, adolat, mustaqillikning qo'rqmas kuychisi va zulm, yovuzlik, bosqinchilik, talonchilikning ashaddiy dushmani sifatida shuhrat qozondilar.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini o'rganish bizga avvalo, mustaqillik, ozodlik hurlikni qadriga yetishimizda, yuksak ilm-ma'rifat barcha kulfatlarni qalqoni ekanligini to'la ratsional anglab olishimizda, ma'rifat jamiyat taraqqiyotining asosi, uning muqarrar halokatdan asrab qoluvchi eng qudratli kuch ekanligini bilishimizda ham muhimdir.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ilg'or ijtimoiy-siyosiy g'oyalar millat tafakkurining asriy uyqudan uyg'otib, yangi bir zamonaviy taraqqiyotga tomon yo'l soldi, mustaqillik va ozodlikka muhim poydevor bo'ldi.

O'z tarixini bilgan, kechagi kunini unutmagan xalqning, millatning kelajagi buyuk bo'ladi. Jadidchilik harakati bizga mustaqillikkacha bo'lgan jaryonlarga teran nazar tashlashimizga, o'zaro birlik va birdamlikni asrab-avaylashga, ilm-ma'rifatga, aql-zakovatga tayanib yashashga, yaratishga, ishlashga, Vatan, yurt, millat kamoloti yo'lida fidoiy bo'lishga, kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni to'la his qilishiga,

jur'atli va shijoatli bo'lishga, doimo ogoh, hushyor bo'lishga, mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga, u bergan ulug' ne'matlarni qadriga yetishimizga hamisha da'vat etadi.

Jadidlar harakati va undagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalari borasidagi fikrlarimizni xulosalar ekanmiz **birinchidan**; jadidlar harakati va undagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalari xalqni ma'rifatli qilishga, uning ozod mustaqil va obod ko'rishga yo'naltirilgan. **Ikkinchidan**; jadidlar harakati va undagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalari ma'rifat nuri bilan to'la sug'orilgan, feodal qaloqlikka, jaholatga, mutelikka, mahdudlikka, mustamlakachilikka qarshi qaratilgan, Vatan, yurt, xalq, millat istiqboliga yo'naltirilgan. **Uchinchidan**; jadidlar harakati va undagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalari dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoridan joy olishga, milliy manfaatlarni himoya qilishga yo'naltirilgan. **To'rtinchidan**; jadidlar harakati va undagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalari dunyoning taraqqiy topgan mamlakatlari erishgan yutuqlardan to'la bahramand bo'lishga, adolatli jamiyat qurishga, ijtimoiy tenglik, o'zaro mehr-oqibat, bag'rikenglik, birdamlik, totuvlikni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, mamlakatni ozod va mustaqil, xalqni farovon, kishilarini ma'rifatli ko'rishga yo'naltirilgan va hozirgi globallashuv, axborotlashuv, innovatsiya va umuman taraqqiyot zamonida ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Yuqoridagi ilgari surilgan fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi **takliflarni** ilgari surish mumkin:

Birinchidan, biz mustaqillikni qadriga yetmoqchi, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shmoqchi, sog'lom barkamol, shijoatli, mustaqil o'z fikriga ega yaratuvchi, mard va jasur avlodni tarbiyalamoqchi ekanmiz, avvalo jadidlar faoliyatini o'rganishimiz va o'rgatishimiz lozim.

Ikkinchidan, agar biz jaholatning turli ko'rinishlariga qarshi kurashmoqchi, uni oldini olmoqchi ekanmiz jadid allomalari asarlarini oilada, maktabda, oliygohlarda yanada ko'proq o'rganish masalalariga, kitobxonlik madaniyatiga e'tiborni yanada oshirishimiz darkor.

Uchinchidan; mustaqillik bois jadidlik harakatini o'rganishda mutlaqo yangi shart-sharoit maydonga keldi. Erk va mustaqillik yo'lida shahid ketgan sho'ro

tuzumi qurbonlarining fojiali taqdirlarini butun tafsilotlari bilan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib turibmiz. Afsuski, bu imkoniyatdan yetarli foydalanayotganimiz yo'q. Holbuki, bu istiqlolning ahamiyatini anglashda, bugungi kunning qadriga yetishda yangi avlod tarbiyasining muhim vositasi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutki. (11 dekabr 2023 yil)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston", nashriyoti, 2021.
3. Abdurauf Fitrat. Turkistonda ruslar (1918). <https://ziyouz.uz>.
4. Abdurahmonov M. Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi. –T.: Istiqlol nuri, 2014. -612 b.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999.
6. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali. – T.: Ma'naviyat, 2006.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002. – 380 b.

TURKISTONDA JADIDLAR HARAKATINING RIVOJLANISHI VA UNDA G'OZI YUNUSNING TUTGAN O'RNI

ABDUOLIMOV I.I.,
*O'R QK Akademiyasi Chegara
qo'shinlari harbiy san'ati kafedrasi
podpolkovnik, katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishiga o'z salmoqli hissasini qo'shgan g'ozini yunusning faoliyati, uni xalqning yoshlari o'rtasida ta'lim-tarbiya va ma'rifatni tarqatishdagi xizmatlari yoritilgan va xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik xarakati, ta'lim, tarbiya, maktab, jadidchilik adabiyoti, ijod, jamiyat, g'oya, ilm, madaniy-ma'rifiy, meros.



Jadidlar harakati Turkiston o'lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo'lmay, balki chuqur asoslarga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma'rifatparvarlik g'oyalariga, ikkinchi tomondan ilg'or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o'zlikni saqlab qolgan holda zamon

kishisini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil Chor hukumati amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini oyoq uchida ko'rsatishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo'lgan xo'rlik hissi edi.

Garchi chor ma'murlari musulmonlar yashaydigan hududlarda qanday yaxshi narsalarni joriy qilgan bo'lsalar, bu gimnaziyalarning ochilishi bo'ladimi, zavod va fabrikalarning qurilishimi, bularning barchasini ular eng avvalo o'zlarining manfaatlari uchun amalga oshirdi. Qurol va quvvat nuqtayi nazaridan ojiz bo'lgan

mahalliy xalq orasidan maydonga chiqqan bir guruh taraqqiyparvarlar mustamlaka va xo'rlik balosidan xalqni qutqarish uchun jadidlar harakatiga asos soldi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo'q. Bu yerda ham Buxoroda bo'lgani kabi jadid-qadim munozaralari, ikki qatlamning o'zaro tushunmasligi kabi muhit hukmron edi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 23-may kungi sonida chop etilgan "Jadid va qadim nedur" maqolasi so'zimizga isbot bo'la oladi. Maqola muallifi Abdulloh Shoshiy jadid va qadim kalimalarida hech qanday gunoh yo'qligini ta'kidlab, balki haqiqiy gunoh "Rasmiy qabihchamiz ila odati shar'iiyadadir", deydi [1]. Shu boisdan ham o'zaro ixtiloflarni tugatib, ikki tomon ham bir-birini eng avvalo tushunib olishlari lozimdir. Shuningdek, muallif musulmonlarning ikkinchi manbasi bo'lmish hadisdan "Binobarin Hazrati Imom Rabboniyni mujaddidi soniy derlar. Ya'ni sanoyi hijriyaning ikkinchi minggida dinni jadid qilg'uvchi, rivojlantirguvchi va nusrat yuborguvchi deyiladi va ham hadisda kelibdiki, "Alloh taolo hazrati yuborur va paydo qilur bu ummat marhamatining nafi uchun va dini islomning rivoji va taraqqiysi uchun har yuz yil boshida mujaddid yuboradur", misolini keltirib, ilohiy mohiyat va dinning o'zi jadidlikni ya'ni islohotchilikni talab qilishini yozadi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishiga G'ozii Yunus ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. U ham taraqqiyparvarlar bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Obidjon Mahmudov va boshqa shu kabi insonlarning maslak va maqsadlari yo'lida xizmat qildi. U bir tomondan turli xil bid'at va xurofotlarga chirmashib ketgan islomni pok va musaffo holatga keltirish lozimligini ta'kidlasa, boshqa tomondan xalqni yangi usul maktablarida o'qishga targ'ib etdi. G'ozii Yunus ham aksariyat ziyolilar kabi eski usul maktablari o'z umrini o'tab bo'lganini, undan endi hech qanday foyda yo'qligini aksincha qaytaga zarar keltirishini ta'kidladi. Jumladan, u o'zining "Eski maktablar haqinda" nomli she'rida shunday yozadi:

Ko'z oching Turon eli, biz ilmsiz pomolmiz,

Ish agar bu yo'lda ketsa ne bo'lur ahvolimiz.

Yangi maktablar ochildi bizga lozimdur o'qish

Ilm olsaq yaxshi bo'lg'ay bizning hama af'olimiz.

Eski maktab orqasida bo'ldi Turkiston harob

Ilmsizlik orasida bitguvsi islomimiz. [2]

G'ozii Yunus ongli musulmon sifatida islom dinining mintaqa hayotida tutgan o'rnini chuqur anglagan. U bu dinning eng yetuk vakillari bo'lmish ulamolarga murojaat qilib, ulardan Turkiston xalqlarini uyg'otishni, jaholatdan ma'rifatga yo'naltirishni, turli xil fitna va fasodlarni tugatishni so'ragan. G'ozii Yunus ularning asl vazifasi firqalarga bo'linib olib janjallashishda emas, balki millat va xalqni ma'rifatli qilishda ekanini ta'kidlagan.

Jumladan, G'ozii Yunusning fikricha olimlar o'z qavmlarining har qanday sitamlariga chidam, sabr va matonat ko'rsatib, insonlarni to'g'ri yo'lga solishga qanday intilgan bo'lsa ulamolar ham shunday namuna ko'rsatgan holda odamlarga saodatli manzilni ko'rsatishi lozimdir. Shuningdek, ular huddi payg'ambarlardek faqatgina dinga emas, balki madaniyatga ham chaqirishi, odamlarni ratsional tafakkur qilishga, olamni va ijtimoiyotni mulohaza qilishga da'vat qilishi darkor. Agar "O'zlari voris bo'lganlariga inonsalar Alloh A'zimush-shan tarafidan berilgan bir quvvat ila millatni ittifoq va nizomga solub Janobi Alloh, Kalomi-sharif va Rasuli Akramimiz taraflaridan ularga omonat qo'yilmush vazifalarga tushunib Janobi Allohga mutavassil bo'lib, millatlariga lozim bo'lgan xizmatlarini ado etsunlar. Diniy, milliy, madaniy va siyosiy biror habar bo'lganlarini ko'rsatib millatning o'ziga munosib har bir jamiyatga tavvodde' va zoyif etsunlar" [3].

G'ozii Yunus madrasalarni isloh etish masalasini ham boshqa aksariyat jadidlar singari amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalardan biri deb bildi. Bu to'g'risida uning o'zi: "Turkistonda islohi madariys masalasi ko'pdan beri qo'zg'algan bo'linsada, ma'lum qora kuchlarning (G'ozii Yunus qora kuchlar deganda chor va bolsheviklar hukumatini nazarda tutmoqda – M.Alijonov) qarshi harakati va eskichilarning teskari tutgan yo'llari orqasida, har bir zamon kutar lekin islohi madariys tovushina chuqurroq qabr qazilur edi. Islohi madarischilar garchi Qo'qand va Toshkand shaharlarida bor bo'lsa-da, eskilarning quvvati oldida chekkalarda pusib yotmoqqa majbur edilar. O'zgarish boshlanishi bilan madrasani

zamonga muvofiq isloh etishni amal qilib olgan kichkina guruhlarga nafas olish mumkin bo'lib, yonlariga tarafdorlar to'plashga imkoniyat hosil bo'ldi" [4], deb ta'kidlaydi.

1917-1918-yillarda Qo'qonning ba'zi madrasalarida va Toshkentning mashhur Baroqxon madrasasida ta'limni isloh qilish tarafdorlari bosh ko'taradi. Biroq Farg'onada boshlangan Muxtoriyat atrofidagi voqealar sabab bu ezgu niyat amalga oshmasdan qoldi. G'ozini Yunusning fikricha, Toshkentdagi madrasalarni isloh qilishga harakat qilayotgan talabalar o'zlariga Baroqxon madrasasini umumiy qarorgoh qilib olib, "eskilar va eskichilar" bilan kurashdi. Islohot tarafdorlari madrasadan 40-50 yildan beri faoliyat olib borayotgan "muborak" ho'jalarni haydab chiqarib, ularning o'rniga o'zini ko'rsata olgan, zamon zayli bilan yashab, uning talablariga javob beradigan mudarrislar ishga joylandi. Biroq "Shunday bo'lsa ham xalqning ruhi bilan hisoblashmoqqa to'g'ri keldi, va birdan (madrasalarni – M.Alijonov) isloh etish mumkin bo'lmadi" [4:1].

G'ozini Yunusning taraqqiyparvarlikka doir g'oyalari ayniqsa u faoliyat ko'rsatgan "Ishchilar dunyosi" jurnalidagi maqolalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Jurnalning birinchi sonida bosilgan "Maslak va maqsad" maqolasida G'ozini Yunus: "Maslagimiz programmasini to'liq amalga oshirish, unda shariati nabaviyada ustuvor turib qo'l uchi bilan kun ko'ruvchi faqir xalqimizni moddiy va ma'naviy jihatlarini yaxshilamoqqa intilish, shu yo'lda yig'inlar tashkil etish, ish borishi bilan ishchilar uchun maktablar, dorulfununlar, qiroatxonalar, shifoxonalar va madaniy muassasalar bunyod etish, sanoatni yo'lga qo'yish, siyosatda chor mikroblarini surib tashlab o'rniga turk-islom siyosati o'rnatmoq yo'lida jon fido etmakdir, vassalom" [5], deb o'zining va davr taraqqiyparvarlarining maqsadini ochiqlyaydi.

Jadid taraqqiyparvarlari o'zbek yoshlarini horijiy o'quv yurtlarida o'qitishni ham maqsad qilgan bo'lib, ular bu yo'lda xalq ilmiy tafakkurini yuksaltirish va bu omilni taraqqiyotning eng kuchli vositasi sifatida hal qilinishi lozim bo'lgan milliy masala darajasiga ko'tardi. Ular Turkistonda oliy ta'lim muassasalarining yo'qligi va bu borada amaliy tajriba ham pastligi sabab jadid taraqqiyparvarlari yoshlarni chet ellarda o'qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan yoshlarni yaqindan

tanishtirish orqali Turkistonni erk va ozodlikka olib chiqishni maqsad qilgandi. Shu maqsadda ilk marotaba 1909-yil 12-mayda Toshkentdagi Turkiston jadidlarining “Jamiyati xayriya”si talabalarning ilk guruhini Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlariga o‘qishga yubordi. Bu jarayon jadallik bilan rivojlanib bordi.

1909-yil 18-iyulda Buxorodagi “Tarbiyali atfol” jamiyati shu yilning o‘zida Fitrat, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Ato Xo‘ja, Mazhar Burxonov kabi ko‘pgina yoshlarni Istanbulga o‘qishga yo‘llagan [6]. Bu harakatlar natijasida Buxorodan Istanbulga yuborilgan talabalar soni 1911-yilda 15 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1912-yilda 30 nafarga yetgan. Qolaversa, “Ko‘mak” tashkiloti ham o‘zbek yoshlarini horijda o‘qitish borasida katta ishlarni amalga oshirgan. Bu tashkilotning yuzaga kelishida Maorif komissariyati O‘zbek bilim hay’ati qoshidagi o‘rta, oliy maktablarda o‘quvchi o‘zbek yoshlarining “Adabiyot” to‘garagi asosiy o‘zak bo‘lib xizmat qildi [6]. Bu tashkilotning yuzaga kelish jarayoni to‘g‘risida Salimxon Tillaxonov quyidagilarni yozadi: “Ko‘mak” uyushmasining maqsadi Turkiston talabalariga oliy tahsil asoslarini yaratmoq, horijga va ichki Rossiyaga borib o‘quvchilarning ishlarini yengillashtirmoqdir” [7]. Shuningdek, Salimxon Tillaxonov o‘z maqolasida uyushma Toshkent dorulfununi va boshqa maktablarda o‘qigan o‘quvchilarni ta’lim olishlarini samarali davom ettirishi uchun tashkil qilinganini qayd etgan. Yana Rossiya va chet ellarda talabalar uchrashi mumkin bo‘lgan mashaqqatlarni prognoz qilib Sayyidalixo‘ja, Ibrohim Orifxonov, Kamol Dadaxo‘ja o‘g‘li, Rizqi Rahimiy, Abduvohid Jahongir, To‘lagan Mo‘min o‘g‘li, Ochil Xo‘ja, Ahmad Shakuriy, Tohir Shokiriy, Salimxon Tillaxonlar to‘planib 1922-yil 2-mayda “Ko‘mak” uyushmasiga asos solinganini yozgan [7].

G‘ozi Yunus o‘zining “Qizil bayroq” gazetasidagi maqolalari orqali o‘zbek yoshlarining horijda tahsil olishlari lozimligini aytib, shu maqsadda tashkil etilgan “Ko‘mak” uyushmasining faoliyatiga ham butun xalqning e’tiborini qaratishga harakat qildi. Jumladan, bu gazetaning 1922-yilgi 200-sonida bosilgan “Sharaflik ko‘mak” maqolasida, “eski idora vaqtida ilm yo‘lida ko‘rgan to‘suqlarimiz to‘g‘risida ko‘p yozdiq, ko‘p qichqirdiq, nihoyat quruq shovqun-surondan foyda

chiqmasligini tushunib amaliy suvratda ishni boshladik”, deb [8] qo‘llab-quvvatlaydi va keyingi yillarda o‘zbek yoshlarida uyg‘ongan “ilm yo‘lidagi yorqinlik”ni alohida e’tirof qiladi. Shuningdek, G‘ozi Yunus ayni vaqtda yoshlarda ilmga nisbatan uyg‘ongan hisni mahkam ushlab qolgan holda oldinga harakat qilish lozimligini urg‘ulab, “Mana shu hisning o‘zbek yoshlarida uyg‘onishi o‘zbek millatini ilmsizlik orqasida bo‘yniga o‘ralgan zanjirdan qutqaza” [8] olishligiga ishonadi.

G‘ozi Yunus “Ko‘mak” uyushmasining faoliyatiga baxo berib, uyushma charchamay to‘xto‘siz ishlayotganini e’tirof etib va birgalikda ishlab turadirlar. Bular hukumatdan ko‘mak kutib o‘tirmasdan, ionalar to‘plab ishnp boshladi. “Ko‘mak” uyushmasi iona to‘plash bilan ishning yaxshi samaralik chiqmasligini ko‘zda tutib hukumatimizdan ko‘mak so‘rab tegishlik orginlarga murojaat qildi. Shuning bilan barobar qo‘shni jumhuriyatlarga ham ko‘mak so‘rab murojaat qilgan edi. Bu murojaatga birinchi quchoqni Buxoro hukumati ochdi. Buxoro hukumati “Ko‘mak” uyushmasi a‘zolaridan ikki kishini [9] o‘z masorifi bilan chet ellarda o‘qitishni o‘z bo‘yniga oldi. Eshitishimizga qaraganda Buxoro hukumati Turkistondan yana ikki o‘quvchi yuborishni o‘z bo‘yniga olgan. Har holda “Buxoro hukumatining bir qarindoshliq muruvvatini butun Turkiston xalqi esidan chiqormaydur”, deb ta’kidlaydi.

Albatta, yuqoridagi ishlarni taraqqiyparvar ziyolilarning ko‘pchiligi qizg‘in qo‘llab-quvvatladi, biroq oradan ozgina fursat o‘tmasdan horijda tahsil olayotgan talabalarining kam-ko‘stlari uchun yig‘ilgan pul juda oz ekani ma’lum bo‘ldi. Bu haqda G‘ozi Yunus: “Rossiyada o‘quvchi talabalarimizning soni borg‘on sari ko‘payishi aniqdir. Bultur butun Rossiyada Turksitonlik o‘qig‘uvchilar 20 ga yetmagani holda, bu yilgi o‘qush vaqtida (agar borg‘uvchi o‘quvchilarg‘a turli to‘siqlar bo‘lmasa) 200dan oshishi mumkindir. Bultur Moskovda va Peterburgda o‘qig‘uvchi talabalarimizning maishiy va o‘qush asboblari yetishmagani orqasida, ularning qandog‘ qiyin hollarg‘a tushkanliklari ko‘pimizga ma’lumdir” [9], deb xabar beradi va barchani talabalar uchun ionalar to‘plashga chaqiradi. G‘ozi Yunus talabalarining iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun: “Rossiyada o‘qig‘uvchi

talabalarimiz uchun, o'zimizdan to'plang'on nalog'lardan bir miqdorini chiqarish kerak. Hamda o'zimizning milliy boylig'imiz bo'lg'on vaqflarning yillik daromadidan bir qismini ajratib, Rossiyada o'qig'uvchi talabalarimizni ovqat, kiyim va o'qish qurollari bilan ta'min etishimiz kerak. Bundan boshqa hech chora yo'qdir", deb yechim taklif qiladi.

Xullas G'ozii Yunus jadid va faol jamoat arbobi sifatida XX asrning boshidagi taraqqiyparvarlik jarayonlarida faol ishtirok etdi. U jadid taraqqiyparvarlari qatorida Turkistonning azaliy va o'z yechimini kutib yotgan muammolarini dadil ko'tarib chiqib, xalq va hukumat e'tiborini ularga qaratishga harakat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. –1914-yil 23-may. –№ 12.
2. G'ozii Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. –1919-yil 25-iyun. –№ 129.
3. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. –1917-yil 6-sentabr. –№ 2.
4. G'ozii Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. –1923-yil 6-fevral. –№ 57.
5. G'ozii Yunus. Maslak va maqsad // Ishchilar dunyosi. –1918-yil 4-yanvar. –№ 1.
6. Bahrom Irzaev. Turkiston jadidlarining ko'mak tashkiloti. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. 2016.
7. Ko'makning javobi. // Turkiston. – 1923-yil 29-iyul. –№ 163.
8. Baroqxon talabasi. Sharaflik ko'mak // Turksiton. 1922-yil 22-iyul. –№ 200.
9. O'qig'uvchi talabalarga ko'mak berish lozim // Turkiston. 1922-yil 6-sentabr. –№ 216.

JADIDLAR MA'NAVIY JASORATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Nasriddinov A.,
*O'R QK Akademiyasi Milliy iftixor
va harbiy vatanparvarlik kafedrasi
dotsenti, falasfa fanlari nomzodi*

«Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur».

«Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy», «Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir».

Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni uyg'otish, yoshlarni milliy ozodlik, vatanparvarlik ilm-ma'rifatga intiluvchi o'tmishdagi buyuk ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalashga qaratilgan edi. Bunda iymon-e'tiqodi but, xalqning emin-erkin, dasturxonni to'kin, jahondagi taraqqiy topgan xalqlar kabi ma'rifatli bo'lishini astoydil istovchi ilg'or guruhi jadidlar bo'lib, ular johil ruhoniylarga, xonliklardagi bosh boshdoqliklarga va mustamlakachilikka qarshi edilar;

Ular xalqning milliy ongini oshirish va o'zligini anglatishni eng avvalo ma'rifat, ilmu urfondan qidirdilar;

Millat, xalq qayg'usi bilan yashovchi ziyolilar xalqni uyg'otishni ma'rifatdan boshlashga qaror qildilar;

Millati qrim-tatar bo'lgan Ismoil G'aspirali (1851—1914) jadidchilik harakatini asoschisidir;

1904 yilda Buxoroda yana kelib amir bilan muzokaralar olib bordi. Natijada amir uning otasi nomi bilan ataluvchi Muzaffariya jadid maktabiga asos solindi;

1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla 2-jadid maktabiga asos soldi;

1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903 yilda Turkiston o'lkasida 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktablari bor edi;

Asr boshida jadidlar ziyolilarining butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og'ir ishga fidoyilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M.Behbudiy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, Munavvar qori, Boboovun Salimov va boshqa ko'plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar. Jadidlar harakati bu - yoshlar harakati edi.. Bu yoshlar aqliy salohiyat jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunib yetgan insolar edilar. Bu qoloqlikdan qutilishning to'g'ri yo'li ma'rifatparvarlik deb qattiq ishonar edilar. Ular oldingi falsafa yutuqlariga asoslandilar. Jadidlar o'zlarini ushbu falsafaning tahlilchilari va targ'ibotchilari sifatida ham namoyon qildilar.

Ma'luki, mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoniy, Abay Qo'nonboev va olim Cho'qon Valixonov islohotning hassos tarafdorlari bo'lganlar, ular boshi berk ko'chadan chiqishni nafaqat ma'rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko'rganlar. O'tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma'rifatparvarlikdan siyosatga o'tgan jadidlar turon zamindan yetishib chiqqan edilar.

Jadidlarning maorif sohasidagi faoliyati. Jadidlar tomonidan birinchi marta partalarda o'tirish, darslarda xarita va rasmlardan foydalanish joriy qilingan. U keyinchalik hozirgi zamonaviy maktab uchun asos bo'lgan. Ular tomonidan yaratilgan qo'llanma va darsliklar:

Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi Soniy», «Havoyiji diniya» («Shariat qonunlari to'plami»), «Usuli hisob», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islom», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» va Mahmudxo'ja Behbudiyning «Qisqa umumiy geografiya», «Islomning qisqacha tarixi», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi», Hamzaning «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi», kabi darsliklari. va boshqalar.

Jadidlar harakatida matbuot va jurnalistika.

Matbuot va jurnalistika sohasi:

XX asr boshlarida jadidlarning quyidagi matbuotlari mavjud bo'lgan:

Toshkentda Ismoil Obidiy «Taraqqiy» (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov «Xurshid» (1906), Abdulla Avloniy «Shuhrat» (1907), Saidkarim Saidazimboev «Tujjor» (1907), Ahmadjon Bektemirov «Osiyo» (1908), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev «Sadoi Turkiston» (1914-1915) gazetalarini, shuningdek, Abdurahmon Sodiq o'g'li (Sayyoh) «Al-Isloh» (1915) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar. Samarqandda esa Mahmudxo'ja Behbudiy «Samarqand» (1913) gazetasi va «Oyna» (1913-1915) jurnalini, Qo'qonda Obidjon Mahmudov «Sadoi Farg'ona» (1914) gazetalarini chiqardi.

Jadidlar odamlar ongini o'zgartrishga erisha oldilar. Jamiyatni o'zgartirishga harakat qildilar. Ilg'or jadidlar adabiyot, dramaturgiyaga asos soldilar. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdilar. Ta'limning yangi shakllarini yaratdilar. Bu yangi madaniyat edi. Ular –odamlar ongida ayollarga nisbatan oz bo'lsa-da, hurmatni ko'tarishga harakat qildilar, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Abdurauf Fitratning oila haqidagi kitobi asosiy qismi ayolga, uni qanday hurmat qilish va unga qanday munosabatda bo'lishga bag'ishlangan. O'sha kitobda “Qiz bolalar o'qishi kerakmi?” degan bo'limi mavjud. U kitobda Abdurauf Fitrat, insonning intellektual holati, oladigan ta'limi ko'p jihatdan ayollarga, onalarga bog'liq. Uning yozishicha, erkak tirikchilik uchun yegulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko'ra ma'lumotliroq bo'lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug'ullanadi.

Darhaqiqat shunday. Ayollar ta'lim rivojlanganini va ayollar maktabi bo'lganini, ularda ayollar ta'lim olib, Sharq mumtoz adabiyoti o'qitilgan. Jadidlar ta'limoti - uz zamonasining progressiv ta'limoti bulib, u nafakat tarakkiyparvar shaxslar, balki ilg'or fikrlovchi yoshlarni xamda barcha tarakkiyparvar ziyolilarni uz ketidan ergashtira oldi. Jadidlarning Turkiston mustakilligi uchun kurashida asosan kuyidagi yunalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmogi-ni kengaytirish; kobilyatli yoshlarni xorijga ukishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr

truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish; xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat kurishni nazarda tutganlar.

Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni uyg'otish, yoshlarni milliy ozodlik, vatanparvarlik ilm-ma'rifatga intiluvchi o'tmishdagi buyuk ajdodlarimizga munosib ruhda tarbiyalashga qaratilgan edi.

Bunda iymon-e'tiqodi but, xalqning emin-erkin, dasturxonini to'kin, jahondagi taraqqiy topgan xalqlar kabi ma'rifatli bo'lishini astoydil istovchi ilg'or guruhi jadidlar bo'lib, ular johil ruhoniylarga, xonliklardagi bosh boshdoqliklarga va mustamlakachilikka qarshi edilar;

Ular xalqning milliy ongini oshirish va o'zligini anglatishni eng avvalo ma'rifat, ilmu urfondan qidirdilar;

Millat, xalq qayg'usi bilan yashovchi ziyolilar xalqni uyg'otishni ma'rifatdan boshlashga qaror qildilar;

Asr boshida jadidlar ziyolilarining butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og'ir ishga fidoyilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M.Behbudiy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, Munavvar qori, Boboovun Salimov va boshqa ko'plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar

Xulosa. Jadidlar odamlar ongini o'zgartrishga erisha oldilar. Jamiyatni o'zgartirishga harakat qildilar. Ilg'or jadidlar adabiyot, dramaturgiyaga asos soldilar. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdilar. Ta'limning yangi shakllarini yaratdilar. Bu yangi madaniyat edi. Ular –odamlar ongida ayollarga nisbatan oz bo'lsa-da, hurmatni ko'tarishga harakat qildilar, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Ma'naviyat va ma'rifat. 22-dekabr 2023 y.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 2018, 28 bet.
4. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Sharq nashriyoti, Toshkent, 2012.
5. Hamza. To'la asarlar to'plami 2-tom Toshkent 1989.99bet.
6. A.Nasriddinov. Davr-Buyuk Ma'rifatparvar Taqdirida. "O'zbekiston falasufi milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent 2022.117 bet.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TURKISTON IJTIMOYIY-SIYOSIY HARAKATCHILIGINING ENG YIRIK NAMOYANDASI

Xaitov Dj. E.,
O'R QK Akademiyasi
Gumanitar fanlar sikli
boshligi podpolkovnik, dotsent

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy ma'rifatparvar jadidlar faoliyati va ularning taraqqiyotda tutgan o'rni keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: Turkiston, Maxmudho'ja Behbudiy, Usuli jaded, Padarkush, Turkiston muxtoriyati.

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлена деятельность узбекских национальных просветителей конца XIX начало XX веков и их роль в развитие.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Туркистан, Махмудходжа Бехбуди, Усули Джадед, Падаркуш, Туркестанская автаномия.

ANNOTATION. This article presents the activities of Uzbek national educators of the late XIX th and early XX th centuries and their role in development.

KEYWORDS: Turkistan, Maxmudhoja Behbudi, Usuli Jaded, Padarkush, Turkestan Autonomy.

XIX-asr oxiri XX-asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan - ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arboblari, milliy-ozodlik kurashi, milliy uyg'onishda ma'naviy kuch-quvvat va ilhom manbai bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, milliy demokratik harakat— jadidchilik va uning yirik namoyandalari Maxmudho'ja Behbudiy Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniylarning xizmatlari beqiyosdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX-asr bo'sag'asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rusiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk

va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotta boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

Turkistonda «Usuli jadid», «Usuli savtiya» nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, shular birinchi bo'lib zamonaviy maktab g'oyasini ilgari surdilar. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqlolga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar. Rusiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining sha'nu shavkatini himoya qildilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog'ini baland ko'tardilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi edi. U 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785-1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi.

Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzolik qila boshlaydi. O'z ustida qunt bilan ishlab, shariatning yuksak maqomlari - qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. Yosh Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiyning xizmati katta bo'lgan. U 1892 yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, «usuli savtiya»ni joriy etish taklifi bilan general-gubernator N. O. Rozenbaxga murojaat etadi. Javob olmagach, 1893 yilda o'zi Toshkentga keldi. Samarqand, Buxoroda bo'ldi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarni ochishga muvaffaq bo'ldi. Behbudiy o'z xotiralarida ustozi bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi.

1899-1900 yillarda Behbudiy haj safariga boradi. Dunyo ko'rish izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g'ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy),

Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topdi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug'rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobatul-atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.

1903-1904 yillarda Maskov, Peterburgga boradi, 1907 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan: Nijniy Novgorodda 1907 yilning 23 avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyi chaqiriladi. Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq kerak. Millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq lozim. Millat uchun oyna kerak, toki undan o'z qabohatini ham malohatini ham ko'ra olsin.

Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuotga boshladi. «Padarkush» dramasi shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi. «Padarkush» dramasi 1913 yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildiga «Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi» degan yozuv bilan Tiflis senzurasidan ruxsat olinadi. Bosilib chiqqandan keyin ham sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketadi.

«Padarkush»- o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasi. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmunga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif «Milliy fojia» atagan 3 parda 4 manzarali bu drama hajman ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n edi. O'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib o'z otasining o'ldirgani, nodonlik va jaholat haqida edi. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914 yilning 15 yanvarida sahnaga qo'yildi. Spektakl o'z maishatiga o'ralib, dunyoni unutgan millatdoshlarga chakmoqdek ta'sir etdi. U Toshkentda 1914 yilning 27 fevralida qo'yildi.

Avloniyning «Turon» gruppasi Kolizey (Hozirgi savdo birjasi binosi) da o'z faoliyatini mana shu «Padarkush» bilan boshlangan edi. Spektakl boshlanish oldidan Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o'rni haqida nutq so'zlaydi. Bosh rolni A. Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni «tarixiy kun» deb yozadi. «Turon» gruppasi 1914-1916 yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chikdi. Turkistonni junbushga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bu bir tomondan millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda katta ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning 1913 yillarda chiqqan «Padarkush» pesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim, degan e'tirofini eslash kifoya. 1916 yilda Toshkentga kelib Kolizeyda «Turon»ning qator spektakllarini ko'rgan A. N. Samaylovich yozadi: «Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi...Yangi adabiyotning markazi - Samarqand...Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiydir».

1913 yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullandi. Apreldan «Samarqand» gazetasini chiqara boshladi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 45-soni chiqib, moddiy tanqislik tufayli to'xtagan. So'ng Behbudiy shu yilning 30 avgustidan «Oyna» jurnalini chiqara boshlaydi. «Haftalik, suratlik bu majalla, asosan, o'zbek tilida bo'lib, unda ixcham forsiy she'r, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib boriladi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar. Jurnalning 1913 yil 13 avgust birinchi-nishona sonidayoq «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi.

Behbudiy adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrluk sukunatdan so'ng bu sohaning xos-xususiyatlarini ta'kidlab adabiyotda

tenghuquqlilik masalasini o'rtaga qo'ydi. Maqola «Tanqid saralamoqdur» (1914 y. 27-son) deb nomlangan edi. Adibning barcha tarixiy-ilmiy mavzudagi maqolalari o'tmishga kamoli ehtirom va e'tiqod bilan yozilgan. Behbudiy millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo'ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e'tibor berdi.

Umuman Behbudiyning publitsist sifatida faoliyati adib iste'dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Ba'zilar uning maqolalari 200, boshqalar 300 deb belgilaydilar. Uning barcha maqolalari aniqlab chiqilmagan. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avval, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan, uning 1906 yil 10 oktabrda «Xurshid» (6-son) gazetasida bosilgan «Xayrul umuri avsothu» («Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur») maqolasi diqqatga sazovordir. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiy qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o'sha 1906 yildayoq sotsialistik ta'limotni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog'lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan edi. U ham ustoz I. Gasprinskiy kabi sotsializmni zo'rovonlik hisoblaydi, sotsial tenglikni adolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko'rdi. Xuddi shu e'tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi.

Vatan taqdiri kun tartibiga qo'yilgan 1917 yilning 16-23 aprelida Behbudiy Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan qurultoyida hayajonli nutq so'zladi. Millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

Shu yilning 26 noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27 noyabrga o'tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Uning ma'naviy otasi, shuhbasiz, Behbudiy edi. Biroq u Sovetlar tomonidan

xoinona bostirildi. 19-20 fevral kunlari shahar to'pga tutildi. 10 ming turkistonlik o'ldirildi, 180 qishloqqa o't qo'yildi.

Behbudiy iztirob bilan Samarqandga qaytadi. U yerda tura olmay, Toshkentga keladi. Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi. Tabiiyki, muzokaralar natija bermaydi. Millatni, milliy taraqqiyotni inkor etgan sho'rolar yo'li aldov va zo'ravonlikka asoslanganini bilardi. Shuning uchun ham uni 1906 yildayoq aql va shariatga zid deb e'lon qilgan edi.

Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919 yilning bahorida, 25 martda parishon holda yo'lga chiqadi va Shahrizabzda qo'lga olinib, taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlandi. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan zindon yakindagi «podsholik chorbog'i»da o'ldirilgan. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ldi. 1920 yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

1926-27 yillarda, 11 yil Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. Adibning nomini adabiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi, uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926 yildayoq jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'raviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki jadidchilik harakati hozir haqiqat nuqtai nazaridan qayta tiklanayotgan ona tariximizdagi «oq» va «qora» dog'larning tugatilishiga katta hissa qo'shdilar. Bugun Behbudiy kabi muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. "O'zbekiston" 2018 yil. 591 bet
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. "O'zbekiston" 2017 y. 103 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. Toshkent. "O'zbekiston" 2018 yil. 78 bet
4. O'zbekiston yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1- kitob. – Toshkent., 2000. 3–90 b.
5. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Toshkent., 2005, 187-213 b.
6. Majid Hasaniy. Turkiston bosqini. – Toshkent., 1992. 80-112 b.
7. Бабабеков Х.Н. История завоевания Средней Азии сарской Россией в секретных документах. – Ташкент., 2006 – стр. 20–45.
8. Bayoniy Yu. Shajarai Xorazmshohiy. – Toshkent., 1991. 175–266 b.
9. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent., 1999. 120–160 b.

JADIDCHILIK HARAKATINING MA'NAVIY TARAQQIYOTIMIZDAGI O'RNI

Mamatqobilov T.D.,
*O'R QK Akademiyasi Milliy iftixor va
harbiy vatanparvarlik kafedrasida
dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi*

Annatasiya: Mazkur maqolada uch nafar jaded etakchilari hayoti va ularning ijtimoiy faoliyatiga oid asosiy ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, maktab – madrasa, xat – savod, ijtimoiy – siyosat, teatr, noshir va jurnalist.

Mazkur maqolada jadidchilarning ilg'or namoyondalaridan bo'lgan uchta muhim shaxslarning ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy va siyosiy faoliyatiga nazariy jihatdan e'tibor qaratdik. Shulardan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir. Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqandda ruhoniylar oilasida tug'ildi. U tog'asi Muhammad Siddiq yordamida xat-savod chiqaradi. Eski maktab - madrasada o'qiydi. Arab tilini o'rganadi. Qozixonalarda mirzalik, qozilik vazifalarida ishlaydi. 1893-1900-yillarda Makkaga haj safariga boradi. 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburg, keyinroq Qozon, Ufa shaharlariga boradi. 1914-yilda Arabiston, Misr, Turkiya kabi bir qator mamlakatlarda bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkiston ijtimoiy - siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi.

XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rusiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday

bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotda boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

Turkistonda «Usuli jadid», «Usuli savtiya» nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, birinchi bo'lib zamonaviy maktab g'oyasini ilgari surdilar. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloqlga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi edi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785—1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzolik qila boshlaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov madaniy-ma'rifiy faoliyatiga nazar tashlasak, u XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshlaganligini kuzatishimiz mumkin. 1901-yilda o'z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli daxalarida jadid maktablarini ochadi. Bu maktablar uchun 1907-yilda "Adibi avval", "Adibi soniy" darsliklarini yaratadi. "Tajvid al-Qur'on", "Yer yuzi" singari qo'llanmalarni tuzib, nashr etadi. Bolalar uchun qator she'riy va nasriy hikoyalar yozadi. U 1909-yili Toshkentda "Jamiyati xayriya" uyushmasini tuzadi va "Turon" nomli jamiyatni ochadi. Munavvar qori 1906 yilda dastlabki o'zbek matbuoti namunalaridan biri "Xurshid" gazetasini nashr etdi. Keyinchalik "Najot", "Kengash" gazetalarida bosh muharrir, "Sadoi Turkiston"da esa bo'lim muharriri bo'lib xizmat qiladi.

Munavvar qori 1917-yil fevral inqilobidan keyin Turkistonda demokratik milliy davlatchilikni tuzish g'oyasini ilgari surdi. U Qo'qonda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatladi.

Sho'ro davrida u o'zining ochiq ma'rifiy ishlarini va yashirin siyosiy harakatlarini davom ettirdi. 1918-yilning aprelida Turkiston xalq dorilfununining asoschisi va rektori etib saylanadi. Uning sa'y-harakati bilan 1918-yil 2-iyunda dorilmuallimin bo'lib ish boshlaydi. U 1918-yilda "Turk o'chog'i" ilmiy - ma'rifiy jamiyatini tashkil etganligi tarixiy faoliyatning ulkan ko'rinishi hisoblanadi.

Munavvar qori o'tgan asrning 20-yillarda o'zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini o'z oldiga qo'ygan "Milliy ittihad" va "Milliy istiqlol" yashirin tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

1920-yilning o'rtalarida milliy ziyolilarni ta'qib qilishni kuchayishi natijasida Munavvar qori hamma lavozimlardan chetlashtiriladi. Biroq xatto qatag'on ham Munavvar qori Abdurashidxon o'g'lini istiqlol g'oyalaridan qaytara olmadi.

U 1929-yilda qamoqqa olinadi va 1931-yilda otib o'ldiriladi. Uning hoki Moskvadagi Vagankovo qabristonida qolib ketdi.

Munavvar Qorining madaniy - ma'rifiy, ijtimoiy - siyosiy faoliyati birinchi (1905-1907-yy.) va ikkinchi (1917-yil fevral) rus demokratik inqiloblari davrida yanada yuksaklikka ko'tariladi. Bu davrda u faqat jadid maktablarini tashkil etish va ularda yoshlarni o'qitish bidan cheklanmay, faol adib, jurnalist, noshir, olim, siyosiy rahbar sifatida Turkistondagina emas, balki O'rta Osiyo va Rossiya musulmonlari orasida katta obro' qozonadi. Munavvar Qori jadid maktablari uchun yangi tovush usulida darsliklar - «Adibi avval» («Birinchi adib», 1907-yil) alifbe va «Adibi soniy» («Ikkinchi adib», 1907-yil) o'qish kitoblarini chop ettiradi. Bular o'lkadagi asosiy darsliklar sifatida oktabr to'ntarishidan so'ng ham keng qo'llaniladi.

Abdulla Avloniy milliy madaniyat, ilm- ma'rifatning buyuk namoyandasi hisoblanadi. Yangi davr o'zbek madaniyati, adabiyotining asoschilaridan biri, bolalar adabiyoti, o'zbek milliy teatri, dramaturgiyasi, matbuoti, o'zbek milliy

pedagogikasining tamal toshini qo'ygan, xalkimizning asl farzandi Abdulla Avloniydir.

Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi Miravlon aka oilasida tavallud topdi. Avval O'qchidagi boshlang'ich maktabda, so'ng shahar madrasalaridan birida tahsil oldi. Biroq ko'proq mustaqil o'qib-o'rgandi, Tez orada o'z davrining savodxon, ma'rifatparvar kishisiga aylandi.

1909-yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi "Jamiyati xayriya" ochib, yetim bolalarni o'qitdi. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr qildirdi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jaev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan sheriklikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908), "Turon" (1917) gazetalarini chiqardi. Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she'r, hikoyalar va maqolalar yozgan. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. U adabiyotga g'oyaviy kurashlar g'oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkilanmasdan ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashishini maslak etib qabul qildi.

Shoir she'riyati bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy she'r yo'q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g'amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. O'z ona diyorini bamisoli "yor kabi sevadi". Butun mehrini shunga bag'ishlaydi.

Avloniy 1917-yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi ("Qutuldik", "Yotma" she'rlari). Oktabrga bag'ishlab "Hurriyat marshi" (1919), "Ishchilar qulog'iga" kabi she'rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug'ladi. Lekin ko'p o'tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g'amgin tushkun ohanglarning paydo bo'lishiga olib keldi ("Haftalik soatda" 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she'rlar yozdi.

Avloniy o'zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913-yilda "Turkiston" teatr truppasini tuzdi. "Turkiston" o'zining qat'iy nizomini ham e'lon qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g'oyaviy-badiiy rahbari ham Avloniy edi. Truppa "Zaharli hayot" (Hamza), "Baxtsiz kuyov (A. Qodiriy) kabi XX asr boshlari o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirgan, teatr ozarbayjon dramaturglari asarlari ("Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "O'liklar", "Joy ijaraga olgan kishi", "Man o'lmisham", "Layli va Majnun", "Asli va Qaram") ni o'zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo'ygan. Avloniyning o'zi Mallu ("Layli va Majnun"), Fayziboy ("Baxtsiz kuyov"), Aliboy ("To'y"), Boy ("Padarkush") rollarini ijro etgan.

Avloniy asosiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul yillari 1917 yildagi Oktabr to'ntarishiga kadar bo'lgan davrga to'g'ri keladi.

Avloniy ijodi 60-yillarning oxiridan o'rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblar holida chop etilgan.

"Jadidlar taktikasi demokratik jarayonlarni qo'llab-quvvatlash, yuzaga kelayotgan demokratik institutlar barqarorligini ta'minlash, hukumat ishi uchun yetarli shart - sharoitlar yaratish, ayni paytda, ta'lim va din sohasida muxtor huquqlar berilishini talab qilishdan iborat bo'ldi"[1], - deydi professor Saidakbar A'zamxo'jaev.

Jadidchilik harakati tom ma'noda milliy ma'naviyatimizni yuksalishida poydevor vazifasini o'tashiga shubha qilmagan holda, tarixiy haqiqatni ob'ektiv baholashimizga xizmat qiladi.

"Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne og'ir sinovlar, mashaqqatli kunlarni ko'rmadi. O'z ozodligi, erkinligi, tinch hayoti yo'lida kurashib, behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati tarixiy xotiramizdan hech qachon o'chmaydi"[2].

Endilikda Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy kabi tarixiy shaxslar faoliyatini tahlil qilish orqali Vatan muqaddas, ozod va obod yurtda yashash esa eng buyuk ne'mat ekanligini anglaymiz. Shu o'rinda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev fikrlari ayni muddoadir: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va

fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tamonlama uyg'un va hamohangdir"[3].

Xulosa o'rnida aytganda, jadidlar ilgari surgan g'oyalar negizida bugungi islohotlar va ularning ijrosi orqali buyuk maqsadlarga erishish mumkinligini anglashimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zamxo'jaev C. "Turkiston muxtoriyati". T.: "Manaviyat", 2000-yil.
2. Xalq xotirasi oldida bosh egamiz. T.: "Sharq". 2001-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak". Yangi O'zbekiston gazetasi, 2023-yil 23-dekabr.

JADIDLAR G'UYALARIDA ISTIQLOLCHILIK OMILLARINING MOHIYATI

Nuriddinov M.S.,

*O'R QK Akademiyasi Milliy iftixor
va harbiy vatanparvarlik kafedrasida
katta o'qituvchisi*

Mamedov B.

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
"Xizmat psixologiyasi va kasbiy
madaniyat" kafedrasida professori, f.f.d.,*

Tarixga nazar solib ish ko'rmoq fazilatli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov fikricha: "Jamiyatshunoslar O'zbekiston tarixining ko'pgina sahifalarini qayta bitishlari... 1920-1930-yillardagi adabiy - g'oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa hodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerak"ligini, bu masalalar o'z tadqiqotchilariga muntazir bo'lib turganliklarini qayd etgan[1.–B.91]. Shuningdek, "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" nomli asarida XX asrning 17-yilidan boshlab yozilgan tarix kitoblari yolg'on g'oyalar asosida yaratilganini alohida ta'kidlagan[2.–B.111].

Ushbu metodologik konsepsiyalarga tayangan holda, jadidchilik harakati namoyandalarining mislsiz og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda ham vatanimiz kelajagi, millatimiz taraqqiyoti va ravnaqi uchun imkon boricha faoliyat ko'rsatganliklari haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edilar: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" [3. <https://uza.uz/>].

Tarix guvohki, xalqimiz yunon, arab, mo'g'ul, eron va rus bosqinlari oqibatida nihoyatda og'ir kunlar, bir-biridan musibatli voqea-hodisalarni boshdan kechirgan. Lekin har bir bosqinchilik, qirg'in el-yurtning sabr-bardoshi, irodasi va matonatini go'yo sinovdan o'tkazgan. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tanazzul to'siqlarini yengib o'tgan xalq yana qaddini rostlab, taraqqiyot sari dadil odim tashlagan. Bu holat va harakat o'z-o'zidan yuzaga chiqmagan, albatta.

Jadidchilik harakatining tamal toshi jadid usuli maktablaridir. Bu ko'pchilik tomonidan yakdil e'tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, millat, Vatan istiqloli edi. Bir zamonlar buyuk mutafakkirlarni tarbiyalab yetishtirgan an'anaviy maktablar so'nggi yillarda jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qolgan, buning ustiga mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan edi. Shuning uchun ham mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, milliy matbuotchilik va yangi adabiyotlar yaratish, zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish jadid mutafakkirlarining asosiy vazifalariga aylandi.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma'naviy barkamollikka yetishda dinni to'g'ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg'or demokratik institutlarni bunyod qilish, o'ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg'or texnologiya yutuqlarini ega llab borish muammolari maydonga chiqadi.

Jadidlarning xalqaro aloqa va munosabatlari ularga Rossiya, Turkiya, Misr, Eron jadidlarining dasturi bilan tanishish imkonini berdi. Lekin Turkiyadagi yosh turklar va Eron taraqqiyparvarlari tajribalarini Turkiston jadidlari mexanik tarzda va o'sha qolipda o'zlashtirib olmadilar. Aksincha, jadidlar Yevropa va Sharq mamlakatlarining davlat qurilishi va qonun chiqaruvchilik keng tajribalaridan,

Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi demokratik harakatlar kurashi usullari va dasturlaridan manfaatlariga hamohang bo'lgan va milliy madaniyatga mos keladigan zarur o'rinlarni oldilar.

Jadidchilik bosqinchi Rus imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy - ozodlik harakati bo'lib o'sha davrda Turkistondagi Yevropa davlatlaridagi taraqqiyotdan ancha ortda qolgan bir paytlarda vujudga keldi. Ularning asosiy maqsadi Turkistonda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohatlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiiq etishdan iborat edi. Ayniqsa, 1917-yil fevral oyida Rossiyada bo'lib o'tgan inqilob ta'sirida Turkistonda faoliyat ko'rsatayotgan jadidlarning yetuk siyosiy harakatga rahbarlik qilish imkoniyatini taqdim etdi. Turkiston jadidlari bu yerda hukumat tepasida turgan rus ma'murlaridan keng qamrovli bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy talablar bilan chiqdilar. Asosiy talablardan biri mahalliy aholi haq-huquqlarini kengaytirish, ularni o'lkani boshqarish ishlariga kengroq jalb etish, demokratik erkinliklar berish masalasida edi.

Shu o'rinda jadid ma'rifatparvarlarining g'oyalarining tarqatuvchisi bo'lgan ma'rifat yo'g'rilgan gazetalar tarqatilishini yo'lga qo'yish orqali butun Turkiston xalqiga tanishtirish yo'lidan bordilar. Bu holat xalq tomonidan qizg'in qarshi olindi. Abdulla Avloniyning "mullalar g'azit o'quvchilarni "jadidchilar" deb atar edilar" degan so'zi ham jadid matbuotining xalq o'rtasidagi mavqeidan dalolat beradi.

1913-yildagina Mahmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" gazetasini nashr etishga ruxsat oldi. Turkistondagi ilk jadid jurnali 1913-yilda Behbudiy tomonidan nashr etilgan "Oyna"dir. 1914-yil U.Asadullaxo'jaevning "Sadoi Turkiston", O.Mahmudovning "Sadoi Farg'ona" gazetalar ham Turkistondagi jadid matbuoti tarixidan mustahkam o'rin oldi. 1917-yil fevraldan so'ng "Najot" (Munavvar qori), "Sho'roi Islom" (A.Battol), "Turon" (Avloniy), "Hurriyat" (Fitrat), "Kengash" (Munavvar qori, Zaki Validiy), "El bayrog'i" (B.Soliev, A.Zohiriy), "Ulug' Turkiston" (K.Bakir)lar chop etildi.

Turkistonda jadidchilik harakati X X asrning boshlarida o'z taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi. Jadidchilik ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida

“jadid” - “yangi” gina emas, haqiqatan “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” mafkurasiga aylandi. Darhaqiqat, mazkur davrda Turkiston xalqlarining ijtimoiy- siyosiy ongi, madaniyati, san'ati va millatning ma'naviy yuksalishidagi barcha ijobiy o'zgarishlarni jadid taraqqiyparvarlarining ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jadidlar Turkistonning o'rta asrchilik jaholatlarini ochib tashladi va tarixan qisqa davrda milliy matbuot, maorif, teatr sohalarini dunyoga keltirdi.

Biroq, Turkistonda jadid taraqqiyparvarlarining faoliyati uchun har doim ham yetarli sharoit bo'lmadi. Ular doimiy ravishda ta'qib va tazyiqlar ostida ish olib bordilar. Rossiya imperiyasining Turkistonda faoliyat olib borgan mas'ullari, xususan, N.Ostroumov rahbarligidagi missionerlik tarafdorlari va ularning imperiyaparast matbuoti, ayniqsa, salbiy rol o'ynadi.

Bu masalada Turkiston taraqqiyparvarlaridan, “Turon” jamiyati a'zosi Salohiddin Muftizoda jadidlarning “Najot” gazetasida o'zini taraqqiyparvar (jadid va taraqqiyparvar so'zlari bir ma'noda qo'llangan- muallif) deb tanishtirgan U.Husayinovning “Turkistanskiy kur'er” gazetasini taraqqiyparvarlar uchun xizmat qilgan gazeta sifatida tanishtirishiga qarshi chiqadi. Muftizoda “Turkestanskiy kur'er”ning Turkistondagi missionerlik faoliyatiga oid maqolalarini misol keltirib, Husayinovning sadoqatini “tahqiqsiz sadoqat” deb baholaydi. U fikrini “Taraqqiyparvarlik din va shariat ila qoyimdir” deb yakunlaydi [4. “Najot”1917. №12.–B.1]

Jumladan, jadidlarning “Najot” gazetasining 15-sonida Toshkentda o'rta maktablarga kiradigan yordamga muxtoj yoshlar uchun moddiy, ma'naviy yordam berish maqsadida “Guliston” jamiyati tashkil etilganini[5. “Najot” 1917. №15. – B. 4-5; “Najot” 1917.№16. –B. 2], Samarqand yoshlarining (jadidlar-muallif) tashabbusi bilan alohida muallim hozirlanib, 40-50 kishi o'qiydigan kechki ta'lim kursi tashkil etilayotgani va unda o'qishga havasmandlarning juda ko'p ekanligini ma'lum qiladi[5. “Najot” 1917. №15. sonidan].

Shuningdek, “Najot” gazetasining 15-sonida Qo‘qonda shaharning bir qancha ochiq fikrli yoshlari yig‘ilib 3 may kuni “Hurriyat” nomida yangi nashriyot shirkatini ta’sis etganlari, qo‘qonlik Imomnazar qori Ali Nazar o‘g‘lining Qo‘qonda o‘zining Misr, Istanbul, Bayrut va tatar nashrlaridan chiqqan kitoblariga boshqa yangi kitoblarni qo‘shib, “Zamon” nomli kutubxona ochganini yozadi. Mazkur sonda Kaspiyorti viloyatining Ashxobod shahridan ham ma’lumot beradi. Unda Ashxobodda 200 atrofida musulmon aholisi to‘planib, avvalo musulmonlar uchun bir jamiyati xayriya tuzish, shaharda bir qiroatxona (kutubxona) ochish va viloyatda bir turkiy gazeta tashkil etish masalalarini muhokama qilganligi haqida yozadi.

Aytish mumkinki, “Najot” o‘tgan asrning boshlaridagi Turkistondagi ta’lim va uning o‘tkir muammolarini aks ettirgan muhim manbadir. Bu gazeta millat murabbiysi bo‘lgan ulug‘ darg‘a Munavvar qorining ilmiy g‘oyalari va uning mazkur davrdagi Turkiston ta’limi taraqqiyotidagi xizmatlarini o‘rganishda benazir manba hisoblanadi. Yana bir Turkiston jadidlarining muhim nashri “Hurriyat”dir. Gazetaning birinchi sonidan boshlab, ma’rifatparvar milliy ziyolilar xalqimizning madaniy salohiyatini oshirishga harakat qilganlar.

Turkistonda keng ko‘lamli siyosiy, iqtisodiy, ta’lim islohotlarini amalga oshirish g‘oyalari ilgari surilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand”, “Hurriyat”, “Sadoi Turkiston” kabi gazetalar, “Oyna”, “Hurshid”, “Najot” kabi jurnallarida e’lon qilingan ko‘plab maqolalarida mahalliy aholining taraqqiyotga to‘siq bo‘luvchi eski urf - odatlarini, eskicha qarashlardan voz kecha olmayotgan “qadimchilar”ni, islohotlarga, yangiliklarga qarshilik qilayotganlarni qattiq tanqid ostiga olgan. Jamiyatning “qadimchilar” qatlami qadriyatlarini yo‘qotishga harakat, musulmonlarni kamsitishga urinish, degan ayblovlar bilan ma’rifatparvar va jadidlarni kofirga chiqarib qo‘yishgan edi.

Behbudiy o‘z maqolalarida “Yo‘q, unday emas, biz ham musulmonmiz, faqat taraqqiyotni, farovonlikni, ma’rifatni istaymiz. Fursat ketib boryapti, biz qoloqlashib ketdik, yangilikka intilishimiz, yangiliklarni o‘zlashtirishimiz lozim. Qoloqligimiz tufayli biz mustamlakaga aylandik, bizni tobe qilib olishdi. Endi

o'tmishimiz buyuk deb yuravermasdan, xatolarimizdan to'g'ri hulosalar chiqarishimiz, rivojlanish yo'llarini izlashimiz kerak. Boshqalar ham bizni hurmat qilishi, ular bilan teng mavqeda muloqotga kirishishimiz, musulmonlar manfaatlarini himoyasi uchun nimalar qilishimiz zarurligi haqida bosh qotirish vaqti keldi", degan g'oyalarni ilgari surdi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, jadidlar - istiqlol kurashining g'oyaviy ilhomchilari edilar. O'zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va favquloddagi hodisa bo'lmay, uning uchun kurash ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Millatimiz fidoyilari bo'lmish jadid ziyolilari orzu qilgan istiqlolga, hur va ozod O'zbekistonga erishdik. Yangi O'zbekiston sharoitida jadidlar orzu qilgan buyuk jamiyat va davlat bunyod etajakmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://uza.uz/>
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent., O'zbekiston, 2001. – B. 91.
- 3.Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajak yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. – Toshkent., O'zbekiston, 2015, – B . 111.
- 4.Muftizoda S. Tahqiqsiz sadoqat. "Najot" gazetasi 1917-yil 6-may №12. – B.1.
5. Hurriyatdan nechuk foydalanamiz//“Najot” gazetasi 1917-yil 24-may №19. – B.2.

TA'LIM VA TARBIYA RIVOJIDA JADIDCHILIKNI O'RNI

Xaydarov F.I.,

*O'R QK Akademiyasi, "Harbiy
psixologiya va pedagogika"
kafedrası professori.*

Annotatsiya: Turkiston milliy, madaniy-ma'rifiy tiklanish – jadidchilik harakati sifatida namoyon bo'ldi.

Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari suradilar.

Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida muallif tomonidan qayd etilgan fikrlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, "Behbudiya", "To'ron,"ibratxona, "Munozora".

Аннотация: Туркестан в качестве национального, культурно просветительского возрождения стало зарождался движение джадидов.

Туркестанские джадиды выдвигали гипотезу освобождения народа от отсталости и религиозных суеверий, реформирования принципов шариата, распространение просвещения среди народа, достижения национальной автономии.

Джадиды искали пути обновления и подъема общества посредством национального единства, духовно-просветительских реформ. В данной статье обсуждаются вышеупомянутые автором идеи.

Ключевые слово: jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, "Behbudiya", "To'ron,"ibratxona, "Munozora".

Abstract: The Jadid movement began to emerge in Turkestan as a national, cultural and educational revival.

Turkestan Jadids put forward the hypothesis of liberating the people from backwardness and religious superstitions, reforming the principles of Sharia, spreading education among the people, and achieving national autonomy.

The Jadids were looking for ways to renew and uplift society through national unity and spiritual and educational reforms. This article discusses the ideas mentioned above by the author.

Key words: Jadid, Enlightenment, Usuli Jadid, national upliftment, press, autonomy, national idea, "Behbudiya", "Toran", Ibratkhona, "Munozora"

“Jadid” so‘zi bu arabcha so‘z bo‘lib “yangi” , yangilik tarafdorlari degan ma’noga ega. Bu xarakat Turkistonda 19 oxiri va 20 asr boshlarida Chor Rossiyasining mustamlachilik siyosatining kuchayishi oqibatida paydo bo‘ldi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bo‘lsa ham, bu xududlardagi tarixiy sharoit

undagi jadidchilik harakatiga xam o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari ham maorifni isloh etishni, amir va xon xukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan edilar.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishda ko'rinadi. 1. Yangi usul maktablarini ochish, ko'paytirish orqali. 2. Turli ma'rifiy jamiyatlar ochish orqali. 3. Umidli iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish orqali.

Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gaspirinskiy Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga o'lka musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Rad javobini olgach, 1893 yil Turkistonga o'zi keladi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi.

Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish uchun o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi.

Shunday ekan jaholat uyqusidan uyg'onish, tarixiy zaruratga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlantirishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy – siyosiy harakat edi. O'lkada millatning dard-alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongini, hayotini erk, ozodlik, taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllana boshladi.

Turkistonlik jadidlar ona Vatanni mustaqil, ozod holda ko'rishni bosh maqsadlari deb bilganlar.

Jadidlar o'z davrining ilg'or kishilari sifatida xalq ichida yangilik, ma'rifat, va madaniyat tarqatuvchilar edilar.

Ularni fikricha milliy ozodlik kurashida qurol emas balki xalqqa ma'rifiy bilim berish muhim o'rin tutadi. Shu sababli ular 1906 yildan boshlab "Taraqqiyot" nomli gazeta chop eta boshladilar. Asosiy g'oya xalqni milliy istiqbolga tushib qolmaslikni oldini olish bo'lgan, Jadidlar turkistonning turli shaharlarida jadid maktablarini ochib diniy ilmdap bilan birga dunyoviy bilimlarni, jumladan, tabiiy bilimlarni targ'ib qila boshlashdi. Ular uchun asos kurol ilm va ma'rifat bo'lib ular **maktab, maorif va ta'lim to'g'ri yo'lga quyishi, uni rivojlantirish bilan amalga oshirish kerakligini e'tirof etdilar.**

Undagi maktab tizimi, darsliklari, o'quv metodlari Ovropaning ta'lim tizimiga yaqin buldi. Jadidlar o'qitishning eski usullari, yangisiga ya'ni yoshlarga zamonaviy ilmiy o'rganishga almashtirish va ta'lim tizimida o'qitishni ona tilida olib borilishini katta e'tibor berganlar. Ayniksa o'quvchilarda vatanparvarlik, millatparvarlik tuygusini shakllantirish ularning asosiy konsepsiyalaridan edi.

Ularda bolalarni o'qimishli, diyonatli, sahovatli, xushmuomali bo'lishni ko'rmoqchi bo'lishgan. Maxmudxo'ja Behbudiy. Turkistonda jadidlar harakati asoschisi. Jamoat arbobi, islomshunos, geograf, pedagog olim. U turkistonda maktab maorifida birinchi bo'lib yangi usulda maktablar tashkilotchisi. Maxmud Bexbudiy Gasprinskiy maktab usulini uni maqolalarini o'rgandi. "Usuli jadid" maktablari uchun bir qator darsliklar yozdi. "Qisqacha umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Aholi geografiyasiga karshi", "Amaliyot islomi", "Islomning qisqacha tarixi". [3]

Maxmud Bexbudiy yangi maktab uchun yozgan asarlari maktab islohatida muhim rol uynaydi. Bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng ko'llaniladi. U turkiston kelajagida yosh o'qimishli kadrlarni tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor berdi. [3]

Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li. 20 asrning birinchi chorasida Turkiston va Rossiya ziyolilarini ichiga mashhur edi. U yangi usul maktablarning asoschisi, mohir muallim darslik va o'quv kitoblar muallifi, jamoat arbobi edi.

Munavvar qori Toshkentda “usuli saviya” maktabini ochadi. Uni fikricha maktabni isloh qilmasdan odamlar ongida o‘zgarish hosil qilib bo‘lmaydi. Munavvar qori yoshlarni chet elga yuborish, chet ilmini o‘zranishni targ‘ib qildi. O‘zbek ziyoli bolalarni Germaniyada o‘qitish tarfdori bo‘lib, keyinchalik ular vataniga xizmat qilishni istagan edi. Munavvar qori ko‘p tillarni mukammal bilgan (fors, arab, rus, turk tillar). Munavvar qori o‘z atrofida ilg‘or kishilarni to‘plagan. [2]

Abdulla Avloniy 1907 yilda Mirobod maxallasida keyinchalik Degrez maxallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Avloniy maktabi – dars tizimini o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qilar edi. U o‘z maktabida – tabiat, geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob kabi fanlarni berar edi. Avloniy maktabida tabiiy fanlar rivojini topgan bo‘lib, unda o‘simliklar, hayvonlar, xilma – xilligi, parvarish masalalar qiziqarli o‘tilardi. [1]

Jadidchilik xarakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri - Abdurauf Fitrat (1886-1938). U 1909 yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asarida Buxoro amirligi idorasiga ma’lum islohot – o‘zgarish kiritish g‘oyasi va “Usuli jadid” deb nomlangan yangi maorif tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat butun vujudi, otash va jo‘shqin yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan mamlakat yoshlarini rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi.

Fitratning “Hind sayyohining qissasi” asari ham 1912 yilda Istambulda nashr etilgan bo‘lib, bunda Buxoro amirligiga ma’lum darajada o‘z e’tiroznomasini bayon etadi. Bir zamonlar ilm va din quvvati bo‘lgan Buxoro, nega tanazzulga yuz tutdi? Xar kuni bir Abu Ali Ibn Sino, Farobiy va boshqalarni jahonga hadya etgan yurt nima sababdan bunchalar abgor xolga tushib qoldi? Bu qorong‘u zulmatdan qutulish yo‘li bormi?, -deya savollar berar ekan, javob sifatida ma’rifatni ko‘rsatadi.

Biz yuqorida milliy uyg‘onish harakati namoyandalarining yangi usul maktablar ochib, uni uslubiy jixatdan taminlashga harakat qilganliklarni o‘rgandik. Ammo, jadid namoyondalari bu bilan cheklanib qolmasdan, keng xalq ommasi uchun kutubxonalar ham barpo etganlar.

Behbudiy, 1908 yilda keyinchalik "Behbudiya" kutubxonasi nomi bilan mashhur bo'lgan qiroatxonani tashkil etib [5], uni axoli uchun qo'laylik yaratish maqsadida ikki smena, ertalab soat 9 dan shom 5 gacha va kechki soat 6 dan tungi 12 gacha ishlab, 60 dan 110 nafargacha bo'lgan kishilarga madaniy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yadi.

1910 yilda Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligidagi jadidlar tashabbusi bilan "Turon" kutubxonasi yuzaga keladi.

Yuqorida keltirganimiz jadidlarning ma'rifiy soxadagi ikkinchi vazifasi xayriya va maorif jamiyatlarini tuzish edi.

Bu borada "Turon", "Jamiyati xayriya", "Tarbiyai atfol" kabi jamiyatlar ochildi. 1909 yil 12 mayda Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarining "Jamiyati xayriya" tashkiloti maxalliy yoshlarni chet ellarga o'qitish, xomiylik qilish ishiga rahbarlik qildi. Uning yordami bilan yoshlar Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istambul, Qoxira kabi xorijiy shaxarlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborila boshladilar.

Xalqning dunyoqarashi, milliy ongning yuksaltirishda matbuotning o'rni nihoyatda muhim ekanligini bilgan Maxmudxo'ja Behbudiy ham "Nashriyoti Behbudiya" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochadi va 1913 yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ldi.

Behbudiyning "Turkiston idorasi", "Turkistonda maktab jarida", "Buxoroda usuli jadid", "Yoshlarga murojaat", "Ehtiyoji millat", "Ikki emas, to'rt til kerak", «Musulmonchilik libos va qiyofat tanlamaydi» kabi publisistik maqolalari milliy jurnalistika asoslarini tashkil etadi. [5]

Bugungi mustaqil O'zbekistonda Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish borasida ilgari surilgan besh tashabbusning uchinchisi ham kitobxonlikni keng targ'ib qilishga bag'ishlangan. Demak 110 yil muqaddam jadidlar tomonidan ilgari surilgan mavzu eskirgani yo'q, o'zgargani yo'q.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998 yil 288bet".
2. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyoz. Com.
3. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademyashr, -2018yil 14-bet.
4. Baxrom Irzaev. "O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim" T., "Akademyashr" 2018.
5. Behbudiy B. "Ikki emas, to'rt til lozim", "Oyina" jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademyashr, -2018yil 396-bet.

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Mirashirova N.A.,
*O'R QK Akademiyasi, "Harbiy
psixologiya va pedagogika" kafedrası
dotsenti psixol.f.f.d. (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Mazkur maqolada vatanparvar, fidoiy ma'rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniyning Turkistondagi ma'rifiy tashkilotchilik faoliyati, farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik-psixologik qarashlari asarlari asosida tahlil qilingan. Allomaning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan so'zlarining naqadar haqiqatligi asoslangan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'naviy qoloqlik, savodsizlik, eski usul, mutaassiblik, ma'naviy uyg'oqlik, jaholat, uyg'onish davri, jadidchilik faoliyati, millat ruhi, yurt ravnaqi.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические взгляды на образовательно-организационную деятельность Туркестана, образовательную организацию детей, а также творчество Абдуллы Авлони, патриотического, самоотверженного просветителя. Слова Алломы: «Образование – это вопрос жизни – или смерти, или спасения – или разрушения, или счастья – или катастрофы» основаны на правдивости слов Алломы.

Ключевые слова: джадидизм, духовная отсталость, безграмотность, старий метод, просвещение, фанатизм, духовное пробуждение, невежество, ренессанс, деятельности джадидов, национальный дух, национальное развитие.

Abstract: This article analyzes pedagogical and psychological views on the educational and organizational activities of Turkestan, the educational organization of children, as well as the creativity of Abdullah Avloni, a patriotic, selfless educator. Alloma's words: "Education is a matter of life - or death, or salvation - or destruction, or happiness - or disaster" are based on the truth of Alloma's words.

Keywords: Jadidism, spiritual backwardness, illiteracy, antiquity, fanaticism, spiritual awakening, ignorance, Renaissance, national spirit, national development.

Kirish. Tarix buyuk murabbiylik xususiyatiga ega bo'lib, u bizni bugungi tinch davrning qadriga yetishimiz va faravon, to'kin hayotimiz uchun shukronalik tuyg'ularini xis qilishimizga undaydi. Har bir millat va xalq farzandi o'z kelajagi poydevorini mustahkam qurishda o'z ajdodlari bosib o'tgan o'tmishi va kechmishlarini tahlil qilishi lozim.

Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda⁵¹.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiylik, funksional-tizimlilik, tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy bilishning ob'yektivlik usulidan orqali jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi Abdulla Avloniyning axloqiy tarbiya borasidagi qarashlari ochib berildi. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadidchilar maktabi va ularning harakatlarini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Mavzuni tadqiq etishda Abdulla Avloniyning 2-jildlik "Tarjimai hol" Tanlangan asarlari metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Markaziy Osiyoda dunyoga dong'i ketgan allomalar, buyuk hadisshunoslar, sarkardalar, vatanparvar fidoiylar kamol topgan. Shular jumlasidan, Turkiston tuprog'ini ma'naviy qoloqlikdan olib chiqish, ma'rifat orqali mustabid tuzumga qarshi sharafli kurashda qatnashgan vatanparvar, fidoiy jadidchilar har birimiz uchun yuksak, sharafli burchni ado etgan ajdodlarimiz mavjud. Bulardan A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat, M.Abdurashidxonov kabi xalqi va millati uchun ezgu maqsadda zaxmat chekkan ziyoli, vatanparvarlar o'zligini, kimligini anglagan xalq kimlargadir qaram bo'lmasligi uchun ma'rifat orqali kurash olib borganlardir⁵².

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida paydo bo'ldi. XIX asrdagi falsafa va ma'rifatning kuchayishi, qanchalik g'ayritabiiy ko'rinmasin, O'rta Osiyo xonliklarining XVI asrda Buyuk ipak yo'li zaiflashib qolgani bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan qoloqligi ob'ektiv sabablarini anglab olishimiz kerak bo'ladi. O'sha

⁵¹ Mirziyoyev Sh.M. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. 2023-yil 11-dekabr.

⁵² Jadidchilik <https://www.uzanalytics.com/tarix>.

vaqtda dengiz yo'llari ochilib, G'arbda, Yevropada texnologiyalar jadal rivojlana boshladi. Sub'ektiv sabablar esa xalq xo'jaligi va umumiy rivojlanishga ulkan zarar yetkazgan ichki urushlardir. Jadidlar XIX asr oxiri – XX asr boshida Rossiya imperiyasida musulmon modernist islohotchilari bo'lgan. Ular o'zini “taraqqiyparvar”, “ziyoli” yoki faqat “Yoshlar” deb atagan kishilar edi. Jadidlar mahalliy burjuaziya va aksil-inqilobiy gumashtalar sifatida qoralandi va ko'pchiligi otib tashlandi⁵³.

O'z xalqini ma'naviy uyg'oqlikga chaqirgan, jaholatga qarshi ma'rifat yo'li bilan kurashgan jadidchilarimizning yuksak orzusi bitta, ya'ni, o'z vatani ozodligi va ravnaqi hisoblangan. Shulardan mashhur o'zbek ma'rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshigida mehnat qildi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullandi, «Imoratchi usta» degan nom oladi.

Abdulla Avloniy she'rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko'rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917 yillarda matbuotdagi qizg'in faoliyati, ko'plab publitsistik maqolalari bilan «bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag'on, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxmini sochg'on» ham(Abdulla Avloniy bo'ldi. Avloniy o'zi nashr etgan «Shuhrat» (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi. U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishiga alohida e'tibor berdi. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy

⁵³ Jadidchilik <https://www.uzanalytics.com/tarix>.

guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan. Avloniy «Turon» (1917) gazetasiga «Yashasin xalq jumhuriyati» degan shiorni tanladi, «Turon» nomli teatr to'garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to'pladi, ayrim rollarni ijro etishda o'zi ham qatnashdi. Shoir Afg'onistonda elchi bo'ldi, turli o'quv yurtida dars berdi. Abdulla Avloniyning Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy degan taxalluslari bo'lgai. U 1934 yil 24 avgustda Toshkentda vafot etdi. Avloniy ijodi bo'yicha Begali Qosimov ilmiy izlanishlar olib borgan.

Abdulla Avloniy o'qituvchi va murabbiylar haqida o'z fikrlarini ham bildirgan. O'qituvchi fikrlash kuchining kengligi dunyoqarashiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha ustozning so'zlari ularning ishlariga zid bo'lsa, demak shogirdlar bunday axloqiy ta'limotga ishonishmasligini aytadi.

Abdulla Avloniy vatan ozodligini ustun qo'yib unga olib boradigan yo'lni bilim va ma'rifat sifatida baholaydi. Asarda vatanparvarlikga katta e'tibor qaratilgan. Adib vatanni shunchaki sevish bilan cheklanmasdan, u bilan faxrlanish kerakligi, insonning vatanni sevishi uning amallarida va o'z yurti yuksalishiga doir harakatlarida namoyon bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Xalqning o'z milliy tilini yo'qotishi millat ruhini yo'qotishi bilan tenglashtiriladi. Jadidchi til pokligini himoya qilishga va saqlashga chaqiradi⁵⁴.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda alloma yoshlar tarbiyasining ahamiyati va uni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari to'g'risida to'xtalib, komil insonlarni shakllantirishdagi muhim omillarni ko'rsatishga harakat qilgan. Insonlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm – bu axloq. Axloq arabcha “xulq” so'zining ko'plik shakli bo'lib, o'zbek tiliga har ikki shaklda o'zlashgan. U insonlarning hatti-harakatlari mezoni bilan bog'liq tushunchani ifodalovchi atama sifatida qo'llanadi. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan

⁵⁴ www.scientificprogress.uz.-P.8-13.

qaytaruvchi ilm axloq haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Abdulla Avloniy bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib: “Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidir”, -deydi⁵⁵. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to‘g‘risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. O‘zbek pedagogikasi tarixida Avloniy “Pedagogika” faniga “bola tarbiyasining fanidir” deb ta’rif bergan. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda to‘rt bo‘limga ajratiladi:

1. Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida bola tarbiyasini nisbiy ravishda «Tarbiyaning zamoni», «Badan tarbiyasi», «Fikr tarbiyasi», «Axloq tarbiyasi» kabi bo‘limlarga ajratgan holda tadqiq etadi. «Tarbiyaning zamoni» bo‘limida tarbiyani bola tug‘ilgan kundanoq boshlash kerakligini ta’kidlaydi. «Tarbiyani kimlar qilur?», «Qayda qilinur?» degan savollarni o‘rtaga tashlaydi va ularga javob qidiradi. «Birinchii - uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir» deya tarbiyaga hamma - ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning mas’ul ekanini ta’kidlaydi⁵⁶.

Abdulla Avloniy o‘z asarlarida bayon etilgan fikrlar inson uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan. Ahloqiy tarbini bolaga singdirish o‘rgatish ota-onaning vazifasi ekanligi va bu mas’uliyat bilan amalga oshirili kerakligi haqida fikrlar bildirgan. Tarbiya berish jarayonida bolaning yosh hususiyatlari ham e’tiborga olinishi lozimligini bildirib o‘tgan.

⁵⁵ Балдауф Ингебог. Джадидизм в Центральной Азии в плане реформизма и модернизма мусульманском мире. Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. T.: Ma’naviyat. 2020.

⁵⁶ Avloniy A. “Tarjimai hol. Tanlangan asarlar.2-jild.T., “Ma’naviyat”, 1998-yil 288-bet”.

Mamlakat taraqqiyoti, davlatning qudratli bo'lishi yosh avlod tarbiyasiga har jihatdan bog'liq deb hisoblagan alloma tarbiya xususiy emas, milliy, ijtimoiy ishdir degan xulosaga keladi. Tarbiyani keng ma'noda tushungan Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo'ymaydi. U avvalo bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligiga e'tibor qaratadi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun avvalo tan salomatligi zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunkio'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur». Abdulla Avloniy bolaning badan tarbiyasi, salomatligi masalasida otaonalarga murojaat qilsa, uning fikr tarbiyasi borasida asosiy mas'uliyat muallimlar zimmasida ekaniga urg'u beradi.

Shu bilan birga, Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq jarayonlar ekanini ham ta'kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur». Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi degan qat'iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g'oya ruhida tarbiyalangan kishidagina vatan tuyg'usi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uyg'onadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlersiz komil insonni tasavvur etib bo'lmaydi. Xulq ezgulik yoki uning butunlay aksi bo'lgan razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lishi shaklidir.

Demak, insonlarda mavjud bo'lgan xulq ezgulik va olijanoblik yoki razillik va yovuzlik timsolidir. Bu xususiyatlar insonda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishida o'ziga xos sharoit va tarbiya talab etiladi. Avloniyning fikricha, odam tug'ilishidan yomon xulq bilan tug'ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq paydo bo'ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Avloniyning ta'kidlashicha, agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go'zal xulqlarga odatlanib, voyaga yetsa, u barchaning hurmati va e'tiboriga sazavor bo'lgan baxtiyor inson bo'lib shakllanadi. Agar aksincha bo'lsa, uning har qanday buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo'lib yetishishiga olib keladi.

Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida yaxshi va yomon xulq haqida shunday fikrlarni bildiradi. Xudoning rahmati, marhamati hamma insonga barobardir, lekin tarbiya bilan bir-biridan ajralib turadi. Bola tug'ilganidan keyin uni parvarish qilib, tarbiya berilsagina bola sizga kelgusida mehribon va g'amxo'r bo'ladi, tarbiya berilmasa, tashlab qo'yilsa u tarbiyasiz bo'lib, noqobil bo'ladi. Temirchining farzandiga tarbiya berilsa, kelajakda olim bo'lishi mumkin. Donolikda tengi yo'q Luqmoni hakimning o'g'li tarbiyasiz bo'lsa, u zolim bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir farzandning kelajakda qanday inson bo'lishi uning tarbiyasiga, xulq-atvoriga bog'liq.

Xudoning rahmat-u fayzi hama insonga yaksardur,

Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur.

Tug'ub tashlov-la bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga,

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.

Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,

Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.

Yomonlarga qo'shuldi Nuhning o'g'li, o'ldi beimon,

Yurudi Kahf iti xublar-la bo'ldi oti inson⁵⁷.

Abdulla Avloniy bu asarida yaxshi xulqlar sanalmish oliyhimmatlik, vijdonlilik, sabrli, adolat, sadoqat, hayo, iffat, muhabbat, vatanparvarlik, muloyimlik, oqillik kabi insoniy fazilatlar va ularning sifatlari haqida, shuningdek, yomon xulqlar atalmish g'azab, jaholat, hasad, razillik, adovat, xudbinlik, chaqimchilik, g'iybat singari illatlar, ularning inson hayotidagi zarari to'g'risida ibratli fikr-mulohazalar bildiradi.

Alloma g'iybatning kishilar orasiga nifoq soluvchi yomon illat ekanligini, g'iybat qilgan odam ham uni eshitgan ham gunohga qolishini quyidagi misralarida ta'kidlaydi:

Agar jurm-u gunah bo'lsun desang oz,

Tilingni saqla g'iybatdan qish-u yoz.

Quloqqa paxta tiq, g'iybat eshitma,

⁵⁷ Балдауф Ингебог. Джадидизм в Центральной Азии в плане реформизма и модернизма мусульманском мире. Халқаро конференция материаллари тўплами. Т.: Маънавият. 2020.

Shikoyatchi kishiga bo'Ima damsoz.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil - bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir, deb yozadi. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslaymiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi"⁵⁸.

Xulosa. Shunday qilib, Avloniy butun umrini maorif sohasiga baxshida etgan xalqparvar ma'rifatchi sifatida tarixda munosib iz qoldirgan. Uning pedagogik va psixologik qarashlari hozirgi kunda ham o'zining dolzarbligi bilan ahamiyatli bo'lib, barkamol avlod tarbiyalashda, o'sib kelayotgan yosh avlodda chinakam insoniy tuyg'ularni shakllantirishda, farzandlarimizni umuminsoniy ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalashda, pedagog-murabbiylarning ma'suliyatli va sharafliligi vazifalariga vijdonan yondashishlarida xizmat qiladi. Avloniy siymosi doimo avlodlar xotirasida vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoiylik timsoli bo'lib qoladi inson hayotida kamolatga erishish uchun ta'lim va tarbiyaning ahamiyati kattadir. Odob-axloq va tarbiya to'g'risida buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy o'z davri va hozirgi kun uchun dolzarb masalarni hamda ibratli fikr mulohazalarni aytib o'tgan. Xususan, allomaning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o'zining tarbiyaviy, axloqiy, ta'limiy ahamiyatga egaligi bilan pedagogika, psixologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida shuningdek, hozirgi kunda ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. 2023-yil 11-dekabr.
2. Avloniy A. "Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998. 288-bet.
3. Балдауф Ингебог .Джадидизм в Центральной Азии в плане реформизма и модернизма мусульманском мире. Халқаро конференция материаллари тўплами. Т.: Маънавият. 2020.
4. Shernazarov Z. Abdulla Avloniyning ma'naviy- axloqiy qarashlari. «scientific progress» scientific journal. volume: 1, issue:
5. Jadidchilik <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/>
6. www/scientificprogress.uz.-P.8-13.

⁵⁸ www/scientificprogress.uz.-P.8-13.

CHO'LPON VA MILLIY TIL QAYG'USI

Karimova. F.,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, PhD

Jadid ma'rifatparvarlarining yorqin namoyondalaridan bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon o'z davrida ona tili va millat rivoji uchun ham amaliy, ham nazariy jihatdan qat'iy jasorat bilan xizmat qilgan millatning asl farzandlaridan edi. Bu vazifani uddalashda uning ilmiy-ma'rifiy yo'nalishdagi publitsistik maqolalari bir tomon bo'lgan bo'lsa, ijodkorning go'zal tarovatli va ohangrabodek o'ziga tortuvchi she'rlari yana bir tomon, "Kecha va kunduz" romanining milliy va xalqona ruh bilan yo'g'rilgan sodda va ravon tili jozibasi yana bir tomon bo'lganligini e'tirof etmay bo'lmaydi.

Shoirning bir qator adabiy-tanqidiy maqola va mulohazalarida so'zga va nutq madaniyatiga bo'lgan talabchanlikni ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi tili bilan aytganda, "endi maktab va tarbiya yo'li bilan chiraylik so'zlarni chiraylik qilib o'qiyturgan qiroatchilar, xatiblar etkazib ber"ishni [4:130] maqsad qilgan va bu yo'lda o'zi ham o'rnak bo'lgan ijodkor edi. Teatr aktyori tili haqida aytilgan mazkur fikrlarda adib ongu shuurining so'z go'zalligiga bo'lgan oshuftalik egallab olganligini sezish qiyin bo'lmasa kerak. "Kecha va kunduz" ni o'qir ekansiz, ijodkor tilining soddalikka yo'g'rilgan o'ziga xos tiniq va samimiy ohangiga mahliyo bo'lmay ilojingiz yo'q. Musiqaday taraluvchi so'zlar ohangiga bir lahza quloq tutingda, fikrimiz bilan yakdillashgan holda "tinglang":

"Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiklay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi..."

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan

bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rur ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?" [3:4].

Ha, darhaqiqat, yozuvchi va tilshunos olim M.Yuldashev to'g'ri ta'kidlaganidek, hali bu roman tili tasviri va tavsifi o'z maromiga etgan emas. Ijodkor asarining badiiy va lisoniy tadqiqida ko'plab kashfiyotlar qilish mumkin.

“Cho'lponning nasriy nutqdagi badiiy mahoratining cho'qqisi bo'lmish “Kecha va kunduz” romani nafaqat yozuvchining estetik idrokini, balki yaxlit o'zbek tilining estetik mohiyatini ham namoyon eta oladigan asardir. Bu roman tilining lingvopoetikasini o'rganish asosida Cho'lponning badiiy til mahoratini ko'rsatish mumkin, ayni paytda bu go'zal romanning lingvopoetik tadqiqi usta so'z san'atkori tasarrufidagi o'zbek tili o'zining estetik vazifasini nechog'lik mukammal bajarishini dalillaydi.

Taassuf bilan yana takror aytish mumkinki, ana shunday go'zal asarning tili hanuzgacha o'zbek tilshunosligida tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Aslida Cho'lponning qiyossiz iste'dodini rosmana idrok etish, xolis baholashda uning o'ziga xos tili kalit vazifasini bajarishi aniq”. [6].

Shoir she'rlari haqida gap ketganda, uning qalamidan to'kilgan satrlar zavqu shavq to'lqinlari bilan bir qatorda jur'at va shijoat hamda jasoratning asl namunasini ko'rsatgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.
Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik qo'lqini bordir;
Halokat bo'lg'usin bilmay, qulochni katta otdim-ku...
Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay erga botdim-ku”. [3:4].*

Shunday benazir satrlarni bita turib, shoir kamtarlik bilan o'ziga bo'lgan talabi va bahosini quyidagi satrlarda lutf bilan ifoda etgan desak, mubolag'a bo'lmaydi: *“Shunday go'zallikni! Attang, agar men. Rassom bo'lsam edi, chizib berardim, O'xshash nusxa bilan, yozib berardim. Shu ojiz holimda, shoirmanmi men?..”* [Internet manba: 7].

Shoir siyratidagi kamtarona ruh va ijodga sadoqatni quyidagi esdaliklarda ham bayon etilganini guvohi bo'lamiz.

“ – Bugun biznikiga albatta kel, senga Toshkentdan xushxabar olib keldim. Quvonchim ichimga sig'mayapti, – dedi.

– Men uchib bordim. Cho'lpon men bilan quchoqlashib ko'rishdi va qo'limni qo'yib yubormay, bir she'r o'qidi-da: Qalay, yoqdimi,” deb so'radi.

– Juda yaxshi yozilgan, biroq uslubingizni o'zgartingizmi, - dedim.

– Didingga qoyilman, topding! O'tir! – deb meni to'rga o'tqazdi-da gap boshladi. – Toshkentda, Hamza teatri binosida Usmon Nosir degan yosh shoir bilan ko'rishdim, uning to'plamidagi she'rlarni o'qib, hangu mang bo'lib qoldim. Mana, haqiqiy shoir dunyoga kelibdi, deya uni olqio'ladim, tabrikladim. Senga o'qib bergan she'r o'shaniki edi, – dedi.

– Men shoirning bag'ri kengligiga, saxovatiga qoyil qoldim”.[5:173].

Cho'lpon asarlari tiliga nazar tashlar ekanmiz, shoir yashab, ijod etgan, qalbi va ruhini egallaagan ona yurti tili, qolaversa, Andijon shevasining samimiy va sodda ohanglarining jasur va mard insonlari kabi jijoatli tarovatini yana bir karra his etamiz. Bu so'zlar balandparvoz so'zlar emas, ulardagi haqiqatni shu yurtda yashagan odamlar yaxshi bilishadi va yaxshi his etishadi.

Ma'lumki, jadidlar o'z asarlarida millatning o'z tilini saqlab qolish va fors, arab, ovro'pa unsurlarining ortiqcha qorishuvidan chetlanishga harakat qilgandar.

Zabardast tilshunos olim A.Nurmonov ushbu masalaga e'tibor qaratar ekan, «Cho'lpon asarlarining til xususiyatlari» maqolasida quyidagildarni yozadi: “Yangi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi kerak? Arab, fors va ovro'po tillaridan so'zlar olish kerakmi yoki yo'qmi? Fitrat va Cho'lponlar bu nihoyatda dolzarb va favqulodda muhim masala bo'yicha ham o'z qarashlarini bayon qildilar..” “Turkcha

o'zini arab va fors tillarida qutqara oladimi? Degan savolga qutqara oladi, deb javob beradi. Bunga turkchanning arabcha va forschadan leksik, grammatik imkoniyatlarining qolishmasligini dalil qilib keltiradi. O'zbek tilining, avvalo, o'z ichki imkoniyatlari asosida ifodalash mumkin bo'lmasa, boshqa tillardan so'z olish asosida, shunda ham olinma so'zlarni o'zbek tilining xususiyatiga moslashtirish yo'li bilan rivojlantirish lozimligini ko'rsatadi." [1:71-74].

Cho'lpon qo'llagan *o't arava* – avtomobil, "*ko'mak*" ishlari – hayriya ishlari, *hozirliq kurslari* – tayyorlov kurslari, *teatr to'dasi* – teatr truppasi [4: 219,226, 227,87] kabi o'zbek tilining imkoniyatlari asosida hosil qilingan so'z va so'z birikmalari yuqoridagi fikrlarni dalillaydi, albatta.

Shu bilan birga ijodkor tilida aks etgan sof andijon shevasiga xos so'zlar ham uning asarlariga joziba baxsh etgan deyish mumkin.

Masalan, "cho'pquat" so'zi boshqa shevalarda uchramaydi. Bu so'zning ma'nosi doimiy bir yoki bir nechta sanoqli mijozga alohida xizmat qiluvchi shaxs ma'nosida qo'llanadi. Bugun ham mazkur so'z andijon shevasida (so'zlashuv nutqida *cho'qqat* tarzida) uchraydi. Ayniqsa, do'ppi bozoriga kirsangiz, "Men cho'pquatimdan olaman", "O'zimni cho'pquatim bor", "Cho'pquat qilib oldim" jumllarini do'ppi tikib, uni sotuvchi hunarmand va mijoz o'rtasidagi suhbatlarda tez-tez uchratasiz. Bu so'z ikki tomonlama shaxslar – sotuvchi va xaridor yoki hunarmand (ma'lum kasb egasi) va foydalanuvchi o'rtasidagi mustahkam ishonchni ifodalash uchun juda qo'l keladi. Yoshlik yillarimdan yaxshi eslaymanki, sut mahsulotlarini shahar ko'chalarida sotib yuruvchi ayollarga (ular mahsulotiga ishonch sifatida) nisbatan aytilgan mazkur so'zni qo'llanishini ko'p bor eshitganman.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Andijon xalqi mintalitetiga ko'ra ishonch, o'zaro hamkorlik xislatlarini ifodalovchi ushbu so'z Cho'lpon asarlari yaratilgan kundan bugungi kungacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Til tarixi bilan maxsus shug'ullangan olim Berdaq Yusupov fikriga ko'ra, mazkur so'z talaffuzi mo'g'il tiliga yaqin. Chunonchi, "Kecha va kunduz" asarida ushbu so'zning ma'nosini *mijoz, klient* tarzida uchratamiz. [3:369].

“ Tajriba – zo‘r davlat o‘zi! Bu odamning cho‘pqlari juda ko‘p! O‘z-o‘zini hurmatlay bilgan hech bir zakunchi tomonidan olinmayturgan hamma “gumonlik ishlar”ni shu kishi oladi va ko‘pincha yutib chiqadi”. [3:274].

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, Cho‘lpon o‘z asarlari orqali o‘zbek tilining o‘z sayqali va siyratini saqlab qola olgan va bu yo‘lda o‘z asarlari va jadidona harakatlari bilan o‘zbek tilining bugungi manzarasini go‘zal bo‘yoqlarda tasvirlagan takrorlanmas ijodkordir. Uning merosini o‘qitish va yosh avlodga Vatan hissini chuqurroq anglatishda shoir shaxsi va uning asarlari tili ajoyib namuna bo‘la olishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. Cho‘lpon asarlarining til xususiyatlari // Cho‘lpon: hayoti va ijodiy merosi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Andijon, 2000. – B. 71-74.
2. Cho‘lpon A. Asarlar. 4 jildlik. I jild. She‘rlar, mansuralar, she‘riy xatlar. – Toshkent: Akadernashr, 2016. – B. 60.
3. Cho‘lpon A. Asarlar. 4 jildlik. II jild. Roman, hikoyalar. Kecha va kunduz. – Toshkent: Akadernashr, 2016. – B. 4, 274, 369.
4. Cho‘lpon A. Asarlar. 4 jildlik. IV jild. O‘zbek davlat truppasida. – Toshkent: Akadernashr, 2016. – B. 130; Shu asar: O‘t arava to‘g‘risida. – B.219; Ko‘mak ishlari. – B. 226; Hozirliq qurslari. – B. 227; Viloyat teatr to‘dasi. – B. 87.
5. Cho‘lpon. Adabiyot nadir. Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho‘lpon haqida xotiralar // Yunus Maqsudov. Ulug‘lar davrasida. T.:Cho‘lpon, 1994. – B. 173.
6. Yuldashev M. Cho‘lpon va o‘zbek adabiy tili. https://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_64.html
7. <https://tafakkur.net/men>.

JADIDLAR AN'ANALARIDA TARBIYANING TUTGAN O'RNI

Ertayev Sh. I.,
O'R QK Akademiyasi
Dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik an'analarida farzand va uning tarbiya katta e'tibor bilan qarilishi va buning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi. Shu bilan birga, uning kelajak egalari bo'lgan barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda o'qituvchi-ustoz, tarbiyachi-murabbiy hamda ota-onalar o'z vazifalarini puxta va to'liq bajarib borishlari zarurligi nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, tarbiya, millat, o'qitish, ustoz-shogird, oila munosabati, ahloqiy tarbiya, farzi kifoya.

Аннотация: В данной статье речь идет о взглядах джадидов на воспитание детей, которому уделялось большое внимание. А также о роли и вкладе педагогов, наставников и родителей в развитие и процветание благополучного будущего молодого поколения.

Ключевые слова: Джадиди, воспитание, нация, обучение, наставник и ученик, отношения в семье, моральное воспитание, религиозный долг.

Annotation: This article is about the most important part of Jadid's customs of well-bred of children and how much essential to society. However, to be well prospered person, parents and teachers should be full concentrate to their responsibility of their future and this was written in this article.

Key words: Jadids, education, nation, mentor and learner, relationship in the family, moral upbringing, religious dept

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz... Bu vazifani amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" [1], deya ta'kidlashi ta'lim tizimida milliy qadriyatlar va o'tmish merosimizdan keng foydalanish vazifalari uyg'unlashib ketganligini anglatadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona an'ana va qadriyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb-hunar sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni – o'qituvchi

va bilim oluvchi ya'ni, o'quvchi, talabalar faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan keyingi o'rinlarda bilim oluvchini umumiy ravishda o'quvchi deya ta'riflashni joiz deb bildik.

Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir"[2]-deb ta'kidlagan.

Farobiy ta'kidlagan: "Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar, yoki hikmatlar o'rgatadilar"[3].

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Shu bois bunda, "Ustoz-shogird" tizimining o'rni beqiyosdir. Islom madaniyatining tarkibiy qismi-tasavvuf falsafasida inson ma'naviyatining, ruhiyati o'ziga xos uslublar orqali aks ettirilgan.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning g'oyalari milliy g'oya va istiqlol mafkurasining

teran tomirlari bo'lib qolaveradi. Inson tarbiyasi va uning tarbiyalanganlik darajasi o'z davrining ilmiy-amaliy mezonlari bo'yicha tadqiq etishlik ko'p asrlik fan tarixiga ega. Insoniyatning yer yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan sotsiumning a'zosi tariqasida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Taraqqiyot, ijtimoiy ong, aql-zakovat, qulaylikka intilish hissi tarbiyalanganlikning ham harakatlantiruvchisi ham mexanizmi, ham zarurat ekanligini ta'kidlovchi omil bo'lib xizmat qilgan va bundan keyin ham ko'p funksional vazifani ado etaveradi.

Abdulla Avloniyning fikricha: "... xulq-nafsning suvrati" bo'lsa, Hamza Hakimzodaning ta'riflashicha: "Axloq xulqni ja'midur. Axloq ikki qism bo'lur. Biri axloqi husniya (yaxshi xulqlar), ikkinchisi axloqi zamina (yomon xulqlar)dir. Axloqi husniya insoniyat olamining bir gulshanidirki, anda hayo, hilm, qanoat, rizo, shukr, sabr, tavba, tavoz'e, ajzga o'xshash adolat gullari bila muzayyan va muattar o'lur. Axloqi zamina bir sho'razor edirki, oni aksincha jafu, zulm, hasad, kibr, kufr, tama', g'azab, nifoq, gasb, namima, bo'hton, g'iybat, xiyonat, isrof, qirs, fitna, hosil; bunga o'xshash turli qabohat nimarsadan boshqa shaylar ko'karmaslar". Demak, tarbiyalanganlik barcha ijobiy xulqlarni o'zida mujassamlashtirib, salbiy xulqlardan forig' bo'lish demakdir, Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilatlarini, ma'naviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik diagnostika va koreksiyalash faoliyatiga o'zaro munosabatlarni va o'rmini aniqlab olmoq lozim. Ma'naviyat esa axloqiy, aqliy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

Rejali va maqsadli o'qitish va tarbiyalash jarayonida natijalarni aniqlash zaruriyati pedagogik diagnostikani vujudga keltirgan. O'z ibtidosida bu natijalar oddiy pedagogik metodlar orqali aniqlangan. Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bilim oluvchining o'zi ham faol ishtirok etadi. Tarbiyada qarama-qarshiliklarning ko'pligi yana bir xususiyatdir. Bu qarama-qarshiliklarning bilim oluvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki, paydo bo'lgan sifatlar bilan ustoz tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o'rtasida o'rgatiluvchi shogirdlarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi. Abu Nosr Forobiy ustoz-o'qituvchiga shunday talab qo'yadi: "Ustoz-shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki, ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslahat beradi:

- tarbiyalanuvchilar o'qish o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
- tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Yana jadidchilardan biri Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida oila asosini tog'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va ahloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi" deb yozadi[4].

A.Avloniy: "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak –tanani pok tutmoq, yosh vaqtidanoq maslakini tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq, yomon saqlab o'stirmoqdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasalligiga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi

jahl maraziga “yaxshi degan davoni ichidan, ”poklik ”degan davoni ustidan berib, katta qilmak lozimdur. Hukamolardan biri: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”, degan, Shariati islomiyada o‘z bolalarini yaxshlab tarbiya qilmak farzi kifoyadir...”, degan edi. Demak, oilada ham ota–ona o‘z axloqiy tarbiyalariga, o‘zaro munosabatlariga alohida e’tibor bermoqlar kerak. Chunki er – xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatida bola tarbiyasiga beloqad bo‘ladilar. Shunga xos Abdulla Avloniy ayrgan: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot– yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yi fakolat masalasidir”, tutishimiz lozim.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, sharqda azaldan farzand tarbiyasiga katta e’tibor bilan qarab kelinganligi, bugungi kunda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham ko‘p bora ta’kidlab kelayotgan ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”-degan purhikmat so‘zlari naqadar to‘g‘ri ekanligini guvohi bo‘lyapmiz. Vatanimiz kelajagining egalari bo‘lgan barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda o‘qituvchi-ustoz, tarbiyachi-murabbiy hamda ota-onalar o‘z vazifalarini puxta va to‘liq bajarib borishlari ko‘zlangan maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T., “O‘zbekiston”, 2017. –B. 22.
2. Behbudiy M. va boshq, Odob-axloq kitobi.T.; “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015. 44 b
3. Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.; Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. 184-185 b
4. Abdurauf Fitrat «Oila yoki uni boshqarish tartiblari» T.: 1995 y. 4 b.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ

Воронцова Н.В.,

старший преподаватель кафедры языков
Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

Аннотация: актуальность выбранной темы обусловлена идеей и программой находящихся в гармонии и созвучных во всех отношениях стратегии построения нового Узбекистана

Annotation: the relevance of the chosen topic is due to the idea and program of the strategy of creating a new Uzbekistan, which are in harmony and consonant in all respects

Izoh: tanlangan mavzuning dolzarbligi yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasining har jihatdan uyg'un va uyg'un bo'lgan g'oyasi va dasturi bilan bog'liq.

Ключевые слова: джадидизм, джадиды, движение, новометодные школы, наука

Key words: jadidism, jadids, movement, newfangled schools, science

Kalit so'zlar: jadidizm, jadidlar, harakat, yangi moda maktablari, fan

«Все мы знаем, что джадиды, выступившие с благородной идеей „Единство в языке, мыслях, действиях“, считали, что пробуждение народов и их освобождение от оков отсталости и невежества возможно лишь путём распространения знаний и просвещения, светского развития. Проявляя самоотверженность на этом пути, они открывали школы нового типа, театры, библиотеки, издательства. Чтобы изменить мировоззрение и образ жизни общества, выпускали газеты и журналы, отправляли молодёжь учиться в развитые государства»

Ш. Мирзиёев,

Президент Республики Узбекистан

По инициативе Фонда развития и поддержки, национальных масс-медиа при содействии Института истории Академии наук Узбекистана, Государственного музея памяти жертв репрессий и Организации тюркских государств 11 декабря 2023 года



проведена международная научная конференция «**Джадиды: идеи национальной идентичности, независимости и государственности**».

В работе конференции приняли участие Генеральный секретарь Организации тюркских государств Кубанычбек Омуралиев, Генеральный секретарь Международной организации тюркской культуры Султан Раев, президент Международной тюркской академии Шаин Мустафаев, президент Международного фонда тюркской культуры и наследия Актоты Раимкулова, видные учёные из Азербайджана, Германии, Казахстана, Кыргызстана, Нидерландов, Турции, Узбекистана, США, Швеции и Японии.

Так что же такое джадидизм и почему ему уделяется особое внимание в стратегии Нового Узбекистана?

Джадидизм (от араб. جديد *jadid* «новый», араб. جديديّة *jadīdiyya* «обновленчество», крымскотат. *Usul Cedid*, каз. *Жәдидшілдік*, тат. *Жәдитчелек*, башк. *Йәдитселек*, узб. *Jadidchilik*) - идеология исламского модернизма в Российской империи конца XIX века - начала XX века. Противостоял кадимизму - консервативному направлению в российском исламе. Иногда джадидизм понимают широко как синоним мусульманского модернизма в целом и тогда к нему относят даже таких людей как Джамалуддин аль-Афгани. Непосредственный основоположник джадидизма крымскотатарский просветитель и политик — Исмаил Гаспринский ⁽¹⁾.

Джадидизм появился в Центральной Азии вместе с газетами Исмаила Гаспринского (1851-1914 гг.), одной из которых стала газета «Переводчикъ-Терджиманъ». Через «Переводчикъ-Терджиманъ» идеи Исмаила Гаспринского распространялись в Крыму, Идел-Урале, Хивинском ханстве, Бухарском ханстве. Кроме того, газета распространялась в Персии, Китае, Турции, Египте, Болгарии, Франции, Швейцарии, США.

В газете нашли место события, происходившие в Туркестане (регионы, населенные тюркскими народами), а газета выпускалась на двух языках – русском и крымскотатарском.

Джадидизм представлял собой движение мусульманской интеллигенции и был одним из ярких продуктов среднеазиатского общества. Это движение заложило основу идеологии независимости и заставило народ вспомнить о национальной гордости и культуре. Вокруг джадидизма спланивалась молодежь. Если деятельность ташкентских джадидов была



устремлена на развитие общественного сознания общества, то в центре Туркестанского генерал-губернаторства было сопротивление со стороны правительства и духовенства.

Просветительская деятельность джадидов Туркестана носила реформаторский характер, которая сказывалась в реформировании системы образования. Создавались национальные школы, которые предназначались для защиты культуры, ислама, традиций и обычаев. Такие школы назывались «новомодными» «джадиди усул».



Одна из первых новометодных школ на территории Туркестана была открыта в 1898 году в Коканде Салохудином домла. В том же году джадидская школа была открыта в Токмаке. В 1899 году Маннон-коры в Ташкенте и Шамсиддин-домла в Андижане поддержали

это начинание.

С 1900 года в Туркестане последовательно увеличивается количество новометодных школ. Крупными центрами джадидских школ стали Ташкент, Самарканд и Коканд. Уже к 1910 году подобных школ в Туркестане было создано около 50, причем в самых различных районах ⁽²⁾.



Особое внимание джадидами уделялось на либерализацию положения женщин в обществе, особенно это касалось образования.

Представители передовой национальной интеллигенции стали инициаторами совместного обучения девочек и мальчиков, ведь ислам предписывал овладевать знаниями, как мужчинам, так и женщинам.

По мнению джадидов, образованная женщина была очень важной частью мусульманского общества – именно она воспитывала детей, давала им первое понимание правил жизни, веры, чести, и должна была быть подготовлена к этому⁽³⁾.



В ташкентских новометодных мактабах были случаи обучения девочек вместе с мальчиками⁽⁴⁾. К примеру, несколько девочек учились с мальчиками в школе Мунаввара Кары⁽⁵⁾, три девочки были в школе Ишанходжи Ханходжаева. В школе Сабирджана Рахимова обучалось 15 девочек, правда последних учила его сестра, «которой брат дал нужные знания и подготовил к новой и сложной работе»⁽⁶⁾. В старгородской части Ташкента была открыта женская новометодная школа Сайфульмулюковой, где в 1914 г. обучалось 35 девочек. Такая же школа функционировала и в русской части города⁽⁷⁾.

Джадиды видели проблему в мусульманском обществе о неравноправных отношениях между мужчинами и женщинами и, опираясь на Коран, утверждали, что Бог призывает уважать женщин. Они призывали соотечественников уважать достоинство своего ближнего, а самый близкий человек для мужчины – жена. Также они утверждали, что ислам предписывает обходиться с женщинами справедливо и доброжелательно.

Смелые мысли в этом вопросе высказывал Мунаввар Кары Абдурашидханов, который первым осудил ношение женского покрывала – паранджи, символизирующей подчиненное положение мусульманской женщины, считая это явление архаичным⁽⁸⁾.

Одним из представителей так называемого «костяка» национальной интеллигенции был **Абдулла Авлони** (12 июля 1878 - 25 августа 1934) — известный узбекский писатель, писавший для детей, драматург, просветитель и педагог, много сделавший для развития узбекской школы современного типа. В 1908 году он открывает школы и оснащает их учебным оборудованием сперва в махалле «Мирабад» города Ташкент, а в последствии в махалле «Дегрез». А.Авлони учитывая, что его учениками являются дети из бедных семей, самостоятельно мастерит парты и доски, а также в 1909 году создаёт благотворительный фонд «Жамияти хайрия». Кроме этого открывает издательство «Нашриёт» и книжный магазин «Школьная библиотека».




По мнению А.Авлони, наука – это сила прогресса и процветания, то есть средство борьбы против мракобесия. «Знание – как зеркало показывает нам наше состояние, – писал просветитель. Оно заостряет наш разум и мысли подобно мечу, отделяет благодеяние от греха, дозволенное от запретного, чистое от нечистого, и как путеводная звезда ведет в правильном направлении, являясь причиной нашего счастья на этом и на том свете» ⁽⁹⁾.

Перечисляя положительные стороны науки А.Авлони призывал не упускать возможность для получения знаний, так как людей, изучающих науку, ценят и уважают.

А. Авлоний подразделял знания на религиозные и научные. Чтобы стать поистине религиозным человеком, по его мнению, наряду с теологией необходимо знать алгебру, геометрию, историю, физику, химию, медицину и другие науки. В качестве примера просветитель приводил деятельность известных мусульманских теологов прошлого, которые помимо религиозного образования, обладали глубокими познаниями в светских науках, благодаря чему «мир ислама процветал под тенью науки» ⁽¹⁰⁾.

В 1909 году А.Авлони составил стихотворный сборник «Адабият» для ведения уроков пения в новометодных школах. А.Авлони является автором ряда учебников и пособий, которые были напечатаны в Ташкенте в 1912-1913 гг. К ним относятся сборник «Адабият», учебники «Биринджи муаллим» («Первый учитель») и «Иккинджи муаллим» («Второй учитель»).



Также А.Авлони является автором следующих учебников: «Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ» (Тюркский сад и мораль), «Мактаб гулистони» ⁽¹¹⁾ (Цветущий сад школы), «Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом» ⁽¹²⁾ (Краткая священная история и история ислама) и др.

В декабре 1907 г. А. Авлони получил разрешение на издание газеты «Шухрат» («Слава»), с начала 1908 г. издавались газеты А. Бектемирова «Осиё» («Азия») и С. Саидазимбаева «Тужжор» («Купец») ⁽¹³⁾. Однако все эти печатные органы по распоряжению колониальной администрации в скором времени были закрыты.

Со временем джадиды в Бухаре и Хиве превратились в младобухарцев и младохивинцев, а в Ташкенте в годы революции и гражданской войны создали организацию Шура-и-ислам, выступавшую за туркестанскую автономию в составе России.

Конец джадидов был примерно одинаков для всех представителей движения. Продолжавшиеся и в имперское время гонения со стороны российских, бухарских и хивинских властей продолжили большевики после окончания гражданской войны.

Самые видные деятели, например, глава Шура-и-ислам Мунаввар Кары, был арестован и расстрелян за контрреволюционную деятельность как пантюрист. Абдулла Кадыри, Чулпан, Бату были расстреляны на берегу Анхора в Ташкенте, где теперь стоит Музей памяти жертв репрессий.

Большинство из репрессированных были впоследствии реабилитированы советской же властью спустя несколько десятков лет, а с

приходом независимости они стали символами национальной интеллигенции. Историю движения проходят в школах и университетах.

В 2020 году Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди и Мунаввар Кары Абдурашидхонов **посмертно награждены указом Президента орденом «Буюк хизматлари учун»** за «выдающийся вклад, внесенный просветительской деятельностью и самоотверженным служением в чрезвычайно сложный период истории нашей Родины – начала XX века в создание национальной системы образования и воспитания, обеспечение независимости страны, свободы народа, процветающей и благополучной жизни для будущих поколений ⁽¹⁴⁾.



... «Идея джадидов - в согласии и всячески гармонирует со стратегией Нового Узбекистана» ...

... «Естественно, что наследие наших просвещенных предков послужит основой для правового демократического государства и гражданского общества, которые мы строим сегодня. Нравится это кому-то или нет, наш народ должен идти, не отклоняясь от пути, указанного нашими предками-джадидами. Потому что их идеи и программы находятся в гармонии и созвучны во всех отношениях стратегии построения нового Узбекистана», - сказал Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев 22 декабря 2023 года на заседании Республиканского совета духовности и просвещения ⁽¹⁵⁾.

Литература:

1. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Джадидизм>;
2. Агзамходжаев С.С. Реформаторское движение в Туркестане [<http://www.sociosphera.com/publication>];
3. <https://sarpa.media/jadidi>;
4. ЦГА РУз, ф. И-47, оп. 1, д. 1148, л. 149об;
5. Андреев Г. Новометодные мактабы в Туркестане // Туркестанские ведомости. 1915, 28 октября;
6. ЦГА РУз, ф. И-47, оп. 1, д. 1004, л. 84-86 об;
7. ЦГА РУз, ф. И-49, д. 619;
8. ЦГА РУз, ф. 461, оп. 1, д. 1260, л. 34

9. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ // Авлоний А. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 1998. 48-бет;
10. ЦГА РУз, ф. И-47, оп. 1, д. 1148, л. 148;
11. Қосимов Б. Абдулла Авлоний (Адабий-педагогик портрет). Тошкент: Ўқитувчи, 1979. 10-бет;
12. Авлоний А. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом // Авлоний А. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 1998. 93-128 — бетлар;
13. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 3-жилд. Тошкент, 2002. 520-бет;
14. <https://president.uz/ru/lists/view/3860>;
15. <https://daryo.uz/ru/2023/12/22/savkat-mirzиеev-idea-dzadidov-vo-vseh-otnoseniah-garmonicna-so-strategiej-novogo-uzbekistana>.

НЕКОТОРЫЕ ПРОГРЕССИВНЫЕ ИДЕИ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Туленова К. Ж.,
*заведующая кафедрой Общественные
науки, д.ф.н., профессор ТГПУ им. Низами,*
Мирзаева М.,
*студентка первого курса исторического
факультета ТГПУ им. Низами*

Аннотация: В статье раскрывается значение деятельности джадидов, которые хотели видеть свой народ просвещенным, свободным от рабства, невежества, национальной замкнутости. В отличие от своих предшественников, они не только мечтали о прекрасном будущем народов Центральной Азии, о развитии науки, просвещения, культуры, но и осуществили ряд практических шагов по воплощению в жизнь своих мечтаний.

Ключевые слова: наука, просвещение, народ, идеал, национальные обычаи, традиции, народ, культура, литература, демократия, будущее.

В XV-XVI веках наука и культура народов Центральной Азии развиваются в особых исторических условиях, обусловленных социально-экономической, общественно-политической жизнью этого края. Но этот сложный политический период требует особого научного исследования. В конце XIX-начале XX века передовые общественно-политические мысли развивали

Хамза /1889-1932/, представители джадидизма М. Бехбудий /1875-1919/, А. Фитрат /1886-1938/, А.Чулпан /1897-1937/ и другие.⁵⁹

В отличие от своих предшественников, они не только мечтали о прекрасном будущем народов Центральной Азии, о развитии науки, просвещения, культуры, но и осуществили ряд практических шагов по воплощению в жизнь своих мечтаний. Так, они открыли школы, работающие по новой программе, в которых преподавались светские науки, выпускали журналы, газеты, листовки, призывающие коренное население к борьбе за осуществление в крае демократических преобразований, за развитие просвещения, науки, культуры, за что они подвергались со стороны официальных властей преследованиям и, в конечном счёте, заплатились жизнью.

С. Айни в своей книге «История Бухарской революции», написанной в 1920, изданной полностью лишь в 1987 году, пишет о выдающемся бухарском ученом, писателе и общественном деятеле конца прошлого столетия Ахмаде Донише, «что он был первым, кто выразил протест против старометодного обучения, по собственной инициативе постигший астрономию, геометрию, математику, историю, филологию, искусство жизни описаний. А. Дониш принципиально не стал преподавателем и этим выразил протест против традиционного обучения в медресе.⁶⁰

Садриддин Айни, вступивший в 1911 году в тайное джадидское общество «Тарбиявий атфол» /«Воспитание детей»/, проводит некоторые параграфы программы этого общества: «1. Агитация за просвещение - помощь всем, кто стремится к знаниям; создание новой литературы; распространение в народе газет и журналов, книг этического и воспитательного содержания... 2. Агитация против невежественных обрядов, мракобесия, разъяснение

⁵⁹ Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar). - T. 1999. - B.392. Buyuk siymolar, allomalar. - T., K.3., 1997.

⁶⁰ См.: Политико-правовая идеология джадидизма. //Правовое государство – независимость, натсия, экономика, идеология, политика. - Т.,1994.- С.128-175.

несоответствия мракобесия шариату... 3. Агитация против эмира - против жестокости его чиновничества и судей...». Как мы видим, эта программа уже довольно далеко выходит за рамки чистого просветительства.⁶¹

Большое значение придавали также изучению языков. Один из лидеров движения джадидизма Махмудходжа Бехбуди отмечал, что дети должны знать тюркский /узбекский/ - язык дома и семьи, фарси (таджикский) - язык поэзии и культуры, арабский - язык религии, русский - для развития экономики и промышленности, и наконец, для выхода в большой мир нужен один из европейских языков, английский, французский или немецкий. «Бехбуди придавал большое значение понятию идеала и цели, которые связаны с национальными обычаями и традициями. Он видит в каждом стремлении человека отпечатки укоренившихся обычаев и традиций. По мнению Бехбуди, реформа нужна не только в жизни народа, но и в его сознании и в обычаях, мешающих облагораживанию человека и его духовному развитию».⁶² Джадиды хотели видеть свой народ просвещенным, свободным от рабства, невежества, национальной замкнутости.

Обширная художественная литература, созданная выдающейся плеядой просветителей - от Ахмада Дониша, Фурката, Муками до Бехбуди, Фитрата, Тавалло, Абдулла Кадыри, Айни, Чулпана, Ходжи Муина и других, несет в себе проблематику, которую до сих пор именовали джадидской. Это: нация, религия, наука, просвещение, критика деспотичной власти и ортодоксального духовенства. Именно так определял в 1920 году С. Айни в своей книге «Истории Бухарской революции» круг вопросов, поднимаемых новой литературой. Очевидно, что так называемая джадидская проблематика на поверку оказывается общечеловеческой. Что же касается пресловутого

⁶¹ См.: Мирзаахмедова П., Рашидова Д. Джадиды: кто они? //Звезда Востока., № 9, 1990. - С.137-138.

⁶² Махмудова Г.Т. Джадидское движение в Туркистане и его влияние на развитие нравственно-эстетической мысли. Автореферат дисс.... к.ф.н. - Т. 1996.; Косимов Б. Жаидиллар ва миллий мафкура. //Тафаккур. №3. 2000. - Б.28-32.

«национализма» джадидов - выясняется, что так именовался порыв к национальному возрождению.⁶³

Джадиды были сторонниками реформы школ, боролись за создание новых школ, они поддерживали всякую деятельность, связанную с распространением знания, просвещения, были сторонниками того, чтобы посылать местные кадры на учебу за рубеж, придавали большое значение изданию и распространению газет и журналов, учебных пособий и популярной литературы. Нравственно-эстетической идеал джадидов был направлен на формирование и воспитание всесторонне образованного, нравственно чистого и духовно богатого человека своего времени.

В условиях царизма и господства тоталитарной административно - командной системы думам просветителей-демократов Центральной Азии не было суждено сбыться, они оставались лишь несбыточной мечтой. И только после обретения республиками Центральной Азии государственной независимости их мечты стали реальностью.

Прогрессивные идеи мыслителей Центральной Азии представляют национальную гордость наших народов, они являются важным вкладом в развитие общественно-политической и философской мысли края. «Наследие наших предков – просветителей служит фундаментом правового демократического государства и гражданского общества, которое мы строим сегодня»,⁶⁴ - отмечал Президент Республики Узбекистан.

⁶³ См.: Мирза Ахмедова П., Рашидова Д. Джадиды: кто они? //Звезда Востока. № 9, 1990. - С.141.

⁶⁴ <https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/22/jadid>.

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA JADIDCHILIK HARAKATINING O'RNI

Xodjayeva D.Yu.,

*Nizomiy nomidagi TDPU
"Ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi" kafedrasida dotsenti, f.f.n*

Tog'ayev Q.Sh.,

*Nizomiy nomidagi TDPU
Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi
4-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: Maqolada Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda jadidchilik harakatining o'rni va ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, jadidchilik, milliy istiqlol, ozodlik, farovonlik, ma'rifatparvarlik, ta'lim-tarbiya.

Mustaqillik sharofati bilan tarixga, ma'naviy qadriyatlarga, o'tmish mutafakkir va xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosiga munosabat o'zgardi. Tarix sahifalaridan o'chirib tashlangan qancha-qancha allomalarning nomlari tiklanmoqda va abadiylashtirilmoqda. Jadidchilik harakatini bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin. "Jadidchilikning fenomeni shundaki, - deb yozadi professor D.A.Alimova, - keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyutsion-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o'zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning konseptual

g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlar kursining genetik asosi bo'lib xizmat qildi"⁶⁵.

O'zbekistonda keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali Yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu haqda gapirganda, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har bir fuqaro, butun jamiyat chuqur anglab olishi kerak.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli islohotlar ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlar katta kuch hisoblanadi.

Uchinchi Renessans haqida gap ketganda, avvalo, ma'rifatparvar jadidlar faoliyatiga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Chunki, jadidlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar, shu yo'lda o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bilganlar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jayev, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turganlar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

⁶⁵Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999, 42-bet.

Ammo, jadidlarning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishlariga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermagan. Ma'rifat fidoyilari o'sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo'lganlar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qilgan. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati yurtimiz uchun armon bo'lib qolgan.

So'nggi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ushbu soha taraqqiyotida yangi ufqlarni ochib berdi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlar o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga ergashishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – har bir fuqaro uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina yoshlar xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda *"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi"* degan g'oya asosida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug'ma'rifatparvar Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir"⁶⁶. Shu ma'noda, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat avvalo o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi.

So'nggi yillarda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi o'rni va ahamiyati oshib bormoqda, bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

⁶⁶Vatan va millat muqaddasdir: (Milliy uyg'onish davri ijodkorlarining e'tiroflari). – T.: Ma'naviyat, 2000, 63-bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan, "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan kunning ulkan ahamiyatidan kelib chiqib, "21 oktabr – O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilandi. O'zbek tili bayramining mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng nishonlanishi xalqimizning milliy ruhi va g'ururini yuksaltirish bilan birga, davlat tilini hayotimizda to'la joriy etishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida olib borilayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Dono xalqimiz "Til bilgan – el biladi", deydi. Bu borada buyuk ajdodlarimiz ibrat va namuna ko'rsatganlar. Xususan, Xorazmiy, Farg'oniy, Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Navoiy kabi ulug' allomalar o'nlab tillarni puxta bilganliklari uchun ham jahon ilm-fanining yuksak cho'qqilarini zabt etganlar.

Bugungi kunda yurtimizdagi ta'lim maskanlarida ingliz, rus, nemis, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, turk, xitoy, yapon, koreys, hind va urdu tillari chuqur o'qitilayotgani bu an'analar davom etayotganining yorqin ifodasidir. Shu o'rinda ulug' alloma, XX asr boshida olti tilli – o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan Is'hoqxon Ibratning quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchimiz: "Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdur"⁶⁷.

Demak, xalqning taqdiri, ertangi kuni, avvalo, millatning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlari, betakror san'ati va adabiyotini, ona tilini ko'z qorachig'iday asrashiga bevosita bog'liq. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va

⁶⁷Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021, 36-bet.

sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat, deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”⁶⁸.

Adabiyotlar:

1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T.: Universitet, 1999.
2. Vatan va millat muqaddasdir: (Milliy uyg'onish davri ijodkorlarining e'tiroflari). – T.: Ma'naviyat, 2000.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 2020.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEHNAT TARBIYASI HAQIDA

Yusupov A.
FarPI,
dotsent v.v.b, (PhD)

Insoniyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tarixiga e'tibor qilinsa, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganishi, mehnat ahlini hurmat qilishi hamda mehnat insonni ulug'lashi masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Ma'lumki, qadimdan sharq xalqlari dunyoqarashlarida farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, jamiyatda yaxshi tarbiya ko'rgan inson har taraflama ulug'langan, o'zi yashagan muhitda uning hayot yo'li boshqalar uchun namuna sifatida e'tirof etilib, u shaxsiy hayoti davomida o'z mehnatiga yarasha martabaga erishgan. Yoshlik davrlaridan boshlab bunday tarbiyani shaxsan boshlaridan kechirgan ko'plab sharq allomalari o'z davrida bolaga mehnat tarbiyasi berish va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha fikrlarini bayon etganlar.

Maqola sharq mutafakkirlaridan Kaykovus, Abu Nasr Al Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Abduraxmon

⁶⁸Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2020. – B. 173-174.

Jomiyning asarlarida farzandlarga mehnat tarbiyasi berish va hunarli qilishga o'rgatish bo'yicha qarashlarining talqiniga qaratilgan.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ma'rifiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari – topishmoq, qo'shiq, masal, maqol, ertak va dostonlarni o'zlashtirganimizda mehnat va kasb-hunar odobi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zaruriyat ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Ilk yozma manba hisoblangan «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» kabi asarlari, Alisher Navoiy ijodining ko'plab jihatlari va shu kabi ma'rifiy-merosning boshqa namunalari mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Farobiyning o'z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki, u kishilarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqirib, islom mafkurasining mutloq hukmronligi sharoitida inson shaxsining ijodiy va bunyodkorlik kuchini va uning kamolatini, qadr-qimmatini g'oyat ulug'laydi. Insonning paydo bo'lishi va uning mavjudligi, kamolatiga, ilm-ma'rifatga va kasb-hunarga erishuvi hech qanday ilohiy kuch tomonidan belgilanmaydi, balki inson o'z taqdirini aql va mehnati, ya'ni ijodkorlik qobiliyati orqali o'zi yaratadi.

Farobiy o'z ijtimoiy vazifasini bajarishi uchun unga, birinchidan, kundalik hayotida odamlar bilan muloqatda bo'lish zarurligini, ikkinchidan, esa u mehnat va kasb-hunar ko'nikmalarini va axloqiy fazilatlarni egallashi lozimligini ta'kidlaydi⁶⁹. Farobiy kasb-hunar ahlining axloqiy fazilatlari to'g'risida fikr yuritarkan, kasb-hunarni egallash va kamolatga erishishga o'z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san'at egalari, ular amaliy ish bilan shug'ullanuvchi, kasb-hunarga berilgan kishilardir deydi. Mutafakkir inson faqat o'zining ehtiyoji bo'lgan va har bir kishi o'zi yoqtirgan kasbni egallagandan so'ng o'ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak mas'uliyatni his etishi va o'z kasb-

⁶⁹ Hikmatlar guldastasi. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti, 1952 y. B. — 53.

hunarini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak deb ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig'» asarida shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlar bayon etiladi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi kishilar sifatida ta'riflaydi. Masalan, alloma dehqonlar haqida: ...Qalug' tebranurka bulardan aso'g', Tuzuk tegir ye ichimdan tato'g'... (Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat (bo'ladi), Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi)⁷⁰, - deb, dehqonlar mehnatini ulug'lash bilan birga, hunarmanlar haqida ham «juda zarur kishilardir ...temirchi, tikuvchi, etikdo'z, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib so'zim uzayib ketdi. ...Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar», - deb, o'zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo'lish shartlari xususida o'z tavsiyalarini bayon qiladi. Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari, haqiqatan ham, ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

O'rta asrlarning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Mahbub-ul qulub» asarlarida ham mavjud. Alisher Navoiy haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik, deb ko'rsatadi. U «Hayratul abror»ning beshinchi maqolotida kishilarning sahovatiga ko'z tikishdan ko'ra, o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyjanobroq ekanligini «Hotam Toyi»⁷¹ hikoyatida keltiradi. Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin

⁷⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig' (Saodatga eltuvchi bilim) – T., Fan, 1971. B. – 659.

⁷¹ Alisher Navoiy. Xamsa. –Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot, B. – 70-71.

ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatida izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnat insonni go'zallashtirishini, mehnat tufayligina inson kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda o'z asralarida ko'plab mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi. Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

A. Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotdagi o'rmini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ...Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot»⁷², - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Buyuk mutafakkir va olim Abduraxmon Jomiy o'z asarlarida kasb-hunar va ilm o'rganishga yoshlikdan kirishib, yoshlik kuch-g'ayratini ana shunga sarf etish kerakligini ta'kidlaydi.

⁷² Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1977, B. – 29-30.

Jomiy bilim va kasb-hunarni egallamay, o'zining nasli nasabi bilan maqtanib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, hosil bermaydigan mevasiz daraxtga o'xshaydilar, bunday odamlarning jamiyatga nafi tegmasligini quyidagi misralarda keltiradi: Qaysi farzand fazlu hunarsiz bo'lib, Otadan lof ursa, odamdan yiroq. Mevali daraxtning mevasiz shoxi, O'tindan boshqaga yaramas mutloq⁷³. Jomiy kasb-hunar egallashni va u bilan shug'ullanishni har qanday boylikdan afzal ko'radi, yoshlarni kasb-hunar egallashga da'vat qiladi hamda uni quyidagi misralarda ifodalaydi: Odamning qiymati emas simu zar, Odamning qiymati bilim va hunar. Shu o'rinda kasb-hunar o'rganishning inson hayotida naqadar muhim ekanligi to'g'risidagi fikrlarni quyidagi to'rtlik orqali yakunlashni maqsadga muvofiq deb bildik: Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir, Hunarsiz kishining ahvoli dilgir, Hunar esa senga doimiy hamroh, Yopiq eshiklarni ochar birma-bir. Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlarining biz ko'rib chiqqan vakillarining she'riyatida ham mehnatga, ilmu-hunarga muhabbat va ijodkorlik g'oyalari yuksak mahorat bilan ifodalanadi hamda insonni yoshlik chog'idanoq mehnatga va biron-bir kasb-hunarga o'rgatishga katta e'tibor qaratiladi.

Yuqorida sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasida mehnatning ahamiyati haqida yuqorida qisqacha bilganlarimizni bayon etildi. Bugungi kunda yoshlarni oilada ma'nan yetuk, jismonan barkamol bo'lishi uchun, avvalo, o'zimiz mehnatsevar bo'lishimiz, oiladagi katta yoshdagi insonlar ularga o'rnak bo'lmog'imiz lozim. Avvalo o'zimiz ma'lum bir kasb yoki hunar egasi bo'lishimiz zarur. Zero, biron bir hunarning egasi bulish xam daromad keltiradi, farzandlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuningdek, ularning asralarida insonning kasbu-kori bilan uning axloqiy xislatlari o'rtasida chambarchas aloqadorlik borligi, axloqiy ongning shakllanishi

⁷³ Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlari. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1971 y.

uchun tabiiy soha bo'lmish mehnat faoliyatining roli haqidagi masalalar ham g'oyat muhim bir tarzda va yangicha ifodalangan.

Bu esa bugungi kun yoshlarini, ayniqsa o'quvchi-talaba yoshlarni mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish va biror-bir kasbni puxta egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1977
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig' (Saodatga eltuvchi bilim) – Toshkent, Fan, 1971.
3. Hikmatlar guldastasi. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti, 1952 y.
4. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlari, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1971 y.
5. Shomuhamedov Sh. Xazinalar jilosi, Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti, 1981 y.
6. Hasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida Toshkent, O'qituvchi, 1993y.,144 b.

**ABDULLA AVLONIY MILLIY MADANIYAT, ILM- MA'RIFATNING
BUYUK NAMOYANDASI**

Erkinov I.E.,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Ijtimoiy va gumanitar fanlar”

kafedrasasi asistenti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning faoliyati va ularning taraqqiyotda tutgan o'rni keltirilgan.

kalit so'zlar: Turkiston, Hurriyat marshi, Usuli jaded, Padarkush, Turkiston muxtoriyati.

аннотация. В данной статье описывается деятельность Абдулла Авлони, узбекского национального просветителя конца XIX начала XX века, и его роль в ее развитии.

ключевые слова: Туркистан, Хурриятский марш, Усули Джадед, Падаркуш, Туркестанская автономия.

annotation. This article describes the activities of Abdullah Avloni, the Uzbek national educators of the late XIX th and early XX th centuries and their role in development.

keywords: Turkistan, Hurriyat Marsh, Usuli Jaded, Padarkush, Turkestan Auatonomy.

XIX-asr oxiri XX-asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. U 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. Bolaligi Mirobod mahallasining egri-bugri ko'chalarida, ko'pchilik qismini ruslar tashkil qilgan temir yo'l ishchilari bolalari orasida kechdi. O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qidi (1885–1886). Mustaqil mutolaa bilan shug'ullandi. Arab, fors, rus tillarini o'rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma'rifatparvar sifatida tanildi va o'lkadagi ijtimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi. XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so'ngroq Degrezliqda (1903–14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi.

1909 yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi “Jamiyati xayriya” ochib, yetim bolalarni o'qitdi. “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” nomli to'rt qismdan

iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr qildirdi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jaev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan sheriklikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908), "Turon" (1917) gazetalarini chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetasi "Ishtirokiyun" ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi. Usovet davrida turli mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qildi, qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanib keldi, bilim yurtlarida, oliy maktablarda o'qituvchilik qildi. 1930–34 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi ToshDU) kafedrani boshqardi. U 1934 yilda vafot etdi.

Avloniy 1927 yilda Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Avloniy 30 yildan ortiqroq ijod qildi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarining, so'ng inqilobiy talotumlaru milliy-ozodlik kurashlarining guvohi bo'ldi. O'tgan davr ichida, o'zi ta'kidlaganidek, "o'nlab she'r va maktab kitoblari, to'rt teatr kitobi" qoldirdi. Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim- tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardandir.

Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun "Birinchi muallim"i (1911) Oktabr o'zgarishigacha 4 marta, "Alifbedan so'nggi o'quv kitobi" – "Ikkinchi muallim" (1912) 3 marta kayta nashr etilgan. Axloqiy didaktik mazmundagi "Turkiy Guliston yoxud axloq" darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiypedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an'anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat,

Platon, Aristotel, Sa'diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tugʻilib oʻsgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmok, yashartmoq kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining oʻz xalqiga boʻlgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakdur”.

Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan sheʼr, hikoyalar va maqolalar yozgan. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yoʻlini bosib oʻtdi. U adabiyotga gʻoyaviy kurashlar gʻoyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkilanmasdan maʼrifat va taraqqiyot uchun kurashishini maslak etib qabul qildi. Shoir sheʼriyati bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy sheʼr yoʻq. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt gʻamini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. Oʻz ona diyorini bamisoli “yor kabi sevadi”. Butun mehrini shunga bagʻishlaydi. Asrimiz boshlari Turkiston takdirida gʻoyat masʼuliyatli boʻlgan, uning hayot mamot masalasi hal qilinayotgan bir payt edi. Buni Avloniy davrning peshqadam ziyolisi, yirik maʼrifatparvar, jadidlar taʼlimotining faol tarafdori sifatida tezda ilgʻab oldi.

Dastlabki poetik asarlari “Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar” (I, II, III, GU juzlar), “Maktab gulistoni” (1916), “Mardikorlar ashulasi” (1917) kitoblarida va “Sabzavor” tazkirasi (1914) hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda ilm-maʼrifat targʻib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi sheʼrlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qoʻllagan. Milliy kuylarga moslab sheʼrlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri shu boʻldiki, u mardikorlik sheʼriyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan

bo'ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi “Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari”, “Onasining o'g'liga aytgan so'zlari”, “Afsus” kabi she'rlar yozdi. Ona yurtidan uzoq shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritdi. Bu she'rlarning ohang va uslubi xalq qo'shiqlariga g'oyat yaqin bo'lib, ular xalqimizning milliy uyg'onishida muhim o'rin tutdi.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi (“Qutuldik”, “Yotma” she'rlari). Oktabrga bag'ishlab “Hurriyat marshi” (1919), “Ishchilar qulog'iga” kabi she'rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug'ladi. Lekin ko'p o'tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g'amgin tushkun ohanglarning paydo bo'lishiga olib keldi (“Haftalik soatda” 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she'rlar yozdi. 1919–20 yilgi Afg'oniston safariga doir “Afg'on sayohati” kundaliklari esa mamlakatimizning yon qo'shnimiz bilan o'zaro do'stlik, totuvlik aloqalarining o'rnatilishi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Avloniy o'zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913 yilda “Turkiston” teatr truppasini tuzdi. “Turkiston” o'zining qat'iy nizomini ham e'lon qilgan edi. Uning tashkilotchisi ham, g'oyaviy-badiiy rahbari ham Avloniy edi. Truppa “Zaharli hayot” (Hamza), “Baxtsiz kuyov (A. Qodiriy) kabi XX asr boshlari o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirgan, teatr ozarbayjon dramaturglari asarlari (“Badbaxt kelin”, “Xo'r-xo'r”, “Jaholat”, “O'liklar”, “Joy ijaraga olgan kishi”, “Man o'lmisham”, “Layli va Majnun”, “Asli va Qaram”) ni o'zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo'ygan. Avloniyning o'zi Mallu (“Layli va Majnun”), Fayziboy (“Baxtsiz kuyov”), Aliboy (“To'y”), Boy (“Padarkush”) rollarini ijro etgan.

Avloniy “Advokatlik osonmi?” (1914), “Pinak” (1915) komediyalari, 1914–17 yillarda yozgan “Biz va Siz”, “Portugaliya inkilobi”, “Ikki sevgi” kabi fojeaviy asarlari bilan o'zbek dramaturgiyasining maydonga kelishi va

teatrchilikning xalq orasiga tomir otishiga muhim hissa qo'shdi. Advokat Davronbek orqali Turkistondagi huquqsizlik, dunyodan xabarsizlikni fosh etdi. "Advokatlik osonmi?" degan asarida bir qator ko'knori va qimorbozlar obrazini yaratib, ma'naviy turmushning tuban bir holga kelib qolganini ko'rsatdi. Monarxiyaga qarshi kurash, bayrog'i ostida kechgan 1910 yilgi Portugaliya inqilobi, 1909 yili Turkiyada yuz bergan "Yosh turklar" inqilobi ("Ikki sevgi") haqida yozib, adabiyotimizda mavzu va g'oyalar ko'lamini kengaytirdi. "Biz va Siz"da esa XX-asr boshidagi Turkistonning eskilik va yangilik borasidagi kurashini aniq taqdirlar misolida yoritib berdi. Avloniy asosiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul yillari 1917 yildagi Oktabr to'ntarishiga kadar bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Avloniy ijodi 60-yillarning oxiridan o'rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblar holida chop etilgan.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki jadidchilik harakati hozir haqiqat nuqtai nazaridan qayta tiklanayotgan ona tariximizdagi «oq» va «qora» dog'larning tugatilishiga katta hissa qo'shdilar. Ular jon fido etgan istiqloq avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. "O'zbekiston" 2018 yil. 591 bet
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. "O'zbekiston" 2017 y.103 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaati. Toshkent. "O'zbekiston" 2018 yil. 78 bet

ФИЛОСОФСКАЯ КУЛЬТУРА В МОЛОДЁЖНОЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СРЕДЕ

Ахмедов Х.
преподаватель кафедры
«Философии» ТДПУ
Шовкатова А.,
студентка 1 курса вечернего
отделения ТДПУ, направление
“математика и информатика”

Аннотация: В статье речь идёт о необходимости возрождения философской культуры в обществе и в первую очередь в молодёжной интеллектуальной среде. Этот аспект актуализируется на переломных этапах общества, поскольку развитие общества напрямую зависит от духовно-культурного состояния общества. Авторами рассматривается философия как синтез интеллектуального, ценностного и практического освоения действительности.

Ключевые слова: Философия, мудрость, интеллект, развитие, культура, социальность, мышление, синтез, общество.

Введение. Процесс модернизации и реформирования образования в обществе будет успешным только тогда, когда будет опираться на национальную идею, которая заключается в возрождении национального воспитания как преобразования не только отдельной личности, но всего универсума культуры. Большая роль в этом процессе принадлежит философии. В современной социальной действительности, бесспорно – судьба реформ, будущее всякой страны напрямую связана с интеллектуально-духовным уровнем общества. “Основная цель этих реформ – обеспечить достойный уровень и качество жизни наших людей”. [1,58] Государство Республики Узбекистан предпринимает некоторые шаги в перестройке образования, которые вносят определенные положительные изменения в систему образования.

Национальная идея основывается на самосознании народа, которое выражается в национальной философии. Философия аккумулирует в себе духовную культуру всего человечества. Основой формирования общекультурных и профессиональных компетенций служит культура мышления, которая формируется в процессе гуманитарного образования, в процессе изучения философии. В книге «У колыбели науки» Генриха Волкова есть

замечательные слова: «Духовная культура не клад и не склад ценностей, а скорее, аккумулированная и концентрированная энергия, накопленная всем многовековым развитием человеческой цивилизации, усилиями всех наших предков. И проблема в том, как превратить ее в энергию собственного интеллекта» [2,14]. Эту проблему и решает философия, так как является квинтэссенцией духовной эволюции человечества.

В разных культурах на различных исторических этапах существования философия человечество связывало с ней множество надежд. Великие мыслители считали, что именно философия призвана раскрыть тайны мироздания, от которых зависело выживание человека и человечества. Когда-то она была алгеброй революции, когда-то царитсей наук, когда-то особым языком, конструирующим смысловую и символическую реальность. Сегодня, по глубокому убеждению автора, философия – пропедевтика творчества во всех сферах общественной жизни. Философское мышление позволяет достроить наше знание о мире до целостности.

Достроить не произвольно, субъективно, как это делает научная фантастика или искусство, а на основе обобщения результатов всей многовековой деятельности человеческого познания.

Философия позволяет составить целостное представление о мире, о его закономерностях и взаимосвязях.

Философия как учебный предмет отличается от академической философии. Уместно вспомнить положение И. Канта о двух философиях: к первой, «школьной» философии относится «достаточный запас рациональных знаний» и «систематическая связь этих знаний, или соединение их в идею целого». Философия же во втором «всемирно – гражданском значении» требует «культуру таланта и умения, чтобы применять их ко всевозможным делам». «То и другое, – продолжает Кант, – должно соединиться, ибо без знаний никогда нельзя стать философом. Но также и одни знания никогда не создают философов, если целесообразная связь в этих знаниях и навыков не образует единства и не возникает сознание соответствия этого единства высшим целям».

человеческого разума. Философствовать можно научиться лишь благодаря упражнениям и самостоятельному применению разума» [3,332]. Б.В. Марков в учебнике «Философия» пишет: «Сегодня субъектом философии является не великий мыслитель, гениальный индивидуум, думающий за других, а разум общности, коллективного субъекта, сообщества людей, озабоченных проблемами выживания, создания свободного общества и развития духовных ценностей. Поэтому философ должен осознать себя как арбитра общественных дискуссий и переговоров по поводу направления и селей культурного процесса» [4,21].

Поэтому необходимо возродит философскую культуру в первоначальном смысле как любовь к мудрости. А вот мудрость требуется переосмыслит. Это понятие исчезло из индивидуального и общественного сознания в эпоху тоталитаризма.

Что же такое мудрость? Мудрость как духовное явление носит глобальный характер и выводит человека за пределы расовых, этнических, экономических, идеологических, мировоззренческих различий. Это всеобщее напряжение человеческого духа, стремление подняться над обыденностью представлений, возвысится до иного, сущностного постижения человека, его души, его действий, отношений между людьми и отношений с миром.

В таком значении философия становится духовной сердцевинной общечеловеческой культуры и личностной формой овладения мудростью, поскольку этот процесс обязательно связан со степенью развития самосознания личности, с проблемным видением себя и мира, с потребностью и умением проблемного рефлексирования.

В чем же проявляется мудрость? Это не только интеллектуальная культура, а основа духовно-нравственной культуры личности.

1. Кант И. Трактаты и письма / И. Кант. -М.: Наука, 1980. -С. 332

2. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Доклад на расширенном заседании

Кабинета Министров, посвящённом итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. Тошкент- “Узбекистон” 2017, С 58. Мудрость – это синтез интеллектуального, ценностного и практического освоения действительности. Восхождение к мудрости предполагает формирование рефлексивного мышления и высокого уровня самосознания.

Но для реализации этой цели нужна глубочайшая реформа всей системы образования, обучения и воспитания; новое (это одновременно и древнее) видение философии, ее основных задач.

Основой концепта могла бы стать антропология воспитания: анализ воспитания и образования с антропологических позиций. Этот концепт поможет возродит философию как национальное самосознание. Именно антропология воспитания должна стать основой инновационных процессов в системе образования.

Особо необходимо указать и на то, что традиционно гуманитарное, философское образование представлялось в формировании фундаментальных основ, чтобы решать мировоззренческие задачи, ориентироваться в современной социокультурной обстановке. В современной же обстановке информационное общество связано с изменением задач и ориентиров гуманитарной подготовки образования.

Философское познание в информационном обществе приобретает междисциплинарный характер в основе которого лежит метод применения информационных технологий в гуманитарном образовании. Объектом междисциплинарного образования выступает информация и информационные технологии, направленные на эффективную обработку, хранение и поиск нужных данных. Возникновение специализаций, появления смежных областей образования развивает гуманитарную науку.

В структуру философского образования происходит внедрение информационных технологий, которые приводят к появлению новых

отраслей научного знания, специализаций философского направления. Повышается эффективность философского образования путем обработки большого массива информации, за счет использования математического аппарата и средствами информационных технологий.

Проблема качества повышения профессиональной подготовки специалиста занимает доминирующее положение среди задач высшей школы, поскольку постоянно изменяющиеся экономические и социальные условия требуют соответствующих методик и технологий, позволяющих добиваться высокого качества специалиста при меньших затратах времени. Значимую роль на пути к этому играют самостоятельные и практические (семинарские) занятия. Самостоятельные и практические занятия — это разнообразные формы деятельности студентов по освоению различных проблем философского познания, в том числе, в области науки и техники. Соответственно необходимо использование технологий обучения, адекватных современному этапу научно-технического развития, особенно информационных и коммуникативных технологий, которые в образовании подразумевает следующее:

- 1) технологии индивидуализированного образования;
- 2) интеллектуальную обучающую сферу и мотивацию обучения;
- 3) организацию образовательного процесса;
- 4) комплексное регулирование образовательного процесса;
- 5) глобализацию высшего образования;
- 6) создание новых форм общения между обучающимся и преподавателем (общение происходит в специальной электронной среде).

Заключение. Безусловно сегодня уровень культуры философского мышления, успешное усвоение курса философии в системе высшего образования требует систематической самостоятельной работы и активного участия студентов в работе лекций и семинаров. Развитие аналитического мышления в изучении многогранных проблем достаточно актуальная проблема современности. В

современном мире развитие философского образования в условиях информатсионного общества направлено на его интеграцию с естественнонаучным образованием. Данное слияние обеспечивает строгость и точность технической и методической сторон философского образования, что во многом определяет его результативность и объективность. Процессы информатизации и становления информатсионной техники определяют преобразование и развитие философского образования.

Исползованная литература:

1. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Доклад на расширенном заседании Кабинета Министров, посвящённом итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. Тошкент- "Узбекистон" 2017, С 58.
2. Волков Г. У истоков философии / Г. Волков. М.: Молодая гвардия, 1971. 14 с.
3. Кант И. Трактаты и письма / И. Кант. -М.: Наука, 1980. -С. 332.
4. Марков Б.В. Философия: учебник для вузов / Б.В. Марков. -СПб.: Питер, 2009.

JADID MA'RIFATPARVARLARINI TA'LIM SOHASIDAGI QOLDIRGAN BOY MEROSINI O'RGANISHNING IJTIMOY-MA'RIFIY AHAMIYATI.

Murodov A.I.,

*Nizomiy nomidagi TDPU
v.b.dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

Jadidchilik XIX asr oxirida XX asr boshlarida O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududiga kirib kelgan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy oqim edi. Bu harakat ta'lim tizimini yangilash va musulmon maktablarida o'qitish usullarini takomillashtirishga xizmat qildi. Turkistonda ta'lim sohasiga jadidchilikning ta'siri katta bo'ldi. Bu zamonaviy maktab tizimini rivojlantirish, o'qitishning yangi uslublarini joriy etish va aholi o'rtasida savodxonlikni oshirishga xizmat qildi. Pedagogik metodlarni rivojlantirish va o'qituvchilar malakasini oshirishga ham e'tibor qaratildi. Jadidchilik aholi, jumladan, xotin-qizlar o'rtasida ta'limning keng tarqalishiga yordam berdi, bu esa mintaqada bilim olish va savodxonlikni oshirishga olib keldi.

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"⁷⁴.

Haqiqatan, jadidlar o'z faoliyati davomida nafaqat o'z asarlari, balki ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan ham o'rnak bo'lganlar. Jumladan, bugungi kunda O'zbekistonda jadidchilikning ta'lim sohasidagi merosini o'rganish ahamiyatliligicha qolmoqda. Shunday qilib, jadidchilik O'zbekistonda ta'lim sohasiga boy meros qoldirib ketdi.

Shu jihatdan, jadidchilik harakatining shakllanish omillari va sabablarining, o'lkada keng yoyilishi natijasida Turkiston zamini azaldan ma'rifatparvarlik maskani hisoblanib, asrlar osha bashariyat sivilizatsiyasida o'z o'rniga munosib

⁷⁴ <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/bizga-jadid-bobolarimiz-kabi-etuk-kadrlar>.

ravishda ega bo'lganiga tarixiy manbalar guvohlik beradi. Xususan, XIX asr oxirlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati XX asrning boshlariga kelganda o'z cho'qqisiga yetdi. Yillar davomida bir-biridan farq qiluvchi rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Vatan va millat taraqqiyoti uchun jadidlar turli xil yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatdilar. Ushbu harakat vakillari jamiyatda ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazish uchun kurashni muhim masala deb bilganlari holda, ta'lim-tarbiya uchun kurash jadidlar faoliyatining asosiy diqqat markazida turdi. Jadidlar mamlakat istiqloli va istiqboli ma'rifat bilan bog'liqligini chuqur anglab yetdilar.

Darhaqiqat, jadidlar ilmiy merosi asosida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish Uchinchi renessansni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish kerakki, Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi mintaqaning Rossiya imperiyasining agrar xo'jaligiga qo'shilishiga olib keldi. Feodal-mustamlakachilik tuzumi sharoitida kapitalistik munosabatlarning joriy etilishi mahalliy aholi uchun ijtimoiy qarama-qarshiliklarni sezilarli darajada oshirdi. Mahalliy aholi turmush sharoitining yomonlashishi, milliy va diniy qadriyatlarning izdan chiqishi, chet el kapitalining mamlakatga jadal kirib borishi, yo'qolib borayotgan elitaning mamlakat mulkini ayovsiz talon-taroj qilishlari ilg'or faollarni befarq qoldirmadi.

O'zbekistonda XIX asrdan boshlab milliy ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan istiqlol harakatlari va modernizatsiya ishlari olib borildi. Bu harakatlar natijasida jadidlar ta'sirida, aytish mumkinki, innovatsion harakat vujudga keldi.

O'zbekistonni modernizatsiya qilish harakati mahalliy ziyolilar ongida chuqur ildiz otdi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan ilg'or fikrli insonlar o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayoti dunyo xalqlaridan orqada ekanini anglab yetdilar. Ziyolilar bu qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li ta'lim va ilm deb ta'kidladilar⁷⁵

⁷⁵ “Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari” “Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. -216 b. 48-b.

Shuni aytish kerakki, ilg'or ziyolilar – ilm taraqqiyotning asosi ekanligini anglagan holda, avvalo, qoloqlikdan qutilishning haq yo'li deb ma'rifatni tanlaydi. Bu maqsad yo'lida XIX asrning so'nggi choragida Turkistonda dastlabki yangi usul maktablari tashkil etila boshladi.

O'rta Osiyo jadidlari ma'rifatparvarlik yo'lida Qrim ziyolilari tajribalarini o'rganish bilan birga, boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg'or g'oyalaridan ham foydalandilar. Mamlakatimizda faoliyat olib borgan jadidlar boshqa mamlakatlardagi ushbu jarayonlardan ta'sirlanib vujudga kelganligini qayd etib o'tish muhimdir. Bu harakat birinchi navbatda yosh qatlamni ta'sirlantirdi. Aytish mumkinki, Turkiston o'lkasi jadidlari boshqa o'lkalardagi jadidlarga qaraganda eng yosh va harakatchan shaxslardan iborat edi. Abdulhamid Cho'lpon jadidchilik faoliyatini o'n uch yoshligidayoq boshlab yuborgan. Bu kabi yosh ziyoli boshqa hududlarda bo'lmagan. Asosan, o'rta va katta yosh vakillari faoliyat olib borishgan. O'zbekiston hududidagi jadidlarning aksari 40 yoshdan oshmagan yosh qatlam vakillari bo'lgan⁷⁶.

Jadidchilik harakati mintaqaning markaziy hududlarida jadal rivojlandi. Xususan, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xorazm bu borada ancha faolroq edi. Shu bilan birga vodiy viloyatlari ham jadidchilik harakatining faol harakatlari olib borilgan qaynoq joylardan edi. 1893-yilda Buxoro amirligida "birinchi" rasmiy yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi. Turkiston hududida tashkil topgan jadid maktablaridan Qo'qonda 1898-yilda ochilgan maktabni ko'rsatish mumkin. Bu maktab Salohiddin domla tomonidan tashkil etilgan edi⁷⁷.

Shuningdek, To'raqo'rg'onda 1886-yilda yangi maktabni jadidchilik harakatining nufuzli vakillaridan bo'lgan Is'hoqxon Ibrat Qo'qon shahrida madrasa tahsilini olgach ochadi, ammo u ma'lum sabablarga ko'ra tezda yopiladi⁷⁸. Mazkur voqeadan keyin Ibrat 1887-1895-yillari Yevropa va Osiyoning bir qator

⁷⁶ Djuraev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) / fan d. (DSc) diss. T. 2019. 167-b

⁷⁷ Djuraev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) / fan d. (DSc) diss. T. 2019. 170-b

⁷⁸ Ibrat I. Tanlangan asarlar. T.: "Ma'naviyat", 2020. – B. 35.

mamlakatlarida bo'lib, o'ndan ortiq chet tillarini o'rganishga kirishadi. Xorijiy ilmfan yutuqlari va texnika mo'jizasi bilan yaqindan tanishib, 1907-yilda yangitdan "usuli savtiya" maktabini ochadi. Bu maktabda 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Xorijiy safardan qaytib, yurt taraqqiyoti uchun jadal faoliyatga o'tib, jadidchilik harakatining a'zosiga aylanadi. Ta'limni o'zi tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida tashkil etdi⁷⁹. U olgan tajribalari asosida o'z maktabida haftalik dars jadvalini joriy etdi.

O'sha kezlarda, jadidlarning e'tibor markazida bo'lgan, aytish mumkinki, faoliyatining asosini tashkil qilgan faoliyat bu nashriyotchilik bo'lgan. Ular faol ravishda ommaviy maqolalar yozdilar va shu orqali aholini savodli qilishga bel bog'ladilar. Bu o'z natijasini ko'rsatganligini yangi usuldagi maktablarda ta'lim olishni istovchi talabgorlarning soni ortib borganligidan ham ko'rish mumkin. Maktablarda yoshi katta insonlar ham savod chiqarish uchun qatnagani, aholining bilim olishga ishtiyoqi ortib ketganligi bilan izohlanadi.

Ularning yana bir e'tibor qaratgan sohalari bu teatr sohasi bo'lib, mamlakatda o'ta mashhurlikka erishdi. Bu san'atning joriy qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad xalqni ma'rifatli qilish edi. Moddiy manfaatdorlik mutlaqo ko'zda tutilmagan. Jadidlarning mana shunday faoliyati ham har taraflama tahsinga sazovor. Albatta, bunday ishlarni mablag'siz qilib bo'lmaydi. Buning uchun xalqning boy va uyg'oq qatlamining hissasi katta bo'lgan. Ularni nomma-nom keltirib o'tish va faoliyatini baholash bir tadqiqot doirasiga sig'maydigan ish hisoblanadi. Har bir shaxs faoliyati katta-katta tadqiqotlarga mavzu bo'lishi mumkin. Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy va boshqalarning faoliyati turli rakurslarda o'rganishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, jadidlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib o'nlab yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Turkistonlik jadidlar faolligi

⁷⁹ Vohidova K. Is'hoqxon Ibrat. Fan va Turmush. — 1995. -№4. -B.26

yanada oshdi va jadidchilik harakati ushbu jarayonlar ta'sirida siyosiy tus ola boshladi.

Manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, Turkistondagi dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlarning vujudga kelishida bir qancha omillar sabab bo'lgan deyish mumkin. Dastlabki omillardan 1905-1907-yillardagi birinchi rus inqilobini, keyin Turkiya va Eronda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, Osiyoning aksar mamlakatlarida faollashgan inqilobiy faoliyatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan, albatta. Lekin eng asosiy sabab ularning ma'lum ma'nodagi uyg'oqligi va zamonaviy ilmlarning puxta egallanganligidadir.

Muxtasar qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati namoyondalari Turkiston o'lkasini milliy mustaqilligini qo'lga kiritishda avvalo, xalqni ilm-ma'rifatli qilish, bu maqsadga erishish uchun zamonaviy jadid maktablarini ochish va ularning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish muhimligini yaxshi tushunib yetganlar. Bu boradagi ezgu maqsadlarini amalga oshirishda ular tomonidan asos solingan milliy matbuot va teatrning o'rni beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" "Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi. — Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. -216 b. 48-b.
2. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/bizga-jadid-bobolarimiz-kabi-etuk-kadrlar>
3. Djuraev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) / fan d. (DSc) diss. T. 2019. 167-b
4. Djuraev D.U. Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi nazariy asoslari (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) / fan d. (DSc) diss. T. 2019. 170-b
5. Ibrat I. Tanlangan asarlar. T.: "Ma'naviyat", 2020. – B. 35.
6. Vohidova K. Is'hoqxon Ibrat. Fan va Turmush. — 1995. -№4. -B.26.

TA'LIM TARBIYA VA MA'NAVIYAT

Aminova N.B.,

*TDPU Ijtimoiy fanlar kafedrası
v.b. dotsenti falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (phd)*

Maxmudiyorov M.A.,

*Professional ta'lim Axborot
tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi
1-kurs talabasi.*

«Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi»,– deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. »⁸⁰

Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq»asari faqat maktab doirasi bilan cheklanmagan, bu asarda adabiyot, san'atga qiziqadiganlar uchun ham qo'llanma vazifasini o'tagan. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi yomonlikdan qaytaruvchi ilm haqida fikr yuritiladi.

Ta'lim–bu, jamiyatni yuksaltirishni belgilab beruvchi ijtimoiy institutdir, u ijtimoiy ongni shakllantiradi. Bugungi kunda shuning uchun ta'limga uning istiqboliga katta e'tibor qaratilyapdi. Ta'lim-tarbiya yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish va istiqbolimizni nurafshon qilish vositasidir. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek “Axloq, bu xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishidan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya “yo hayot, yo mamot, yo, najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”.⁸¹

⁸⁰ Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom.- Toshkent: O'zbekiston, 2017. 505 b.

⁸¹ Begali Qosimov Milliy uyg'onish Toshkent, Ma'naviyat 2002, 253-b.

Darhaqiqat, jamiyatdagi barcha muammolar ma'naviy jihatdan barkamol insonlarning sa'y-harakati asosida o'z yechimini topadi. Demak, kishilarning ruhiyati, ya'ni ma'naviyatini yuksaltirishning samarali vosita va usullarini yaratish lozim. Bizning asosiy maqsadimiz yangicha erkin fikrlovchi tafakkur qiluvchi ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash ekan, bu hol, yoshlar bilan ishlashni yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Avvalo, biz insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ulug' fazilatlarni tarbiyalashni maqsad qilib olishimiz lozim. Shuningdek yosh avlodda real voqelikni aniq ko'ra olish xislatini shakllantirish falsafiy nazariyalarni amaliyotga yo'naltirish zarur. Xususan mutafakkirlar faylasuflarimizning merosidagi muhim g'oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirish pragmatik fikrlash mahoratini oshirish, ma'naviy dunyosi yuksalishida, aqliy salohiyatini qamrovi kengayishi, muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadid mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlarida komil insonni tarbiyalashga oid konseptual fikrlar mujassamlashgan bo'lib, ular ilmiy merosining ta'lim tarbiya amaliyotiga joriy qilinishi vorisilikni ta'minlaydi. Mazkur mutafakkirlarimiz asarlari, sinovdan o'tgan ibratli hayot-yo'llarini yoshlarga qanchalik chuqurroq o'rgatilsa, ularda sabr-bardoshlilik, insoniylik fazilatlarining shunchalik tez kamol topishiga erishiladi.

Yoshlarga ta'lim olishda keng imkoniyatlar yaratib berish, shuningdek ta'limning sifatini hozirgi zamon talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirish O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Globallashtirish va intensivlashuv davrida jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar, zamondoshlarimiz dunyoqarashida ham o'ziga xos sintez hodisasini yuzaga chiqarmoqda. Zotan, yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga keng ko'lamli bilimlarga ega bo'lish samarali ta'sir qiladi. Tafakkurga internet, telefon, televideniya, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali vositali ta'sir etish mumkin. Chunki juda katta hajmdagi maqola, yoxud ilmiy asarning mazmun-mohiyatini yarim betlik annotatsiyada ifodalash mumkin bo'lganidek, klipda ham, inson hayotining butun mazmunini besh minutlik rolik orqali tushunib bilish

mumkin. Demak, texnologiyalarning rivojlanishi bir tomondan ijobiy natijalar bersa, ikkinchi tomondan, salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Tushunish uchun imkoniyatning chuqurligi talab etilishi shubhasiz. Tanqidiy tafakkur qilishni shakllantirish degani emasdir. Zotan, tanqidiy tafakkur rivoji uchun bilimlarning chuqurligi talab etiladi.

Ta'lim ma'naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Chunki ta'lim nafaqat u yoki bu fanni yoxud sohani o'zlashtirishga, shuning bilan birga insonlarning ma'nan barkamol bo'lishiga ham xizmat qiladi, ta'limning mazmun-mohiyatiga singdirilgan ezgulik, bunyodkorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik kabi umuminsoniy qadriyatlar insonning axloqiy-ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ta'limsiz ma'naviyat bo'lmaganidek, ma'naviyatsiz ta'lim ham bo'lmaydi. Ular o'zaro chambarchas bog'liq holda jamiyat ijtimoiy hayotining yuksalishiga xizmat qiladi.

Ta'lim-tarbiya-bu, insonning go'zal fazilatlarini kamol toptirishiga xizmat qiladigan sohadir. Odamlar har doim insoniylik haqidagi bilimlarga ehtiyoj sezishadi. Ta'lim konsepsiyasida insonning o'sha ichki ehtiyojini qondirish, uning his-tuyg'ulariga ruhiyatiga, ta'sir etish va tafakkurini kengaytirishga e'tibor beriladi. Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatida faol ishtirok etishi mushohada qilishning yuksalishi, mehnat jamoalarida yaratish va bunyod etish o'zini ijodiy namoyon qilishiga imkon yaratiladi.

Ta'limning rivojlanishi ma'naviyat bilan bog'liqlikda kechadi. U inson hayotining uzviy bo'lagi bo'lib, usiz jamiyatning rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim-tarbiya tizimining muhim omil ekanini yaxshi anglagan respublikamiz davlat siyosatida ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda izchil davom etayotgan ta'lim islohotlari yoshlarimizni ma'naviy jihatdan boy, barkamol insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgandir.

Maktab ta'limi va tarbiyasida kechayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, tarixan qisqa vaqtda ulkan yutuqlar qo'lga kiritilganiga guvoh bo'lamiz. Ularni maktablarga bepul taqdim etish uchun davlat mablag'lari jalb etildi. Pedagoglar jamoasi va yoshlar, o'quv-qo'llanmalar bilan ta'minlandi, zamonaviy

darsliklar, binobarin, bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatishning qonuniy asoslari, huquqiy mexanizmlarini yaratibgina qolmay, ular hayotga tatbiq etildi.

«Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, avvalo tarbiya beradigan tarbiyachilarning bilimini, dunyoqarashini rivojlantirish vazifasi turadi. Tarbiyachilar yoshlarni ma'naviy barkamol o'sishlariga ko'maklashadilar. Ta'limni zamonaviy qadriyatlar bilan boyitib borishda o'qituvchilarning malakasi, ijodiy imkoniyati muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.505 b.
2. Begali Qosimov Milliy uyg'onish Toshkent, Ma'naviyat 2002,253-b.
3. Aminova Nurxon Bobomurodovna Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) avtoreferati Toshkent-2019 yil.

JADIDCHILIK HARAKATI MA'RIFATPARVARLIK HARAKATI SIFATIDA

Ashurmatov M.K.,
O'R QK Akademiyasi
katta ilmiy xodimi
(doktorant), podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari surib, milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, jadid, ma'rifat, usuli jadid, ma'rifatparvarlik, ziyolilar, matbuot, muxtoriyat, "Behbudiya", jadidlar ta'lim tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматривается возрождение движения джадидов в конце XIX – начале XX века, выдвинутые Туркестанскими джадидами гипотезы освобождения народа от отсталости и религиозных суеверий, реформирования принципов шариата, распространения просвещения среди народа, достижения национальной автономии, искомые пути обновления и подъема общества посредством национального единства, духовно-просветительских реформ.

Ключевые слова: джадидизм, джадид, просвещение, методы джадидов, просветительство, образованные, пресса, автономия, "Бехбудию", система образования джадидов.

Abstract: This article discusses the late 19th and early 20th centuries, Turkistan Jadids are committed to the liberation of the people from backwardness and religious prejudice, reforming the principles of Shari'a, promoting the nation and achieving national autonomy. Jadids sought for

the ways to renew and uplift the society through national unity, spiritual and enlightenment reforms.

Keywords: Jadidism, jadid, enlightenment, method jadid's, press, autonomy, "Behbudiya", system education of jadid's.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Olib borilayotgan islohotlar natijasida ulkan muvaffaqiyatlarga ega bo'lgan Yangi O'zbekiston dunyo sahnasiga yuz tutmoqda. Binobarin, Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'yektiv zaruratdir⁸².

Mamlakatning qanchalik rivoj topishi va gullab yashnashi jamityadagi insonlarning vatanparvarligi, vijdonliligi, ishbilarmon va tashabbuskor eng asosiysi ma'rifatliligiga bevosita bog'liqdir. Ma'rifatli shaxsni tarbiyalash esa eng avvalo ta'lim bilan amalga oshiriladi. Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi⁸³. Muallim ta'lim jarayonida faqat bilim berish chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'rganuvchiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Jadid mutafakkirlari ham ta'limning shaxs kamolotidagi rolini yaxshi tushunganlar va xalqni ma'rifatli qilishda ta'limni asos qilganlar.

Ma'rifatli kishilar millat va Vatan ozodligi, xalqning ma'naviy uyg'oqligi va ma'rifati uchun kurashadilar. Xalqimiz hamisha ilmu ma'rifatga intilib kelishgan. Tarixda Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, imom Buxoriy, Termiziy, Moturidiy, Ulug'bek va boshqa ko'plab buyuk allomalarimiz dunyoviy va diniy ilmlarni uyg'unlashtirib, jahon taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shib kelishgan⁸⁴.

Tadqiqot metodologiyasi.

⁸² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - B.464.

⁸³ Jabborova O.I. Jadid mutafakkirlari - ma'rifat kurashchilari / "Jaholatga qarshi ma'rifat: o'tmish va hozirgi zamon" mazusidagi Respublikai ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro 2020. B.131.

⁸⁴ Manzarov Yu.X. Jadidchilik harakatining millat ma'naviyati va ma'rifatini ko'tarishdagi o'rni / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 11. 2022. P. 392.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida Jadidchilik harakatining tarixiy tashkil topishi obyektiv ochib berildi. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadidchilar maktabi va ularning harakatlarini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Mavzuni tadqiq etishda Abdulla Avloniyning “Tarjimai xol” Tanlangan asarlar 2-jildlik va Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asaridagi ziyoli obrazi metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan jadidchilar faoliyatini tahlil etishda jadidchilik harakatning yuzaga kelishi va jadidchilar faoliyatiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ommaviy manbalar tahliliga ko‘ra⁸⁵, “**Jadidchilik** yoki **jadidizm** (arabcha: جديد *jadīd* - yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi”. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Ismoilbek Gasprinskiy boshchiligida Qrimda vujudga keldi. So‘ngra XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Ensiklopedik lug‘atda esa, “Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan⁸⁶” deb keltirilgan.

“Jadid” atamasi ilk marta Turkiyada Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo‘ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko‘rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi⁸⁷.

⁸⁵ Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

⁸⁶ "Jadidizm". *Ensiklopedik lug‘at*. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. b. 271.

⁸⁷ Ibragimov S.E. Jadidchilik harakati / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 2021. R. 120.

“Jadid” atamasi yangilik tarafdorlarini, yangilik g‘oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo‘llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo‘layotgan ulkan madaniy –ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo‘lsada, Turkiston o‘lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda, “gazeta o‘qig‘uvchilarni” mullalar “jadidchi” nomi bilan atar edilar⁸⁸.

Jadidlar Usmonli Turkiyadagi “Ganch (yosh) turk”lar tashkilotlari tasirida “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” degan nomlarda faoliyat olib borishgan.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O‘rta Osiyo, Kavkaz, O‘rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy ko‘tarilish madaniy-ma’rifiy harakat – “jadidchilik” sifatida namoyon bo‘ldi⁸⁹.

“Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg‘or ilm-fan, madaniyat-ma’naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikka, Chor Rossiyasining mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqaror etishga qaratilgan demokratik harakat edi”⁹⁰

Jadidchilarning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;

shariatni isloh qilish;

xalqqa ma’rifat tarqatish;

Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash;

Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;

barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

⁸⁸ Avloniy A. “Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild.T., “Ma’naviyat”, 1998 yil 288-bet”.

⁸⁹ Ibragimov S.E. Jadidchilik harakati / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 2021. R. 121.

⁹⁰ Manzarov Yu.X. Jadidchilik harakatining millat ma’naviyati va ma’rifatini ko‘tarishdagi o‘rni / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 11. 2022. P. 395.

Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalari g'oyalari bir tomondan o'sha davr uchun muhim bo'lgan demokratik g'oyalarni, ilm- fanni o'rganish, yangiliklar va texnika yutuqlaridan boxabar hamda bahramand bo'lish, tabiiy va boshqa ilmiy fanlarni rivojlantirish, so'z va fikr erkinligini joriy qilish, milliy davlatchilikni vujudga keltirish, mahalliy ziyolilar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida o'z milliy qiyofasini yo'qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviy-axloqiy taomillarni yanada kuchaytirish, milliy o'zlikni anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni mustahkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladilar.

Jadidchilik – yangilanish, yangilik tarfdori bo'lish, yangi zamonaviy maktab-maorifni targ'ib etuvchi g'oya sifatida Turkistonni feodal qoloqlik, xurofotlardan qutqazish, millat va Vatanni ilg'or taraqqiyot yo'lishga safarbar qilish orqali milliy davlat barpo etish, Konstitutsiya, parlament va Prezident boshqaruvi asosida ozod va rivoj topgan jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat maqomini berish, milliy armiya tuzish singari ulug' maqsadlardan iborat xarakat edi⁹¹.

Jadidchilik tom ma'noda ma'rifatparvarlik harakati ko'rinishidir. Ma'rifat tushunchasining lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir, yoki kishilar bilimi, ma'naviyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Maorif tushunchasi esa, tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlarni aks ettiradi.

Ma'rifatli kishi deganda fanning bir yoki turli sohalaridan ma'lum bilim va yo'nalishlarni egallagan degan mazmun kasb etadi. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak, ma'rifat bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish vositasidir. Ma'rifatparvar ma'rifat uchun kurashuvchi, bilim tarqatuvchi va beruvchidir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi asosan uch yo'nalishda olib borilgan⁹²:

⁹¹ Manzarov Yu.X. Jadidchilik harakatining millat ma'naviyati va ma'rifatini ko'tarishdagi o'rni / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 11. 2022. P. 393.

⁹² Ibragimov S.E. Jadidchilik harakati / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 2021. P. 122.

1. Yangi usul maktablarini ochish, ko'paytirish orqali.
2. Turli ma'rifiy jamiyatlar ochish orqali.
3. Umidli iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish orqali.

Jadidchilik harakatining faoliyati maktabdan, maorifdan boshlangan, so'ng matbuot, san'at va siyosatga o'tgan. 1884 yil Boqchasaroyda Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914) tomonidan dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabining ochilishi Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, maktab-maorifda inqilob yasadi. Uning bu xizmatlari 1927 yilda Toshkent okrug maorif xodimlari qurultoyida Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan "Jadid maktabi tashkil qilg'onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarining yetishtirgan kishilari edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoil Gaspirinskiy gazetasini o'qiydilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edilar"⁹³ deb e'tirof etiladi.

Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gaspirinskiy Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga o'lka musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Undan rad javobini olgach, 1893 yil Turkistonga o'zi keladi va Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi.

Shu tariqa, Turkistonda jadidlar tomonidan yangi maktablar ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. "Usuli jadid" maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, nujum, fanlari, rus, fors tillari kabi - jami 17 tagacha fan o'rganilishi shartlari ilgari surildi. 1899-yilda Shamsuddin domla Andijonda, 1901-yilda Saloxiddin domla Qo'qonda, va Abduqodir Shakuriylar Samarqandda birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar.

Jadidchilarning poydevori, tamal toshi – "usuli jadid" maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan,

⁹³ Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyozuz. Com.

bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so'nggi uchto'rt asr dunyo taqdirini boshqa o'zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi.

Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste'mol qilmaslik kerak. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg'izgina din ushlansa, dunyo qo'ldan ketadi. Faqat o'zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo'lmaydi. Yevropalashsak, o'zlik yo'qoladi. Bu ham fojia. Bu fojiani Behbudiy "Padarkush"da ko'rsatib beradi⁹⁴.

Jadidlar ta'limoti — o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti bo'lganligi olimlar tomonidan alohida qayd etilgan. Xususan, filolog olim, professor Begali Qosimov "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli kitobida quyidagicha fikr bildiradi: "... Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo'lgan qizg'in va hayajonli jarayonni tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o'z boshiga yog'ilgan har bir ofatni taqdir deb ta'bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko'tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini, anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar"⁹⁵.

Aynan shu jihatdan qaralganda Mahmudxo'ja Behbudiy xalqni ilm-ma'rifatli bo'lishga chorlab, jamiyatni dunyoga ochiq ko'z bilan qarashni, zamonaviy xo'jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko'rsatishni talab qilib, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat

⁹⁴ Ibragimov S.E. Jadidchilik harakati / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 2021. R. 126.

⁹⁵ Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. — 344 b.

boshqalarga poymol bo'lar"⁹⁶, degan haqqoniy fikrlari bilan xalqni uyg'otishga harakat qiladi. Taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatida I.Gasprinskiyning "usuli jadid"ini tinmay targ'ib qiladi. Hayotning turli sohalariga taaluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda qiziqarliroq, oddiyroq tarzda, xalq tilida yoyishga harakat qiladi.

Behbudiy 1913-yil "Oyina" jurnalida yozgan "Ikki emas to'rt til lozim" maqolasida til o'rganishga e'tibor qaratib, "Bank va sudxonalar, sud mahkamalari, notarius, temir yo'l, xulosa, zamonni paydo qilgan har bir yangi nimarsalarig'a muhtoj bo'lsak avvalg'i qadamda ruscha bilmoq lozim kelur... Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, xatto dini islom va millatg'a xizmat ilmsiz bo'lmaydur. ...Xulosa, bugun bizlarg'a to'rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy" deb ta'kidlab o'tadi⁹⁷.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Bu esa tarixning murakkab, mas'uliyatli davrida millatni, xalqni ma'rifatli qilish, ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qildi.

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. "Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998-yil 288-bet".

⁹⁶ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006.

⁹⁷ Behbudiy B. "Ikki emas, to'rt til lozim", "Oyina" jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademiya nashri, -2018yil 396-bet.

2. Ahmedov S., Rajabov Q. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: 2000-2005.
3. Behbudiy "Ikki emas, to'rt til lozim", "Oyina" jurnali, 1913-yil 10-avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr, - 2018-yil. 396-bet
4. Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston Strategiyasi. –T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - B.464.
5. Jabborova O.I. Jadid mutafakkirlari - ma'rifat kurashchilari / "Jaholatga qarshi ma'rifat: o'tmish va hozirgi zamon" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Buxoro 2020. B.131.
6. Ibragimov S.E. Jadidchilik harakati / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 2021. P. 120.
7. Manzarov Yu.X. Jadidchilik harakatining millat ma'naviyati va ma'rifatini ko'tarishdagi o'rni / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 11. 2022. P. 392.
8. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006
9. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyozuz. Com
10. Ensiklopedik lug'at. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.
11. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. — 344 b.
12. O'zbek sovet ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.

MANGULIKNING YORQIN YULDUZI

Isayeva M.R.,

O'R QKA Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasining Harbiy pedagogika sikli katta o'qinuvchisi, p.f.n., dotsent.

“Ishchi-dehqonlar yozg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmazlar...”

Abdulla Qodiriy.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi, yozgan asarlari, bosib o'tgan hayot yo'li haqida keng va atroflicha tushunchalar berilgan.

Tayanch so'zlar: Tavallud, chamasi, odob, tuzem, saboq, abadiy, taraqqiyot, jaded, bo'lajak, sarkotib, sho'ro.

Abdulla Qodiriy. O'zbek adabiyotining yirik vakili, qalami o'tkir yozuvchi, shoir, dramaturg, tarjimon bo'lib, o'zbek romanchiligi asoschisi edi. Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida tavallud topgan. Adibning otasi Qodirbobo xon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. Adib o'z tarjimai holidan shunday deydi:

“Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...tug‘ilg‘onman. Yoshim to‘qqiz-o‘nlarga borg‘ondan so‘ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o‘qib, keyin vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o‘n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo‘jayinim o‘zi savdogar kishi bo‘lub, o‘rischa yozuv-chizuv bilaturg‘on odamga muhtoj edi. Shu ta‘ma bo‘lsa kerak, meni o‘ris maktabga yubordi... 1912 yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so‘m barobariga prikazchik bo‘lub kirdim...” 1904-1906 yillarda bo‘lajak adib musulmon maktabida ta‘lim oladi. 1908-1912 yillarda rus tuzem maktabida, 1916-1917 yilda Abulqosim shayx madrasasida arab va fors tillaridan saboq oladi. 1924-1925 yillarda V.Ya Bryusov nomidagi Moskva adabiy kurslarida o‘qiydi. 1918 yil- eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi, 1919 yil - “Oziq ishlari” gazetasi bosh muharriri, 1920 yil- Kasabalar sho‘rosining sarkotibi, 1923-1926 yillarda “Mushtum” jurnali tashkilotchilaridan biri va tahrir hay‘ati a‘zosi sifatida faoliyat yuritgan. “Mushtum” jurnalida faoliyat yuritayotganda ba‘zi boylarning ayovsizlarcha xalqqa nisbatan qilayotgan zulmlarini fosh etib feletonlar yozar edi. Adib o‘z faoliyatini boshlar ekan tatarlardan chiqadigan gazetalardan xabar topadi. 1913 yilda o‘zbekcha “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyina” gazetalari chiqq boshlagach, adibda shularga gap yozib yurish fikri uyg‘ondi.

“Sadoi Turkiston” gazetasining 1914 yili 1 aprel sonida adibning ilk chiqishi “Yangi masjid va madrasa” nomli xabari bo‘ladi. Oktabr to‘ntarishlaridan keyingi ya‘ni 1917 yildan faoliyati asosan matbuot, ya‘ni publitsistika bilan bog‘liq. U 1919-1925 yillar oralig‘ida 300 ta turli maqolalar, publitsistik asarlar yaratgan. Abdulla Qodiriy jurnalistik faoliyati haqida: “Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo‘lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir...” deydi. Abdulla Qodiriy adib va shoir sifatida 1912 yillarda faoliyatini boshlagan. “To‘y” “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi she‘rlari “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz” hikoyasi uning ilk asarlaridir. Qodiriy shunday xotirlaydi: “1913 yilda chiqqan "Padarkush" ta‘sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg‘animni o‘zim ham payqamay qoldim, bu 1915 yilda bo‘lgan edi. Yana shu yilda teatrlarda

chiqib turg'on hikoya va ro'monlarga taqlidan "Juvonboz" otliq hikoyachani yozib noshir topilmag'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim...". Abdulla Qodiriy "Ahvolimiz" she'rini 21 yoshida yozgan. She'rda ko'tarilgan muammo o'zbek xalqi uchun hamon dolzarb. Adibning bu kabi she'rlari millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan. Muallif unda millatning zabun holatidan kuyunib so'zlaydi, uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga undaydi.

AHVOLIMIZ

Ko'r bizning ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulg'a sotamiz.
O'g'limizg'a na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak,
Na xudoni buyrug'i bulgan ulum o'rgotamiz.
Korimiz shundan iborat bo'ldi ushbu vaqtda,
O'ntadin bedona boqib yozu qish sayrotamiz.
Hamda har kun takyalarda nasha ko'knori chekib,
Bachchag'a kokil solib, oh-voh ila o'ynotamiz.
Qarimiz, boyonimiz, balki bu vaqt oqvoudamiz,
Nogahon ko'rsak agar bir besoqolni qotamiz.
O'rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi,
Biz ani dahriy sanab, to'fangcha birla otamiz.

Adibning "Uloqda" 1916 yilda yozilgan hikoyasi o'zbek realistik hikoyasining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanib, adib birin-ketin "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi", "Obid ketmon" kabi nasriy asarlarini yaratgan. 1926 yili "Mushtum" jurnalida Qodiriyning "Yig'indi gaplar" nomli hikoyasi bosilib chiqadi. Hikoya asosan tanqidiy ruhda bo'lgani uchun "aksilinqilobiy harakat qilganlikda" ayblanib qamoqqa olinadi. Adib o'zini mardonavor himoya qila oladi, shuning uchun qisqa muddatdan so'ng ozod etiladi. Shundan so'ng ham tanqidiy asarlar, hajviyalar yozishdan to'xtamaydi. Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotining

roman janridagi ilk asari orqali o'zbek romanchiligiga asos solgan. 1922 yil "Inqilob" jurnalida romandan boblar e'lon qilinadi. 1924-1926 yillarda har bir bo'limi alohida kitob holida nashr etiladi. Roman orqali Abdulla Qodiriy xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, "tariximizning eng kir, qora kunlari" "xon zamonlari"ning mudhish tarixiy jarayonlari haqida so'z ochib, bundan xalqqa saboq bermoqchi bo'ladi. Adib taraqqiyparvar ziyolilar qatorida turib millat taqdiri ustida astoydil qayg'uradi, najot yo'lini esa adabiyotda ko'rgani bois milliy ruhdagi asarlar yaratishga kirishadi. "O'tkan kunlar" romanining ma'no mundarija g'oyasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirilar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Muallif asar orqali Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini gavdalandirgan. Roman to'qima qahramonlarining hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg'unligi jihatidan ham, tilining nafosati jihatidan ham o'zbek adabiyoti xazinasining eng durdona asarlaridan biri bo'lib xalq qalbi va yuragidan joy oldi. Adib qamoqqa olingandan so'ng, uning asarlari "zararli" deb topildi. O'tda yoqildi, kutubxonalardan yo'qotildi, o'qish taqiqlandi. Kimning qo'lida "O'tkan kunlar" romanini ko'rib qolishsa, darhol qamashdi.

1969 yili roman asosida rejisser Yo'ldosh A'zamov tomonidan film suratga olingan. "O'tkan kunlar" filmi ekranlarga chiqqanda butun O'zbekiston axli bu filmni butun qalbi va yuragi bilan, hayrati bilan ko'rdi. Xalq orasida yangi tug'ilgan chaqaloqlarga Otabek va Kumush ismlari qo'yila boshlandi. Belgiyada o'tkazilgan kinofestivalda "O'tkan kunlar" filmiga shunday ta'rif berganlar: "Biz bunday milliy qadriyatlarga sug'orilgan filmni ko'rmaganmiz". Asarning markaziy qahramonlari bo'lmish Otabek va Kumush hamda Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Zaynab kabi obrazlar o'zbek adabiyotining tom ma'noda yorqin qahramonlar namunasidir. Roman to'qima qahramonlarining hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg'unligi jihatidan ham, tilining nafosati jihatidan ham o'zbek adabiyoti xazinasini eng durdona asarlaridan biri bo'lib xalq qalbi va yuragidan joy oldi. Adib qamoqqa olingandan so'ng, uning asarlari "zararli" deb topildi. O'tda yoqildi, kutubxonalardan yo'qotildi, o'qish taqiqlandi. Kimning qo'lida "O'tkan kunlar"

romanini ko'rib qolishsa, darhol qamashdi.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub ikkinchi yirik roman "Mehrobdan chayon" 1928 yili fevralda yozib tugatilgan. 1929 yil Samarqand shahrida bosilib chiqqan. Bu roman mavzui ham "O'tkan kunlar" mavzuiga monand "xon zamonlari" davridagi o'zboshimchaliklar tasvirlangan. Asarning nomi ham ramziy, chunki unda adib ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlab sajdagohdan chiqqan, unga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, e'tiqodsiz, hasadgo'y kishilarga nishonadir. Maktabdor Solih mahdumning yumoristik obrazi yozuvchining jiddiy yutug'i sifatida e'tirof etilgan. Romanda Anvar va Ra'noning sevgi sarguzashtlari shoirona tarzda tarannum etiladi. Go'zallik, halollik, oliyanoblikka intiluvchi Ra'no xalq fe'l-atvoriga xos, ajoyib qiz, samimiy, toza niyatli, ma'nan sodda va ochiq. U Anvarni yorqin sevgi ila beg'araz va sadoqat bilan yaxshi ko'radi. Anvar-mardlik timsoli, adolatli, cheksiz vijdon egasi. "Mehrobdan chayon" romani asosida ham film suratga olingan. Adib qizg'in yozuvchilik faoliyati bilan birga tarjima bilan ham shug'ullangan. U 1928 yili tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning "Fizika" asarini, rus yozuvchisi Nikolay Gogolning "Uylanish", Anton Chexovning "Olchazor" asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qiladi. 1934 yilda Qozon shahrida nashr etilgan "To'la ruscha- o'zbekcha lug'at"ni tuzishda ishtirok etadi. Abdulla Qodiriyning o'z asarlari ham bir qancha dunyo tillariga tarjima qilingan. Uning "O'tkan kunlar" romani 1928 yildayoq ozarbayjon tiliga, "Mehrobdan chayon" asari 1935 yilda tojik tiliga tarjima qilinadi. Abdulla Qodiriyning asarlari ko'plab Sharq va Yevropa mamlakatlarida e'tirof etiladi. Kitoblari hamon rus, qozoq, uyg'ur, nemis, tatar, arab, italyan, ingliz tillariga tarjima qilib kelinmoqda. Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrda "xalq dushmani" sifatida hibsga olinadi. 1938 yilning 4 oktabrida yozuvchi 9 oylik xo'rliklardan so'ng Cho'lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birgalikda otib tashlanadi. Toshkentdagi Xo'ja Alambardor Kamolon qabristoniga dafn etiladi.

1957 yilda Abdulla Qodiriy rasman oqlandi. Ammo uning otib tashlanganligi haqidagi ma'lumot o'limidan so'ng oqlanganligi haqidagi ma'lumot kabi uzoq yillar mobaynida sir saqlandi. Abdulla Qodiriyning Habibullo, Adiba, Anisa, Nazifa,

Ma'sud ismli farzandlari bo'lgan. Abdulla Qodiriyga qo'yilgan "xalq dushmani" tuhmatidan so'ng, uning to'ng'ich o'g'li Habibullo Qodiriyga 1945 yil 25 kuni "xalq dushmanining o'g'li" aybi qo'yiladi. Uzoq qiynoq va so'roqlardan so'ng uni Sibirga surgun qilishadi. 1953 yil Stalin vafotidan so'ng, Habibullo Qodiriy ozod qilinadi, biroq 2 yil Qozog'istonning Qarag'anda viloyatida qolib ketadi, chunki Toshkentga qaytishga ruxsat berilmaydi. 1955 yil Qodiriyning o'g'li 37 yoshida nihoyat Toshkentga qaytadi. Abdulla Qodiriy so'nggi iltijo sifatida askarning tunuka idishidagi suvni olib o'sha bir kaft suv bilan tahorat oladi va ikki rakat nafl namozini o'qib keyin uni otaverish mumkinligini aytadi. Qodiriy o'limdan qo'rqmagan, kiprik ham qoqmagan. Bu xotiralar adibning "Men haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman, agar otmoqchi bo'lsalar ko'kragimni kerib turaman" degan so'zlarini isbotlaydi.

1991 yilda Abdulla Qodiriyga "Mustaqillik" ordeni, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Toshkent Davlat madaniyat institutiga, madaniyat va istirohat bog'lariga, davlat muassasalari hamda metro bekatiga Abdulla Qodiriy nomi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustambek Shamsutdinov. "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2020.
2. D.D.Baxronov. "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2011.
3. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov. "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2013.

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING MILLIY MAORIF RIVOJIDAGI O'RNI

Raximov S. K.,

*O'R QK Akademiyasi o'quv jarayonini
rejalashtirish va nazorat qilish
bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik*

Madaniyat, ijtimoiy-siyosiy sohada tub burilish yasagan, jadidchilik harakatining tashkilotchilaridan biri Munavvar qori Abdurashidxon o'g'lidir.

“...bugun Ovrupa va Amriqo xalqlari havoda uchar, dengiz ostida suzar, dunyoning eng narigi bo'laklari vositasiz xabarlashar bir holg'a, bir madaniyatga yetishdilar. So'ngralari Ovro'pa xalqi maorif va madaniyat yo'lida ishladi, bu holg'a yetishdi; biz tushdik, uxladik, bu holg'a yetushduk. Bugungacha Ovrupa xalqi osmong'a uchar ekan, bizda soch soqol nizolari, ovrupolilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda jug'rofiya va trabiyyot o'qitish, o'qitmaslik ixtiloflar... davom etadi⁹⁸”. Millat ma'rifatparvarlaridan biri Munavvar qori Abdurashidxonov “Turkiston” gazetasining 1923 yil 4 martida e'lon qilingan “Nashri maorif” uyushmasining ahamiyati” nomli maqolasida yuqoridagi iqtibosni keltirib, Turkistonda istibdodga qarshi kurash va maorif masalalari XX asr boshlarida qay ahvolda ekanini bildirib o'tadi.

U o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy-ozodlik harakatining Toshkentdagi “Sho'roi Islomiya”, Qo'qondagi “Turkiston muxtoriyati” tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

Toshkentning Shayxovand Tahir, keyinchalik shaharning boshqa turli dahalarida birinchi “usuli jadid” maktablari ochildi. Munavvar qori Abdurashidxonov bunday maktablarning kundalik o'kuv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitirish imtihonlarini uyushtirishgacha, “usuli savtiya” metodini iqtidorli yosh o'qituvchilarga o'rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashgacha va yangi darsliklar yaratishgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni boshqardi.

⁹⁸ Munavvar qori Abdurashidxonov. “Turkiston” gazetasi. 1923 yil 4 mart.

Munavvar qori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida o'zi tuzgan o'quv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtihonlar tashkil qilgan. Imtihonlarga o'quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din pesh- volarigacha, hatto o'lkada katta e'tibor qozongan olimu shoirlarni, ma'rifatli boylarni ham taklif qilgan.

Turkistonda maorifni yuksaltirish va shu yo'l orqaligina millatni zulmdan qutqarib, oydin, yorug' yo'llarga chiqarishni niyat qilgan Munavvar Qori Shunday yozadi:

“Turkistonning hayoti, Turkistonning najoti yolg'iz maorifga va madaniyatning taraqqiysi esa butun xalqning “Nashri maorif” uyushmalari atrofiga to'planmog'iga bog'liqdir. Shundagina biz madaniy millatlar qatoriga kira olamiz, Shundagina madaniyat dunyosida o'z huquqimizni ola olamiz”⁹⁹.

1913-14 o'quv yilida maktabda yuqori sinflar (5 va 6-sinflar) ochila boshlaydi. To'rtinchi sinfdan rus tili ham o'quv fani sifatida o'rgatiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab bo'lmasligini yaxshi tuShunib yetgan edi. U “Bizni jaholat-jahl murakkab” maqolasida “Turkistonda maktab va madrasa yo'q emas, bor, ammo ular benizom va beusuldir.. Turkistonlik yoshlarning tarbiyasi va ta'lim olishiga jiddiy e'tibor berilmayapti, millatning istiqboliga loqayd va beparvo qaralmoqda”, deb tanqid qilardi. Munavvar qori farzandlarining taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas'uliyat borligini ta'kidlaydi. U kuyinib yozadi: “... ilm berishni o'ylamay, jonidan shirin bolalarini ko'cha-bako'cha kezdirib, bechora mas'umni aziz umrini jaholat otashila yondig'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur.” “... Boshqalari o'z farzandlarini aslo maktabga bermay, orqalaridan ergashturub ruslar eshikida o'zlari kabi xizmatchilikg'a o'rgatub dunyoi va oxiratni saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qo'ymoqdin hech bir ibo qilmaslar. Ba'zi azizlarimiz bordurki, o'g'lini qo'lidin tutub maktabg'a olib borur. Muallimdan talab qilurki, “Taqsir, Shu o'g'limning go'shti sizniki, ustuxoni bizniki, bir iloj qilub tezlik ila

⁹⁹ Vatanparvar gazetasi.2021 yil 11-iyun.

naqd va nasiya yozmoqni o'rgatib berursiz" der. Mana, otalarning farzandlari taqdiriga, istiqboliga bo'lgan munosabati.

Munavvar qori maktab o'qituvchilarining (domlarning) ham qiyofasini tavsiflab, aksar o'qituvchilar - badxulq, zolim, bolalarni kaltaklashadi, ya'ni "Muallim afandi qo'lida zo'r bir tayoq, qaysi bolani boshi harakatdan qolsa, ushbu tayoq Shu bolani boshida o'lur. Ammo o'qug'on-o'qumag'on ila hech kimni ishi yo'q. Boshni qimirlatib o'tursa, kifoya qilur. Hattoki o'tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarni tayoqini ostida vafot qilmoq ham voqe' o'ldi. Bu tariqa zolim va badxulq, johil muallimlarni tarbiyasida o'skan bollardan nima umid qilmoq kerak"...

Munavvar qori o'qitishning bunday yaramas usuli qanday oqibatlariga olib kelishi haqida kuyunib yozadi: "... boshqa viloyatlarda xat bilmayturg'on kishi yuzdin o'n bo'lsa, Turkiston viloyatida yuzdin to'qsondir". Bunga bois maktabda o'qitiladigan dars va kitoblarning usul (metodika) jihatidan maqsadga muvofiq emasligi, muallimlarni pedagogik talablarga javob berolmasligi kabilardir" deydi.

Munavvar qori maktab tartib qoidalariga qat'iy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan.

U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh juda demokratik va insonparvarlik ruhida bo'lishi lozim, deydi.

Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm-fanni o'rganishni targ'ib qiladi. Masalan, u 1916 yili Toshkentda bo'lib o'tgan yig'ilishda nutq so'zlab Shunday deydi: "O'zbek ziyoli bolalarining Germaniyaga yuborib o'qitishga juda muhtojmiz, bolalar o'qub, ilm tahsil olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar".

Mahalliy pedagoglarning "usuli savtiya" maktablarini ochishi chor ma'muriyati tomonidan qattiq nazorat ostiga olindi. Shu munosabat bilan 1909 yilda Turkiston okrugi qoshida maxsus komissiya tomonidan maxsus "Farmoyish" ishlab chiqildi. "Farmoyish" Shunday masalalarni o'z ichiga olgan edi:

Mahalliy maktablar chor ma'muriyatining maxsus ruxsatnomasi bilan ochiladi;

Mahalliy maktablarni ochish va unda o'qitish siyosiy jihatdan to'la ishonchli bo'lgan Rossiya fuqarolarigagina ruxsat etiladi;

Mahalliy maktab qaysi millat bolalari uchun ochiladigan bo'lsa, uning o'qituvchilari ham o'sha millatga mansub bo'lishi shart;

Mahalliy maktablarda faqat Rossiya senzurasini ruxsati bilan chop etilgan kitoblarga o'qitiladi;

Ma'muriy politsiya idoralarida ishlovchi mas'ul shaxslar zimmasiga barcha mahalliy musulmon maktablarini aniq ro'yxatga olib borish va ro'yxatdan o'tmagan maktablarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yimaslik vazifasi yuklatiladi;

Maxsus ruxsatsiz maktab ochgan shaxslar maktab ochish va o'qituvchilik ishidan abadiy mahrum etiladi;

Mahalliy maktablardagi o'qitish ishlari va ularda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat qilib turish mahalliy ma'murlarga hamda maktab nozirlariga yuklatiladi¹⁰⁰.

Farmoyishning hamma moddasi mahalliy millat farzandlari uchun ochiladigan maktablarga bir katta to'siq vazifasini bajaradi. Uchinchi moddadagi ta'kidga ko'ra o'quvchilar qaysi millatga mansub bo'lsa, maktab ochuvchi muallim ham o'sha millatga mansub bo'lishi kerak.

Munavvar qori 1909 yili Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boyning raisligida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi.

Bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilarga, o'quvchilarga yordam ko'rsatadi va bu bilan cheklanmaydi, u Rossiya va Turkiyadagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham Shug'ullandi.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Shu jamiyatning yordami bilan Mirmuhsin SHermuhammedov Ufadagi "Oliya" madrasasida o'qigan.

Turkistonda keng qamrovli zamonaviy xayriya jamiyati ta'sis qilish masalasi birinchi bor 1906 yili "Taraqqiy" gazetasida kun tartibiga qo'yilgan edi. Ana

¹⁰⁰ О'зР МДА. И-47- фонд, 1 - ро'йхат, 926 мш, 109 - varaq.

Shunday keng qamrovli musulmon hayriya jamiyati oradan 3 yil o'tib, 1909 yili 15 iyul', ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 10 avgustda Toshkentda "Jamiyati Imdodiya" nomi ostida ta'xis qilindi. Ushbu muassasa tashkilotchilari boshida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonov turdi¹⁰¹.

"Jamiyati Imdodiya" ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1) mahalliy xalqning barcha qatlamlari ta'lim olishlari uchun turli maktablar tashkil etish;

2) yo'qsil bolalar va yetimlarga g'amxo'rlik qilish;

3) turli boshpanalar tashkil etish;

4) musulmon talabalariga moddiy yordam ko'rsatish va hokazo.¹⁰²

"Jamiyati Imdodiya" asosan a'zolik badalidan daromad qildi. Jamiyat ta'xis etilganidan boshlab bir yarim yil davomida yangi a'zolar jalb qilish va keyingi faoliyatini yurgizish uchun mablag' yig'ishdan boshqa hech qanday faoliyat olib bormadi. Turkistonlik jadidlar Ichki Rossiya musulmonlari amalga oshirgandek sadaqa va zakotni xayriya jamiyati foydasiga jalb qilishga muvaffaq bo'la olmadilar. SHaharning katta boy va savdogarlari jamoat ishlariga aralashmasdilar va bunday xayriya ishlariga mablag' sarf qilishdan o'zlarini tortdilar¹⁰³.

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, u ko'p ulug' adiblarning asarini mutolaa qilgan. Munavvar qori o'lkaning qoloqligi sababini axtarar ekan: "Bizning Turkiston mamlakati tuproq, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan bo'la turib, na uchun o'zimiz bundan foydalana olmaymiz?" deb afsus-nadomatlar qiladi.

U insonning ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqining erkini muhofaza qilaolishini, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan o'z asarlarida ifoda etadi. "So'nggi ikki yil ichida,- deydi u, -Turkiston xalqining boshina kelgan falokatlar har biri yolg'iz nodonlik va maorifsizlik orqasidangina bo'lganligi har kimga ma'lumdir. Kelajakda bunday

¹⁰¹ Muhammadjonov Mo'minjon. Turmush urinishlari (bir mullabachchaning xotira daftari). - Toshkent: O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1926. -B.252-253.

¹⁰² Otchet musulmanskogo obshestva "Pomosh" v Tashkente // TVG. 1911. №9.

¹⁰³ M.I. [Tashkand Jamiati Imdodiyasi] // Tarjimon. 1910. №7.

falokatlardan qutulmoq va Turkiston xalqi tilagan ravishda idora qilmoq va dushmanlardan saqlamoq yolg'iz maorif vositasi ilagina mumkindir”, deydi u.

Jadidlar O'zbekistonni boshqaruvida hamon chorizm davridagidek yevropaliklar asosiy o'rindalıkları, davlat, hukumat va mahalliy rahbarlik organlarini mahalliyashtirish amalda emas qog'ozda bajarilayotganligini aytishga jur'at qilganlar.

Munavvar qori Abdurashidxonov mahalliyashtirish g'oyasini yevropaliklarning o'zlari diskreditatsiya qilishmoqda, milliy kadrlarni avval tasdiqlaydilar, so'ngra munosib emas, deb haydaydilar, munosib kadrlarni tayyorlamaydilar, ishni ko'zini biladiganlarni esa “mafkurasi” uchun chetlashtiradilar, yevropaliklarga hech qanday chegara qo'yilmaydi, o'zbeklarni nomiga ishga jalb etayotgandek, aslida ularni o'z odamlari bilan to'ldirishni ko'zlaydilar, deb aytgan.

Ha, bu Munavvar qorining imon-e'tiqodidan, vijdonidan dalolat edi. Zero, toshkentlik jadidlar-taraqqiyparvarlar millatni illatdan, asoratdan ma'rifatgina qutqaza olish haqidagi xulosaga keladilar.

Umuman, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqlol uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida shuhrat qozondi.

O'z xalqini, vatanini joni-dilidan sevgan Munavvar qori Abdurashidxonov shaxsga sig'inishning dastlabki qurbonlaridan biri bo'ldi. U avval Toshkentda, so'ng Moskvada tergov qilinib, otib o'ldirishga hukm etiladi.

JADIDLAR TOMONIDAN ILGARI SURILGAN G'OYAVIY-SIYOSIY, IJTIMOYIY-MA'RIFIY VA AHLOQIY-HUQUQIY QARASHLARI YANGI O'ZBEKISTONNING BARPO ETISH STRATEGIYASI BILAN HAMOHANGLIGI

Yulchiyev A.M.,

Nizomiy nomidagi TDPU

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Erkinov N.E.,

Chaqiriqqacha Harbiy Ta'lim

Fakulteti 1- kurs, 103-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola jadidlar harakati va ularning g'oyalarning Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi. Tadqiqot jadidlarning asosiy g'oyalari va ularning zamonaviy O'zbekistonga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Maqolada tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va mantiqiy tahlil usullari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, jadidlarning ilg'or g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va Yangi O'zbekistonni barpo etishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: jadidlar, Yangi O'zbekiston, ma'rifatparvarlik, islohotlar, taraqqiyot

KIRISH.Jadidchilik - bu XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, jumladan O'zbekistonda paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy harakat [1]. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, xalqni ma'rifatli qilish, milliy o'zlikni anglash g'oyalari ilgari surgan. Ular o'sha davrdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, jamiyatni taraqqiy ettirishni o'z oldiga maqsad qilgan edilar [2].

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jadidlarning orzulari va intilishlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni qabul qilingani [3] va "Yangi O'zbekiston" g'oyasi ilgari surilgani buning yorqin dalilidir. Shu bois, jadidlarning ibratli hayoti va boy merosi bugungi avlod uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada jadidlarning g'oyalari va faoliyati Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi, ularning qarashlarining bugungi kun voqeligi bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, mantiqiy tahlil kabi usullardan foydalanildi. Jadidlar harakati va ularning faoliyati haqidagi ilmiy manbalar, arxiv hujjatlari o'rganildi, soha mutaxassislari bilan suhbatlar o'tkazildi.

Mavzu bo'yicha A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat, Cho'lpon kabi jadid mutafakkirlarining asarlari, ular haqidagi tadqiqotlar [4-7] hamda zamonaviy olimlarning ilmiy ishlari [8-10] tahlil qilindi.

NATIJARLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Jadidlar ilgari surgan g'oyalar - ma'rifatparvarlik, milliy taraqqiyot, jamiyat hayotini isloh qilish kabi masalalar bugun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ular Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlari bilan hamohangdir.

Jadidlar ta'lim tizimini isloh qilish, darsliklarni yaratish, gazeta va jurnallar chop etish orqali xalqni ma'rifatli qilishga intilganlar. Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasidagi tub islohotlar, matbuot erkinligi jadidlar orzularining ro'yobi deyish mumkin.

Ular milliy o'zlikni anglash, ona tilini rivojlantirish kabi masalalarni ko'targanlar. Bugungi kunda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini oshirish, milliy qadriyatlarni tiklashga qaratilgan sa'y-harakatlar ularning g'oyalarini davom ettirishdir.

Jadidlar jamiyatni demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligini ta'minlashni talab qilganlar. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar mazkur yo'nalishda muhim qadamlardir.

Ular milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, jahon bozorlariga chiqishga intilganlar. Bugungi kunda "Xaridlar mahalliy mahsulot" tamoyilining joriy etilgani, tadbirkorlikning rivojlantirilishi jadidlarning iqtisodiy qarashlari bilan uyg'undir.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Jadidlar harakati va ularning g'oyalarining Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan uzviy bog'liqligini tahlil qilish bir necha muhim jihatlarni ko'rsatadi.

Birinchiidan, jadidlarning asosiy maqsadi - jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiy ettirish g'oyasi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. "O'zbekiston-2030" strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi [11] aynan shu maqsadlarni ko'zlaydi. Ya'ni, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi tamoyillar ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa jadidlar ilgari surgan g'oyalarning mantiqiy davomidir.

Ikkinchiidan, jadidlar ma'rifatparvarlikni milliy taraqqiyotning asosiy omili deb bilganlar. Ular ochgan yangi usul maktablari, nashr etgan gazeta va jurnallari orqali xalqni ilm-ma'rifatli qilishga intilganlar. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, xususan, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, 11 yillik majburiy ta'limning joriy etilishi, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish kabi sa'y-harakatlar ham ma'rifatparvarlik g'oyalarining natijasidir.

Uchinchiidan, jadidlar milliy o'zlikni anglash, milliy til va adabiyotni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor berganlar. Ular "Tarjimon", "Turon", "Sadoi Turkiston" kabi o'nlab gazeta va jurnallarni chop etish orqali ona tilini yanada boyitish, milliy adabiyotni yuksaltirishga hissa qo'shganlar. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining davlat tili maqomini olishi, lotin yozuviga o'tish kabi jarayonlar ham til masalasining nechog'lik muhim ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni tiklash, o'zbekona urf-odatlar, an'analarni yanada rivojlantirish borasidagi ishlar ham jadidlarning milliy o'zlikni anglash g'oyasi bilan hamohangdir.

To'rtinchiidan, jadidlar iqtisodiy mustaqillikka erishish, milliy sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish tarafdori bo'lganlar. Ular chet el sarmoyasini jalb qilish, aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish kabi masalalarni ilgari surganlar. Hozirda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi chora-tadbirlar ham iqtisodiy mustaqillik uchun muhim omillardir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ko'p jihatdan jadidlarning orzu-intilishlari,

g'oya va qarashlarining ro'yobga chiqishidir. Boshqacha aytganda, Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasining asosiy yo'nalishlari jadidchilik harakati bilan chambarchas bog'liq. Bu esa tarixiy tajribani o'rganish, undan to'g'ri xulosalar chiqarishning nechog'lik muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, jadidlar o'z davrining ilg'or kishilari bo'lib, ular millat va Vatan taqdiri haqida qayg'urganlar, xalqni ma'rifatga chorlash orqali ozod va obod jamiyat barpo etishni orzu qilganlar. Ularning bu ezgu intilishlari va sa'y-harakatlari o'z samarasini berdi - mustaqillik yillarida milliy davlatchiligimiz qayta tiklandi, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi - jadidlar orzusining mantiqiy davomi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki unda mamlakatni har tomonlama - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarni jadal rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa aynan jadidlarning orzu-umidlari, kurashlarining samarasi o'laroq ro'yobga chiqayotganidan dalolatdir.

Shu o'rinda ulug' bobokalonimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" [4], degan mashhur so'zlarini eslash joizdir. Darhaqiqat, bugun yurtimizda ta'lim-tarbiya, ilm-fan, innovatsiyalar rivojiga katta e'tibor qaratilayotgani ushbu masalaning naqadar dolzarb va hayotiy ekanini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jadidlar harakati va ularning millat ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlari, orzu-intilishlari Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi muhim omillardan biridir. Ularning boy ma'naviy merosi bugungi kun uchun ham ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shu boisdan, jadidlar hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, ularning asarlarini keng targ'ib qilish, yoshlarimizga yetkazish muhim vazifalarimizdan biridir. Zero, tarix saboqlari insoniyat uchun hamisha foydalidir. Jadidlar qoldirgan ma'naviy meros esa xalqimizni birlashtiruvchi, yurt ravnaqi va istiqboli yo'lida safarbar etuvchi bebaho boyligimizdir. Uni asrab-avaylash va yanada boyitish barchamizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xudoykulov, M. (2015). Jadidchilik harakati: vujudga kelishi, maqsadi, vazifalari va asosiy bosqichlari. Tafakkur ziyosi, 3(2), 81-85.
2. Alimova, D. (2018). Istiqlol davri tarixnavisligida jadidchilik harakatini o'rganish masalalari. O'zbekiston tarixi, (3), 3-15.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. Avloniy, A. (2006). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'zbekiston.
5. Behbudiy, M. (2018). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Fitrat, A. (2010). Tanlangan asarlar. 3-jildlik. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Cho'lpon. (2018). Asarlar. 4 jildlik. Toshkent: Akademnashr.
8. Rajabov, Q. (2019). Jadidchilik va istiqloq. Toshkent: Akademnashr.
9. Qosimov, B. (2002). Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma'naviyat.
10. Boltaboev, H. (2007). Fitrat va jadidchilik. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841077>

UMUMTA'LIM MAKTAB DARSLIKLARIDA JADID ADBIYOTINING O'QITILISHI

Nuralieva A.,

*O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek
adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi*

Yusupova N.,

*O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek
adabiyotshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida 5-11- sinf Adabiyot darsliklarida jadid adabiyoti namunalari o'qitilishi, tutgan o'rni, o'qitishning pedagogik va metodik qirralarini tadqiq etish. Jadid adabiyoti namunalari o'qitishning hozirgi holati, o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik tamoyillari va keltirilgan namunalarning tahlili to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *umuta'lim maktablari, 5-11-sinf darsligi, jadid adabiyoti namunalari, ijodkor jadedlar, o'rganilish, o'qitilish, talqin, tahlil.*

Аннотация: В данной статье исследуется преподавание образцов современной литературы 5-11 классов в общеобразовательных школах, их роль, педагогические и методические аспекты преподавания. Обсуждается современное состояние преподавания на примерах современной литературы, научно-методические принципы повышения эффективности обучения, анализ приведенных примеров.

Ключевые слова: *общеобразовательные школы, учебники 5-11 классов, джадидская литература, преподавание, интерпретация, анализ изучени, преподавание.*

Istiqloq yillarida yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarni to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi. Ayniqsa, bu borada tadqiqotlar olib borish ilmiy jamoatchilik zimmasidagi katta burch ekanini juda yaxshi ma'lum.

Jadidlarning asarlarida diniy-ma'rifiy g'oyalar, jumladan islom tarixini o'rganish masalasiga juda muhim jihat sifatida qaralgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ongu shu'urini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta². Jumladan, 1892-yili I.Gasprali Turkiston o'lkasida «usuli jadid» maktablarini ochishga izn va yordam so'rab general-gubernatorga yozgan xati javobsiz qoladi. 1901-yili Munavvar qori, 1904-yili Avloniyning yangi maktab ochish haqidagi arizalari rad etiladi. Jadid

ma'rifatparvarlarining milliy o'zlikni anglash borasidagi muhim ishlaridan biri yosh avlod ma'rifatida diniy ta'limga alohida e'tibor qaratishi bilan belgilanadi. Avvalambor, diniy ruhda yosh avlodning xat-savodini chiqarish, diniy e'tiqodni mustahkamlash, din tarixini bilishga alohida diqqat qildilar. Birgina o'quvchilar uchun islom dini tarixini o'rgatishga mo'ljallangan bir qator darsliklar yaratildi. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Havoiju-diniya", Abdulla Avloniyning "Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom", Abdurauf Fitratning "Muxtasar islom tarixi" kabi darsliklari shular jumlasidandir. Jadidchilik harakatining dastlabki davrida Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy vakillari yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildiki, yerli aholini bu xildagi tahqirlash hollari mustamlakachilarning bedodligini yaqqol ko'rsatardi.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida mazkur harakat rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoyilarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar

ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallarda chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va mutaassibona diniy xurofotdan ozod etish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev (Ubaydulla Xo'jaev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadiriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi. Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, jug'rofiy qamrovi va yo'nalishiga ko'ra, uchga bo'linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidlar chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomiga yopishtirilgan tavqi la'nat va soxta yorliqlar olib tashlanib, ularning asl nomlari qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning boy ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, A.Avloniyning ko'p jildli, Behbudiy,

Sidqiy Xodayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning shuningdek, Fayzulla Xo'jaev, Munavvarqori, P.Yusupovning asarlari alohida chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan «Unutilmas siymolar» jadidchilik harakatining namoyandalari» albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning serqirra faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi. 1999-yil 16-18- sentyabrda Toshkentda "Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqloqchilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plagan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi. Jadidlarga qadar madrasalar ibtidoiy, rushdiy va oliy madrasalarga bo'lingan. Oliy diniy maktab bo'lgan madrasalarda diniy bilimlar, xususan, islom tarixi, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi, mantiq, adabiyot tarixi, tabiiy ilmlardan dars o'tilgan. Uning o'quv rejalari vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turgan. Masalan: XV asrning 30-40- yillarida Samarqand va Hirot madrasalarida dunyoviy bilimlar: matematika, astronomiya, musiqa kabi fanlar ham o'qitilgan.

Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan: birinchi bo'limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob – arab tili va qonunchilik o'rgatilar edi. Bu bo'lim talabasi 9-10 yil o'qigan. Ikkinchi bo'limda qonunchilik, ilohiyot, (qonunchilik), mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati kalom o'qitilgan. Unda 7-8 yil o'qishgan. Uchinchi bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar berilgan. Maktab va madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba'zi domlalarining xotinlari – otinoyilar qizlarni ham o'qitish bilan shug'ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab va fors-tojik tillarida olib borilardi.

Musulmon maktablarida ta'lim tizimi 5 toifaga bo'lingan edi. Quyi maktab – bu maktablarda o'g'il bolalarga savod o'rgatishgan (4 yil). Xalilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o'rgatilgan. Qorixona - Qur'on yod olingan. Madrasa. Maktab internat – o'rta madrasa. Bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o'qitilib, o'rta ma'lumot berilgan.

Bugungi kunda shu yo'nalishdagi tadqiqotlarga e'tibor qaratsak, «Islom tarixi» bo'yicha hanuzgacha jahon fanida o'z yechimini topmagan muammolar mavjudligi ko'ramiz. Ushbu yo'nalishdagi darsliklarni yaratishda qiyosiy dinshunoslik nuqtai – nazaridan yondashishga harakat qilinmoqda. Qiyosiy dinshunoslik fani ikki yo'nalish yoki ko'rinishga ega bo'lib, ular G'arb (Ovrupo) va Sharq (arab-musulmon) qiyosiy dinshunosligi. G'arb qiyosiy dinshunosligining asosiy qoidasiga ko'ra, dinlar, diniy tafakkur ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida evolyusion, ya'ni tadrijiy taraqqiyotdadir. Shunga muvofiq har bir dinning tarixi bor, uni tarixiy-tahliliy usulda o'rganish mumkin.

Mamlakatimizning ta'lim tizimi, ya'ni maktab ta'limi har jihatdan intellektual rivojlangan, jismonan sog'lom, ma'naviy pok, axloq tarbiyalangan bitiruvchilarni yetishtirib chiqarish davr talabidir. Shaxsni barkamol qilib tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komilikka yetaklash yo'llari, qonun va qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma'rifiy va ma'naviy komilikka erishishi bir qancha omillarga bog'liq va bu omillardan biri va asosiysi tarbiyadir. Inson tarbiyasiga oid g'oyalar, qoida va qonunlar dastlab adabiyotimizning go'zal namunalari bo'gan qissalarda, pandnomalarda, yozma yodgorliklarda hamda hadislarda asoslab berilgan. Hadislarda “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz” kabi g'oyalarning ilgari surilishi tarbiyaning inson kamoloti uchun naqadar zarurligi, ot-ona, oila, qarindoshlar hamjihatligi, ilm, bilimdonlik, mehnatsevarlik, vatanga cheksiz muhabbat kabi sifatlar ulig'langanini ko'rsatadi. [Z.Ismoilova. pedagogika]

Erk kuychisi Abdulhamid Cho'lponning ta'biri bilan aytganda: “Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik)

ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldur. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir". [Cho'lpon]

Yosh avlodga mutolaa jarayonida tafakkur qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, estetik zavq olish, badiiy asar qahramonlarini atroflicha tahlil qilishni, o'z mulohaza va mushohadalari natijasida o'zini tarbiyalab, komilikka intilishni o'rgatib borish maktab ta'limida adabiyot darslari orqali amalga oshiriladi.

Umumta'lim maktablarining adabiyot darsliklariga kiritilgan jadid adabiyoti namoyondalari tomonidan yaratilgan asarlar o'quvchi shaxsini kamol toptirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki jadid adabiyoti to'lig'icha erk va ozodlikni kuylar ekan, ularda sof insoniy tuyg'ularning tarannum etilishi, bayon etilgan voqeliklarning real hayotdan olinganligi, qahramonlarning ezgu orzu-maqсадlar sari intilishlari, asar mualliflari tomonidan ijtimoiy tenglik, adolatli davlat boshqaruvi, inson haq-huquqlarining poymol etilmasligi kabi g'oyalarning ilgari surilganligi jaded adabiyotining bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rsatadi va bizning adolatli jamiyat qurish borasidagi ezgu orzu-maqсадlarimizga to'laligicha mos keladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida tub burilishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar natijasida o'zbek xalqi ichidan ziyoli qatlam yetishib, xalqning farzandlarini o'qimishli qilish orqali yurt mustaqilligiga erishish mumkinligiga ishonildilar va oqibatda adabiyotda tub burilish yasadilar.

V sinf 'Adabiyot' darsligida Abdulla Avloniy ijodidan namunalar berilgan. Uning Ona Vatan to'g'risidagi qarashlari hamda "Vatan" she'ri va yana qator hikoyalari keltirilgan va "Umumiy o'rta ta'limning Adabiyot fanidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi" ga binoan o'quv rejada 2 soat vaqt ajratilgan. Bizningcha, mustaqil o'qish uchun berilgan "Maktab" she'ri tili sodda, o'qitilishi ravon, ohangdor, eng muhimi yodda qolarli bo'lgani uchun asosiy darslar uchun berilgani holda Abdulla Avloniy ijodi Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi bilan birga yonma-yon berilsa, ijobiy samara beradi nazarimizda. VII sinf o'quvchilari uchun

mo'ljallangan "Adabiyot" darsligining 2017-yildagi nashrida Hamzaning "Vatan", "Jonlarni jononi vatan", "Dardiga darmon istamas" kabi she'rlari berilgan bo'lib, bu albatta, yosh avlodni vatanparvarlik tuyg'usi yuqori turadigan inson qilib tarbiyalashda o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan. Shu o'rinda 7-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, 14-15 yoshli o'smirlarning ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lib, o'zgalarning ruhiy holatiga befarq bo'lmasliklarini hisobga olgan holda Hamzaning g'azallarini o'quvchilarga tavsiya etish o'quvchida estetik didning o'sishiga olib keladi. VII-sinf "Adabiyot" darsligining eski nashrida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidan boblar berilgan. "Baxmal bofda faqir bir oila", "Chin o'rtoq", "Chayonning namoyishi", "Ikki xil sadoqat", "Barimta", "Xayr endi Ra'no!", "Qo'rqinch bir jasorat" kabi boblarni o'qish jaroyonida o'quvchi haqiqiy do'stlik va chin muhabbat oldida lol qoladi. Yangi darslikda esabu borada ham o'zgarishlar mavjud: asarning "Chayonning namoyishi" bobi darsda o'qib tanishish uchun berilgan va asar matni tahliliga oid savol va topshiriqlar o'quvchilarni o'qiganlari asosida o'ylashga, fikrlashga, topshiriqlarda berilgan zarur o'rinlarni topishga undaydi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Go'zal", "Xalq", "Binafsha", "Buzilgan o'lka" kabi she'rlari darslikka kiritilgan bo'lib, darslikning 2017-yildagi nashrida Cho'lpon she'rlari vositasida o'quvchiga adabiy asarlardagi ko'chim to'g'risida ham nazariy tushunchalar berilgan. Milliy dastur asosida yaratilgan yangi darslikda nima uchundir Cho'lpon ijodiga o'rin ajratilmagan. Cho'lpon lirikasi haqida gap ketganda uning hech kimnikiga o'xshamagan intim tomonlari borligini, uning she'rlari va ularda ishlatilgan badiiy tasviriy vositalar o'quvchini hayajonga solishini hisobga olinsa, Cho'lpon she'riyati, albatta, darslikdan joy olishi kerakdir.

2017-yilda nashr etilgan 10-sinf "Adabiyot" darsligining II qismiga kiritilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi XX asr tongidagi o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan asarlardan biri edi, lekin drama ayrim kamchiliklardan xoli emas edi. Ayniqsa, ayrim qahramonlar harakati, xarakteridagi dalillash san'ati ba'zi o'rinlarga kuchsiz. Xususan, qotillik epizodi sun'iyroq. Asarda adabiyotimizda birinchi bo'lib, vatanda yashab turib bevatan qilishi mumkin bo'lgan

xolat tarbiyasizlik va ilmsizlikdir, deyilar ekan, bu yerda gap qotillik bois uzoq o'lkalarga surgun qilinish va shundan Behbudiy talqinida bu fikr anchagina tagzaminga ega ekanini sezib olish mumkin. Shuningdek, darslikda drama to'g'risidagi talqinlar ham keltirilgan. Talqin bo'lgani yaxshi, ammo uning badiiy asar haqidagi tayyor ma'lumot bo'ganligi bois o'quvchining asar matnidagi haqiqiy ijod mevasi, asar voqealariga va qahramonlar xarakteriga chizgilardan voqif bo'lishi birmuncha chetga suriladi.

Yangi avlod darsliklari loyihasida bu kabi kamchiliklar birmuncha to'g'irlangan, lekin masalaning boshqa tomoni ham borki, 10-sinf "Adabiyot" darsligining yangi nashri loyihasida Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi kiritilmagan. "Padarkush" dramasi hozirgi kun o'quvchisi uchun juda jo'n va sodda asar tuyular, lekin o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, "Padarkush" dramasini quyi sinflarda mumkin. 7-sinfga borganda o'quvchilarda adbiy tur va janrlar va ularga xos xususiyatlar haqida to'liqroq nazariy ma'lumotlar berib boriladi. Shu jihatdan olib qaraganda, "Padarkush" dramasi o'quvchiga sahna uchun mo'ljallangan asarlar tuzilishi, shakl va ularga xos alohida xususiyatlar bilan yaqindan tanishadilar. Qolaversa, o'quvchilarda sahna uchun mo'ljallangan asarlarni tahlil qilish ko'nikmalari ham shakillantirilib boriladi nazarimizda.

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Cho'ponning "Kecha va kunduz" romanlari o'zbek millatining ko'ngil mulkiga aylangani buning yaqqol tasdig'idir. Shuning uchun ham yosh avlod tarbiyasida jadid adabiyoti nomoyondalari asarlaridan unumli foydalanish davr talabidir. Bu borada o'quvchi yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobda olgan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan dastur va darsliklar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos shonli davrni egallagan jadid adabiyoti bugungi o'quvchi uchun nima bera oladi, degan haqli savol tug'iladi. Kitobxonning A. Qodiriy romonlari hozirgi kunda ham sevib o'qishining sababi shundaki, unda milliy tafakkur shu'lalari balqib turadi. O'zbek millatiga xos odob-axloq ko'rinishlari, muomula madaniyatining turli qirralari, ota va farzand munosabatlaridagi o'ziga xos nozik jihatlarni anglaydi, romandagi har bir

qahramonga chizgilar, har bir voqea-hodisaning tasviri o'quvchini befarq qoldirmaydi. 7-sinfda Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishda bizningcha, birinchi soatda "Mehrobdan chayon" romanining yaratilishi tarixi haqida qisqacha ma'lumot berish, undan keyin roman matni bilan ishlash zarur. Keying soatda esa romanning "Qo'rqinch bir jasorat" nomli parchasi to'liqligicha o'quvchilarga yetkazib berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Berilgan matn bilan tanishilgach, roman qahramonlari xususida so'z yuritish mumkin. Shu bilan birga, roman bo'yicha ishlangan kinofilmdan kichik bir videorolik ko'rsatilishi ham ayni maqsadlidir. Umuman olganda, romanni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda o'zaro tenglik, hurfiylik, bahs-munozaralarda o'zaro hurmat kabi tamoyillar asosida darslarni tashkil etish yaxshi samara beradi. 10-sinf "Adabiyot" darsligida A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'qitishda o'quvchilarda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy hayot, sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning sabablarini ko'rsatib berish, o'zbek adabiyoti oldida ko'ndalang vazifalar, ijodkor xalqi zimmasiga tushgan ulkan mas'uliyat haqida o'quvchida tasavvur-tushuncha hosil qilish, buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga o'sha davr to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash vazifasini topshirish va darsda to'plagan ma'lumotlarni o'quvchilar bilan birgalikda umumlashtirish yoki taqdimot tayyorlashlari mumkin. Asardan berilgan parcha bilan tanishish jarayonida o'quvchilar, garchi ular katta yoshda bo'lsalar ham, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarga duch keladilar va bunda "O'zbek tilining izohli" lug'ati yordamida tushunilishi kerak bo'lgan so'zlarning hozirgi ma'nosini aniqlashtirib olish kerak bo'ladi. Yoki boshqacha usulda badiiy matnni qismlarga bo'lish, guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga taqdim etish va har bir guruh o'ziga berilgan qismni tadbil qilib chiqish va ketma-ketlikda butun sinf jamoasiga taqdim etish mumkin.

Zamon talablaridan kelib chiqib yaratilayotgan "Adabiyot fani Milliy o'quv dasturi" da adabiy matn ustida ishlash, ya'ni o'quv tahlil adabiyot o'qitishdagi eng asosiy yumush ekani ko'zda tutildi. Tahlil jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining holatlarini

hisobga olish yo'llari belgilanadi. Matn ustida mustaqil ishlash o'quvchilarni ijodiy fikrlash, badiiy tahlil va nutqiy komponentlikka o'rgatishi belgilab qo'yildi.

Badiiy matn mazmuni o'zlashtirilgach esa tahlilga tortish, tahlil jarayonida esa asar qahramonlarining ruhiy holatini aniqlashtirishga qaratilgan savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin. Badiiy asar matni tahlilga tortilish jarayonida o'z-o'zidan asar qahramonlarning xarakterli tomonlari, boshqalarnikiga o'xshamaydigan o'ziga xos xususiyatlari (bu ularning gap-so'zlarida va xatti-harakatlarida, boshqalar bilan muomala-munosabatlari tasvirida namoyon bo'ladi, albatta) ko'rinadi va yana mahorat bilan tasvirlangan joy va tabiat tasviriga e'tibor qaratish, o'qiganlari yuzasidan o'z mustaqil fikrlarini erkin bayon qilishlari mumkin bo'ladi. Ayniqsa, asar muallifining mahoratini seza olishga o'rgatish, baho bera olishni o'zida shakllantirib boorish zarurdir. Bu jarayonda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijod qilishga o'rgatuvchi, ularning intellektual salohiyatlarini yuzaga chiqarishda qaratilgan yangidan-yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaish muhim ahamiyat kasb etadi.

10-sinf "Adabiyot" darsligida Abdurauf Fitratning "Abdulfayzxon" fojiasini o'rganishda uni rollarga bo'lib o'qish yaxshi natija beradi. Matn o'qib bo'lingach, har bir o'quvchining o'zi ijro etgan rol, ya'ni obraz haqidagi fikrlari va taassurotlari, o'zlari ijro etgan obraz kechinmalariga munosabatlarini o'zaro o'rtoqlashish mumkin. Bunda har bir rol ijro etgan o'quvchi o'z qahramoni orqali badiiy asarga kirib boradi, qahramonning kayfiyati kayfiyati o'z-o'zidan unga ta'sir o'tkazadi. Tomoshabin va tinglovchi o'quvchilar esa jarayonda ekspert vazifasini bajarganlari ma'qul, ya'ni ular o'rtoqlarinng ijrolari qay darajada ishonarli chiqqanligiga ahamiyat beradilar. Bu jarayonda dramatik asarni maromiga yetkazib o'qish, ya'ni ijrochilar so'zning ta'sirini tinglovchiga yetkazib bera olishga harakat qilishlari kerak bo'ladi. Shundan so'ng matn tahliliga o'tish mumkin, dramatik matnni tahlil qilishda endi asar qahramonlarining haqiqiy suratlari hamda siyratlari batafsil tasvirlarda emas, balki, qahramonlarning nisbatan qisqa nutqlarida namoyon bo'ladi. Bu jarayon esa birmuncha murakkab jarayon bo'ib, o'quvchidan ziyraklikni talab qiladi. Shuningdek, ushbu darslikda Cho'lponning "Kecha va kunduz"

romanidan parcha berilgan bo'lib, asar qahramonlari hayotiga, ularning tevaragida kechayotgan voqealar rivojiga ahamiyat qaratilsa, asarning shu kabi sifat-xislatlari ochila boradi. Romanni o'rganishda ushbu shoh asrning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga anglatish uchun asarga har xil tomondan qarash, qahramonlar xatti-harakatini kuzatish va tahlil qilish, ular o'rtasida yuzaga kelayotgan ziddiyatlarga ahamiyat qaratish zarur bo'ladi. O'quvchi diqqat e'tiborini asar qurilishiga, unda ishlatilgan badiiy tasvir vositalariga, asar matnida yashiringan tagma'nolarga qaratish maqsadida quyidagicha tarzda savol va topshiriqlar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyot o'qitishga bugungi kun talablaridan kelib chiqib yondashish, zamonaviy o'quvchining estetik talab va ehtiyojlari doirasida ularga jadid adabiyoti namunalarini tavsiya etish, bunda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda badiiy matn tahlilida tegishlicha ish turlarini tanlash natijasida adabiyot darslarining o'quvchi yoshlar uchun qiziqarli va mazmunli bo'lishiga, ularning darslarda faol ishtirokchiga aylanishlariga erishish mumkin bo'ladi, privordida esa jadid adabiyoti namunalari o'quvchilarning ma'naviy mulkiga aylanishiga erishiladi. Jadid adabiyoti mustaqillikkacha bo'lgan bo'lgan davrda deyarli o'rganilmagan yoki unga sovet mafkurasi tazyiqi ostida dushmanlik nazari bilan yondoshilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka "burjua-liberal harakat" deb ta'rif berilgan. SSSR parchalanib ketganidan so'ng bu harakat va uning nomoyondalari nomi qayta tiklandi. Bu borada istiqbol yillaridagi bir qator tadqiqotlarda, jadidlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalardagi faoliyatlarining ayrim jihatlari qisman yoritib berilgan. Jadid ma'rifatparvarlarning faoliyati, ijodiy meroslari va ularning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari yirik olimlar O.Sharafiddinov, B.Qosimov, Sh.Yusupov, A.Abdug'afurov, U.Normatov, N.Karimov, H.Boltaboyevlar tomonidan o'rganilgan va bu tadqiqot ishlari hozirgi maktab darsliklarida berilmagan bo'lsada, o'quvchi yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, o'quv mashg'ulotlari davomida mavzudan kelib chiqqan xolatda foydalanish samarali natija ko'rsatadi, darsliklardagi keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda to'laqonligicha

to'ldira oladi. O'tgan ajdodlarimiz merosidan faxrlanish, albatta, kerak. Biroq bu merosning mazmun-mohiyatini chuqur bilmay, his qilmay, u bilan og'izdagina maqtanib yurish durust ish emas. Qachonki, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy singari millatparvar bobolarimiz qalbida yongan yurt ishqiy yuraklarimizga ko'chib o'tsa, biz bu olovni asrab-avaylab, u bilan kelgusi nasllar ko'nglini yoritsak, shundagina o'tmish ajdodlarimiz xotirasiga munosib avlod sanalamiz.

Adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. *Birinchi nashr*. I qism). – T.: O'zbekiston milliy ensklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Adabiyot xrestomatiyasi. O'rta maktabning 9-sinfi uchun, 8 nashri. – T.: O'qituvchi, 1971.
3. Kattabekov A., Rahmonov V. O'zbek adabiyoti 8-sinf uchun, 3- nashri. – T.: O'qituvchi, 1997.
4. Adabiyot. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. 1-qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3 nashri. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014.
5. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2022. B-149.
6. Akramova R. Jadid adabiyoti va maktab ta'limi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – T., 2023.
7. Akramova R. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda jadid adabiyotining o'rni. "Ta'lim fidoyilari" Respublika ilmiy-uslubiy jurnal. – T., 2023.

**JADIDLAR AXLOQIY QARASHLARINING YANGI
O'ZBEKISTONNI BARPO ETISH STRATEGIYASI BILAN
HAMOHANGLIGI**

Mamadjonova M. Q.,
TDPU f.f.d. (PhD), dotsent v.b
Abdakarimova M. Sh
TDPU talabasi

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida mamlakatimiz boy ijtimoiy- falsafiy, axloqiy, madaniy taraqqiyotida o'zining nihoyatda sermazmun, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi - milliy - taraqqiyparvar ziyolilarilarning islohotchilik harakati - jadidchilik vujudga keldi. "Jadid" so'zi arabcha yangi usul¹⁰⁴ degan ma'noni anglatadi. Jadidlar o'z davrida xalqni ma'rifatli qilish, g'oyaviy - siyosiy jihatdan yetuk, kelajakni oldindan ko'radigan yoshlarni tarbiyalash, ularning bilim saviyasini ko'tarish, fikr doirasini o'stirishni millat kelajagi uchun asosiy masalalardan biri deb tushundilar va ana shu olijanob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar. Xalqimizning ma'rifatparvar farzandlari Madmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy jadid taraqqiyparvarlari hisoblanadi.

Jadidlar merosi, ta'lim-tarbiya borasidagi sa'i- harakatlari bugun global ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab muammolarni bir asr avval his eta olganliklarining dalolati hisoblanadi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir¹⁰⁵. Ushbu hamohanglik jadid allomalar faoliyati, adabiy merosi va axloqiy qarashlarida aks ettirilgan. Jumladan, jadidchilik harakatining yetakchi rahnamolaridan biri Madmudxo'ja Behbudiyning

¹⁰⁴ Qosimov B.Yusupov Sh. Dolimov D. Rizayev Sh. Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.-T.: "Ma'naviyat", 2004 yil, 5-bet.

¹⁰⁵ Sh.M.Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 11.12.2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>

bizgacha yetib kelgan ilmiy merosi orasida 1911 yilda yozilgan “Padarkush ” asari o`zga xos ahamiyat kasb etadi. Asarda muallif axloqsizlik, ma`rifatsizlik millatning har bir a`zosi hayotiga ayanchli kunlarni olib kelishi mumkinligi, bilimsizlik, nodonlik, jaholat kabi illatlar ota va bola hayotining fojeali yakun topishiga sabab bo`lganligi hayotiy ibrat sifatida taqdim etiladi.

Atoqli jadid namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning XX asr boshlarida mashhur bo`lgan ham nazariy, ham amaliy axloq masalalariga muammolarini falsafiy yondoshuv orqali hal etishga bag`ishlangan “Turkiy Guliston yohud axloq” (1913) asari axloqiy muammolar masalasiga jadidchilik nuqtai nazaridan yondashilishi, ko`pchilikka tushunarli tilda yozilganligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O`zbekiston strategiyasi” kitoblarida ushbu asarni quyidagicha e`tirof etib, “Ma`rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo`llanmasi sifatida bugungi kunda ham o`zining qadri va ahamiyatini yo`qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebeho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur”¹⁰⁶ deya ta`kidlaydilar. O`z davrida maktablarning yuqori sinflari uchun darslik sifatida yo`zilgan ushbu asar haqida filolog olim, professor Begali Qosimov Turkiston tarixining eng muhim hodisalardan biri hisoblanmish jadidchilik harakati haqida ma`lumot beruvchi “Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik” kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “...asrimiz boshlaridagi o`zbek jadid ma`rifatchiligining noyob hodisalaridan bo`lgan bu asrning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo`llanma bo`lib xizmat qildi”¹⁰⁷ Axloqiy - didaktik mazmundagi ushbu asar XX asr boshlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o`rin egalladi.

Avloniy o`z asarini yaratishda Shayx Sa`diy izidan bordi. Kitobning “Turkiy Guliston yohud axloq” deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917 – yilgi ikkinchi nashriga yozgan so`ng so`zida alohida ta`kidlab ko`rsatadi. U

¹⁰⁶ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 2021. 227- bet

¹⁰⁷ B.Qosimov. Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik. Toshkent “Ma`naviyat”, 2002, 252 bet

shunday yozadi: “Turkiston maktablarida o‘z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo‘qligi afrodi shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi, o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldug‘imdan, manga ham ochiq ma‘lum o‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram Shayx Sa‘diy usulida yozmakni, garchi o‘g‘ir ish bo‘lsa ham, o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin munosib ko‘rdim”¹⁰⁸[3.59].

Muallif asarni diniy kalima bilan boshlaydi. Asarda inson ma‘naviy kamoloti yuksakligiga erishishida zarur bo‘lgan axloq, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq, fikr tarbiyasi, ilm, qanoat, sabr, badan tarbiyasi, diyonat, riyozat, vijdon, intizom, hayo, idrok va zako kabi yana bir qator xislatlar, ularning amaliy ahamiyatlarini batafsil yoritib o‘tadi. Jumladan, ilm haqida keltirib o‘tgan “Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas‘ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur” mulohazalarida har qanday jamiyat, millat tarbiyasida ilm naqadar ulug‘ ahamiyatga ekanligini anglaymiz.

Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan azaliy va abadiy qadriyatdir. Alohida odam ham, butun insoniyat ham tarbiyasiz mavjud bo‘lolmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar avloddan avlodga tarbiya orqali o‘tadi. Adib bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi: 1. “Tarbiyaning zamoni”. 2. “Badan tarbiyasi”. 3. “Fikr tarbiyasi”. 4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati tog‘risida fikr yuritadi. “Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga barchani: ota-ona, muallim, mudarris, hukumat va boshqalarning kirishishi lozimligini ta‘kidlaydi. Oilada to‘g‘ri yo‘naltirilgan tarbiya juda muhim ahamiyatga

¹⁰⁸ Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola./ Olim Oltinbek.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 59- bet

ega ekanligini ta'kidlaydi. Bola tarbiyasida uning nafsoniyatiga tegadigan, bolaning hissiyotiga shikast yetkazadigan, uni ruhan va ma'nadan ezadigan jazoni qoralaydi. Bolani sevish va unga ustalik bilan ta'sir ko'rsatish zarur, uni ishontirish vositasi bilan o'z burchini anglatish lozim, deb hisoblaydi. Asarda farzand tarbiyasida bola yashab turgan shart- sharoit, muhit, atrofidagi kishilarning roli katta ekanligi ko'rsatiladi.

Asarning "Tarbiyaning zamoni" bolimida "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir", - deb javob bersak, bir kishi deyrki, "qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarmi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar", der. Mana, bu so'z kishining yuragini ezar, bag'rini yondurar ¹⁰⁹[4.4]. Ushbu tushunchalar nafaqat ta'lim – tarbiya oluvchi balki ta'lim – tarbiya beruvchilarga ham taalluqlidir. Adib badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota – onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa ekanligini bunda albatta u muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, maullimning tarbiyasiga bog'liqdur deb"¹¹⁰ ta'kidlaydi.¹¹¹ Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Dars ila tarbiya orasida biro z farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir- biridan oyilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur.

¹⁰⁹ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.3-4 bet.

¹¹⁰ O'sha asar.3-4 bet.

¹¹¹ O'sha asar. 4 bet.

Avloniyning asarda tarbiya millat uchun hayot- mamot masalasi ekanini o'rtaga qo'yadi: "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamaot, yo najot- yo halokat, yo sadoqat- yo falokat masalasidir" degan so'zlari tarbiya sohasidagi shiorga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Farzand tarbiyasida adib: "Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulib o'ssa, Allohdan qo'rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib qolur¹¹² – deb yozadi. Adib boylik ketidan quvadigan insonlardan nafratlanadi. Yoshlarni boylikka ruju quymaslikka undaydi. Boylikni o'tkinchi bulutga o'xshatadi.

Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlarini umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, sharqda odob va axloq masalasi azaldan asosiy masala bo'lib kelgan. Abdulla Avloniy o'sha paytdagi ta'lim usullari zamonga to'g'ri kelmasligini to'g'ri tushungan va ularni isloh qilish zarurligini to'liq anglagan. Zero, zamonaviy ta'limgina yosh avlodni millat ruhiga aylantira oladi. Asar hozir ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Adib asarlari zamonaviy ta'lim-tarbiyada beqiyos o'rin tutadi. Bitmas-tuganmas bilim manbai, a'lo fazilatlar ko'zgusi ularni kelajak avlodlarga yetkazish barchamiz uchun farzdir.

Jadidlarning Turkistondagi yirik vakillaridan yana biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat o'zbek xalqi ilm-fani va madaniyati tarixida samarali iz qoldirgan siymolardan, istiqbolimizni oldindan ko'ra olgan fidoiylardan bo'lib hisoblanadi. Uning serqirra ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida hozirgi zamon va kelajagimiz haqidagi g'oyalar bayon qilingan. O'z vaqtida u o'zbek xalqida milliy vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishga, yurtni obod, fuqaroni ma'rifatli qilishga intilgan. Olim "Sayha", "Hind sayyohining qissasi", "Uchqun" to'plami, "Chin sevish", "O'zbek tili grammatikasi", "Chig'atoy adabiyoti", "Hind istilochilari" va boshqa ko'plab asarlar yozdi. Fitrat asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-

¹¹² Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.3-4 bet.

ma'rifatga choralash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Fitrat yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'ldan tarbiyalamasdan jamiyatni isloh qilish uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas, millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi"¹¹³- deb yozadi, u.

Abdurauf Fitratning fikricha, farzandni kamol toptirib o'stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma'naviy tarbiyadan iborat, ko'p tarkibli tarbiya berish muhimdir¹¹⁴. Umuman, jadidchilik harakatida Abdurauf Fitratning o'rni beqiyosdir. Uning tarixiy – badiiy, axloqiy – falsafiy asarlari o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar xalqni savodsizlik, qullikdan qutqarishga bel bog'lab, shu yo'lda yoshlar asosiy kuch ekanligini tushunganlar, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'yo-harakat qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari, axloqan yuksak bo'lib yetishishlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi ularning fikrlari bugungi Yangi O'zbekistonda namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 227- bet.
2. Sh.M.Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 11.12.2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>

¹¹³ A.Fitrat. Oila.- T.; Ma'naviyat, 2000, 32-bet

¹¹⁴ Osha asar. 37- bet

3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.3-4 bet.
4. Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola./ Olim Oltinbek.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 59- bet
5. A.Fitrat. Oila.- T.; Ma'naviyat, 2000, 32-bet
6. B.Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent "Ma'naviyat", 2002, 252 bet.
7. Qosimov B.Yusupov Sh. Dolimov D. Rizayev Sh. Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.-T.: "Ma'naviyat", 2004 yil, 5-bet.

YOSH AVLODNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JADIDLAR ILMIY MEROSINING O'RNI

Eshanova G. N.,
TDPU ijtimoiy fanlar
kafedrasi dotsenti, f.f.n.,
Shirinboeva N.M.
Musiqqa madaniyati fakulteti
1- kurs talabasi

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni dunyoqarashini shakllantirish ayniqsa vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari juda dolzarb masalalardan biridir.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, «Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!» degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.¹¹⁵

¹¹⁵ Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 29.06.2023 yildagi 267-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/6518238>

Bu masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida o'zbek xalqi jadidlar ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay borishi kerakligi ham ta'kidlandi.

Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba'zan hatto mamlakatning o'zida ham Konstitutsiya va qonunlarga zid pozitsiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo'lmoqda.

Bunday vaziyatda jamiyatda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishni kuchaytirish, ehtiyotkorlik va ogohlilikni oshirish lozim, dedi u.

Shavkat Mirziyoyev ziyolilarni tinchlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashda yanada faol bo'lishga, ma'naviy fazilatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishga chaqirdi.¹¹⁶

Markaziy Osiyoda Jadidizm vakillari Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, M. Bexbudiy, Fayzulla Xo'jaev, S. Mirjalilov, va boshqalar edi.

Jadidlarning maqsadlari Turkistonning o'rta asr qoldiqlaridan, diniy fanatizmdan ozod etish va qutqarish. Markaziy Osiyo hududida yagona davlat tuzish, Konstitutsiyaviy va parlament tizimi boshqaruv uslubi bilan erkin va farovon jamiyatni shakllantirishdan iborat edi.

Ularning fikriga ko'ra, Jadidlar Islom musulmonlarning tarixini tanqidiy jihatdan o'rganishni taqiqlamaydi deb hisoblab, islomda qolipga solingan madaniyat tuzilmaganligini inobatga olib, o'zlarining amaldagi ruhoniy yetkachilarini mukammal bilim egalari deb hisoblamaganlar va u yoki bu tarixiy davr uchun ijtimoiy tuzum tamoyillarini izlashga majbur deb hisoblaganlar.

Bugun yoshlarimiz shijoatli, ilm ma'rifatli vatanparvar bo'lishlari lozim. Bu masalada jadidlarimiz xayoti, faoliyati misol bo'la oladi. Abdulla Avloniyning

¹¹⁶ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/>

“Turkiy Guliston yohud ahloq“ asarida inson hulqini tarbiyalovchi fazilatlar haqida yozgan.

Shijoat deb botir va yurakli bo‘lmakni aytilur. Shijoatli kishi esa hech narsadan qo‘rqmaydurgan botir va yurakli bo‘lur. Sa’y va g‘ayratning ziddi dangasa va yalqovlik shijoatning ziddi qo‘rqoqlikdir. Qo‘rqoq; savdogar foyda qilmas. Qo‘rqoq kishi o‘zining soyasidan qo‘rqar, xech bir ish qilishga yuragi bo‘lmas. Ko‘p kishilar vahima va qo‘rqoqlik orqasidan mollaridan, jonlaridan, vatanlaridan ayrilurlar. Shuning uchun har ishda shijoatni qo‘ldan bermaslik lozimdur. Shijoat insoniyatning sof oyinasi, iffat, g‘ayrat, istiqomat kabi yaxshi xulqlarning nuroniysidir. Shijoatning qalbning matonatidan, ruhning salomatidan iboratdur.

Hozirgi zamonda botirlik - boylikda, qaysi davlat va millatning davlati bo‘lsa, shul ustun bo‘lmakdadur. Chunki xukumat uchun xalq, xalq uchun hunar, hunar uchun ilm, ilm uchun ancha lozimdur.

Sarvatli millatlar milliyatlarini yo‘qotmas, rohat va saodatda yashar. Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylandurdilar va bu soyada bir-birlariga g‘alaba va raqobat qila boshladilar.

Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm-dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, barakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas‘ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kapidur.

Vatan. Xar bir kishining turulub uskan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim turulgan, o‘sgan yerini jonidan ortik; suyar. Xatto bu vatan iissi-tuyg‘usiz hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayirilsa, yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talh bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimuslar shimol taraflarini, eng sovuq

qop va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarin tashlab xijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz: “Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l”, - demishlar.¹¹⁷

Hammaga ma'lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz ulan Arabistonga borlarini, hovlilarini sotub xijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytib kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortib keturgan quvvat o'z vatanlarining, tuproqlarining mehru muhabbatidir.

Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarimiz ilmi ma'rifatli, shijoatli, bo'lishlari bilan birga vatanini sevishi uni qadrlashni o'rganishlari zarur.

Adabiyotlar :

1. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 29.06.2023 yildagi 267-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/6518238>
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/jadids/>
3. Turkiy Guliston yohud ahloq. “O'qituvchi”, Toshkent, 1992. – B. 28.

¹¹⁷ Turkiy Guliston yohud ahloq. “O'qituvchi”, Toshkent, 1992. – B. 28.

**YANGI O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTIDA JADID
G'OYALARINI TUTGAN O'RNI MASALASIGA DOIR AYRIM
MULOHAZALAR**

Tillavoldieva M.X.,
TDPU dotsenti, f.f.n.,
Baxramova F. B.,
Maxmudov A. S.,
TDPU 1- bosqich magistrarlari

Annotatsiya: Ushbu makolada Yangi O'zbekiston milliy taraqqiyoti va hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotgan asosiy omillar, uning sabablari, amalga oshirilayotgan yuksak isloxotlar taxlil etiladi. Shuningdek, hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan rakamli global o'zgarishlar va ushbu o'zgarishlar jarayonlarida esa jadidlar falsafiy – madaniy –siyosiy g'oyalarini tutgan o'rni masalasiga o'rin ajratiladi.

Tayanch tushunchalar: islohot, madaniyat, jadidchilik, raqamli jamiyat, iqtisodiy- siyosiy, ehtiyoj, ma'naviy, barkamollik, taraqqiyot, yuksak texnologiyalar, intellektual salohiyat, fan, texnika va milliy taraqqiyot .

Ma'lumki, har qanday sohadagi yangilanish muayyan zaminga suyanadi. Yangilanayotgan O'zbekiston milliy taraqqiyot islohotlarining mohiyati-mazmuni, yo'nalish va istiqbollari to'g'risida so'z borganda, uning asosiy omillarini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir. Aytish jo'izki, salohiyatini yuksaltirishda innovatsion yondashuv va taraqqiyot istiqboli ko'p jihatdan intellektual salohiyatni rivojlanganligi, yuksaklik darajasiga bog'liq bo'ladi. Binobarin, yosh avlod davlat va jamiyat, millatning taraqqiyotini ta'minlaydigan, jahondagi nufuzini oshiradigan asosiy omil hisoblanadi.

Falsafa fanlari doktori, Abduqahhor Raxmonov e'tirof etganidek: "Mustaqillikdan keyin jamiyatning barcha jabhalari kabi ijtimoiy-madaniy sohaga ham katta e'tibor qaratildi. Binobarin, ijtimoiy-madaniy faoliyatda milliy mentalitetning o'rni beqiyos. Yosh avlod tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi bu sohaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi. Buni mamlakatimizning yaqin o'tmishidagi tarixiy yo'li misolida ko'rishimiz mumkin. Ma'naviy-xuquqiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu boradagi chora- tadbirlar samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa

muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash davr talabidir.”¹¹⁸

Bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyotning rakamlashtirish bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bunda biz mamlakat va millat o'laroq tanlagan yo'l- rakamlashtirilgan huquqiy demokratik jamiyat tuzish yo'lidir. Yolg'ondan, nomigagina emas, Prezidentimiz tashabbusi bilan chin va haqiqiy huquqiy demokratik jamiyat barpo etishni tanlaganimizga e'tibor karatmok lozim.

Ushbu jihatdan olib qaraganda, Milliy taraqqiyot yangi avlod boshqaruv kadrlarini yuksak tafakkurga ega, ma'nan yetuk hamda keng mushohadali yoshlarni davlat boshqaruvi tizimiga olib kelish siyosati shu bilan izohlanadiki, taraqqiyotning yangi bosqichiga mamlakatni faqatgina fikr doirasi keng, falsafiy, siyosiy- madaniy demokratik qadriyatlarni his qila oladigan shaxslar olib chiqadi. Aslida, eng buyuk millat taraqqiyoti ham inson hurriyatini ta'minlashdir. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribalari ko'rsatmoqdaki, jamiyat milliy taraqqiyoti inson omili bilan chambarchas bog'liq va kuyidagicha asoslash mumkin:

Birinchidan - ijtimoiy taraqqiyot bilan inson har doim ham o'zaro uyg'un holda rivojlanmagan. Ayrim mamlakatlar ijtimoiy hayoti yuksak taraqqiy qilgan bir sharoitda madaniyati nisbatan orqada qolgan. Bu hol, bir tomondan, inson bilan jamiyat o'rtasida o'zaro begonalashuvni, ikkinchi

tomondan, axloqiy inqirozni keltirib chiqarmoqda. Mazkur salbiy jarayonning oldini olish jahon miqyosidagi dolzarb muammoga aylandi.¹¹⁹

Ikkinchidan -Jahonda yuzaga kelgan mazkur muammoning oldini olmasdan turib, yuksak ma'rifatlashgan jamiyat qurib bo'lmasligini rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy tajribalari, ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan «raqamli buhronlar» yuzaga keltirayotgan ma'naviy inqirozning sabablari, ildizlari, uning global muammoga aylanayotganligi bilan bog'liq tadqiqotlar tasdiqlamoqda.

¹¹⁸ Mirziëev Sh. Milliy taraqqiёт yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent. O'zbekiston, 2017 yil.

¹¹⁹ Tillavoldieva M. Raqamli texnologilar sharoitida ijtimoiy fanlarni ukutilishining ayrim jixatlari. Toshkent-2023yil. Taku Ilmiy konferençiya materiallari.

Milliy taraqqiyot bilan inson omili o'zaro uyg'unligi, ularning mustahkam aloqadorlik negizida rivojlanishigina- mamlakatlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashi mumkin. Shu sababli muayyan mamlakat milliy taraqqiyotini yuksak darajaga ko'tarish qanchalik muhim bo'lsa, insonni axloqiy- xuquqiy –siyosiy madaniyatini yuksaltirish bilan uyg'unlashtirish ham muhimdir.¹²⁰

Demak, Raqamli innavatsion texnologiyalar kuchaygan bir sharoitda ijtimoiy milliy yuksalishning ijtimoiy-axlokiy-siyosiy - huquqiy hayotiga ijobiy ta'siridan jadidlar tarixi, g'oyalari va eng yorqin vakillari, xatolari va yutuqlaridan xam unumli foydalanish maksadga muvofikdir deb hisoblaymiz. Shu nuqtai- nazaridan O'zbek tarixchisi, tarix fanlari doktori, professor, tarix fani nazariyasi va metodologiyasi, madaniyatshunoslik va tarixshunoslik muammolari, O'zbekiston davlatchiligi tarixi, O'rta Osiyodagi "ayollar masalasi", shuningdek, O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixining turli jihatlari bo'yicha yetakchi tadqiqotchi Dilorom Alimovanning quyidagi mulohazalariga e'tiboringizni qaratishni zarurat deb bildik: O'zbek olimasi jadidlar tarixi, g'oyalari va eng yorqin vakillari, xatolari va yutuqlari haqida fikr yuritar ekan: "Jadidlar kim bo'lganini tushunib olish uchun o'sha davr tarixini juda yaxshi bilish zarur. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshida paydo bo'ldi. Agar biz jadidchilik paydo bo'lishining tarixiy sabablarini tushunishni istasak, tarixga biroq chuqurroq kirib borishimiz, XIX asrdagi falsafa va ma'rifatning kuchayishi, qanchalik g'ayritabiiy ko'rinmasin, O'rta Osiyo xonliklarining XVI asrda Buyuk ipak yo'li zaiflashib qolgani bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan qoloqligi ob'ektiv sabablarini anglab olishimiz kerak bo'ladi.

Jadidlar – yoshlar, bu esa yoshlar harakati edi. Men jadidlarning yosh tarkibini o'rgandim. Ma'lum bo'lishicha, mashhur jadid va yoshlarning sevimli yozuvchisi Cho'lpon 1910 yilda 13 yoshda, Behbudiyning yoshi esa 30 oshiqroq bo'lgan ekan. O'sha harakat ishtirokchilari faqat yoshlardan iborat ekani ma'lum bo'lyapti. Ayni masalaga yongdashilganda, shundan kelib chiqish kerak bo'ladi. Bu yoshlar

¹²⁰ Tillavoldieva.M.X.Raqamli madaniyatni shakllantirish davr talabi. Iqtisod va zamonaviy texnologiya milliy jurnali.Toshkent -2023.

intellektual jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunar edi. Shu o'rinda qayd etish joizki, ma'rifatparvarlikning chuqur ildizlari bo'lib, faqat jadidchilik ko'rinishida zuhur bo'lgani yo'q. Uning ma'rifatparvarlik ildizlari ham bor edi va jadidchilik ushbu harakatning akkumulyatori – quvvat yig'uvchisi bo'ldi. Albatta, u oldingi adabiyot, oldingi falsafa yutuqlariga asoslangan.

Jadidlar o'zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qildi. Bilamizki, mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoniy, Abay Qo'nonboev va olim Cho'qon Valixonov islohotning hassos tarafdorlari bo'lgan, ular boshi berk ko'chadan chiqishni nafaqat ma'rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko'rgan. O'tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma'rifatparvarlikdan siyosatga o'tgan jadidlar- shu zaminda unib chiqqanligi asoslaydi - degan karashlariga e'tibor karatadi.”¹²¹ .

Biz jadidlar harakatini fenomen deb ataymiz, to'g'rimi? Agar ular mavjudligi juda oz vaqt oralig'i va muayyan siyosiy voqealar bilan cheklanmaganda, kichik Renessans deb atagan bo'lar edik. Agar jadidlar faoliyatini yana bir necha o'n yil davom ettirganida, juda yaxshi natijaga erishgan hamda aholi ularni yaxshi qabul qilgan, g'oyalari yaxshi tarqalgan bo'lar edi.

Jadidchilikning o'ziga xosligi nimada? Eng avvalo, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G'arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo'lgan. Deyarli barchasi oliy diniy ta'lim olib, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy she'riyati, o'rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni o'qib va uqib, bu bilimni ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilib bergan va bu ta'lim sohasini, umuman olganda, ma'rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan.

Jadidlar nafaqat bunday islohot o'tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, qolaversa, ma'rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan: ular

¹²¹ Alimova D. Jadidlar . Intervyu - internet manbasi. Toshkent -2023.

yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan, bu aholi uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangilik bo'lib, juda katta ta'sir kuchiga bo'lgan va odamlar ongida inqilob yasagan. Shu o'rinda M. Behbudiyning **"Padarkush"** p'esasini eslab o'tish joiz, unda bilimsizlik, johillik fojiga sabab bo'lishi ko'rsatib berilgan va yoshlar ongida chin ma'nodagi inqilob yasagan edi degan fikrga kelish urinlidir deya izoxlaymiz.

Yuqoridagi fikr va xulosalardan jadid bobolarimiz qarashlaridan bugungi Yangi O'zbekiston milliy taraqqiyoti takomilida foydalaniladigan ijobiy g'oyalar xali xanuz o'z ahamiyatini yuqotmaganligi ko'rishimiz mumkin.

Ushbu jihatdan ilm – fan soxasida faoliyat yuritayotgan ustoz murabbiylar mehnatini yuksak baxolab, afsus, nadomat ila ichimizda ba'zi befark, loqayd kimsalar borligi dilimizni xira qilishini ta'kidlagan holda, Iqbol Mirzoni quyidagi misralari yodimizga tushadi va ana shunday loqayd kimsalarga bu xayqiriqlar ogohlik ekanligini angalaymiz:

Ufqqa urilib, qaytib kelgan o'q
Mening yuragimni teshib o'tgan cho'g'.
Muallimlar serob, Avloniylar yo'q.
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.
Ta'lim-tarbiyani najot bilganlar,
Ilmiga o'zlari amal qilganlar.
Qarang, amal deb o'z jonin yulganlar,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Foydalanilayotgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.– Toshkent. O'zbekiston, 2017 yil.
2. Tillavoldieva M. Raqamli texnologilar sharoitida ijtimoiy fanlarni ukutilishining ayrim jixatlari.Toshkent-2023yil. Taku Ilmiy konferensiya materiallari.
3. Tillavoldieva.M. Raqamli madaniyatni shakllantirish davr talabi. Iqtisod va zamonaviy texnologiya milliy jurnali.Toshkent -2023.
4. Alimova D. Jadidlar . Intervyu - internet manbasi. Toshkent -2023.

JADIDLAR MEROSINING BUGUNGI YOSHLARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDAGI O'ZIGA XOS JIHALARI

To'yeva M. Sh.,
TDPU "Ijtimoiy fanlar"
kafedrası o'qituvchisi

Abdumutalova Sh. A.,
TDPU "O'zbek tili va adabiyoti
fakulteti" O'zbek tili yo'nalishi
107-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar qoldirgan merosi va buguning yoshlariga berilayotgan imkoniyatlar haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о наследии прошлого и возможностях, предоставляемых сегодняшней молодежи.

Abstract: This article talks about the legacy of the past and the opportunities given to today's youth.

Kalit so'zlar: Jadid, Jadidlar, sho'rolar tuzimi, mafkura, marifatparvarlik, iqtisodiy zo'ravonlik

Ключевые слова: Джадид, джадиды, система шур, идеология, просвещение, Экономическое насилие.

Key words: Djadid, djadidy, sistema shur, ideology, enlightenment, Economic violence

Barchamizga ma'lumki, bugun biz hurlik, mustaqillik zamonida yashayapmiz. Bu bizga nafaqat ilim-fanda o'z ko'zlagan marralarga yetishimizda, shu bilan birgalikda olgan bilimlarimizni jamiyatda namoyon etish imkonini beradi. Bizning jadid bobolarimiz o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jaded so'zi (arabcha "jadid"- yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlariga berilgan nomdir. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliyozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida keng ommaga tanildi.

XIX asr ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bir vaqtda va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniyilar ijodi va faoliyatida

bu harakat jamiyat hayotiga turli ko'rinshlarda kirib bordi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurashi va insonlarni ma'rifatparlik g'oyalari bilan uyg'inlashga xalqni savodli qilishga harakat qilishdi. Sababi, chor Rossiya tuzimida xalq faqat mehnat qilishga o'rgatildi va ulardan ishchi kuchi sifatida foydalanildi.

Yosh avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatini asosiy masalalarga maktab ta'limiga qaratganliklari ham bejiz emas, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar bilan bir qatorda ularning dunyoqarshlarini ham kengaytirish masalalari turardi. Ya'ni sodda xalqimiz paxta dalasidan tashqarini ko'rolmaydigan darajaga kelib qolgan edi. Ta'lim-tarbiya g'oyalari hamda, yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashash kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar[1].

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy xalqini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi" [2]. Darhaqiqat, Jadid bobolarimiz o'z harakatlarini bekorga ta'lim-tarbiyaga qaratishmagan zero xalqning ertangi kunini uning egalari hal qilar ekan, ulg'ayib kelayotgan yosh avlod nafaqat savodli bo'lishi balki buguning talabi bo'lgan dunyo tillarini ham bilishi talab etilmoqda.

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurshuvchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini kerakligi haqida fikr yuritiladi. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini takidlaydi [3]. Mahmudxo'ja Behbudiy barcha kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishi kerakligini maqsad qilgan.

Jadid bobolarimiz sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini hamda ota-onasi ham bilimli-malakali va o'qish o'rganishdagi ko'nikmaga ega bo'lishi zarurligi ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini aytib o'tganlar.

Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlari kerakligi va farzand asil tarbiyani uyda oilada oilshligi ta'kidlangan. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini, yurtining dovrug'ini butun dunyoga tanitishi kerakligi uqtirilgan. Kitoblarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygothlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyoitdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi.

Turkistondagi ma'orif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi" [4] Jadid bobolarimiz Turkistondagi ma'orifni isloh etish orqali insonlar ongi va dunyoqarashida yangi davrni boshlab berishni xoxlashdi xalqni savodxon qilish orqali, insonlar davlat boshqaruvi hamda dunyoviy ilimlarni o'rganishlarini xoxlashardi.

Muhtaram Prezidentimiz "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: "Xalqning aniq maqsadi sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tiboridan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq" deydilar Jadid bobolarimiz haqida fikr yurita turib.

Shuningdek yosh avlod deganda biz bugun o'sib kelayotgan xotin-qizlarning haq-huquqlari haqida aytib o'tishimiz lozim. Bozor iqtisodiyotida ayollarning roli ko'p yillar davomida muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Xotin-qizlar so'nggi paytlarda turli sohalarda, jumladan, moliya, texnologiya va tadbirkorlik sohasida

sezilarli yutuqlarga erishdi [5]. Darhaqiqat jaded bobolarimiz bekorga ilm-ma'rifatga e'tibor qaratmaganlar zero millat kelajagini shu xotin-qizlarning o'rni beqiyos chunki, ular millat bolalarini tarbiyalashadi.

Yosh avlodning maktabdagi tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir, degan g'oyga ham jadidlar alohida e'tibor berganlar. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqlol, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydilar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e'tibor beradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar o'z maktablari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalminallik, Vatan ravnaqi, go'zalligini ham singdirishga harakat qilganlar.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviysaviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumatimustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.Toshkent. O'zbekiston. 1999. B-385
3. Behbudiy.M s Muhtaram yoshlarga murojat.Oyna 1914. 41-son
4. M.Abdurashidxonov Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar) Sharq 2001 b-108-109
5. M.SH.To'yeva Bozor iqtisodiyoti sharoitida xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirishning manfaatli tomonlari.International journalof scientific researchers. 2024 b-409.

RAQAMLI SVILIZATSIYALAR SHAROITIDA GUMANITAR TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY JIHLTLARI

Saidahmatova S.U.,

*TDPU Ijtimoiy fanlar kafedrasii
falsafa fani o'qituvchisi*

Samandarova S.

*TDPU O'zbek tili va adabiyotii
fakulteti talabasi*

Annotatsiya:Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiya natijasida oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikalarini o'zgartirish zarurati, ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagoglarining yangi kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyojini yuzaga kelish sabablarini tahlil etilishi haqida fikr bildirilgan

Kalit so'zlar:raqamli gumanitar ta'lim,ijtimoiy-gumanitar fanlarni raqamlashtirish muommolari,raqamli kompetensiyalar,tranformatsiya, konsepsiya

Kirish: Bilamizki hozirgi kunda raqamli svilizatsiya tushunchasi har bir sohaga kirib bordi desak mubolag'a bo'lmaydi.Insonlar yashar ekan o'z hayotining 90%ini raqamli svilizatsiya tashkil qilmoqda.Bu ham bizning hozirgi kunda qator rivojlangan davlatlarning oldida tura olishimizni bildiradi desak yolg'on bo'lmaydi.

Yurtimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini,jamiyatda qonun ustivorligini,inson huquq va erkinliklarini,millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun

muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishida qayta qurish eng asosiy va markaziy muommolardan biridir.

Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini qayta yaratishda ta'limni insonparvarlashtirishning tashkiliy jihatlarini belgilab olish zarur. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining insonparvarlik yo'nalishida shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlarning alohida o'rni va ro'li bor. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida ularni o'qitadigan kadrlar har jihatdan o'z sohasining bilimdoni va yetuk mutaxassisi, o'qitish pedagogikasini mukammal egallagan bo'lishiga erishish kerak.

Bugun biz dunyoda bo'ladigan mojarolar, bekorchilik sabablari ijtimoiy-gumanitar fanlar hayot orqasida turgan ruhiy soxtaliklar uchun yetarlicha e'tibot bermayapti, deb aytsak xato bo'lmaydi fikrlashimcha. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ham adolatli ijtimoiy siyosati doirasida ma'naviy tashkilot sohasida belgilab berilgan O'zbekistonning yangi strategiyasini dolzarb vazifalari ijtimoiy-gumanitar fanlarga qaratilganligi va bu sohadagi muommoning dolzarbligidan dalolat beradi. Ta'limni raqamlashtirish, uning istiqbollari va so'nggi o'n yillikdagi cheklovlar masalasi olimlar va o'qituvchilar nazarida (masalan, raqamli iqtisodiyot muommolarini hal qilish kontekstida raqamli ta'lim muhitini yaratish haqidagi nashrlarga qarasa, XXI asrda zarur bo'lgan ko'nikmalar haqida, samarali ta'lim va tarbiyani shaxsiylashtirish muhiti, raqamli tengsizlikni va texnologik raqamli bo'shliqni bartaraf etish, ta'limni tashkil e'tish to'g'risidagi va boshqalar. Ta'lim tizimi o'zgarib borayotgan kelajak obrazini yaratish futurologlar va ilmiy fantastika yozuvchilarining eksklyuziv huquqi bo'lishni to'xtatdi va bugungi kunning haqiqatiga aylandi.

Ijtimoiy hayotda ma'lumotlilik maqomini hamda ta'lim-tarbiya tizimida ijtimoiy-gumanitar bilimlarning zaruriyatini belgilovchi yana bir muhim holat shuki, ta'lim tizimining muayyan bosqichini, xususan oliy o'quv yurtidagi mavjud ta'lim yo'nalishini bitirgan mutaxassi-tashkilotdagi o'qimishli rahbar o'z faoliyatida oliy

o'quv yurtidagi ixtisosligiga oid o'zlashtirgan bilim, malaka, ko'nikmalardan tashqari ishda va hayotga har xil odamlar bilan muloqotda bo'lib, yashash va ishlashga tegishli hayotiy bilimlardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Rahbarlik faoliyatining predmetida konkret mutaxassislikga oid narsalar emas, aynan odamlar, ularning hayoti, faoliyati va ular bilan munosabatlar masalasi asosiy o'rin tutadi va bu jarayonda u albatta inson va jamiyatga doir bilim, malaka va ko'nikmalardan foydalanadi. Masalan, zavod yoki fabrika rahbari u yerdagi uskunalar bilan emas, ko'proq ana shu uskunalarni ishlatuvchi yoki boshqaruvchi kadr bilan ishlaydi. Rahbar ishda va umuman ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun ko'proq ana shu odamlar, ularning hayoti va faoliyatiga doir konkret ilmiy bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi shart. Bu bilimlar faqat ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali beriladi va ular qanchalik ko'p o'qib-o'zlashtirishsa rahbar faoliyati shu darajada samarali bo'lish mumkin. Shuning uchun ham umuman ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan oliy ta'lim tizimidagi barcha ta'lim yo'nalishlarida ijtimoiy-gumanitar fanlar umumiy o'quv soatlarining kamida 30%i miqdorida majburiy fanlar sifatida o'qitilishi, tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlar inson va jamiyat haqida oliy ma'lumot maqomiga mos haqqoniy bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Ushbu bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, ular shu darajada samarali faoliyat olib bora oladi. Raqamli texnologiyalar talabalarni o'qitish sifatini tubdan yaxshilashga, ularning barcha zarur qobiliyatlarini shakllantirishga, muammoni hal qilish uchun mavjud bo'lgan barcha raqamli vositalar, materiallar va xizmatlardan faol ongli va ijodiy foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolar bilan bog'liq vaziyat asta-sekin va hali to'liq hal qilinmoqda, ammo bu eng muhimi emas, raqamli transformatsiya davrida ta'limning turli shakllarini rivojlantirish va o'zlashtirishni davom ettirish lozim.

Ayni paytda bugungi kunda dunyodagi har bir xalq va mamlakat hayotida ijtimoiy-gumanitar bilimlarning. Shu jumladan milliy g'oya, ma'naviyat va mafkuraning ahamiyati ortib borayotgani, mazkur soha uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

Xulosa: Hozirgi kunda butun dunyoda, jumladan bizdagi ma'naviy-mafkuraviy masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirishga real ehtiyojlar mavjud. Shu bois bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish, xususan O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifiy kengashi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti amalga oshirayotgan ilmiy tadqiqotlarni yanada oshirish kerak. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda to'plangan tajribalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Respublikamiz oliy ta'lim tizimida milliy g'oya, ma'naviyat va huquq ta'limi bo'yicha o'z vaqtida yo'lga qo'yilgan tashkiliy- uslubiy ishlar davlatimiz taraqqiyoti talablariga muvofiq bo'lib, ular bu boradagi faoliyatimizni yangi bosqichlarda rivojlantirish va kelgusi vazifalarni aniq belgilash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali <http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal> 354 1. Индустрия российских медиа: цифровое будущее: академическая монография / Е.Л. Варганова [и др.] М.: Медиа Мир, 2017. 160 с.
2. Козлова Н.Ш. Цифровые технологии в образовании // Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2019. Вып. 1 (40). С. 83–90.
3. Козлов Р.С., Козлова Н.Ш. Российская система образования в период цифровой трансформации // Учитель создает нацию (А-Х.А. Кадыров): сборник материалов IV Международной научно-практической конференции. Майкоп, 2019. С. 344–348.
4. Каракозов С.Д., Уваров А.Ю. Успешная информатизация – трансформация учебного процесса в цифровой образовательной среде // Проблемы современного образования. 2016. № 2. С. 7–19.

YANGI USUL MAKTABLARINING SHAKLLANISHI VA ULARDAGI O'QITISH METODIKASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ne'matova G.B.,

*Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
"Sharq filologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Normatova N.O.,

*Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
Filologiya fakulteti "Jurnalistika" yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: Maqolada jadidlarning yangi usul maktablari va ulardagi o'qitish metodikasining o'ziga xos jihatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik, "usuli savtiya", "usuli jadid" maktablari, ta'lim, o'qitish jarayoni, o'quv dasturi, dars, metodika, darslik, o'quv qo'llanma.

Jadidchilik yirik va yaxlit ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida Kavkaz, Rossiya, Turkiya va O'rta Osiyo musulmonlari orasida keng tarqaldi. U ijtimoiy-siyosiy sohalarda jahon sivilizatsiyasi qo'lga kiritgan yutuqlardan xalqni bahramand bo'lishga chaqirdi, feodal va milliy cheklanishlar, ma'naviy tanazzullar sababini ochiq-oydin xalqqa tushuntirishga harakat qildi. Shu bois, jadidlarning boy merosini har tomonlama xolisona o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Zero, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega"¹²².

Ma'lumki, jadidlar faoliyatida ma'rifatparvarlik harakatini ko'ramiz, ya'ni jadidlar faoliyatining asosiy negizini ma'rifatparvarlik faoliyati tashkil etadi. Chunki ular o'zlarining taraqqiyparvarlik g'oyalarini amalga oshirish uchun, millatni taraqqiyotga yetaklashning eng maqbul yo'li bu ta'lim tizimini isloh etishda deb bilganlar va shu maqsadda yangi usul maktablariga asos solganlar.

Turkistonda tashkil etilgan "usuli jadid" maktablari yagona markazga birlashtirilmagan, shuning uchun yagona dars rejasi, o'qitish metodikasi va yagona ishchi dasturiga ham ega bo'lmagan. Tashkil etilgan maktablar tashkil etuvchining

¹²² Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq // "Xalq so'zi", 2020 yil 1 oktabr.

bilim va tajribasiga asoslangan. Masalan, yirik jadid maktabdorlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktabda o'qitish ishlari ikki bosqichda olib borilgan: birinchi bosqich – ibtidoiy qism, ikkinchi bosqich – rushadiya deb atalgan. Har ikkala bosqich to'rt sinfdan – sakkiz sinfni tashkil etgan.

Ibtidoiy qismning birinchi yilida forscha va arabcha yozuv va o'qish o'rgatilgan. Suralar yod olinib, hisob bilimlari berilgan. Ikkinchi yilida haftiyak, imon va e'tiqoddan dars berilgan, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yili Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisob darslari ham davom ettirilib, turli taqsimot va ish yuritish kabi jihatlar o'rgatilgan. To'rtinchi yilda esa Kalomu sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob, tarix, jug'rofiya o'qitilgan. Bu maktabni tugatgan o'quvchilar boshlang'ich bilimlarga ega bo'lib, xohlasa ikkinchi bosqich maktabida o'qishni davom ettirishi mumkin va shu bilimlar bilan bog'liq xizmatlarda ishlashi mumkin bo'lgan. Ammo ikkinchi bosqich – rushadiyada o'qitiladigan fanlar birinchi bosqichdagi fanlarga nisbatan birmuncha murakkabroq, o'qish jarayoni ham chuqurroq mazmunga ega bo'lgan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy maktabining rushadiya qismida dastlabki bosqichda – birinchi yili – arab tili, jug'rofiya, shifohiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo, islom tarixi, Sa'diyning “Guliston”, turkiy til o'qitilgan. Ikkinchi yili – arab tili, shifahiya, tarix, islom, axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi o'qitilgan bo'lsa, uchinchi bosqichda arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix, turkiy til, rus tili o'qitilgan. To'rtinchi yili esa arab tili, rus qozixona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa shu kabi ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan. Shuningdek, jadidlar maktablarda darslarning ona tilida o'qitilishiga alohida e'tibor berishgan. Ona tilida dars o'tish o'quvchilarda darsni o'zlashtirishni osonlashtirish bilan birga ularda milliy ma'naviyatni saqlab qolishni nazarda tutgan jadidlar “...ta'lim tizimida ona tilini chuqurroq o'rgatish, ona tilidagi darslarni ko'paytirish, boshqacha aytganda, o'quv dasturida ona tilidagi darslar nisbatini oshirish, ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, oxir-oqibatda esa bu yoshlarda milliy-

ozodlik kurashi uchun zamin hozirlaydi”, deb hisoblaganlar”¹²³. A.Avloniy tili bilan aytganda esa, “milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmak”, edi.

“Usuli jadid” maktablarining deyarli barchasida har bir dars yarim soatdan bir soatgacha rejalashtirilgan. Darslar orasida o‘n daqiqalik tanaffuslar berilgan.

Darsni o‘tishda har bir mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi hisobga olingan holda keyingi dars tashkil etilgan. Bolalarning iqtidori, qobiliyatiga katta e’tibor qaratilgan. Har olti oyda imtihonlar topshirilgan, imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘quvchilar o‘qishni davom ettirgan. O‘zlashtira olmagan o‘quvchilar albatta sinfdan qoldirilgan. Bu esa ijobiy samara berib, boshqa o‘quvchilarning darsni qoldirmasliklari va yaxshi o‘qishga intilishlarini oshirgan.

Jadid maktablarida dars o‘tish usulining muhim jihati shundaki, bu usul “usuli savtiya” – “harf-tovush usuli” deb nomlanib, dars o‘tishning yengil va samarali usuli sifatida qo‘llanilgan. Bunda bolaga birinchi darsdan boshlab harflar bittalab, navbatma-navbat o‘rgatilgan. O‘rgatishda harfning avval aytilishi, uning tovush chiqarish jarayoni, so‘ngra uning yozilishi va so‘zda qo‘llanilishi o‘rgatilgan. O‘rgangan harf ishtirokidagi kichik hikoyalar, maqol, ertak, topishmoq va masallar orqali harfning o‘qilishi va yozilishi bo‘yicha olingan bilim mustahkamlangan.

Bu maktablarning jihozlanishi asosan, Yevropa andozasida edi. Shu o‘rinda Ishoqxon Ibratning 1907-yilda o‘z uyida tashkil etgan yangi maktabini tasvirlash orqali o‘sha davr “usuli jadid” maktabi haqida qisman bo‘lsa-da tasavvur hosil qilamiz, ya’ni u maktablar yorug‘, derazali xonaga joylashgan bo‘lib, u yangicha o‘quv qurollari – parta, stol, stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan jihozlangandi. Jadidlar o‘qitishda garchi rus-yevropa ta’lim tizimi tajribalariga suyansalar-da, o‘qitiladigan fanlar qatoridan diniy fanlarni ham o‘qitish orqali yoshlarda milliy-diniy tarbiyani shakllantirishni ko‘zda tutdilar. “Usuli jadid” maktablarining eng muhim jihati ham shundadir.

Jadid maktablarini darsliklar bilan muntazam ta’minlaydigan markazlashgan muayyan matbaa va kutubxonalarning yo‘qligi sabab, muallimlar o‘zi tashkil etgan

¹²³Jabrdiyda yozuvchilar adabiy merosi mustaqillik xizmatida. Ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: Fan, 2013.- B. 92-93.

maktablar uchun o'zi darslik yozishi yoki albatta shunday darsliklarni izlab topishga majbur edilar. Chunki chet ellardan kirib kelgan darsliklarning aksariyati tatar, turk, ozarbayjon kabi tillarda edi. Tatar, ozarbayjon, turk ma'rifatparvarlari asarlaridan foydalanishning o'ng'aysizligi, bu tillarda yaratilgan adabiyotlarni o'qish, ulardan yetarlicha foydalanishning qiyinligi sabab, turkistonlik jadid ma'rifatparvarlarining o'zlari ham endi mahalliy bolalar uchun tushunarli asarlar, darslik va qo'llanmalar yaratishni boshlab yubordilar. Ular milliy uyg'onishning asosini ta'limni, o'quv dasturlarini isloh qilishda ko'rdilar. Maktab islohotida jadid ma'rifatparvarlarining murabbiylik faoliyatidan tashqari ijodiy salohiyati ham muhim o'rin egalladi.

Darsliklarning dastlabkisi garchi Munavvar Qori tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, keyingi yaratilgan darsliklarning ko'pchiligiga S.Aziziyning "Ustodi avval" darsligining ta'siri bo'ldi. Barcha maktabdorlar ham o'z maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga muvaffaq bo'lolmagan, shuning uchun ba'zi maktablarda yangi darslik o'rniga eski darsliklardan foydalanish davom etgan. Ammo aksariyat "usuli savtiya" maktabi tashkil etgan maktabdorlarimiz o'zlari qunt bilan darslik tayyorlashgan. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklar asosan o'zbek, arab va fors tilida bo'lib, bolalarning yoshi hisobga olingan holda oddiydan murakkabga tomon borish prinsipiga amal qilingan. Bunda dastlab harflarning ko'rinishi alifbo tarzida beriladi, so'ngra yozilishi qo'llanilish joyiga qarab, ya'ni harf so'zning qaysi joyida kelayotganini hisobga olgan holda shu harf qatnashgan ixcham, sodda usuldagi, bolalar yoshi va tarbiyasiga qaratilgan axloqiy, milliy va tarbiyaviy mazmundagi hikoyalar beriladi.

Hikoyalar xalq og'zaki ijodi, Sharq allomalari asarlaridan, shuningdek rus adabiyoti vakillari asarlaridan samarali foydalanib yaratilgan, ulardan chiqarilgan hissa bilan yakunlangan. Masalan, A.Avloniy qalamiga mansub "Ikkinchi muallim"da shu holatni ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, adibning bir qator hikoyalarida Navoiyning mashhur "Hayrat ul-abror"i, Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston"i ta'siri ochiq ko'rinib turadi. Poshshaxo'janing "Miftoh ul-adl", "Gulzor" to'plamlaridagi ma'lum va mashhur hikoyalarni qayta ishlash, davrga moslashtirish seziladi. Darsliklarda rus yozuvchilari L.N.Tolstoy, A.S.Pushkin va I.A.Krilov

asarlardan namunalarni uchratish mumkin. Jadid mualliflari darsliklarni tayyorlashda ba'zi rus pedagoglari darsliklaridan ham foydalanishgan. Shuningdek, jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklarda xalq og'zaki ijodi va chet el yozuvchilari asarlaridan tashqari ularning o'zlari yaratgan turli hikoya, maqol, topishmoqlarni ham uchratishimiz mumkin. "Hikoyat, rivoyat, she'r va to'rtliklar ham bitib, darsliklarni kiritganlar. Jumladan, S.Ayniy ham "Tartib us-sibyon" darsligining "Aqlli bola" bobida bolalarni saxiylik ruhida tarbiyalovchi she'r yozadi". S.Aziziyning "Ustodi avval" kitobiga xalq og'zaki ijodidan tashqari o'zi tomonidan yaratilgan "Ilmsiz aql – yengsiz kiyim", "xat yozmoq – yarim ilm", "Yod olgan yo'qolur, yozilsa yo'qolmas" kabi maqollar ham o'rin olgan. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklarga kiritilgan hikoya, she'rlarda bola tarbiyasi bilan bog'liq tarbiyaviy g'oyalar aks etsa-da, ba'zan ular orasida erk va ozodlik nafasi ufurib turgan she'r va hikoyalarni ham uchratishimiz mumkin edi.

Xullas, jadidlar tashkil etgan maktablar o'z davri uchun haqiqatan ham yangi usuldagi maktablar bo'lib, Turkiston tarixida tub burilish yasadi. Bu maktablar bir yangilik, taraqqiyotning ilk debochasi sifatida jaholat va xurofotga botgan, tunday qora Turkiston jamiyati uzra oppoq tongdek kirib keldi. Chunki bu maktablar asrlar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotdan uzilib qolgan xalqning qalbida kelajakka umid va ishonch uyg'ota oldi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq // "Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktabr.
2. Jabrdiyda yozuvchilar adabiy merosi mustaqillik xizmatida // Ilmiy maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2013.

JADIDLAR ME'ROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Raxmonberdiyev D.O'.

O'zbekiston milliy universiteti Tarix fakulteti

“O'zbekistonning eng yangi tarixi”

kafedra stajyor o'qituvchisi

Har qanday sohada yangilik qilish, ijodkorlik namoyon etish, sohani yuksaltirish muhim vazifadir. Bugun jadidchilik tushunchasi asosiy diqqat markaziga chiqib turibdi. Buning sababi aynan yangilik qilish, millat tafakkurini yuksaltirishdir. Toshkentda 2023-yil 11—12-dekabr kunlari “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusida ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Uchrashuvda olimlar Temur Xo'jao'g'li, Adib Xalid, Hisao Komatsu, Zaynobiddin Abdirashidov va dunyo bo'ylab mashhur tarixiy seriallar muallifi Mehmet Bo'zdog' ishtirok etdi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu konferensiya ishtirokchilariga o'z tabrigini yo'llab quyidagi jummalarni aytib o'tdi. “Taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojida o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega.

Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar.

Bugungi kunda jadidlar orzu qilgan ozod mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Haqiqatda, milliy g'oya, millat tafakkurining eng ilg'or

namunalarini aks ettirgan darslik va qo'llanmalar tuzish, xorijiy tillarni mukammal bilish, kasb-hunar o'rgatishni joriy etish kabi tamoyillar o'z davrida jadidchilik vakillarini o'ylantirgan va ularning bu yo'ldagi bevosita sa'y-harakatlari faoliyatimizning zamonaviy intellektual taraqqiyoti poydevoriga zamin yaratishga xizmat qildi.

Ma'lumki, Turkistonda jadidchilik harakati boshqa mintaqalar, xususan, Kavkazorti, Volgabo'yi, Uraloldi hududlariga nisbatan keyinroq rivoj topdi. O'lkada jadidchilik harakatini vujudga kelishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda jadidchilik harakati maorif madaniyat, matbuot hamda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Jadidchilikning zamirida xalqni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, Sharqqa nisbatan ancha ilgarilab ketgan G'arb ma'rifati va madaniyatini targ'ib qilish, shu bilan birga rus hukumati bilan murosa-hamkorlik yo'lini tutib, fursat tug'ilganda mustaqillikka erishish kabi ezgu maqsadlar yotardi.

XX asr boshlari o'zbek xalqi hayotida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Jadidchilik harakati vakillari asoratga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifat ekanligini to'liq anglab yetdilar, maorif va ta'lim-tarbiyani tubdan o'zgartirish, yangi maktab tuzish masalalarini asosiy o'ringa ko'tardilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hoji Mu'in kabi dovyurak ajdodlarimiz milliy g'oyani barqaror kuchga aylantirishda keskin harakat qildilar, kurashdilar. Ularning g'oyalari xalqimizni ma'rifatli qilish, o'zligini anglashga tayyorlash va shu yo'l bilan milliy ozodlikka erishishni ta'minlashdan iborat edi.

Toshkentning Shayxovand Tahur, keyinchalik shaharning boshqa turli dahalarida birinchi "usuli jadid" maktablari ochildi. Munavvar qori Abdurashidxonov bunday maktablarning kundalik o'kuv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitirish imtihonlarini uyushtirishgacha, "usuli savtiya" metodini iqtidorli yosh o'qituvchilarga o'rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va qo'llanmalar

bilan ta'minlashgacha va yangi darsliklar yaratishgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni boshqardi.

Munavvar qori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida o'zi tuzgan o'quv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtihonlar tashkil qilgan. Imtihonlarga o'quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto o'lkada katta e'tibor qozongan olimu shoirlarni, ma'rifatli boylarni ham taklif qilgan.

“Usuli jadid” maktablarida qo'llash uchun mahalliy mualliflarning darsliklari hali yo'q darajada yoki yetarli emas edi. Atoqli maorifchi, Turkiston o'lkasidagi o'quv-tarbiya ishlariga islohkirita olgan ilg'or ziyoli Saidrasul Saidazizovning qiroat usuli qo'llanilgan “Ustodi avval” alifbo darsligi nihoyatda kam miqdorda nashr qilinib, hatto rus-tuzem maktablari uchun ham yetishmas edi. “Usuli jadid” maktablarida Majid Qodiriy tomonidan yaratilgan va 1910 yilda nashr etilgan “Hisob” darsligiga qadar Qozonda, Turkiyada nashr qilingan matematika bo'yicha turli darsliklardan foydalanilar edi.

O'qituvchi inson farzandini haqiqiy kamolot sari yetaklaydi. Har qanday jamiyatning inqiroziyu tanazzuli, ravnaqiyu istiqboli uning maktabga, ta'lim-tarbiyaga va ayniqsa, o'qituvchiga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi. “Usuli jadid” nomini olgan “usuli savtiya” (tovush meto- di)ga asoslangan maktablarda milliy ma'naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o'rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda o'z ona tilida ta'lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini asoslarini o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita ona tili va milliy adabiyot deb bildilar. Milliylik masalasi Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Jadid mutafakkirlari faoliyati zamirida mustamlakachilikka qarshi maqsadlar, milliy istiqbol g'oyasi yotar ediki, bu g'oya oq va qizil imperiyaga birday ma'qul emas edi. Sho'rolar hukumati ularga qarshi nihoyatda dahshatli ham jisman, ham ma'nau yo'q qilish siyosatini olib bordi va yigirma yil ichida ularning deyarli hammasi qatag'on qurboni bo'ldilar.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan shiddatli raqobatga faqat innovatsion-kreativ yutuqlarni keng targ'ib qilish hamda ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy meros orqali munosib javob berish strategik vazifa sifatida kundalik faoliyatimizda ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Binobarin, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy meros yosh avlodni tarbiyalashda biz, avlodlarga g'urur bag'ishlaydi va insonlar qalbidagi Vatan mehri oliy qadriyat ekanini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh. M. Mirziyoyev. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusida ilmiy konferensiya ishtirokchilariga tabrigi.
- 2.Qosimov B. Milliy uyg'onish. T, Ma'naviyat, 2002, - B. 6-8.
3. Afandizoda. Munavvar kori. Yosh Turkiston, 1934, № 50.

YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYA G'OYALARI RUHIDA TARBIYALASHDA AVLONiy MEROSINING AHAMIYATI

Ne'matova G.B.,

*Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
"Sharq filologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

Sultonova F.T.,

*Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
Filologiya fakulteti "Jurnalistika" yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA: Maqolada buyuk ma'rifatarparvar A.Avloniyning pedagogik merosi va uning yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyalari ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, axloq, tarbiya, uzluksiz tarbiya, ma'naviy tarbiya, ma'rifiy tarbiya, axloqiy tarbiya, axloqiy fazilat, shaxs kamoloti.

Tarixning turli bosqichlarida ham insonning ruhiy-ma'naviy kamolotiga jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida qarab kelinadi va ilg'or tafakkur sohiblari bu borada hamisha bilim va tajribalar asosida turli ko'rinishdagi targ'ibot ishlari olib borishadi. Yosh avlodga mukammal ta'lim-tarbiya berish orqali kelajak farovonligini kafolatlashga undashadi. Zotan, inson yaralganidan buyon uning ruhiy-ma'naviy barkamolligi, yetuk ta'lim-tarbiyasi eng muhim muammolardan

bo'lib kelmoqda. Shaxs kamoloti, ruhiy pokligi birlamchi o'rinda bo'lmagan jamiyat inqirozga yuz tutishi esa achchiq tarixiy haqiqatlardandir.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashabbusligida ta'lim vazirliklari va qator hamkor tashkilotlar ishtirokida shakllantirilgan mazkur "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" zamonaviy tarbiya tizimining dolzarb muammolari yechimiga qaratilgan amaliy loyiha bo'lib, uning maqsad va vazifalari bilan bog'liq talablari ijrosida tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari: oila, ta'lim tizimi, mahalla, huquq-tartibot organlari vakillari birdek mas'uldirlar¹²⁴. Zotan, buyuk ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya – biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir". Ushbu ilg'or qarashlarning himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lgan Abdurauf Fitrat ham o'zining axloqiy-ta'limiy g'oyalari orqali "Har bir mamlakatning tole'si va taraqqiyoti yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya berilishiga har tomonlama bog'liqdir... Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling"¹²⁵, deya uqtiradi. O'z davrida zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan ushbu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan ushbu ulug'vor g'oyalar yosh avlod tarbiyasi bilan nafaqat oila, balki butun jamiyat va mamlakat shug'ullanishi mumkinligi va muhimligini, shaxs barkamolligi, ma'naviy tarbiyasi har doim ham ma'rifat ahli, mas'ullar uchun asosiy dolzarb muammo sanalib kelishini ko'rsatadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida buyuk allomalarimizning boy va betakror ma'naviy-ma'rifiy merosidan o'rinli foydalanish ham o'ziga xos samarador ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqida ta'lim-tarbiya borasida nihoyatda cheksiz xazina mavjud bo'lib, ularni chuqur o'rganish va mahorat bilan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriylarning ijodiy merosi, Yusuf Xos

¹²⁴O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qaror.

¹²⁵Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. /Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Ma'naviyat, 2006. – B. 34-96.

Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Ahmad Donishning “Farzandlarga vasiyat” asarlari, shular qatorida Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” hamda Abdurauf Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” va “Najot yo‘li” (“Rahbari najot”) asarlari ham uzluksiz tarbiya tizimining, barkamol shaxs tarbiyasining asosiy qo‘llanmalari vazifasini o‘taydi. Uzoq o‘tmish emas, birgina jadid ma‘rifatparvarlik harakati namoyondalari ijodiy merosi ham uzluksiz ma‘naviy tarbiya jarayonini maqsadli va manzilli tashkil etishda muhim manba bo‘la oladi. Binobarin, pedagogik va filologik tadqiqotlar orqali chuqur tavsiya qilib kelinayotgan axloqiy va ta‘limiy xarakterdagi “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining o‘zi ham aynan insoniy xulq-atvor masalalari, mukammal shaxs tarbiyasiga qaratilganligi bilan didaktik ahamiyatlidir.

A. Avloniy yaxshi va yomon xulqlar borasida batafsil izoh berilgan yuqoridagi asarida tajribali pedagog sifatida inson tarbiyasiga go‘dakligidanoq jiddiy e‘tibor qaratish zaruratini ilgari suradi. Alloma bola tarbiyasi borasida fikr yuritarkan, ushbu mulohazalarni muhim sanaydi: “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur”. Avloniy ta‘kidicha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar katta ahamiyatga ega. Shu asosda u bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi bo‘limlarga ajratadi va ularning ahamiyatini tavsiflaydi:

1. *Tarbiyaning zamoni.* Ushbu bo‘limda Abdulla Avloniy tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta‘kidlaydi: “Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq”, deb hisoblaydi adib.

2. *Badan tarbiyasi.* Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma‘noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozimligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma‘rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur:

“Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

3. *Fikr tarbiyasi.* Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog‘lom qilib o‘stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikri, tafakkuri tarbiyasini o‘qituvchilar faoliyatiga bog‘laydi: “Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”. Shu o‘rinda alloma ta‘lim va tarbiya jarayoni uzviy bog‘liq ekanini ham ta‘kidlab, jumladan shunday deydi: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur”.

4. *Axloq tarbiyasi.* Risolada ushbu masalaga nihoyatda keng o‘rin ajratilgan. Alloma insoniy xulqlarni yaxshi va yomon toifalarga ajratadi va har biriga alohida tushuntirish berib o‘tadi va fikr-mulohazalarini hayotiy misollar orqali dalillashga harakat qiladi. Chunonchi, yaxshi xulqlarni shunday izohlaydi: “Yaxshi xulq – bir qismi o‘z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, sadoqat, muhabbat va afvdur”. Yomon xulqlar esa quyidagicha keltiriladi: “Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgon, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimizda masmum bo‘lgan axloqi zamimalar: g‘azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, raxovat, anoniyat, adovat, namimat, g‘iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, ta‘ma, zulmdur”, deydi va ularning har biri borasida alohida to‘xtalib, ularning mazmun-mohiyatini, ijtimoiy zaruratini yetarlicha asoslab beradi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” risolasida Avloniy, shuningdek, har bir kishi o‘z vazifasiga sadoqat bilan kirishishi, agar u murabbiy bo‘lsa, o‘z shogirdlarining

ko'ngliga ma'rifat ishqini solishi, xalq o'rtasiga ma'rifat tarqatishi zarurligini ta'kidlaydi, ilm-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi: "Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmoq, xalqga maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanadur. Mol topmoqning eng barakatli yo'llari: hunarmandchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur... Ameriqoliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq olurlar. yevropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan turkistonliklar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz", deya Avloniy kuyunchaklik bilan "hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmoq uchun ilm va ma'rifatni egallashimiz kerak", degan shiorni o'rta tashlaydi¹²⁶.

Bundan tashqari, mutafakkir o'zining boshqa bir qator badiiy-publitsistik asarlarida ham ma'naviy-axloqiy masalalarni qalamga oladi. Bu borada adibning dramaturglik faoliyati va dramatik asarlari alohida o'rin tutadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Abdulla Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda "Turon" nomli teatr truppasini tashkil qiladi. Siyosiy mustamlakachilikka qarshi o'laroq, allomaning teatr tashkil qilishi va ijtimoiy mazmundagi pesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi.

Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi: "Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki muhabbat", "Portug'oliya inqilobi" kabi dramalar yozdi, "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin", "Jaholat", "O'liklar" kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi". Ammo muallif turli sabablar bilan bu asarlarni nashr qildira olmaydi.

Bilamizki, Avloniy 1917-yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan

¹²⁶Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004, 64-bet.

namoyondalaridan edi. Ma'rifatparvar ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "Usuli jadid", ya'ni yangicha ilg'or usuldagi maktablar ochadi va bu maktablarda xalq bolalari o'qitiladi. Jadid ma'rifatparvarlari o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qilishadi va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatishadi. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobi "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomi hisoblanadi. Tadqiqotchilar adibning birinchi kitobini, shartli ravishda, "alifbe" deb, ikkinchi kitobini esa "xrestomatiya" deb atashni ma'qul ko'rishadi. Ushbu kitoblar bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq bo'lib, o'quvchining yosh va fiziologik xususiyatini e'tiborga olgan holda, soddadan murakkab sari o'sish uslubida yozilgan. Dastlab o'quvchiga maktab va uning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati xususida fikrlar va she'rlar beriladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, Avloniyning serqirra ijodiy merosi, uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining muhim didaktik manbasi sifatida qimmatli ahamiyatga ega. Ta'lim va tarbiyaning turli bosqichlarida mazkur asarni keng va atroflicha o'rganish, unda ilgari surilgan axloqiy g'oyalarga amal qilish o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi. Ushbu ma'rifiy risolalar asosida amaliy qo'llanmalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqish didaktik faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun ham muhim tarbiya qo'llanmasi vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qaror.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. /Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Ma'naviyat, 2006.

MUNDARIJA

Xudayberganov K. B. Jadidchilik harakatining o'zbek milliy ma'naviy taraqqiyotida tutgan o'rni	3
Agzamxodjaev S.S. Jadidlarning ma'rifat va davlatchilik taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....	14
Alimov Sh.Q. Mahmudxo'ja Behbudiy va turkistonda milliy- davlatchilik qurilishi masalalari	20
Madraximova G.S. Jadidlar harakati xorij olimlari nigohida.....	27
Tojiboev M.T., Razakov D.X. Jadid Munavvar qori Abdurashidxonov.....	31
Abdurahimova D.A. Cho'lpon ijodida vatan, xalq va inson talqini.....	38
Abduxaliqov S.O. CHor Rossiyasining "aralashmaslik" siyosati va jadidchilik.....	45
Mirzayev.D. Jadidlarning harbiy sohaga oid qarashlari.....	51
Xasanov A.O. Sovetlarga qarshi kurashda jadidlarning xalqaro hamkorlik aloqalari tarixidan	58
Yo'ldashev A.A. Turkistonning tarixiy siymolari jadidlar talqinida.....	66
Abdurahimova D.A. Jadidlarning markaziy osiyoda ijtimoiy-madaniy sohalar islohotiga qo'shgan hissasi.....	73
Nomuratova M.K. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar.....	79
Xudaynazarov S.X., Berdikulova S.A., Jadidlar ma'rifat, ozodlik, taraqqiyot kuychisi.....	83
Abduolimov I.I., Turkistonda jadidlar harakatining rivojlanishi va unda g'ozi yunusning tutgan o'rni.....	93
Nasriddinov A. Jadidlar ma'naviy jasoratining yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	100
Xaitov Dj. E. Mahmudxo'ja Behbudiy turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi.....	104
Mamatqobilov T.D. Jadidchilik harakatining ma'naviy taraqqiyotimizdagi o'rni.....	111
Nuriddinov M.S. Mamedov. B. Jadidlar g'oyalarida istiqlolchilik omillarining mohiyati.....	117
Xaydarov F.I. ta'lim va tarbiya rivojida jadidchilikni o'rni.....	123
Mirashirova N.A. Abdulla Avloniy asarlarida axloqiy tarbiyaning ahamiyati.....	129
Karimova. F. Cho'lpon va milliy til qayg'usi.....	137
Ertayev Sh. I. Jadidlar an'analarida tarbiyaning tutgan o'rni	142

Воронцова Н.В. Просветительская деятельность джадидов.....	147
Туленова К. Ж. Мирзаева М. Некоторые прогрессивные идеи мыслителей центральной Азии.....	154
Xodjayeva D.Yu. Tog'ayev Q.Sh. Uchinchi renessans poydevorini yaratishda jadidchilik harakatining o'rni.....	158
Yusupov A. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.....	162
Erkinov I.E. Abdulla Avloniy milliy madaniyat, ilm- ma'rifatning buyuk namoyandasi.....	168
Ахмедов Х. Шовкатова А. Философская культура в молодёжной интеллектуальной среде.....	173
Murodov A.I Jadid ma'rifatparvarlarini ta'lim sohasidagi qoldirgan boy merosini o'rganishning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati	179
Aminova N.B. Maxmudiyorov M.A. Ta'lim tarbiya va ma'naviyat.....	184
Ashurmatov M.K. Jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik harakati sifatida.....	187
Isayeva M.R. Mangulikning yorqin yulduzi	195
Raximov S. K. Munavvar qori Abdurashidxonovning milliy maorif rivojidagi o'rni.....	201
Yulchiyev A.M. Erkinov N.E. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va ahloqiy-huquqiy qarashlari yangi O'zbekistonning barpo etish strategiyasi bilan hamohangligi.....	207
Nuralieva A. Yusupova N. Umumta'lim maktab darsliklarida jadid adabiyotining o'qitilishi.....	212
Mamadjonova M. Q. Abdikarimova M. Sh. Jadidlar axloqiy qarashlarining yangi o'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan hamohangligi.....	224
Eshanova G. N. Shirinboeva N.M. Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadidlar ilmiy merosining o'rni	230
Tillavoldieva M.X. Baxramova F. B. Maxmudov A. S. Yangi O'zbekiston milliy taraqqiyotida jadid g'oyalari tutgan o'rni masalasiga doir ayrim mulohazalar.....	234
To'yeva M. Sh., Abdumutalova Sh. A., Jadidlar merosining bugungi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi o'ziga xos jihatlari.....	239
Saidahmatova S.U. Samandarova S. Raqamli sivilizatsiyalar sharoitida gumanitar ta'lim transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	244
Ne'matova G.B. Normatova N.O. Yangi usul maktablarining shakllanishi va ulardagi o'qitish metodikasining o'ziga xos jihatlari.....	248
Raxmonberdiyev D.O'. Jadidlar me'rosining bugungi kundagi ahamiyati...	253
Ne'matova G.B. Sultonova F.T. Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyalari ruhida tarbiyalashda avloniy merosining ahamiyati.....	256
MUNDARIJA	262

**A5 Formatda. Tayms Garniturası. Chop etishga ruxsat 2024 y. 5.06. etildi.
Adadi 2 nusxa. Buyurtma № 15. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani,
Parkent ko'chasi 21 uy. 100023. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi bosmaxonasida chop etildi.**